

R.MAVLONOVA, N. RAXMONQULOVA,
B. NORMURODOVA

TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**R. Mavlonova, B. Normurodova,
N. Rahmonqulova**

TARBIYAVIY ISHLAR METODIKASI

**O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazrligi
tomonidan pedagogika yo‘nalishi talabalari uchun
o‘quv qo‘llanma sifatida ma‘qullangan**

«Tib-kitob» nashriyoti
Toshkent – 2010

UDK: 615 (575.1)

74.200

M.13

R. Mavlonova, B. Normurodova, N. Rahmonqulova, «**Tarbiyaviy ishlar metodikasi**» o'quv qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Toshkent: «Tib kitob» nashriyoti, 2010. 216 bet.

BBK 74.200ya73

Ushbu qo'llanmada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish mazmuni, maqsad va vazifalari; sinf rahbarining ish faoliyati, sinf jamoasini o'rganish, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish; o'quvchi ma'naviyatini shakllantirishda ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining vazifalari; maktab, oila va mahalla hamkorligi ishlari; tarbiyaviy tadbirlarning o'quvchi tarbiyasidagi o'rni kabi masalalar keng yoritib berilgan. Shuningdek, unda tajribali o'qituvchilar ishlaridan saralangan metodik tavsiyalar, tarbiyaviy tadbirlardan namunalari o'z aksini topgan.

Mazkur qo'llanma pedagogik yo'nalishdagi oliy o'quv yurti talabalariga, umumta'lim maktablari o'qituvchilariga, ota-onalarga va barcha qiziquvchilar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

p.f.d., professor N.Fayzulina;

p.f.n., dotsent X. Sanaqulov

ISBN-978-9943-348-12-7

№ 741-4066

©«Tib kitob» nashriyoti, 2010 y

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi Qomusi sahifalarida har bir fuqaroning ilm olish, o‘z ijodiy kuch va qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirish ta’kidlanadi. Hozirgi zamon maktabi tubdan yangilanmoqda. Mamlakatimizda “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunning qaytadan ko‘rib chiqilganligi maktabning buguni va kelajagiga umid bilan qarashga undaydi.

Yosh avlodga tarbiya berishdek murakkab vazifani hal etishda maktab juda katta ahamiyat kasb etadi. Ayni shu joyda yoshlarimiz ijtimoiy jamiyat va ilmiy texnika taraqqiyoti talablariga javob bera oladigan mukammal ma’lumotlarni oladilar. Maktab yoshlarning dunyoqarashlariga poydevor hamda g‘oyaviy e’tiqodlari uchun negiz yaratadi, ularning irodalarini shakllantiradi, xalqimiz baxt-saodati yo‘lida sidqidildan mehnat qilishga tayyorlaydi.

O‘quvchilarga tarbiya berish ularga ta’lim berish bilan mustahkam va yaxlit birlikda amalga oshiriladi. Ammo, tarbiyaning o‘z vazifasi, mazmuni, shakl hamda uslublari bor. O‘quv-tarbiyaviy jarayonning uzviyligi maktab oldiga qo‘yilgan eng muhim pedagogik qoidalardan biri hisoblanadi, shuning uchun ham sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar bevosita o‘quv jarayoni bilan bog‘langandir. Darsdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilarda asosiy vazifalari bo‘lmish ilm olishga ishtiyoq uyg‘otish, qobiliyati va iste’dodlarini ro‘yobga chiqarishga imkoniyat yaratishdan, maktabni muvaffaqiyatli tugatish, kasb-korga intilish hissini tarbiyalashdan iboratdir. Yoshlarning kundalik ehtiyojlari, intilishlari, talab va qiziqishlarini faqat dars jarayoni bilan qondirib bo‘lmaydi. Sinfdan va maktabdan tashqari mashg‘ulotlar o‘quvchilar faoliyatining barcha qirralarini qamrab olmog‘i lozim. Har bir o‘quvchi bilan yakkama-yakka ishlash, uni ijtimoiy-ruhiy jihatdan o‘rganish sinf faoliyatiga yangicha mazmun olib kiradi.

Yoshlarning g‘oyaviy-siyosiy ongini shakllantirish, ularda atrof-muhitga, jamiyatga ongli munosabatda bo‘lish, jonajon Vatanini cheksiz sadoqat bilan sevisht, xalqimizning milliy qadriyatlarini e‘zozlash hissini tarkib toptirish – vatanparvarlik tarbiyasining mag‘zi bo‘lmog‘i lozim.

I bo‘lim. SINFDAN VA MAKTABDAN TASHQARI TARBIYAVIY ISHLAR

1.1. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari

O‘zbekiston Respublikasining istiqloлга erishuvi hamda o‘z mustaqil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo‘liga ega bo‘lishi xalq xo‘jaligining turli sohalarida, jumladan xalq ta‘limi tizimida ham o‘sib kelayotgan yosh avlod ta‘lim-tarbiyasi bilan bog‘liq jarayonni qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

Hozirgi paytda fan va madaniyatning eng so‘nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo‘lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarni izlash nihoyatda zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ma‘naviyat va ma‘rifat” jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi farmonida ko‘rsatilganidek, jamiyatda yuksak ma‘naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimiz, tarixiy an‘analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloл g‘oyalariga sadoqat ruhida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning hal qiluvchi omilidir.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish, avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo‘nalishlarini topib joriy etishga bog‘liq. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo‘lgan barcha g‘oyalar qaytadan ko‘rib chiqilishi, asosiy e‘tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to‘plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish lozim.

Tarbiyaviy ishlar huquq-tartibot organlari, ijodiy uyushmalar, Davlat va nodavlat jamg‘armalari, qo‘mitalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda olib boriladi.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanib boradi. Uning tarbiyasiga ota-onasi,

maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokozolar bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi barcha hayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirishda o'zaro hamkorlikning ta'sir doirasi orqali shaxsni tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta'minlagan holda, uning shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhitdan himoya qilish juda muhim.

Tarbiyaning bosh maqsadi – yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy-tarixiy an'analarga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarini ishlab chiqib amalga joriy etishdir.

Tarbiyaning asosiy vazifasi – shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi hamda uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun keng imkoniyat yaratishdir.

Xullas, tarbiyaning negizida quyidagilar yotadi:

– yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishiga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondashuv, ularda reja va amal birligi hissini uyg'otish;

– o'quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy ma'naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish va estetik tushunchalarini shakllantirish;

– har bir o'smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish. Inson faoliyatini turli sohalarga yo'naltirish, bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoit hozirlash;

– insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish (bir-birini tushunish, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga toqatsizlik), muomala odobi kabi tarbiya vositalari (sohaqlikka, yolg'onchilik, tuhmat, chaqimchilikka toqatsizlik) keng qo'llanishi lozim.

– vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda

yashayotgan odamlar bilan o‘zaro munosabat-muloqotni o‘rganish, o‘z xalqi, davlati himoyasi uchun hamisha shay bo‘lib turish, O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash, yosh avlodni O‘zbekiston Konstitutsiyasiga, Bayrog‘iga, Gerbiga, Madhiyasiga, Prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash;

– qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas‘uliyat hislarini rivojlantirish, o‘zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoyilik, ekologik ta‘lim-tarbiya;

– mustaqil davlatimiz – O‘zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to‘g‘ri va xolisona baho berishga o‘rgatish. Uning tinchliksevarlik, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, oshkora-ochiq tashqi siyosatiga va o‘z xalqining turmush darajasini oshirishga yo‘naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatini to‘g‘ri tushuntirish kerak;

– turmushda eng oliy qadriyat hisoblanmish mehnatga ijodiy yondashish fazilatlarini shakllantirish;

– sog‘lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila sohibi bo‘lish istagini shakllantirish;

– yoshlarimizni erkin mustaqil fikrlashga o‘rgatish.

Tarbiyaning asosiy tizimi quyidagicha bo‘lishi lozim :

– tarbiyalanuvchi shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o‘smir va yosh yigit-qizning betakror va o‘ziga xosligini hurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini e‘tiborga olish;

– yoshlarda istak va imkoniyat muvofiqligi tuyg‘usini qaror toptirish;

– milliylikning o‘ziga xos an‘analari va vositalariga tayanish;

– shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o‘quvchilar o‘rtasidagi bir-biriga hurmat munosabatlari, bolalar fikriga e‘tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo‘lish.

Amalda tarbiyaviy jarayonning yaxlit va uzluksiz ishiga turli

yoshdagi bolalarni qamrab olishga alohida ahamiyat berish lozim.

O'smir yigit va qizlar nafaqat bo'lg'usi katta hayotga tayyorgarlik ko'radilar, balki ana shu haqiqiy hayot bilan yashaydilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning qiziqishi, istaklari, xohish va ehtiyojlariga suyangan holda, ularning darsdan bo'sh vaqtlarida o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi. U o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinfdan tashqari ishlarning o'ziga xosligi shundaki, to'garak, klub dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o'smir yigit-qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

1.2. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi

“Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasi” Xalq ta'limi vazirligi tomonidan 1993-yili tasdiqlangan edi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida qabul qilingan “Ta'lim to'g'risida”gi Qonun va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ni, ular asosida ishlab chiqilgan hukumat va vazirlik qarorlarini hayotga tatbiq etish, ta'lim sohasini tubdan isloh qilish maqsadida mazkur Konsepsiyani qayta ishlashga to'g'ri keldi. Yangi tahrirdagi Konsepsiya Qori Niyoziy nomidagi O'zPFITI olimlari guruhi, Respublika Ta'lim markazi mutaxassislari va Xalq ta'limi vazirligi xodimlari tomonidan ishlab chiqildi.

Shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga yo'naltirilgan ushbu Konsepsiyani tayyorlashda Xalq ta'limi xodimlari va keng jamoatchilik fikrlari inobatga olindi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar Konsepsiyasining zaruriyati. O'zbekiston Respublikasining istiqbolga erishuvi hamda o'z mustaqil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo'liga ega bo'lishi xalq xo'jaligining turli sohalarida, jumladan xalq

ta'limi tizimida ham o'sib kelayotgan yosh avlod ta'lim-tarbiyasi bilan bog'liq jarayonni qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Hozirgi paytda fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nihoyatda zarurdir. Ayniqsa o'smirlar orasida axloqiy va ma'naviy jihatdan tarbiyaviy ishlarni kuchaytirish muhimdir. Zero, axloq yo'q ekan, inson ongli ijtimoiy shaxs bo'la olmaydi. Shuning uchun ham axloqiy tarbiya shaxsning har tomonlama va erkin shakllanishida asosiy o'rinni egallaydi.

Maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tarbiya-chilari (o'qituvchilar, sinf rahbarlari, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarlari, bolalar yetakchilari va boshqalar) jamoasi oldida o'quvchilarga umuminsoniy axloq qoidalari asosida hayot kechirishni o'rgatishdek muhim vazifa turadi.

Fanni o'rganishga muhabbat uyg'otish, bilimga tashnalik fazilatlarini axloqiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismidir. Bolalarning o'qishdagi muvaffaqiyatidan uning guruhdagi o'rnini aniqlanadi, atrofda qilarning u bilan munosabati belgilanadi, o'qishdagi muvaffaqiyat bolaning axloqiy tarbiyasini yuqori darajaga ko'taradi.

O'quvchilar qalbida yuksak ma'naviyatlilikni shakllantirishda kitob va kitobxonlikning ahamiyati beqiyosligini tushuntirish kerak. Kitob yoshlar uchun hayot maktabidir. Bilim manbai bo'lgan kitobni sevish, uni o'qish va ko'z qorachig'idek saqlay bilish lozim, o'qish uchun uni tanlay olish va o'qish madaniyatini bilish kerak. Bu ishda ustoz-u murabbiylar va kutubxona xodimlari yordam berishlari lozim.

1.3. Tarbiya maqsadini ishlab chiqish

Tarbiya – bu insonni ijtimoiy tajribalar bilan, uning barcha shakllarida bilim, his-hayajon, estetika, odob-axloq qoidalari bilan tanishtirish va individning ichki o'ziga hos jihatlarni, imkoniyatlari va layoqatlarini rivojlantirish bo'yicha faoliyat hisoblanadi. Mana

shu tarbiyaning asosiy manbai – shaxslar bo‘lib qoladi – bu jamiyat va individning o‘zidir. Tarbiyalanayotgan shaxs maqsadlari va qadriyatlarini tizimida individual va ijtimoiylik nisbatlari muammosi tarbiya nazariyasida markaziy muammo hisoblanadi. Jamiyat va shaxs bir-biri bilan qanday munosabatda bo‘ladi? Shaxs jamiyatdan tashqarida yuzaga kelmaydigan jonzot hisoblanadi, jamiyat esa o‘z navbatida shaxslardan tashkil topadi. U shaxslar o‘zaro munosabatlari jarayoni natijasi va jarayonining o‘zidan iborat. Shaxssiz jamiyat yo‘q va demak, jamiyat ularga bog‘liq bo‘ladi. Ba’zida, shaxsni mikrosotsitsi, jamiyatni esa makrosotsitsi, deb ataydilar. Bu bilan materiya harakatlanishining ijtimoiy shakli, ikki asosiy tarkibiy qismi to‘g‘risida gap borayotganligini ta’kidlaydilar. Shaxs va jamiyatning yaqin bir-biriga bog‘liqligi turli tomonlardan qaralishi mumkin. Biroq, shaxs va jamiyat bir narsa va bir xilda o‘xshash bo‘lishi nimasi bilan farq qiladi? Uning farqi hajmiga aloqador bo‘ladimi (kichik shaxs–katta jamiyat qabilida) yoki yana boshqa muhim farqi bormi, degan savollarga javob berish uchun o‘zaro bog‘liqlik mana shu doiradan chiqishi muhim. Mana shu ijtimoiy subyektlar funksiyalarining o‘ziga xosligi nimalardan iborat?

Shaxs jamiyat emas. U jamiyatda paydo bo‘lib, o‘zini amalga oshirish jarayonida madaniyatini o‘zgartiradi, ba’zan madaniyati rivojlanishida shunchalik ilgarilab ketadiki o‘n yillar, ba’zida hatto asrlar davomida jamiyat xotirasida qoladi.

O‘zida jamiyat madaniyatining in’omlarini mujassam etganligi sababli, shaxs ijtimoiy tajribani yangicha talqin qilishda, ma’naviy va moddiy qimmatliklarni yaratishda, qayta anglashda mustaqil avtonom bo‘lib qoladi.

Bunday shaxs o‘zining zamondoshlari uchun ma’lum bo‘lgan yoki begona tajribani olib kiradi, faqat vaqt o‘tishi bilan asta-sekin jamiyatga kirib boradi. Bunday shaxs o‘zini jamiyatga qarshi qo‘yishi, unga qarshi chiqishi va u bilan kurashishga kirishishi mumkin.

Jamiyat bu shaxs yoki shaxslar to‘plami emas. Jamiyat – bu qadriyatlar o‘z maktabini yaratadigan, har qanday subyektni xizmat qilishga majbur etishga intiluvchi, o‘zining mavjudligini saqlab qolish uchun shaxsni yutib yuborishga qodir, o‘zini harakatlantiruvchi ijtimoiy birlikdir. Shu bilan bir vaqtda, jamiyat

insonlar to'plagan madaniyatni saqlab qolish va odamga yetkazish usuli demakdir.

Shaxs va jamiyat ijtimoiy hayotning ikki asosiy subyekti sifatida ishtirok etadilar. Hatto eng qulay ijtimoiy sharoitlarda ham (hatto eng noqulay ijtimoiy sharoitlarda ham) ular birlashmaydilar va ular o'rtasidagi farq kamaymaydi. Ma'lum sharoitlarda ular bir-birlariga qarama-qarshi turishlari mumkin.

Tarbiya, jamiyatdagi hodisa sifatida, o'sib kelayotgan avlodning jamiyat hayotida, turmushi, ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati, ijodi va ma'naviyligida ishtirok etishi murakkab qarama-qarshi ijtimoiy-tarixiy jarayon hisoblanadi. Ularning odam bo'lishlari, rivojlanishlari va individualliklari, jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari muhim elementlari, shaxsiy baxtlarini yaratuvchilari bo'lib ishtirok etadi. U ijtimoiy taraqqiyot va avlodlar ketma-ketligini ta'minlaydi.

Tarbiya, ijtimoiy hodisa sifatida, uning mohiyatini ifoda etuvchi quyidagi asosiy belgilari bilan ifodalanadi:

1. Tarbiya o'sib kelayotgan avlodni ijtimoiy hayot va ishlab chiqarish sharoitlariga jalb etish, ular bilan eskirayotgan va hayotdan chiqayotganlarini almashtirishning amaliy ehtiyojidan kelib chiqqan. Natijada, bolalar katta bo'ladilar, o'z hayotlari va mehnat qobiliyatini yo'qotayotgan katta avlod hayotini ta'minlaydilar.

2. Tarbiya – doimiy, zarur va umumiy kategoriya. U insoniyat jamiyati yuzaga kelishi bilan birga paydo bo'ladi va jamiyatning o'zi yashar ekan, u ham mavjud bo'ladi. U jamiyatning mavjudligi va doimiyligi, uning ishlab chiqarish kuchlarini tayyorlash va insonni rivojlantirishni ta'minlashning muhim vositasi hisoblanganligi uchun ham zarurdir. Unda qonuniy o'zaro bog'liqliklar va bu hodisaning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan o'zaro bog'liqliklari aks ettiriladi. Tarbiya, o'qitishning bir qismi sifatida, ta'limni ham o'z ichiga oladi.

3. Tarbiya – ijtimoiy-tarixiy rivojlanishning har bir bosqichida o'zining vazifasi, mazmuni va shakllari bo'yicha aniq tarixiy xususiyatga ega bo'ladi. U jamiyat hayoti xususiyati va tashkil

etilishi bilan bog‘liq bo‘lganligi uchun o‘z davrining ijtimoiy qarama-qarshiliklarini aks ettiradi. Sinfli jamiyatda turli sinflar, qatlamlar va guruhlarda bolalarni tarbiyalashning asosiy tendensiyalari ba‘zan qarama-qarshi bo‘ladi.

4. O‘sib kelayotgan avlodni tarbiyalash – ularning ijtimoiy tajriba asosiy elementlarini o‘zlashtirishlari hisobiga, ularni katta avlod ijtimoiy munosabatlariga, munosabatlar tizimiga va ijtimoiy zarur faoliyatiga jalb etishlari jarayoni va natijasi asosida amalga oshiriladi. Kattalar va bolalar o‘zaro ijtimoiy munosabatlari va o‘zaro aloqalari, ta’sirlari har doim ularni bolalar yoki kattalar anglab yetishlaridan qat’iy nazar, tarbiyaviy yoki tarbiyalovchi hisoblanadi. Eng umumiy shakllarida bu o‘zaro munosabatlar, bolalar hayoti, sog‘ligi va ozuqalanishlarini ta’minlashga, jamiyatda ularning o‘rnini va ularning ruhiy holatini aniqlashga qaratilgan. Kattalar bolalar bilan o‘zlarining tarbiyaviy munosabatlarini anglab yetishlari va bolalarda u yoki bu sifatlarini shakllantirish maqsadlarini o‘z oldilariga qo‘yar ekanlar, ularning munosabatlari yanada pedagogik, anglab yetilgan maqsadga yo‘naltirilgan tus oladi.

Kattalarning ijtimoiy hodisa sifatida tarbiya xususiyatlarini anglab etishlari asosida jamiyatda bolalar va jamiyat manfaatlari yo‘lida tarbiyalash qonunlaridan tushunilgan va maqsadga muvofiq foydalanishga intilish yuzaga keladi. Katta avlod tarbiyalash munosabatlari tajribalarini umumlashtirishga, ularda namoyon bo‘ladigan tendensiyalar, aloqalar, qonunlarni o‘rganishga, ulardan shaxsni shakllantirish maqsadlarida foydalanishga ongli ravishda murojaat etadi. Mana shu asosda pedagogika – tarbiya qonunlari to‘g‘risidagi va bolalar hayoti va faoliyatini ongli ravishda hamda maqsadga muvofiq boshqarish maqsadlarida, ulardan foydalanish to‘g‘risidagi fan yuzaga keladi.

Shunday qilib, tarbiya – ijtimoiy hodisa – jamiyat va individning hayotini ta’minlash usuli sifatida zarurdir. U ma’lum tarzda shakllangan ijtimoiy munosabatlar va jamiyat hayot tarzi natijasidagi aniq tarixiy sharoitlarda amalga oshiriladi. Uni amalga oshirishning asosiy mezonlari shaxsning xususiyatlari va sifatлари

hayot talablariga mos kelish darajasi hisoblanadi. Tarbiya ijtimoiy hodisa sifatida butun ijtimoiy hayotning tabiiy bir qismidir. Shuning uchun uning qarama-qarshiliklari ijtimoiy hayotning eng umumiy qarama-qarshiliklarining ifodasi hisoblanadi. Tarbiya aks ettiradigan bunday qarama-qarshiliklar qatoriga qotib va eskirib qolgan ishlab chiqarish munosabatlarining ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishini ortga surishi natijasida yuzaga keluvchi qarama-qarshiliklar kiradi. Bu qarama-qarshiliklar ijtimoiy tarbiyada o'sib kelayotgan avlodni tayyorlashga konservativ yondashishlar mustahkam o'rnatilishi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bizning jamiyatimizda mustaqillik davrigacha ijtimoiy hayot va ishlab chiqarish kuchlarining faqat davlat mulkchiligi asosida tashkil etilishi ishlab chiqarish o'sishini ortga surishga olib keldi. Davlat mulkchiligi va rejalashtirilishi ustunligi ijodiy shaxs faolligi va tashabbuskorligiga ko'pincha to'sqinlik qiladi. Xalq ta'limi tizimida bu o'zining mazmuni, shakli va metodlari qandaydir rasmiylashtirish hamda bir xilligi bilan ifodalanadi. Tarbiyadagi boshqa bir qarama-qarshilik hayot talablari va shaxsning ijtimoiy hayotga va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorgarligi darajasi o'rtasida yuzaga keladi. Hayot talablarini anglab yetish, mana shu talablar asosida tarbiya mazmunini va tashkil etilishini ko'ra bilish ilmiy-texnik taraqqiyot keskin rivojlanishidan ortda qoladi. Ushbu qarama-qarshilik chuqurlashtirib borgan sari o'sib kelayotgan avlodni zamonaviy tayyorlashga xalaqit qiluvchi "qalpoq" va konservativ holatlarni o'z vaqtida aniqlash hamda yo'qotish zarur bo'ladi. Uni hal etish ta'lim va tarbiya mazmunini muntazam va mos ravishda hal etishni, ta'lim va tarbiya metodlarini hayot talablariga javob bera oladigan qilishni talab etadi. Mana shu holat ijtimoiy hayot yangi sharoitlari va unga bolalarni tayyorlash bilan uning eskirib qolgan usullari o'rtasidagi qarama-qarshilik hisoblanadi. Tarbiyadagi uchinchi qarama-qarshilik – insondagi mavjud tabiat kuchlari, inson tabiati rivojlanishi, uning cheklanmagan imkoniyatlari bilan jamiyat ijtimoiy hayotidagi bu rivojlanish cheklovi sabab bo'luvchi, dasturlashtiruvchi sharoitlar o'rtasida yuzaga keladi.

Erkinlikni cheklovchi, avtoritar jamiyat iste'dodlarni so'ndiradi, odamlarni buzadi, iltifotli mansabdorlarga va befarq rasmiyatchilarga, ishlab chiqarish jarayoning bir ortiqcha qismiga, ijtimoiy hayotda to'siqqa aylantiradi. Demokratik jamiyat esa moddiy-texnik bazasini rivojlantira borib, turli ijtimoiy munosabatlarni takomillashtirib, har bir inson shaxsining ijtimoiy hayot talablariga mos va o'zida mavjud tabiiy kuch, iste'dod va qobiliyatlarga nisbatan rivojlanishiga haqiqiy sharoit yaratadi.

Tarbiyaning to'rtinchi qarama-qarshiligi – bolaning faol tabiati, uning ijtimoiy hayotda, turli munosabatlarda, muomalalarda ishtirok etishga intilishi bilan hayot jarayonida amaliy, haqiqiy ishtirok etish uchun tajriba, bilimlari, malaka va ko'nikmalari yetishmasligi va uning tabiiy hamda ijtimoiy yetuk emasligi o'rtasida kuzatiladi. Ushbu qarama-qarshilik bolalar uchun idrok etishga, tarbiya jarayonida faol ishtirok etishga haqiqiy harakatlantiruvchi kuch, rag'bat hisoblanadi. U bolani faqat tarbiyaviy o'zaro munosabatlar obyekti sifatida emas, balki subyekti sifatida ham ijtimoiy hayotda ishtirok etishga ta'lim-tarbiyaviy tayyorlashga sabab bo'ladi.

1.4. Tarbiya tizimini ijtimoiylashtirish

Tarbiya tizimining rivojlanishi uchta jarayonning rivojlanishida aks ettiriladi – ijtimoiylashtirish, o'zini tarbiyalash va kasbiy ta'sir ko'rsatish. Bu jarayonlar uchta asosiy subyektlar shaxsi bilan shakllanuvchi – jamiyat, individning o'zi va pedagogning bir obyekt bilan o'zaro munosabatlari davomida amalga oshiriladi.

Jamiyat to'g'risida to'xtalib o'tamiz. "Ijtimoiylashtirish" tushunchasi tarbiya nazariyasida juda keng foydalaniladi. Tadqiqotchilar uni qadriyatli ko'rsatmalari va tarbiyalash tamoyillariga qarab tushuntiradilar. Hatto bu borada ma'lum an'analar yuzaga kelgan, katta ilmiy material ham to'plangan. Sotsiologik va psixologik adabiyotlarda ijtimoiylashtirish juda faol tahlil qilinadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayotda jamiyat va shaxs

rolini talqin qilish albatta, qarama-qarshi bo'lgan ijtimoiylashtirish konsepsiyasining shakllanishiga olib keladi. Qattiq ijtimoiylashtirish deb ataluvchi konsepsiya tarafdorlari, funksional maktab vakillari bu jarayonni shaxsni ijtimoiy tizimga to'la jalb etish sifatida belgilaydi.

Sotsiologiya ijtimoiylashtirishni tahlil qilishda, "moslashish", "qulaylik", "tenglik" kabi muvozanat tushunchalariga tayanadi.

Ularning tadqiqotlaridagi asosiy vazifa – individlarni ijtimoiy muhitga moslashtirish hisoblanadi.

Bu konsepsiyaga "yangi insonparvarlashtirish" tarafdorlari qarshil chiqadi. Ular ijtimoiylashtirishda o'z qobiliyatlari va layoqatlarini yaratuvchi shaxsni hamda shaxsning o'zini amalga oshirishi va o'zini namoyon etishiga to'sqinlik qilayotgan elementlarni tanqidiy yengishni ko'radilar.

Biroq, birinchi holatda, ma'lum tarzda ishlab chiqilgan muhitga ta'sir ko'rsatish to'g'risida gap yuritilayotgan bo'lsa, ikkinchi holatda, "ijtimoiylashtirish va shaxs" tushunchalarini to'la adashtirish sodir bo'lmoqda. Ta'lim tizimidagi ijtimoiylashtirish deyarli chiqarib tashlashga, uning o'zini tarbiyalash bilan almashtirishga, tarbiyachi kasbiylikiga esa shakllanayotgan shaxsning mustaqilligini ta'minlash vazifasini yuklatishga harakat qilinmoqda. Birinchi nuqtai nazar ijtimoiy hayot taraqqiy etgan asoslarini qayta ishlab chiqish muammosiga e'tiborni kuchaytiradi, ikkinchisi esa madaniy ijodkorlik shaxsi ijodiy qobiliyatlariga erkinlik berishga qaratilgan.

Ma'lumki, bu ikki qarama-qarshi nuqtai nazarlardan birortasi ham amaliy hollarda tarbiya amaliyotini takomillashtirishga olib kelmaydi. To'g'ri, shaxs ichki dunyosini ijtimoiy manfaatlar bilan to'la bog'lab qo'yishga yo'l qo'yish mumkin emas. Lekin baribir jamiyat insonga ta'sir ko'rsatadi va ta'sir ko'rsatishni hisobga olmay bo'lmaydi. Ijtimoiylashtirish – muhit, jamiyatning shaxsga ta'siri demakdir. Shu bilan birga ta'sir ko'rsatish shaxsning tashkil topishida juda zarur hisoblanadi.

Jamiyat – umuman alohida kuch – o'ziga xos insoniy munosabatlar va o'zaro aloqalardir. Bu narsalar bo'lmasa, odam

ham baribir muhitga juda moslasha oladigan hayvonligicha qoladi. Muomalalar davomida yuzaga keladigan insonlar munosabatlari – mana shu jamiyat demakdir.

Biz ijtimoiylashtirish to‘g‘risida gapirar ekanmiz, odam ham, guruh ham, biomuhit, kosmos ham inson ko‘ziga ko‘rinib va uning qalbida aks etib, maqsadga muvofiq bo‘lmasa ham, insonga maxsus emas, faqat tasodifiy (ko‘rinishi bo‘yicha, mohiyati bo‘yicha esa muqarrar va qonuniy) ta’sir ko‘rsatib shaxsni shakllantiradi. Haqiqatda ko‘zga ko‘rinmas ta’sir ko‘rsatish – nazorat qilib bo‘lmaydigan jarayon. Muhitning u yoki bu elementlari qachon, qanday ketma-ketlikda, qanday nisbatlarda shaxs bilan munosabatlarga kirishishini bilib bo‘lmaydi. Hatto ularning har birini aniqlash ham mumkin emas. Biroq muhit shaxs uchun shakllanib bo‘lgan dunyoqarashiga yot bo‘lgan faoliyat sharoitlari va tamoyillarini majbur qilishda quvonchni his etish qiyin bo‘ladi. Agarda dunyoqarashi shakllanmagan bo‘lsa, unda ham odamdan noqulay muhit ta’siridan qoniqishni talab qilib bo‘lmaydi. Odam o‘zi o‘z hayotini tashkil etadi, u nima qilishi kerakligini o‘zi tanlaydi: dunyoga qarab agarda unda o‘z hayotini ko‘rsa xursand bo‘ladi. Biroq taqdir shaxsan tanlash imkoniyatini chegaralaydi. U boshqalar tomonidan amalga oshirilgan, avvalgi avlod tanlagan mavjud vaziyatni odam oldiga qo‘yadi, u bilan bahslashib bo‘lmaydi. Uni meros kabi, shaxsiy turmushning bir qismi yoki asosi sifatida qabul qilish va mana shu tajribaga hurmat bilan munosabatda bo‘lish kerak. Muhit o‘zida insonga monand axborotlarni yetkazadi, shaxs yuzaga kelishi to‘g‘risida ma’lumotlar beradi, shu bilan birga bu axborotlarni insonga majburlamaydi. Xohlovchilar uni o‘zlashtirishi mumkin. Shunda uning hayoti taqdirga qarshi bo‘lib qolmaydi, taqdiri rivojlanishiga to‘siq bo‘lmaydi. Uning dunyoga munosabati, quvonchli yoki alamli ko‘rinishda bo‘lishidan qat’iy nazar, mazmuni bo‘yicha ancha chuqur bo‘ladi.

Shuning uchun jamiyat go‘yoki tabiiy ravishda bolaga o‘zining yaxshi tomonini namoyon etishga, unga “kulib boqishga” harakat qiladi. Mana shu hayotga kirib kelayotgan insonga o‘ziga

xos munosabat faqat beg'araz emas, balki jamiyatning g'amxo'rliги hamdir. U eng to'g'ri, asrlar davomida shakllangan tamoyillashtirish yo'lidir. Faqatgina mana shu narsa shaxsning tabassum qilishiga olib kelishi mumkin. Individni muhitga jalb etib, insonni keng jamoa va hodisalar bilan munosabatlarda bo'lishi imkoniyatini taqdim etishda, ularning javoblari shaxs uchun baholash shaxsiy mezonini ishlab chiqishda asosiy me'yor bo'lib qoladi – mana shunga ijtimoiylashtirish deyiladi. U kasbiy tarbiyaviy faoliyatdan ham iborat emas, balki nisbatan mustaqil jarayon hisoblanadi, shaxsga rol o'yinini “qiyinlashtirish” alohida vazifasini bajaradi. Mana shusiz, u anglab yetilmagan bo'lib, jamiyatda yakkalanib qoladi. Shaxs madaniyatning yaratuvchisi, muhitning tomiri bo'lmish jodiy shaxsni yaratishda zarur shartdir hamda ijtimoiylashtirish jarayonining mustaqilligini tan olish, bu jarayonni insonparvarlashtirish yo'nalishini takomillashtirishdagi har qanday urinishlardan voz kechishini anglatmaydi. Insonparvar bo'lmagan, yangi shaxsning faolligi sababsiz bostirilishi, individning layoqati, intilishlari hisobga olinmay ijtimoiy vazifalarni majburlash sodir bo'ladigan insonga muhitning ta'sir ko'rsatishi bilan ijtimoiylashtirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Ijtimoiylashtirish – bu shakllanayotgan shaxsning va uning kelajakda mumkin bo'lgan shaklini belgilovchi birlikning o'zaro aloqalari jarayonidir. “Insonparvarlashtirish” tushunchasi ko'pincha ma'naviylashtirish doirasiga taalluqli deb tushuniladi.


Hozirgi kunda bu keng qo'llaniladigan tushuncha, umumiy yo'nalish ahamiyatiga ega. Insonparvarlashtirish asosiy vazifa sifatida qaralmoqda, uni hal etmay turib ijtimoiy taraqqiyot to'g'risida gapirish mumkin emas. Insonparvarlik – bu inson qanday bo'lishi, uning mohiyati qandayligi to'g'risida o'ylash va g'amxo'rlikdir. Bu o'zini anglashdir, va shu bilan bir vaqtda, mavjudlikni himoya qilishdir. Shaxsning qimmatini tasdiqlash, shaxsni faqatgina vosita sifatida qarashga har qanday urinishlarning muhimsizligi ifodasidir. Shundan so'ng insonparvarlik shaxsni ijtimoiy shaxs sifatida qarashni ko'zda tutadi. Ijtimoiy hayotda subyektning barqarorligini ta'minlash mexa-

nizmini shakllantirish – bu g'oya demak. Har qanday ijtimoiy guruh, kattami yo kichikmi, hamda shaxs va jamiyat ozmi-ko'pmi shakllangan o'z g'oyasini paydo qiladi. G'oya obyektiv bo'lmagan dunyo ko'rinishini emas, balki g'oya yetkazuvchi saqlanib qolishi ta'minlanadigan doirada dunyoga qarash tizimini ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Albatta, g'oya chuqur rivojlantirilgan bo'lsa, agar subyektning boshqa subyektlar bilan aloqasi hisobga olingan bo'lsa, unda bunday obyektiv ong ijtimoiy rivojlanish umumiy tendensiyasiga ham qarama-qarshilik qiladi, hatto deyarli mos kelishi mumkin. Lekin u bilan hech qachon batamom birday bo'la olmaydi, chunki jamiyat va uning alohida subyekti o'xshash bo'la olmaydi.

G'oyasiz, markazga intilgan yo'nalish subyektning mana shu bilimlar tizimisiz, ijtimoiy fikr umuman mavjud bo'lmaydi, ular markazga intilgan kuchlarni – entropiya kuchlarini, subyektning buzilishini yengish vositalari hisoblanadi. G'oyalar doirasida asosiy ijtimoiy qadriyatlar to'g'risidagi bilim yuzaga keladi, ishlab chiqiladi. Bu bilimlar ma'naviy madaniyat shakllanishi uchun asos bo'lib qoladi, uning yordamida g'oya doirasida mavjud qadriyatlar uchun xos bo'lgan egoistik aksent yo'qotiladi, insonparvarlashtirish to'g'risida tasavvurlar shakllantiriladi.

1.5. Tarbiya tizimida pedagogik tizim

Ijtimoiylashtirish ta'siri va o'zini tarbiyalash odatda yana bir jarayonga – shaxsni tarbiyalash deb atalgan, ya'ni pedagogning kasbiy faoliyati bilan bog'liqdir. Ushbu faoliyatning mohiyati – ijtimoiylashtirish va o'zini tarbiyalash jarayonlarini boshqarishdan iborat. Haqiqatan ham, siyosiy va pedagogik jarayonlarda o'xshashliklar ko'p. Ularning ikkisi ham ko'plab omillarga juda bog'liq. Siyosatning “imkoniyatlar san'ati” kabi tushunchasi pedagogikaga ham mos keladi. Ko'pincha bunday imkoniyat hajmi bilib turib oshirib yuboriladi, ba'zan aksincha, kamaytiriladi. Ba'zan insoniyat hamjamiyati ma'naviy hayotining yuksak omil-i odamlari g'oya “tarbiya to'g'risidagi masalani



bekor qiladilar”. Masalan, L. N. Tolstoy shunday yozadi: “Tarbiya, biz o‘qitish, tarbiyalashni xohlamas ekanmiz, murakkab va qiyinligicha qoladi. Agarda boshqalarni biz faqat o‘zimiz orqali tarbiyalashimiz mumkinligini tushunib olsak, unda tarbiya masalasi yo‘qoladi va hayot to‘g‘risidagi masala qoladi: O‘zim qanday yashashim kerak!” (Tolstoy L.N., Asarlar to‘plami, 22 jildlik, 1984-y.; 19-j. 346-bet).

Bunday tarbiya to‘g‘risidagi masala shunga qaramay yechilmay qoladi. Hatto “O‘zimiz qanday yashashimiz kerak!” degan savolni his etishga e‘tiborni jalb etib ham, biz boshqa savollardan xoli bo‘lmaymiz: “Odamlar orasida qanday yashash kerak?”, “O‘z hayot talablarini o‘zganing hayot talablari bilan mos kelishi qobiliyatiga qanday qilib ega bo‘lish mumkin?” Oxirgi savolni hal etishda, odam (birinchi navbatda bola, lekin ba‘zida kattalar ham) ichki va tashqi ta‘sirni tizimlashtirishga, ularga mos ravishda javob qaytarib, shaxs shakllanishini tushunishga yordam beruvchi pedagog, o‘qituvchi ko‘magiga muhtoj bo‘ladi.

O‘qituvchiga zamonaviy talablar, asosan uch oliy vazifani qamrab oladi. Ular: 1) fan bo‘yicha, 2) pedagogik, 3) oldindan berilgan samara bilan mos ravishda o‘qish jarayonini loyihalashtira bilish malakalariga ega bo‘lish shartidan iborat.

Ushbu vaziyatda o‘qituvchi haqida gap boradi. Agarda tarbiyachi o‘qitish bo‘yicha uy vazifalarini bajara olmaydi deb, hisoblasak, unga kamroq talablar qo‘yish kerak. Lekin shu yerda bir gapni aytib o‘tish kerak. “Bolaning aqliy rivojlanishi asosi bo‘lib xizmat qiluvchi, uning jismoniy rivojlanishi shartlari bilan tanish bo‘lmagan ayol, aniq va to‘g‘ri harakat qila olmaydi, – deb yozadi K. Setkin. – O‘qitish texnik metodlarini bilmagan ayol, bolaning o‘n marta o‘z onasi bo‘lsa ham (hatto shunday mumkin bo‘lmagan holatda ham) haqiqiy insonni tarbiyalay olmaydi, bola tarbiyasini unga ishonib bo‘lmaydi”.

Shunday qilib, Klara Setkin nuqtai nazaridan ona qanchalik mehribon, bolasini sevadigan va sevimli odam bo‘lmasin, “o‘qitish texnik metodlari”ni bilmas ekan, bola tarbiyasi jarayonidan chetlashtirilishi kerak. Bu nuqtai nazarda tarbiya

masalasiga kasbiy tayyorgarlikni talab etuvchi juda muhim ish sifatida qaralmoqda. Tarbiyachi bu yerda yaqqol o'qitish vazifasini ham bajaradi.

Kasbiy tarbiyachi zarurmi?

Albatta, chunki murakkab tizim – tarbiyalash tizimi faoliyati to'g'risida gap bormoqda, u tizim turli subyektlari harakatlariga rahbarlik qilishi va boshqarishi kerak.

Tarbiyachi inson hayotida baxtli bolalik rolini tushunib, individni shakllantirish jarayonini madaniyatga, ijtimoiy hayot qarama-qarshiliklariga va bilimga yo'naltirishi kerak. Natijada, bola va hayot ittifoqi yanada keng va chuqur bo'lishiga yordam berib, bu ittifoqning buzilmasligi maqsadini ko'zlash kerak. Inson rivojlanishi jarayonini maksimal evolyutsion, minimal inqirozli qilish – pedagogning san'ati mana shundan iborat.

Kasbiy tarbiyachi shakllanayotgan shaxs oldida ma'lum majburiyatlarga ega bo'lgani holda, jamiyat oldida ham shunday mas'uliyatga ega bo'ladi. Jamiyat asosan, yangi insonning o'sishi jarayonini ta'minlaydi, shuning uchun u yangi a'zosi ijtimoiy munosabatlarga qodir, yuzaga kelgan munosabatlar tuzilishida yashay olishga va keraklicha rivojlana olishga tayyor bo'lishiga ishonishga haqlidir.

Turli milliy madaniyatlar doirasida pedagogika an'anaviy ravishda faqat jamiyat oldida va aksincha, faqat shaxs oldida ancha mas'uliyatliroq sifatida tushunilishi mumkin. Haqiqatda esa, kasbiy, ya'ni pedagogik ta'sir ko'rsatishni takomillashtirishni faqatgina ikkala manfaatdor taraflar talab va ehtiyojlariga yo'naltirishda amalga oshirish mumkin. Munosabatlar maqsadlari qanchalik ta'sirchan bo'lmasin, pedagog ular bilan o'z ishida tarbiyalanuvchi qiziqishlari, huquqi erkinligini poymol qilishini oqlab bo'lmaydi. Pedagogik ta'sir ko'rsatishning maqsadi – jamiyat manfaatlarini maksimal hisobga olib, shaxsning maksimal mumkin bo'lgan rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Jamiyat tomonidan ijodiy individuallikka ehtiyoj sezilsa, unda pedagogning vazifasi osonlashadi, chunki ushbu holatda ijtimoiylashtirish va pedagogik ta'sir ko'rsatish jarayoni bir yo'nalishda boradi.

Jamiyat shaxs qobiliyatlarini cheklamaydigan, uning o'sishiga to'siq bo'lmaydigan bunday vaziyatni qurish zarur bo'ladi. Bunday vaziyat muvofiqli pedagogik jarayonning majburiy sharti hisoblanadi. Shaxs rivojlanishining eng erta bosqichlarida uning jamiyat ehtiyojlariga munosabati shakllana boshlaydi. Bu munosabat tarbiyalanuvchining birinchi pedagoglari – ota-onalarining ortiqcha e'tiborliliklari sababli egoistik ko'rinish olishi mumkin.

Ko'pchilik ota-onalar o'z bolalarining barcha talablarini bajarishga harakat qiladilar va to'laqonli hayotga tayyorlashning asosiy yo'li mana shundan iborat deb hisoblaydilar. Bunday tarbiyachilar jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatlari to'g'risidagi tasavvurlarini yo'qotadilar. Ba'zan bu holat hattoki anglab yetishgan bo'lsa ham, bolaga mehr qo'ygan tarbiyachilarni xavotirga solmaydi, ular faqat o'z vazifalarini faqat bir yoqlama tushunadilar – ovqat yana ovqat berish va yana berish. Biroq tarbiyachining jamiyatga nisbatan mas'uliyatsizligi oxir-oqibat tarbiyalanuvchining halokatiga olib keladi, chunki o'zini amalga oshirishga kam moslashgan iste'molchini yaratadi, shunday qilib u to'la hayotga tayyor bo'lmaydi.

Shunday qilib, kasbiy tarbiyachi shaxs oldida ham, jamiyat oldida ham javobgar hisoblanadi. Bu majburiyatlarini buzganda, tarbiyachi ijtimoiy hayot buzilishi va shaxsning inqiroziga sabab bo'ladi.

Inson psixikasi asosi deb haqli ravishda hisoblanuvchi odamning mustaqil va oqilona harakatlarni amalga oshirishga qobiliyati ijtimoiy muhitda juda ko'p sonli omillar bilan shakllantiriladi. Shuning uchun u hech qachon faqat kasbiy tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish natijasi sifatida qaralishi mumkin emas. Pedagoglik kasbi o'zi ustida mustaqil ishlashida tarbiyalanuvchining ehtiyojlarini e'tiborsiz qoldirmay, bolani yuzaki ta'sirlardan himoya qilib va zehni rivojlantira borib, tarbiyalanuvchilar bilan munosabatlarda me'yorni topishida ifodalanadi.

Pistolitsi insoniylik mohiyati ichki yo'nalganlik va faqat

harakat qilish emas, balki harakat qilmaslik erkinligi bo'lmaganda normal amalga oshirilishi mumkin emas deb aytadi. Falsafiy nuqtai nazardan bu tushunarli: harakat o'z qarama-qarshiligidagi holatda o'z o'lchamini topadi. Sotsiologiyada esa madaniyat tushunchasi orqali ijtimoiy harakat o'lchamini aks ettiradi. Shaxs munosabati va tahlil bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bosqichlar orqali rivojlanadi. Bola atrofida gildardan uzoqlashishga ehtiyoj his etadigan davr o'z tarbiyalanuvchisini chindan yaxshi ko'radigan tarbiyachilar tomonidan ba'zan tushunib yetilmaydi. Bunday holatda ko'pchilik tarbiyaning takomillashishiga yordam bermaydi. Ba'zida esa mehribon pedagog o'z tarbiyalanuvchilari bilan munosabatlarga doimiy tayyorgarligi bilan odatda faqat jismoniy emas, balki anglab yetilmagan intellektual, emotsional tinchlikka ehtiyoji qoniqtirilmaganligi sababli yuzaga keluvchi ulardagi norozilik hissini keltirib chiqaradi. O'qituvchini ham, o'quvchini ham o'z ishidan ko'ngli qolishidan saqlash uchun tarbiya butun hayoti davomida faqat kasbiy vazifaga qaratilmasligi kerak. Tarbiyalanuvchiga pedagog bilan munosabatlardan tinchlik, dam olish zarur bo'lsa, o'qituvchi shaxsining normal rivojlanishi uchun unga ham xuddi shu kerak. Pedagogik mehnat mazmunini aniqlashda biz pedagog – bu munosabat jarayonida shakllanayotgan shaxs va jamiyat ijtimoiylashishi va o'zini tarbiyalash jarayoni o'rtasida nizolarga yo'l qo'ymaslik maqsadini qo'yuvchi odamdur, degan fikrdan kelib chiqamiz. Pedagogik faoliyat rivojlana borgan sari mana shu maqsadga erishishning ko'plab vositalari ishlab chiqilgan. Asta-sekinlik bilan ular jamlanib, yagona kasbiy faoliyat ichida ikkita faoliyat turini tashkil qiladi:

1) bir tomondan rivojlantiruvchi; 2) muvofiqlashtiruvchi, tartibga keltiruvchi, bir tizimga soluvchi faoliyat.

Rivojlantiruvchi faoliyat kasbiy-tarbiyaviy faoliyatning yuqorida aytilgan maqsadini bajarishga bevosita yo'naltirilmagan. Bu tarbiya muammosini o'rganuvchi ko'plab tadqiqotchilar tarbiyalash so'zining "asl mazmuni"da o'qitishga kiritmasliklariga olib keladi. Biroq, bundan boshqa nuqtai nazar ham mavjud. Bu

nuqtai nazar o'qitishni rivojlantiruvchi faoliyatni tarbiyalash faoliyatining bir qismi va hatto rivojlantiruvchi faoliyatning atributi sifatida qaraydi. Bola tug'ilgandan boshlab qisman potensial, qisman aktualashtirilgan shaxs hisoblanadi. Tug'ilgan bolaga nisbatan jamiyat ma'lum xususiyatdagi talab ishlab chiqadi. Lekin, jamiyat bola bilan o'zaro munosabatlarga kirishadi, jamiyatda ushbu individga u katta bo'lganida qo'yiladigan talablar, ehtiyojlarning murakkab zanjirini shaxs va jamiyat munosabatlari "dispetcheri" bo'lmish pedagog esdan chiqarmasligi kerak. To'g'ri, o'zaro munosabatlarga shaxsni tayyorlar ekan, pedagog uni rivojlantirmasligi mumkin emas va to'playotgan bilimlarini tizimlashtirishga yordam bermasligi ham mumkin emas. Faqat rivojlantirish, o'qitish yoki uyg'unlashtirish, insonparvarlikka mos, ijtimoiy qoidalarga yo'naltirilgan kasbiy tarbiya ortda qolishi va butun kasbiy faoliyat muvafaqqiyat-sizlikka uchrashi mumkin.

Tarbiyani o'qitishdan alohida qarab, biz bu jarayonni faqat mustaqillikdan emas, balki mavjud subyektdan ham mahrum etamiz. Qaysi pedagog tarbiyalanuvchini rivojlantirmay, bilimlarini boyitmay, ya'ni uni o'qitmay dars berishi, qoida, me'yor, sifat haqida tasavvur berishi mumkin axir?!

Hozirgi kunda ta'limsiz o'zini jamiyatda teng huquqli da'vogar deb his etish qiyin. Shu bilan bir vaqtda ilmlilik – bu anglab yetiladigan "yashirin (patent)" bilimlarga asoslangan shaxsning holati. Biroq, o'qitishsiz jamiyatda shaxs o'zaro munosabatlarini samarali yo'lga qo'yish mumkin emas, degan fikrni to'g'ri deb hisoblab, biz uni aniqlab olishimiz kerak: "Kasbiy pedagog faoliyatining tabiiy bir qismi, elementi sifatida o'qitish qanday bo'lishi kerak?" Ta'lim, bilimlar yetkazish jarayoni sifatida o'qitish jamiyat bilan aloqalar o'rnatish jarayoniga, ijtimoiy qoidalarni o'zlashtirish va ijtimoiy-ma'naviy ishonchlarini shakllantirish jarayoniga nisbatan qarama-qarshi bo'lmasligi kerak.

O'qitish – bu tarbiyaning muhim bir qismi. Bundan ikki ming yil avvalroq, Platon tarbiyalovchi ta'limi to'g'risida fikr yuritgan.

O'qitishning chegaradan chiqib ketgan "tarbiyaviyligi" ko'pincha uning axborotlar yetkazish imkoniyatlarining pasayishiga, ortiqcha nasihatgo'ylik, g'oyaviylikka olib keladi. Ta'lim tarbiyadan ajralishdir, lekin tarbiya doirasida rivojlantirish, bilimlar, tasavvurlar, ko'nikmalar berish vazifasini bajarishi kerak. Mana shu yo'nalishda muammolar ko'p.

1.6. Tarbiya tizimida innovatsiyalar

Maktabda innovatsiyalar masalasini muhokama etganda, tarbiya tizimlarida innovatsiyalar tashkil topishi to'g'risidagi masalalarni gapirib o'tmay bo'lmaydi. Lekin buning uchun avval, tarbiyaviy tizimning ichki tushunchasini kiritamiz. Shundan keyin tarbiyaviy tizimni falsafiy va texnologik jihatlarda ko'rib chiqishda innovatsiyalar yuzaga kelishini o'rganamiz.

Shunday qilib, pedagogikada "tarbiya" kategoriyasining bir vaqtda bir necha tushunchalari mavjud tarbiyani o'rganayotgan avlodga tarbiyani eng muhim ijtimoiy tajribalarni yetkazish bo'yicha maxsus tashkil etilgan jarayon sifatida tushunish, eng keng tarqalgan tushunchalardan hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, har qanday tarbiya jarayonining asosi, haqiqatda, o'qitish hisoblanadi, degan xulosaga kelish to'g'ri bo'ladi. Ushbu holatda tarbiya jarayoni didaktik vositalar bilan ko'rinish boshlaydi. Tarbiya tizimi tushunchasining o'zi esa – o'zining avtonomligi va ko'rib chiqish o'zliga xosligini yo'qotadi va didaktika ichiga "tortib kiritilgan" bo'lib qoladi.

Tarbiya jarayoni o'zining o'ziga xosligini "saqlab qolish" uchun "Tarbiya, tarbiya... tarbiya!" monografiya hammualliflari V.A.Karakovskiy, Novikova, Selivanova kabi mashhur estoniyalik pedagog va psixolog O. Yo.Laymete taklif etgan uning boshqa tushunchasidan foydalanadilar. Agarda tarbiya jarayonini "Laymete bo'yicha" qaraydigan bo'lsak, unda tarbiya tizimi didaktikadan iborat bo'lmaydi, balki bir tomondan psixologo-pedagogik, boshqa tomondan esa – ijtimoiy-pedagogik tizimdan iborat bo'ladi.

Bu o‘z navbatida tarbiya tizimi o‘quvchilarga faqat didaktik sifatida emas (o‘qituvchilar, darslar, darsliklar, uy vazifalari orqali), balki ijtimoiy omil sifatida ham, bolalarning atrof-muhitga jalb etilganligi orqali ham ta’sir ko‘rsatadi; ota-onalar, o‘qituvchilar va bolalar o‘rtasida yuzaga keladigan munosabatlar orqali, har bir ta’lim muassasalarida tashkil topadigan ma’lum psixologik muhit orqali ta’sir ko‘rsatadi.

“Didaktik tizim” tushunchasi pedagogikada ancha qadimdan shakllangan. Maktabning didaktik tizimi ta’lim maqsadlari, o‘qish mazmuni, uni tashkil etishning metod va shakllari orqali ifodalanadi. Albatta, tarbiyaviy maqsadlar o‘rganilayotgan material mazmuni, uni yetkazish shakli va metodlari kabilarni belgilash orqali o‘qitish jarayonida ham amalga oshiriladi. Lekin tarbiyaning ikkinchi tushunchasi mantig‘ida didaktik tizimning o‘zi tarbiyaviy tizimning didaktik tizimida ishtirok etadi, ya’ni uning tizimi hisoblanadi.

Ta’lim muassasining tarbiyaviy vazifasi birinchi navbatda, o‘quvchilarda, o‘zini shu dunyoda anglab yetish, boshqalar orasida o‘z o‘rnini topish bilan dunyoga, madaniyatga, atrof-muhitga qadriyatlarni shakllantirishdan iborat. Lekin mana shu vazifani faqat o‘qitish jarayonida amalga oshirib bo‘lmaydi: u individual manfaatlarini qondirish bilan bog‘liq dam olish doirasidagi o‘yin, mehnat, ijodiy faoliyat bilan ham bog‘liq. Shunday qilib, xususan tarbiya tizimi innovatsiyalarini o‘rganish imkoniyati paydo bo‘ladi. Uni yaratish va rivojlantirish jarayonida, har gal qator aniq masalalarni hal etish kerak bo‘ladi: yuqorida nomlari keltirilgan mualliflar ularning beshtasini alohida urg‘u bilan ko‘rsatadilar:

1. Bolalarda dunyoning yaxlit va ilmiy asoslangan ko‘rinishini shakllantirish.

2. Fuqarolik o‘zini anglashni, vatani taqdiri uchun javobgarlikni shakllantirish.

3. Bolalarni umuminsoniy qadriyatlarga jalb etish, ular orasida mana shu qadriyatlarga mos bo‘lgan xulqni shakllantirish.

4. O‘sib kelayotgan kelajak avlodda, shaxs xususiyatlari sifatida prespektivlikni, “ijodkorlik”ni shakllantirish.

5. O‘z-o‘zini anglashni shakllantirish, o‘zini amalga oshirishda bolaga yordam ko‘rsatish.

Albatta, bu masalalar ro‘yxatini davom ettirish mumkin. Lekin har qanday holatda ham, mana shu vazifalarning o‘zi yuqorida sanab o‘tilgan tarbiyalash vazifalarining “alohidaligini” ko‘rsatadi.

Yuqorida bayon etilgan didaktik qarashlarning turli jihatlarida innovatsiyalar yuzaga kelishi va shakllanishi imkoniyatlarini chuqur muhokama qilish kabi, ushbu masalada, tarbiya tizimini falsafiy va texnologik jihatlarida ko‘rib chiqishda tarbiyaviy innovatsiyalarni qo‘llab o‘rganamiz.

Tarbiya tizimini ko‘rib chiqishning falsafiy jihati – tarbiyaning mazmun-maqсадlarini asoslashni, uni konkretlashtirish va tarbiyaning kerakli mazmuni bilan aloqasini asoslab berishni ko‘zda tutadi. Biz avval aytganimizdek, bugungi kun qarashlari ostida, tarbiya tizimida ikki turlicha bo‘lgan konseptual (ko‘p jihatdan qarama-qarshi) yondashishlar mavjud.

Birinchi yondashish tarbiya – bu bola shaxsiga o‘ziga xos mazmunga ega bo‘lgan (falsafiy-pedagogik, g‘oyaviy, psixologik-pedagogik, ma‘naviy va boshqa), ijtimoiy belgilangan va maqsadga muvofiq ta‘sir ko‘rsatishga asoslanadi. Bunday tarbiya ma‘lum shakllarda (frontal, guruhli, individual) va ma‘lum metodlar bilan amalga oshiriladi.

“Tarbiya ta‘sir ko‘rsatish sifatida” mana shu paradigmasida pedagog barcha choralar bilan samarali tarbiyaviy ta‘sir ko‘rsatishga erishishi kerak. U (pedagog) o‘zi beixtiyor, bolalar va ota-onalarning teng qimmatli ishtirokisiz, mana shu tizimda asosiy subyekt bo‘lib qoladi, chunki bolalar “olib boruvchilar” ro‘lida ishtirok etadilar. Va, albatta, tarbiyada teng huquqli sherik hisoblanmaydilar. Bu yerda bola “tarbiya predmeti” sifatida ishtirok etadi va bolaning faolligi sifatida subyektivlik to‘g‘risidagi murojaat har gal “kerakligini faol o‘zlashtirish” yoki adaptiv faollik deb ataluvchi xususiyatga ega bo‘ladi.

Bu yondashish biz ilgari keltirib chiqargan ijtimoiylashtirish kategoriyasi bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq, bunda biz tarixiy

ishlab chiqilgan ijtimoiy qoidalarni, qadriyatlar, munosabatlar, ma'naviy va moddiy madaniyat bilan munosabat usullarning inson tomonidan o'zlashtirilishi jarayonini tushunamiz. Umumiy qabul qilingan tip asosida aytadigan bo'lsak – bolani tarbiyalash (mana shu tushuntirilishda) – uni kattalar dunyosiga olib kirish, uni umumiy qonunlar bo'yicha “birga kabi” yashashga o'rgatish demakdir.

Shunday qilib, ijtimoiylashtirish insonning “adaptik faollik” qobiliyatiga ega bo'lishini ko'zda tutadi va maqsadga muvofiq jarayonlar (o'qitish va tarbiyalash) maktabgacha, maktab, maxsus kasb-hunar muassasalarida hamda tasodifiy omillar (oila, ommaviy axborot vositalari, san'at bilan muloqat qilish) ta'siri ostida amalga oshiriladi.

Bu ta'sir ko'rsatish tarbiya tizimi (yoki ijtimoiylashtirish) insonparvarlikka zid kabi baholanishi mumkin emas, chunki u albatta, avtoretit vositalar bilan amalga oshirilishi shart emas. Unda o'qituvchi va bolalar o'rtasida insonparvarlik munosabatlari mavjud bo'lishi, gumanitar qadriyatlar targ'ib qilinishi, guruhli va individual ijodkorlik elementlari tatbiq qilinishi mumkin.

Bundan tashqari, ta'sir ko'rsatishning tarbiya tizimi o'zi tarbiya jarayoniga demokratik qadriyatlar va qoidalar kiritishi kerak (atrof-hayotdagi o'zgarishlar ortidan): hayotni tashkil etish demokratik usullarini o'zlashtirish (bolalar hamjamiyatidan boshlab), boshqalarga nisbatan huquq va majburiyatlarini o'zlashtirishga amal qilish.

Lekin, tarbiya bilan bog'liq bu yondashish, muhit bilan bog'liq bo'lib chiqmoqda, Chunki bolaning hulqi va hayoti bu holatda to'laligicha tashqi kuchlar bilan belgilanadi. Va unda yuung tanlovni amalga oshirish imkoniyati qolmaydi. Yetkazish kerak bo'lgan qandaydir tarbiyaviy mazmun, mana shu tarbiyaviy standartdan kelib chiquvchi ijtimoiy-pedagogik-nazariy, bularning barchasi bolaning ichki “xohlayman” istagiga emas, balki tashqi “kerak” talabiga yo'naltirilgan metodlarni talab etadi. Shuning uchun ushbu tarbiyaviy tizim qandaydir jazo va majburlashsiz mavjud bo'lishi mumkin emas.

Tarbiyadan boshqa yondashish insonparvarlik tarbiyaviy tizimini yaratish bilan bog‘liq. Bu yondashish birinchi navbatda, biz ilgarigi bo‘limda batafsil ko‘rib chiqqan individuallashtirish jarayoni bilan mos keladi (lekin uni bola ijtimoiylashtirish masalalarini iloji boricha yaxshi o‘zlashtirib olishi maqsadi bilan bog‘liq yondashish bilan adashtirish kerak emas). Yana bir bor eslatib o‘tamiz, individuallashtirish – bizning tushunishimizcha – bu bolada mavjud yoki o‘zining individual tajribasida egallagan yagona, alohida va o‘ziga xosligini ta‘minlab turish va rivojlantirish bo‘yicha kattalarning hamda bolaning o‘zining faoliyatlaridir.

Individuallashtirish, birinchidan, birlamchi asosiy ehtiyojlarini individual yo‘naltirilgan yordam ko‘rsatishni ko‘zda tutadi. Busiz tabiiy “o‘zligini” his etish mumkin emas. Ikkinchidan, aynan mana shu individ uchun xos bo‘lgan tarbia bergan (meros bo‘lib o‘tgan) jismoniy, intellektual, emotsional qobiliyatlar imkoniyatlarni maksimal, erkin amalga oshirish uchun sharoitlar yaratishni ko‘zda tutadi. Va nihoyat, individuallashtirishning uchinchi belgisi, asosiy xislati – avtonom ma‘naviy o‘zini qurishda, o‘zini ijodiy gavdalandirishda, “moslashuvchan bo‘lmagan faollik”, hayotiy o‘z yo‘lini tanlashdagi qobiliyatini rivojlantirishda insonga yordam ko‘rsatishdir.

Shaxsni individuallashtirish uning “o‘zligini” rivojlantirish, shunday qilib, keng ma‘noda insonparvarlik tarbiyaviy tizimini tashkil etadi. Tarbiyada bunday yondashishning maqsadi, bolalarga, ularning “subyektiv mavjudliklarini” tashkil etishda yordam ko‘rsatish hisoblanadi. Buning uchun ushbu tarbiyaviy tizimda, insonga o‘zini anglash va o‘zini amalga oshirishda yordam beruvchi maxsus vositalar ishlab chiqiladi. Endi faqat pedagog emas, balki bolalarning o‘zlari ham insonparvarlik tarbiyaviy tizimining subyekti hisoblanadi (bola asosan, tarbiya obyektini hisoblangan ta‘sir ko‘rsatish tarbiyaviy tizimidan uning asosiy farqi ham mana shundan iborat). Ushbu paradigmadagi pedagoglar ham, bolalar ham maktab oldida turgan maqsadlarini birgalikda aniqlashtiradilar, ularni amaliy vazifalar darajasiga

ko'taradilar va hamkorlikdagi faoliyatda amalga oshiradilar. Maktab insonparvarlik tarbiyaviy tizimi samaraliligining muhim sharti bolalar va kattalarni umumiy jamoaga birlashtirish hisoblanadi (lekin o'z vazifalari bo'yicha turlicha bo'lsa ham: bolalar, pedagoglar, ota-onalar). Bolalar va kattalarning o'zaro munosabatlari ma'lum munosabatlarni yuzaga keltiradi, ular birinchi navbatda tizimning tarbiyaviy imkoniyatlarini belgilaydi.

Munosabatlar pedagoglar alohida g'amho'rliqi bo'lib qoladi. Har qanday insonparvarlik tarbiyaviy tizimi aniq tizim hisoblanadi. Uning tashkil topishi, faoliyati va rivojlanishida muhit, faqat tashqi ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida emas, balki ushbu tizimning o'zining tarkibiy qismida katta rol o'ynaydi.

Tarbiyaviy tizimlar ikki turini taqqoslash, tahlil qilish yakunida ta'sir ko'rsatish ta'lim tizimi va insonparvarlik tarbiya tizimi o'zining predmeti mazmunida ham farq qilishini alohida aytib o'tamiz.

Birinchi, birinchi navbatda, dunyoning ijtimoiy ko'rinishini o'rganadi. Ikkinchi tizim o'zini-o'zi o'rganish usulini o'rganadi. Ma'lum ijtimoiy qoidalarni, qadriyatlarni, munosabatlarni yetkazib ta'sir ko'rsatish tarbiya tizimi, bolalarda o'zini anglashga qobiliyatni rivojlantirish masalasini o'z oldiga qo'ymaydi – bu uning predmeti hisoblanmaydi.

Insonparvarlik tarbiyaviy tizimi – bu boshqa gap. Inson tanlab olish subyekti sifatida ishtirok etar ekan, u bu tanlovni o'ziga nisbatan amalga oshirishi ko'zda tutiladi, demak o'zini anglash jarayonisiz bu tizimni amalga oshirish mumkin emas. Shuning uchun turli insonparvarlik tarbiyaviy tizimlar, hozirgi kunda, aynan mana shu yo'nalishda rivojlanmoqda. Innovatsiya (anglagan holda, umuman yangilikni kiritish sifatida) ishchi (amaliy) tushunchasini eslab, aniq misolda tarbiya tizimini falsafiy jihatdan qarashda, innovatsiya qanday shakllanishini ko'rsatamiz.

Taqdim etilgan yondashishlarning har birida, innovatsiya yondashishlardan birini aniqlashtirish hisoblansa ham, har gal qandaydir yangi g'oya bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, tarbiya insonparvarlik paradigmasini muhokama qilib O.S. Gazman,

birinchi navbatda, tarbiya maqsadini o'zini rivojlantirish va pedagogik yordam ko'rsatish g'oyasi bilan bog'laydi. Ko'pchilik hozirgi zamon mualliflari insonparvarlik paradigmasini o'rganishlarida, shaxs rivojlanishiga anal qilib o'zini rivojlantirishga (yoki o'zining "o'zligini" rivojlantirishga) turli tomonlardan yondashdilar. Ba'zi mualliflar ushbu so'zning keng ma'nosidan kelib chiqadilar: o'zini umumiylikka yetkazish, barcha odamlar uchun xosliklar, hammaga mos kelish, ya'ni u yoki bu sotsial ideologik talablarning kontekstidan chetga chiqadilar, umuminsoniylikning o'zini rivojlantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydilar.

Mualliflar ikkinchi guruhi esa o'z diqqatini boshqacha qaratadilar: inson o'zining individualiligini, alohidaliligini, o'zining "o'zligini" rivojlantiradi (bu ko'pincha umuminsoniylikni namoyon etish individual ifodalangan usullarini o'z ichiga oladi).

O.S. Gazman "Erkinlik pedagogikasi: XXI asr insonparvarlik taraqqiyotidagi yo'l" nomli asarida "o'zini rivojlantirish" terminida, yuqorida aytilgan ikki mazmuni birlashtirish va o'zini rivojlantirishni faqat yagona subyektda taqdim etilishi mumkin bo'lgan yangi sifatni tashkil etish uchun insonning o'zida san'atni (madaniyatlilikni) to'plash, birlashtirish jarayoni sifatida tasavvur etishni taklif etadi. Faqat ijtimoiy va biologik emas, balki erkin (ekzestensial) mavjudot sifatida o'sib borayotgan inson to'g'risidagi tasavvur madaniyligi va tabiiyligi tamoyillarini erkinligi tamoyili bilan to'ldirilishini talab etadi.

Shunday qilib, pedagogik yordam ishi, erkinlik, ijodkorlik, kattalar va bola o'rtasida haqiqiy demokratiya va insonparvarlikda yuzaga keladigan tarbiya, boshqa madaniyatga kiradi. Tarbiya maqsadini pedagogik yordam sifatida, mana shu umuman yangicha tushunish, mazmuni bo'yicha tarbiya tizimini falsafiy jihatdan qaralganda, innovatsiya hisoblanadi. U mana shu maqsadga mos yangi tarbiya texnologiyasini ishlab chiqishga olib keladi.

Tarbiya texnologiyasi deganda biz, tarbiyaning ma'lum maqsadlariga erishishga qaratilgan maxsus pedagogik uslublar tizimini tushunamiz. Har qanday tarbiya metodikasi tarbiya

texnologiyalaridan tashkil topadi. Masalan, jamoani rejalashtirish, o'smirlar bilan aloqa o'rnatish, pedagogik diagnostika texnologiyasi va boshqalar.

Agar texnologiya – bu tarbiya metodikasining yakunlangan qismi bo'lsa (uning birligi), uslub esa o'z navbatida bu umumiy yoki shaxsiy pedagogik madaniyatda qayd etilgan tarbiya texnologiyasiga nisbatan yakunlangan elementdir. Agarda uslub biror-bir tarbiya masalasi bilan barqaror bog'liq bo'lsa, u oddiy tarbiyaviy texnologiya bo'lib qoladi.

Masalan, sinfni mikroguruhlarga bo'lish (qiziqishi bo'yicha, qur'a tashlash bo'yicha, yetakchilari bo'yicha), hamkorlikdagi faoliyatda o'yin rollarini yaratish usullari, guruhning muhokamada so'zga chiqish tartibi va boshqalar – bularning barchasi tarbiyaning aniq uslublariga misollar. Lekin ulardan hech biri, qandaydir aniq tarbiyaviy masala bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq emas, shuning uchun mana shu uslublarni turli xil texnologiyalarga kiritish mumkin.

Mikroguruhlarga ajratish uslubini jamoa bo'lib maqsadni belgilashda ham, hamkorlikda rejalashtirish va umumiy ishlarni bajarish texnologiyasida ham qo'llash mumkin, shuningdek guruhli tahlilni tashkil qilish usuli sifatida ham, muloqot reytingida mashqlar o'tkazish uslubi sifatida ham qo'llash mumkin. Shunga mos ravishda ishlab chiqilayotgan pedagogik yordam texnologiyalari ham ilgari ma'lum bo'lgan uslublar yo'nalishidan iborat bo'lishi mumkin, lekin ularning ma'lum tartibda tuzilgan ketma-ketliklari yangi tarbiya vazifalariga javob bera boshlashi mumkin. Pedagogik yordam texnologiyasi – bu o'sib borayotgan odamning boshqalardan o'zining farqini anglab yetishiga yordam beruvchi o'zining bo'shligi va o'z kuchi – jismoniy, intellektual, ma'naviy, ijodiy vositalardan foydalanishi tizimidir.

Bu ta'lim olishda mustaqil va muvafaqqiyatli ilgari borishi, shaxsiy hayot yo'li va hayot mazmunini tanlashi uchun zarurdir.

Ushbu texnologiyani amalga oshirish o'quvchining savolidan boshlanadi: "Men kim bo'laman!", "Qanday bo'lishim kerak?".

Pedagog bilan birgalikda mana shu savollarni muhokama qilish yana boshqa bir mustaqil savolni ham keltirib chiqaradi: “Qanday yashash kerak?” Maxsus tashkil etilgan maslahatlar orqali aynan mana shu o‘quvchiga xos bo‘lgan individual hayot tarzi asta-sekin tuziladi, intellektual, emotsional, jismoniy yuklamalar qulay rejimi tanlanadi.

O‘quvchi pedagog yordamida muvafaqqiyat va baxtsizliklarga bardosh berishning o‘zi uchun mos usullarini topadi, mehnat faoliyatining mos turini aniqlaydi, bo‘sh vaqtini, uzluksiz ish shakllari, odamlar bilan munosabatlar xususiyatlarini belgilaydi.

“Pedagogik yordam” tushunchasining semantik ma’nosi birinchi navbatda faqatgina biror narsaga kamroq ega bo‘lgan odamgagina yordam ko‘rsatish va qo‘llab-quvvatlash mumkinligidan iborat. Shuning uchun bolaning o‘zida biror narsani bilish istagi paydo bo‘lsa va bu yo‘lda uning oldida qiyinchiliklar paydo bo‘lsa – pedagogik yordam harakatga keladi.

Shunday qilib pedagogik yordam texnologiyasi, birinchi navbatda, vaziyatga javob qaytarishdan iborat bo‘ladi. O‘z navbatida bu texnologiya turli uslublardan iborat. Ulardan biri – baholash algoritmik uslub hisoblanadi.

Bola faoliyatini tuzatish va baholash munosabati: “yaxshi, yomon”, “to‘g‘ri-noto‘g‘ri”, “mumkin-mumkin emas” kabilar ma’lum yosh bosqichida belgilar xulqi doirasini belgilaydi. Bu uslub o‘qituvchi obro‘si hali juda kuchli bo‘lmagan kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar uchun ancha samarali bo‘ladi.

Pedagogik yordam texnologiyasini amalga oshirish uchun yangi bir uslub – ijtimoiy ko‘nikmalar kursini kiritish maqsadga muvofiq. Ushbu kurs etik madaniyat, ijtimoiy munosabatlar, shaharlararo munosabatlar, qaror qabul qilish, o‘zini anglash kabi fanlardan iborat bo‘lishi mumkin. Ushbu ikki fan – akademik emas balki laboratoriya – amaliy mashg‘ulotlar yoki o‘zini namoyon etish va o‘zaro aloqalar hamda hamkorlik tajribasi uchun jamoani ijodkorlik bo‘yicha mashg‘ulotlar ko‘rinishida qurilishi juda muhim.

Pedagogik yordamni amalga oshirishdan keyingi uslub –

bolalar jamoasini yaratish va o'zini boshqarishda pedagogning yordami hisoblanadi.

Shu yerda biz ma'lum bo'lgan eski oppozitsiyaga qaytamiz: jamoa va shaxs. Lekin ushbu holatda biz bolalar jamoasini tashkil etishni o'z maqsadimiz sifatida emas, balki har bir o'quvchining ijtimoiy, ijodiy o'zini amalga oshirishi sharti sifatida qaraymiz.

O'zini boshqarish buyruq bo'yicha yuzaga kelmaydi, balki bolalar va o'smirlar qiziqishlari hamda maktab fuqarosi huquqlari ham o'z manfaatlarini o'zaro himoya qilishlari ehtiyojlaridan kelib chiqadi. Ushbu o'zini boshqarish (aynan mana shu yerda pedagogning yordami kerak) maktab doirasida bolalar qiziqishlarini birlashtiruvchi bo'lganida va maktabning o'zi fuqarolik jamiyati sifatida qurilganda paydo bo'ladi.

Agarda diskoteka o'tkazish, sayohatga borish yoki qandaydir tanlovlar o'tkazish uchun o'smirlar birlashishni xohlasalar, mana shu vaziyatda o'zini boshqarish lokal tajribasi paydo bo'ladi. Kattalar esa bu vaziyatda yordamchi bo'lib qolishlari mumkin. O'zini boshqarishda qoidalar ishlab chiqarish majburiy element hisoblanadi. Bolalarning o'zlari yaratadigan qoidalar, qonunlar, huquq qoidalarining muhim ahamiyatga egaligi pedagogikada ancha avval payqalgan.

Bolalarning o'zlari yaratgan qoidalar ularni birlashtiradi. Maktab hayoti muammolarini yanada demokratik hal etishga imkon beradi. Lekin asosiysi, bunday qoidalar erkinlik va mas'uliyatlilik doirasini belgilab beradi. Ushbu holatni intizomlilikni rivojlantirishning kuchli vositasi sifatida tushunib, ko'pchilik maktablar o'zlarining qonunlarini, o'rtoqlik nizomlarini, vijdon kodekslarini yaratmoqdalar. Lekin ushbu uslubda ham ma'lum xavfli tomonlari mavjud. Pedagog, ba'zi bolalar boshqalar ustidan nazoratchi bo'lib qolmasliklarini kuzatib borishi zarur. Bunday holatda bolalar jamoasida adovat ham yuzaga kelishi va bolalar qonunni bajaruvchilar va ularga qarshi kuzatuvchilarga ajralib qolishlari mumkin. Shunday qilib, yuqorida tasvirlangan uslublar to'plami (ularning ro'yxati albatta, davom ettirilishi mumkin) yangi maqsad – pedagog yordam uchun

texnologiyani belgilab beradi. Va mana shu mazmunda innovatsion texnologiyadan iborat bo'ladi.

Umuman olganda, har qanday tarbiya tizimining yangilanishi innovatsiyalar hisobiga amalga oshiriladi. Bu esa ikki – revolyutsion va evolyutsion yo'l bilan sodir bo'lishi mumkin.

Inqilobiy yo'l odatda maktab hayotida, jamiyat hayotidagi favqulodda vaziyatlar bilan kelib chiqadi. Ikkinchi yo'l – tarbiya tizimini samarali pedagogik boshqarish bilan mumkin bo'ladi, chunki yangilanish mexanizmlari tizimning o'zida mavjuddir.

Tizimning holati va faoliyati to'g'risida yaxshi yetkazilib turiladigan obyektiv axborotlar, pedagoglar va o'quvchilar jamoasining doimiy, ijodiy izlanishiga yo'nalgan ishlari ta'lim tizimi yangilanishini rejali va boshqariladigan qiladi. Innovatsion maktab tashkil topishining didaktik jihatini tahlil qilish quyidagi xulosalarga kelishga imkon beradi:

Innovatsion maktab tashkil topishi jarayonini didaktik ko'rib chiqish uchta turlicha jihatlar orqali amalga oshiriladi:

- a) falsafiy-metodologik (o'qitish maqsadlari);
- b) nazariy (o'qitish mazmuni, o'qitish jarayoni tuzilishi va qonuniyatlari);
- c) texnologiya (o'qitish jarayoni qoidalar tamoyili).

Didaktik qarashning falsafiy-metodologik jhati quyidagidan iborat. U yoki bu ijtimoiy buyurtmaning mazmunidan qat'iy nazar, maqsadlarni aniqlashtirish jarayoni har doim ma'lum pedagogik strategiyani tanlash bilan berilishi kerak. Ijtimoiy buyurtmadan o'qitish jarayonini tashkil etishning aniq maqsadlariga o'tish jarayonida haqiqatda ishtirok etuvchilar barchalari: olim-didaktiklar, maktab ma'muriyati, birinchi navbatda esa yangi ta'lim modellarini ishlab chiquvchi innovatsion maktablar o'qituvchilari shunday tanlovni amalga oshirishga majburlar.

Turli pedagogik strategiyalardan tanlab olishning to'rtta yo'nalishi mavjud:

1. Bugungi ta'lim sohasining yaxlit eng yuksak vazifalari;
2. O'qitish va rivojlantirish jarayonlari nisbati:

3. Ta'lim mazmuni konsepsiyasi ma'lum turiga yo'nalganligi;
4. Inson madaniyati tuzilishi to'g'risida tasavvur.

Ushbu ma'lum pedagogik strategiyani tanlash ilmiy obyektiv vazifalar bilan umuman hal etilishi mumkin emas. U har bir aniq innovatsion guruhning umumiy dunyoqarashi bilan, metodologik, falsafiy, antropologik qarashlari bilan bog'liq.

Didaktik qarash falsafiy-metodologik jihatida maktabning innovatsionligi g'oyaning o'zi umuman yangiligidan tashqari, maktabda maqsadni shakllantirish jarayoni mavjudligi qayd etilganligidan ham iborat bo'lishi mumkin. Maqsadni shakllantirish innovatsion maktabning mavjudligiga sabab bo'ladi, va o'z navbatida o'qitishning o'zi u sababli bo'ladi.

Innovatsion maktabning tashkil topishi didaktik qarash (o'qitish mazmuni, o'qitish jarayoni tuzilishi va qonuniyatlari) nazorat jihatlari quyidagilardan iborat. Zamonaviy ta'lim vaziyatlari sharoitlarida, deyarli har bir maktabda variantiv qismini aniqlash hisobiga boshlash, keyin esa, invariant asosini aniqlashtirib shaxsiy pedagogik strategiyasini ishlab chiqish imkoniyatiga ega. Ya'ni zamonaviy asosiy o'quv rejasi faqatgina turli innovatsiyalar yuzaga kelishiga yordam beruvchi omil sifatida emas, balki haqiqiy rag'batlantirish sifatida ham amal qila boshlaydi.

O'qitish nazariyasi (o'qitish jarayoni tuzilishi va qonuniyatlari), o'qitish mazmunidan farqli ravishda innovatsiyalar yuzaga kelishi uchun imkoniyat hisoblanmaydi. Lekin innovatsion maktab tashkil topishini didaktik qarashda texnologik jihatida yuzaga keladigan innovatsiyalar uchun cheklovchi rolida ishtirok etishi mumkin.

Innovatsion maktab tashkil topishini didaktik qarashdagi texnologik jihati quyidagilardan iborat.

O'qitish mazmuni va texnologiyasida o'zaro bog'liqlik mavjud. O'qitish mazmunidagi o'zgarish (misol uchun o'quvchi fikrlarini tashkil etuvchi sxemalar kiritish) darhol mana shu mazmunni yetkazib berishga qodir yangi pedagogik texnologiyani ishlab chiqishni talab qiladi. Va aksincha, ma'lum texnologiyalar

o'qitish mazmuni hajmining o'ziga xos chegaralovchilarini ilgari suradi, masalan, davomiyligi va qamrab olish kengligi. Aniq pedagogik texnologiyalar ko'rinishida berilgan har qanday innovatsiyalar didaktik qarash texnologik jihatida, bir tomondan o'qitish nazariyasi va mavjud maqsadlar bilan cheklangan, ikkinchi tomondan esa ushbu innovatsion texnologiya "mos" keladigan yondashish xususiyati (texnoizlanish) bilan cheklangan. Innovatsion maktab tashkil topishini didaktik qarash turli jihatlariga o'xshash tarbiyaviy tizim tashkil topishini falsafiy va texnologik jihatlarida qaraladigan innovatsiyalarni o'rganish ham mavjud.

Ommaviy sinfdan tashqari ish formalari pedagogik kollektiv orqali har bir bolaga ta'sir ko'rsatishga imkon beradi. Ular bolalarda boshqalarni tushunish, kollektivda bir-biriga ta'sir ko'rsatish, tengloshlari va kattalar bilan hamkorlik qilish malakalarining rivojlanishiga yordam beradi.

Sinfdan tashqari ishning ana shu ommaviy shakllarini ikkita katta guruhga ajratish mumkin. Bu guruhlar bolalar faoliyatining xarakteri bilan farq qiladi.

Birinchi guruh – frontal shakllar. Bolalarning faoliyati «yonimda», «yonida» printsipi bo'yicha tashkil etiladi, ya'ni ular bir-birlari bilan o'zaro ta'sirda bo'lmaydilar, har bir bola aynan bir xil ishni mustaqil ravishda bajaradilar. Pedagog har bir bolaga bir yo'la ta'sir ko'rsatadi. Cheklangan bolalar bilangina teskari aloqa o'rnatiladi. Sinfning hammasi bilan o'tkaziladigan tarbiyaviy mashg'ulotlarning ko'pchiligi "yonida" printsipi bo'yicha tashkil etilgan.

Bolalarning sinfdan tashqari faoliyatini tashkil etish shakllarining *ikkinchi guruhi "birga", "birgalikd." prinsipi* bilan xarakterlanadi. Umumiy maqsadga erishish uchun har bir ishtirokchi o'z rolini bajaradi va umumiy natijaga o'z hissasini qo'shadi. Hammaning xatti-harakatlari muvaffaqiyati har bir ishtirokchining harakatiga bog'liq. Ishni bunda tashkil etilishi jarayonida bolalar bir-birlari bilan yaqin amkorlikda ish ko'rishga majbur bo'ladilar. Bunday faoliyat kollektiv faoliyat

nomini olgan, tarbiyaviy ish esa – kollektiv tarbiyaviy ishlar deb nomlanadi. Pedagog har bir bolaga alohida ta'sir ko'rsatmaydi, balki bolalar o'rtasidagi o'zaro aloqaga ta'sir etadi, bu esa pedagog bilan o'quvchilar o'rtasidagi teskari aloqaning yaxshilanishiga yordam beradi. Bolalarning juft-juft, kichik guruhlarda, sinfdagi faoliyati «birgalikda» prinsipi bo'yicha tashkil etilishi mumkin.

Har bir yo'nalishning o'z afzalliklari va kamchiliklari bor.

Birinchi guruh pedagog uchun tashkil etishda oddiyligi bilan farq qiladi, lekin kollektiv o'zaro ta'sir malakalarini kamroq shakllantiradi. Ikkinchi guruh bolalarda hamkorlik, bir-biriga yordam berish, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish malakalarini rivojlantirish uchun tengi yo'q. Biroq kichik yoshdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlariga ko'ra (ular boshqa kishida teng huquqli insonni ko'rolmaydilar, kelishib olishni, birga bo'lishni bilmaydilar) kollektiv shakllarni tashkil etish pedagogdan ko'p vaqt va muayyan tashkilotchilik malakalarini talab etadi. Uning pedagog uchun murakkabligi ham mana shunda.

Ikkala yo'nalish o'zaro bog'langan va bir-birini to'ldiradi, shu sababli quyida biz har bir yondashuv imkoniyatlarini aniq bir shakl misolida qarab chiqamiz.

Umumsinf tarbiyaviy mashg'ulotni tayyorlash. Faraz qilaylik, algoritmik muvofiq bolalar kollektivini o'rganish bosqichi tugallangan va pedagog mashg'ulotning mana shu shaklini tanlagan. Birinchi navbatda mashg'ulotning mazmuni belgilanadi, unga muvofiq mazkur sinf uchun aktual bo'lgan mashg'ulot mavzusi tanlanadi va mashgulot g'oyasi ifodalanadi,

Pedagog o'zidan fikran shunday deb so'rashi kerak:

“Mazkur mavzuni ochib borish orqali bolalarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish natijasida nimaga ega bo'lishni istayman?” Umumsinf tarbiyaviy mashg'ulotning mazmuni rivojlantirish, to'g'rilash, shakllantirish vazifalarini aks ettirishi kerak. Ta'lim berish vazifasi umumiy vazifalardan biri sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Boshqa so'z bilan aytganda “ .. haqidagi

ma'lumotlarni bayon qilish" tarbiyaviy mashg'ulotning maqsadi bo'lishi mumkin emas (vazifalardan biri bo'lishi mumkin). Pedagog sinfdan tashqari mashg'ulotning maqsadi hamda vazifalarini qanchalik aniq ifodalasa, uning istalgan natijalar haqidagi tasavvuri ham aniq bo'ladi. Faqat shundan keyingina mashg'ulotning mazmunini, metodlarni, vositalarni tanlashga kirishish mumkin. Mashg'ulotning mavzusi, mazmuniga alohida ahamiyat berib, uning maqsadini ifodalashga normal yondashadigan yoki uni umuman e'tibordan chetda qoldiradigan pedagoglar noto'g'ri ish yuritadilar. Bunday holda tarbiyaviy ishning maqsadga yo'naltirilganligi va tizimliliigi yuqoladi.

Mashg'ulot modelini tayyorlash natijalari umumsinf tarbiyaviy mashg'uloti konspektida aks ettiriladi. U quyidagi tuzilishda bo'ladi:

- 1) mashg'ulotning nomi;
- 2) maqsadi, vazifalari;
- 3) jihozlanishi;
- 4) o'tkazish shakli;
- 5) borishi.

Mashg'ulotning nomida sinfdan tashqari mashg'ulotning mavzusi aks ettiriladi. U faqat aks etib qolmay, shakl bo'yicha lo'nda qilib ifodalangan, jozibali bo'lishi lozim.

Vazifalar juda aniq bo'lib, mazkur mazmunni aks ettirishi kerak. Ular universal xarakterda bo'lmasligi lozim. Masalan, "Jonajon shahriga muhabbat uyg'otish" vazifasi o'rniga "Shahar tarixiga qiziqishni oshirish", "Bolalarda shahar yubileyiga tayyorgarlik ishlariga o'z hissasini qo'shish istagini uyg'otish", "Bolalarda shaharning o'tmishdagi mashhur kishilariga nisbatan hurmat hissi shakllanishiga yordam berish" kabi vazifalarni qo'yish yaxshi bo'ladi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotning jihozlanishiga turli vositalar: qo'llanmalar, o'yinchoqlar, videofilmlar, diapozitivlar, adabiyotlar va boshqalar kiradi. Adabiy manbaning nominigina emas, balki uning muallifi, nashr etilgan joyi va yili ko'rsatilishi kerak.

Sinf mashg'ulotlari ekskursiya, viktorina, konkrus,

spektakl va hokazo shaklda o'tkazilishi mumkin. Bunday holda mashg'ulot rejasida uni o'tkazish shakli "Matematik viktorina", "Fantaziyachilar konkursi", "Hayvonot bog'iga ekskursiya" kabi nomlar bilan birlashtiriladi. Agar sinf mashg'uloti o'zida bironta o'tkazish shakllarini birlashtirsa, unda bolalarni joylashtirish usuli ko'rsatiladi: aylana, komandalar va hokazo.

Mashg'ulotning borishida uning mazmuni, tarbiya metodlari tavsif etiladi va pedagogning mashg'ulotni birinchi shaxs nomidan batafsil, izchillik bilan bayon qilinishdan iborat bo'lishi mumkin yoki (pedagogning shaxsiga qarab) asosiy mazmuni kartochkalarda ifodalangan tezisli plandan tashkil topishi mumkin.

Mashg'ulotning borishini modellashtirishda uning davomiyligi va strukturasi hisobga olish zarur. Sinf tarbiyaviy mashg'uloti olti yoshlilar uchun 15–20 daqiqadan o'n – o'n bir yoshlilar uchun 1–2 soatgacha davom etishi mumkin.

Mazmuni va metodlari bo'yicha xilma-xil bo'lgan sinf mashg'ulotlarini samarali o'tkazish maqsadida uning asosiy to'rt bosqichdan iborat bo'lishiga amal qilish ma'qul.

1. Tashkiliy moment (0,5 – 3 daq.).

Pedagogik maqsad: bolalarni o'quv faoliyatidan faoliyatning boshqa turiga ko'chirish, ana shu faoliyat turiga qiziqish, ijobiy his-tuyg'ular uyg'otish.

Tipik xatolar: darsning boshlanishini aynan takrorlash, uning vaqt jihatidan uzoq davom etishi.

Tavsiyalar: tashkiliy momentda kutilmagan holatni yuzaga keltirish, ya'ni topishmoqlar, muammoli masalalar, o'yin momenti, tovush yozuvlari va hokazolardan foydalanish; bolalarni uyushtirish shakllarini o'zgartirish; bolalarni boshqa xonaga, binoga (biologiya, fizika, musiqa sinflariga, kutubxonaga, maktab muzeyiga) o'tkazish yoki ularni sinfda gilamcha, aylana shaklda joylashtirish bolalarning darsdan tashqari faoliyati samarali ko'chishiga yordam beradi. Bu bo'lajak mashg'ulotga qiziqish, ijobiy his - tuyg'ular uyg'otadi.

2. Kirish qismi (butun mashg'ulot vaqtining 1/5 qismidan

1/3 qismigacha).

Pedagogik muqsad: bolalarni faollashtirish, ularni tarbiyaviy ta'sirga moyil qilish. Pedagog o'zining pedagogik prognozi haqiqatda bolalarning imkoniyatlari, shaxsiy sifatlari, mazkur mavzu yuzasidan xabardorlik darajasi, emotsional kayfiyati, faollik, qiziqish darajasi bilan qanchalik mos tushishini aniqlaydi. Bu bosqichda pedagogdan bolalarni qiziqtirishgina emas, balki mashg'ulotning borishi davomida unga qanday tuzatishlar kiritishi kerakligi va tuzatishlar qanday xarakterda bo'lishini aniqlash talab etiladi. Masalan, pedagog o'zi ma'lum qiladigan narsalarning yangiligiga umid bog'lab, hikoyani planlashtirgan edi, ammo kirish suhbatida bolalarning bu muammoni bilishini ko'rsatdi. Bunday holda pedagog hikoyani suhbat yoki o'yin vaziyati bilan almashtirishi zarur. Shunday qilib, kirish qismining maqsadi bolaning shaxsiy tajribasidan mashg'ulot mavzusiga "ko'pri tashlash"dan iborat.

Tipik xato: pedagogning kutilmaganda bolalarning ta'sirlanishidan (bolalar pedagog kutayotgan narsani aytmagligi yoki qilmasligi mumkin) qo'rqqani tufayli bu bosqichni inkor etishi. Pedagog mashg'ulotning kirish qismini bolalarning faolligiga emas, balki shaxsiy faollik asosiga quradi, eskari aloqani mensimay, bolalarga passiv tinglovchilar rolini beradi. U bolalarning emotsional kayfiyatini e'tiborga olmasdi.

Tavsiyalar: kirish qismi mashg'ulotning mazmuniga qarab bilish xarakteridagi kirish suhbatidan, estetik va axloqiy mashg'ulotlar yoki aqlni "charxlab olish" topshiriqlaridan (viktorina, konkurs va h.k.) iborat bo'lishi mumkin.

Birinchi holatda savollar, ikkinchisida – topshiriqlar bolalar uchun qiziqarli bo'lib qolmay, pedagoga o'quvchilarning tayyorlangan materialni idrok qilishga tayyarligi haqida axborot berishi kerak. Kirish qismida pedagog bolalarning bo'lg'us mashg'ulot hajridagi dastlabki tasavvurlarini shakllantiradi, ularning faoliyatini tashkil etadi, ya'ni liholash tizimi bilan tanishtiradi, mashg'ulot rejasini ma'mum qiladi, ularni komandalarga bo'ladi. Baholashning an'anaviy tizimida pedagog

aniq mezonlarni berishi, zarur qoidalarni tushuntirishi kerak.

Bolalar komandalarga bo'linganda ularning xatti-harakatlarini raqobat asosiga emas, balki hamkorlik asosiga qurish lozim. Buning uchun quyidagi usul samaralidir: komandalarga to'g'ri javoblar uchun ochkolar o'rniga qirqib ajratilgan rasmning bo'lakchalari tarqatiladi. Mashg'ulotning yakuniy qismida bu bo'laklardan umumiy rasm yig'iladi hamda ballar miqdori emas, balki umumiy natija muhimligi ayon bo'lib qoladi.

Mashg'ulotning kirish qismida bolalarni faollashtirishning turli-tuman metodlari hamda vositalaridan: muammoli suhbat, rebus, krassvord, topqirlik va chaqqenlikka doir topshiriqlar va hokazolardan foydalanish mumkin.

3. Mashg'ulotning asosiy qismi – vaqt jihatidan eng davomli bo'lishi kerak (mashg'ulotning 2/4, 1/3 dan sal ko'proq qismi).

Pedagogik maqsad: mashg'ulotning asosiy g'oyasini amalga oshirish.

Tipik xatolar: bolalarning qisman yoki butunlay passivligida pedagogning faolligi. Metodlarning bir xilligi – faqat hikoya yoki suhbat. Ko'rgazmalilikning yo'qligi, foydalaniladigan tarbiya vositalarining juda ham kamligi. Ongni shakllantirish metodlarining xulq-atvorni shakllantirish metodlaridan ustunligi. Darsning o'quv muhiti yaratilishi. Ibratlilik, o'rgatish, nasixatgo'ylik qilish.

Metodik tavsiyalar: agar bolalar maksimal ravishda faol bo'lsalar, mashg'ulotning rivojlantiruvchi, to'g'rilovchi, shakllantiruvchi, tarbiyalovchi, ta'lim beruvchi vazifalarini amalga oshirishda tarbiyaviy samara yuqori bo'ladi. Sinfdan tashqari mashg'ulotda bolalarni faollashtirishda darsdan farq qiladigan alohida emotsional muhitni yaratish birinchi darajali ahamiyatga ega. Masalan, bolalardan qo'llarini ko'tarish, o'rnilaridan turish talab etilmaydi. Intizomni saqlab turish uchun alohida qoidalar joriy qilinadi.

Bir masala yuzasidan bir necha o'quvchi o'z fikrini bildirishi eng qulaydir. Pedagogning nutqida "to'g'ri", "balli", "ofarin" deb baholaydigan fikrlarning bo'lmasligi, baholar o'rniga

xayrixohlik, his-hayajon, pedagogning his-tuyg'ularini ifodalovchi, qoyil qolish bilan aytilgan "Ha", "Juda qiziqarli", "Yangi xabaring uchun rahmat", "Shundaymi?", "Buni qarang-a!" kabi iboralardan foydalanish iliq, xayrixohlik muhitining yaratilishiga yordam beradi.

Agar pedagog xulq-atvorni shakllantirishning xilma-xil metodlaridan iloji boricha ko'p foydalansa, vaziyatni, o'yinni tarbiyalovchi mashqlar, o'rgatish, topshiriqlar berish, mashg'ulotga turli xil faoliyat turlari: mehnat ijodiy ishlar, sport elementlari va hokazolarni kiritisa, samaradorligi shuncha oshib boradi. Pedagog turli faoliyat turlarini tashkil etishda bolalarni komandalarga birlashtirar ekan, ularni bir-birlari bilan erkin muomalada bo'ladigan qilib joylashtirishi, vazifalarni esa har bir ishtirokchi o'zi uchun alohida emas, balki o'zini jamoaning bir qismi deb his etadigan qilib taqsimlashi kerak. Topshiriqni bajarish uchun vaqt berishda komandaga uni bajarishni muhokama qilishiga bir necha daqiqa vaqt ajratish va komanda vakilidan tayyorligini so'rash lozim. Shunday qilingan taqdirdagina bolalarda faoliyatning umumiy maqsadi, xilma-xil vazifalar va hamkorlik uchun sabab (motiv)lar bo'ladi.

Ongni shakllantarish metodlari bolalarda e'tiqodning, amaliy etik (axloqiy) tushunchalarning tarkib topishiga yordam berishi kerak. Bu maqsadlarda hikoya metodini o'quvchining axboroti, ma'ruzasi tarzida o'zgartirish, tez-tez munozaradan foydalanish yaxshi samara beradi.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning ommaviy shakllarida bolalarni munozara qoidalariga o'rgatish lozim:

a) shuni yodda tutingki, bahslashuvchilar haqiqatni izlaydilar, ammo uni turlicha tasavvur qiladilar; bahsda umumiy mazmuni aniqlash, keyin esa qarashlardagi farqni oydinlashtirish va bunga hurmat bilan munosabatda bo'lish kerak;

b) munozaraning maqsadi – tomonlardan birining haqligini aniqlash emas, balki haqiqatni qaror toptirishdir;

c) haqiqatni opponent shaxsiga ayblar qo'yish bilan emas, balki faktlar yordamida qidirish zarur;

d) soʻzlovchini avval hurmat bilan tinglash, keyin esa oʻz nuqtai nazarini bildirish lozim.

4. Mashgʻulotning yakuniy qismi.

Pedagogik maqsad: bolalarni egallagan tajribalarini oʻzlarining maktabdan tashqi hayotlarida amalda qoʻllashga moyil qilish (xohish uygʻotish) va mashgʻulot qanchalik muvaffaq boʻlganligini aniqlash. Shunday qilib, yakunlovchi qism pedagogning bolaga boshqa muhitda tarbiyaviy taʼsir koʻrsatishiga imkon beradi.

Tipik xatolar: bu qism umuman inkor qilinadi yoki “Yoqdimi?”, “Yangidan nimalarni bilib oldingiz?” qabulidagi ikki savoldan iborat boʻlib qoladi.

Tavsiyalar: dastlabki natijalarni aniqlash uchun krossvord, kichik viktorina, berilgan savolga uzoq oʻylamay tez javob qaytarish, oʻyin vaziyatlari kabi bolalarni qiziqtiradigan test xarakteridagi nazorat topshiriqlari. Bolalarning egallash tajribalarini shaxsiy hayotlarida qoʻllashga doir turlicha tavsiyalar berish. Bu mazkur muammoga doir kitoblarni koʻrsatish, bolalarning mashgʻulotda egallagan bilim, malaka va koʻnikmalarini qoʻllashi mumkin boʻlgan vaziyatlarni muhokama qilish boʻlishi mumkin. Hosil qilingan tajribani qoʻllashga doir bolalarga maslahatlar: ular oʻz yaqinlariga nimalarni gapirib berishlari, mazkur mavzu yuzasidan nimalar haqida soʻrashi mumkin; qayerga borish, u yerda nimalarga eʼtibor berish, qanday oʻyinlar oʻynash, mustaqil ravishda nimalar qilish va hokazo. Yakunlovchi qismda mashgʻulot mavzusini kelgusida yana yoritib borish zarurati bormi, bor boʻlsa buni qanday yoʻl bilan amalga oshirish mumkinligini aniqlash maqsadga muvofiqdir. Mashgʻulotning yakunlovchi qismidan pedagog bundan keyingi sinf mashgʻulotlarini oʻtkazishda bolalar tashabbusini rivojlantirish uchun ham foydalanishi mumkin.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning individual va ommaviy shakllari, agar ularni tashkil etish va oʻtkazishda otalar bevosita ishtirok etsalar, bolalarga tarbiyaviy taʼsir koʻrsatishda ancha samarali boʻladi.

1.7. Tarbiyaviy ishlarning yo‘nalishlari

Tarbiyani eng avvalo insonning o‘ziga qaratilishi lozimligi Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan, butun dunyo hamjamiyati tan olgan qadam-baqadam amalga oshirilayotgan “o‘zbek modeli”da juda to‘g‘ri belgilandi. Dunyoda birinchi bor insonning diqqat-e’tibori uning o‘zligini anglashga qaratildi. O‘zligini anglash birinchidan, uning ozod, erkin, nodir, ulug‘ siymoligini anglash va o‘zida unga amal qilish sifatlarini shakllantirib borish bo‘lsa, ikkinchidan, uning o‘ziga xos milliy-insoniy asoslarini anglash va ularga amal qilishidan iboratdir.

Yuqorida sanab o‘tilgan ikki sifat komil inson sifatining asosini tashkil etadi. Komil inson sifatlarini tarbiya sohasidagi ilmlarini xulosalab, mujassamlashtirsa, ular asosan: a) ezgu niyat, fikr; b) ezgu so‘z, xushmuomila; c) ezgu ish, ezgu faoliyatdan iboratdir.

Shu yuqoridagi uch sifat o‘qitishning, ta’lim-tarbiyaning bosh maqsadiga kiradi. Bu bosh maqsad insonlarda, yoshlarda, mutaxassislarda komillik sifatlarini takomillashtirish, yoshlarni zamonaviy axloqiy-amaliy o‘quv, malaka, ko‘nikmalar bilan qurollantira borish, mutaxassislarda har bir sohaga mos ilm, bilim hosil qilishdan iborat bo‘lgan pedagogika fanining zamonaviy fan asoslarining kengayganligini ko‘rsatadi.

Pedagogika fani o‘qitishning, ta’lim-tarbiyaning zamonaviy qonuniyatlari, mazmuni, usullari, vositalari bilan kishilarni, yoshlarni, mutaxassislarni qurollantiruvchi fan bo‘lganligi uchun, uning metodologik asoslari, maqsad va vazifalari dunyoning moddiy-ma’naviy rivojida shaxs kamoloti uyg‘unligi qonuniyatlari va davlatning zamonaviy siyosatidan kelib chiqadi.

O‘zbekiston Respublikasiining «Ta’lim to‘g‘risida» gi qonunida O‘zbekiston Respublikasi ijtimoiy taraqqiyotida ta’lim ustivor soha deb e’lon qilingan.

Ta’limning, o‘qitishning vazifasi fuqarolar, yoshlarning eng asosiy konstitutsiyaviy huquqlaridan biri bo‘lgan har bir kishining aqliy-amaliy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, ijodiy qobili-

yatlarini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojini ta'minlash, o'zi xohlagan kasbini tanlash jihatidan rivojini ta'minlash, o'zi xohlagan sohada faoliyat ko'rsatishi uchun moddiy-ma'naviy, tarbiyaviy didaktik shart-sharoit yaratishdan iboratdir. Bu umumiy vazifadan ta'limning har bir bo'g'ini, turi va bosqichining o'ziga xos vazifalari kelib chiqadi.

Ta'lim pedagoglarning faoliyatidan va o'quvchi talabalarning faoliyatidan iborat qo'shaloq jarayondir.

Birgalikdagi faoliyat orqali yoshlar ilmiy bilimlar bilan qurollanadilar. Buning natijasida ularning ijodiy qobiliyatlari har tomonlama shakllanadi. Ma'lumot ta'lim-tarbiya jarayonining natijasi orqali to'plangan bilim, ko'nikma va malakalar yig'indisi va shakllangan ma'naviy fazilatlar majmuidir.

Ma'lumot olishning to'g'ri va ishonchli yo'li davlat ta'lim standartlari bo'yicha bilim beradigan aniq maqsadli rejalar, dasturlar asosida o'quv yurtlarida tashkil qilinadigan ta'lim-tarbiya jarayonidir.

Ta'lim, tarbiya, ma'lumot, rivojlanish, shakllanish uyg'unlashgan yagona jarayondir.

Unda o'qituvchi-tarbiyachi rahbarlik qiladi. Pedagogika uzoq tarixiy jarayonda shakllanar ekan, hozirga kelib ilmiy bilimlarning mustaqil bir tarmog'i sifatida, fan sifatida shakllandi. O'zining ilmiy-nazariy, uslubiy, amaliy asoslarini yaratdi. Natijada pedagogika fanlari tizimi, ya'ni uning tarmoqlari vujudga keldi. Yaqin vaqtgacha falsafaning bir tarmog'i hisoblangan pedagogikaning mustaqil yangi yo'nalishlari yaratildi. Jumladan, pedagogika fanining tarixan rivojlanishi aks ettirildi. Bunda o'tmishdagi ilg'or pedagogik g'oyalarning paydo bo'lishi, rivojlanishi, ularning bugungi kundagi ahamiyati, merosdan foydalanishning zaruriyati haqida fikr yuritiladi.

Pedagogika fanlari tizimida tarbiyalanuvchilarning yoshiga qaratilgan tarmoq pedagogikalar mavjud. Jumladan, maktabgacha ta'lim pedagogikasi, umumiy ta'lim pedagogikasi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi pedagogikasi, oliy ta'lim pedagogikasi, ishlab chiqarish pedagogikasi, menejment, davolash pedagogikasi,

gerontopedagogika, harbiy pedagogika, yangi pedagogika texnologiyalari kabidir.

Tarbiya ma'naviy manbalar va hozirgi zamon talablari va ehtiyojlarini nazarda tutgan holda, o'qituvchining o'quvchi bilan aniq bir maqsadga qaratilgan o'zaro amaliy va nazariy muloqotidir.

Biror bir maqsadga qaratilgan tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari tarbiyachi tomonidan rejalashtiriladi va tartibga solinadi:

a) talabning biron xislatini shakllantirish yoki yo'qotish maqsadida rejalashtiriladi;

b) shu xislatlarni tarbiyalash yoki yo'qotish uchun xizmat qiluvchi manbalar izlab topiladi;

c) belgilangan maqsad uchun xizmat qiladigan nazariy va amaliy manbalarni qaysisini va qayerdan izlashi rejalashtiriladi.

Bunday rejaga solinib olib borilgan tarbiya mohiyatini ta'lim-tarbiya tizimi, jamiyat va insonlarning intellektual va jismoniy faoliyati tashkil qiladi.

Tarbiya jarayonining jamiyat taraqqiyotidagi roli nihoyatda beqiyosdir. Insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini asta-sekin ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Bu insonning mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalaydi, mushohada qilish esa aqlni peshlaydi. Aql ongni saqlaydi. Ong esa moddiy va ma'anaviy manbaga aylanadi. Shu tarzda inson asta-sekin takomillashib, komillikka erishib boradi. Ammo buning uchun tarbiyachi va tarbiyalanuvchidan uzoq davom etadigan ma'suliyat, sharaflı mehnat va qunt, iroda talab etiladi. Buning uchun bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish zarur. Ma'naviy, insoniy sifatlarining shakllanishida oiladagi, atrofdagi, jamiyatdagi muhit va bolalarga bo'lgan munosabat muhim rol o'ynaydi. Ota-onalari va atrofdagilarning bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini ko'rgan bola shunga qarab shakllana boradi. Ular avval kattalarga taqlid qiladilar. So'ng asta-sekin qilayotgan ishlarning mohiyatini anglaydilar. Bolalarni to'g'ri tarbiyalashda ota-onaning ongi, ma'naviyati, bilimi

tarbiyalanganligi ham muhim ahamiyatga ega.

Aniq bir maqsadga qaratilgan tarbiyaning samaradorligi tarbiyachining qanday usuldan foydalanishiga bog'liq.

Usul – yunoncha atama bo'lib, aynan qandaydir yo'l, usul orqali maqsadga, nimagadir erishish yo'lini bildiradi. Usul axborotni uzatish va qabul qilish xarakteriga qarab:

- 1) so'z orqali ifodalash usuli;
- 2) ko'rgazmalilik usuli;
- 3) amaliy namuna usuli;
- 4) rag'batlantirish va jazo usuli bo'lishi mumkin.

Yuqoridagi usullar o'z navbatida quyidagi guruhchalarga bo'linadi:

1-guruh: so'z orqali uzatish, maslahat berish, ma'lumotlarni eshitish orqali qabul qilish (hikoya, ma'ruza, suhbat) usullari;

2-guruh: kinofilmlar, tasviriy san'at, badiiy san'at va boshqa ko'rish orqali tarbiyalash usullari;

3-guruh: tarbiya ma'lumotlarini amaliy mehnat harakatlari orqali berish, o'mak ko'rsatish, boshqalarni amaliy mehnatini misol qilib ko'rsatish;

4-guruh: o'quvchi talabalarning yaxshi bajargan ishlarini, o'rtoqlari oldida yoki ota-onalar majlisida ma'qullash, minnatdorhilik bildirish, iqtisodiy yordam, stipendiyalarni oshirish, maqtov yorliqlari topshirish, suratlarini hurmat taxtachasiga osish va boshqa og'zaki "Rahmat", "Barakalla" kabi rag'batlantirish usullari.

Agar bola siz ogohlantirmasingizdan yoki tushuntirmasingizdan oldin o'z xatosini tushungan bo'lsa-yu, sizga qilgan xatosini aytolmay izza chekib turgan bo'lsa, uni jazolashga zarurat yo'q. Endi bu xatoni qaytarmayman, degan ma'noda Sizga qarayapti. Siz unga yana bir marta imkoniyat bering. Ammo keyingi gal ham xato qilsa va uni tan olmasa, unday hollarda quyidagi jazo turlari qo'llaniladi: tushuntirish, tanbeh berish, ogohlantirish, qattiq ogohlantirish, uyaltirish. Yuqoridagi jazo turlarini o'qituvchi o'quvchiga yuzma-yuz hech kimning g'uvohisiz qo'llaydi. Ammo gruppadosh o'rtoqlari yoki

sinfdoxlari oldida izza qilay deb bolani uyaltirsa, yomon oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Uyat – bu insonning eng nozik sezgisi bo‘lib, o‘quvchining o‘rtoqlari yoki jamoa orasida izza qilishi eng yuqori jazo hisoblanadi.

O‘quvchini jamoa orasida izza qilishni eng oxirgi chorasiz qolganda qo‘llash mumkin. Eng ma‘quli o‘quvchi bilan yuzma-yuz o‘tirib, mehrii ohangda unga ishonch bildirib, qaltis yo‘ldan qaytarish mumkin.

Tarbiya har bir insonning hayotda yashashi jarayonida orttirgan saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy ko‘nikmasini o‘zgalarga berish jarayoni.

Bolaning xarakterini, oiladagi tarbiyasini, uning or-nomusi, sharm-hayosi kabi nozik tuyg‘ularining tarbiyalanganlik darajasini bilmay turib, yaxshi o‘ylab ko‘rmasdan birdaniga jamoa orasida uyaltirish yoki jahl ustida tinimsiz kaltaklash mumkin emas. Sizning tanlagan jazo usulingiz o‘quvchini yoki farzandingizni qilgan xatosini tushunishga, boshqa qilmasligiga tarbiyaviy saboq bo‘lishi kerak. Agar bu jazo usullari o‘zining samarasini bermasa, u holatda ehtiyotkorlik bilan maktab ma‘muriyati va jamoa hamkorligida boshqa choralarni ishlab chiqish kerak.

Bugungi kunda pedagogika fani amaliyoti ham takomillashib bormoqda. Shuningdek, tarbiya jarayoni ham zamon talabiga monand takomillashib boradi.

Boshqaruv organlari barkamol avlodni o‘qitish va tarbiyalash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirishlari, yetilgan masalalarni o‘z vaqtida va ijobiy hal etishlari, barcha o‘quv yurtlarining ish saviyasini hozirgi zamon talablariga muvofiq oshirishni ta‘minlashlari kerak.

Ta‘lim oldiga qo‘yilgan vazifalarni muvaffaqiyatli bajarish ta‘lim tizimini boshqarish va unga rahbarlik qilish faoliyatining saviyasiga bog‘liq. Kelajagi buyuk jamiyatning rivojlanish talablaridan kelib chiqib, maorifning o‘rni va roliga yangi avlodni tarbiyalash nuqtai nazaridan qarab, Oliy Majlis materiallarida, Prezidentimiz ma‘ruzalarida, maxsus qarorlarda rahbarlikni yuqori

ilmiy darajada amalga oshirish zarurligiga alohida e'tibor berib kelinmoqda.

Ta'lim tizimiga ilmiy rahbarlik asoslarini ishlab chiqish pedagogika uchun asosiy yo'nalishdir. Barkamol avlodni o'qitish va tarbiyalash tajribalarini o'rganish, umumlashtirish, bu jarayonning qonuniyatlarini ochib berish, pedagogika nazariyasining asosiy masalalarini ta'lim amaliyoti va fan yutuqlarini nazarda tutgan holda, I.A. Karimov asarlari asosida ijodiy hal qilish pedagogikaning burchidir. I.A. Karimov o'z asarlarida kelajagi buyuk O'zbekiston Respublikasining organlarini tashkil etish va boshqarishga, ularning rahbarlik faoliyatiga doir muhim prinsiplarni har taraflama mufassal ishlab chiqdi.

Ilmiy va pedagogikaviy amaliyot bilan bog'lanish tamoyili. Bu tamoyil xalq ta'limi organlari va maktabning hamma ishini O'zbekiston Respublikasi davlatining ko'rsatmasi, fan va texnika yutuqlari hamda ijtimoiy taraqqiyotning obyektiv qonuniyatlari asosida amalga oshirishni talab etadi. Chunki idora qilish uchun ishni bilish kerak. Hamma narsadan xabardor bo'lmasdan turib, to'la-to'kis bilimga ega bo'lmasdan turib, idora qilish ilmini bilmasdan turib boshqarish mumkin emas. Ta'lim ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yish, unga rahbarlik qilishda qo'zg'algan maqsadlarga erishish uchun milliy mafkura, milliy goya, pedagogika tarixi, psixologiya, xususiy metodika, mantiq, etika-estetika kabi fanlar erishgan yutuqlarni muntazam o'rganib borish, tahlil qilish hamda bu muvaffaqiyatlarni keng qo'llash zarur.

Boshqaruv muassasalari barkamol avlodni o'qitish va tarbiyalash sohasida yagona davlat siyosatini yuritishlari, muttasil yetilgan masalalarni o'z vaqtida va ijobiy hal etishlari, barcha o'quv yurtlarining ish saviyasini hozirgi zamon talablariga muvofiq oshirish ishini ta'minlashlari kerak.

Ta'lim tizimini boshqarishda markazlashgan rahbarlikni keng demokratiya bilan, mustaqillik va tashabbuskorlikni rivojlantirish bilan birga qo'shib olib borish o'ziga xos xususiyatlar va shart-sharoitlarni hisobga olish imkonini beradi.

Yuqoridan turib, bir xil andoza bichib berish demokratiya va

markazlashgan rahbarlikka butunlay yot narsadir.

Barcha tadbirlarda, mahalliy xususiyatlarda ishga qanday munosabatda bo'lish usullarida, nazoratni amalga oshirish usullarida har xil yo'llarni qo'llash asosiy, muhim bo'lgan birliklarni buzmaydi, balki shu birlikni ta'minlaydi.

Ta'limni rivojlantirish fondlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari hisobidan tashkil etilishi mumkin.

Xalq ta'limi vazirligi O'zbekiston Respublikasida maorifga bevosita rahbarlik qiladi. U barcha tipdagi maktablar, bog'chalarga rahbarlik qiladi.

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi barcha universitet va institutlarga, kasb-hunar kollejlariga, litseylarga rahbarlik qiladi. Ular pedagogika jamoatchiligini xalq ta'limi bo'limlari va maktablariga yordam berishga jalb etadilar.

1.8. Sinfдан va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilishda ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarining ish metodikasi

I. O'quvchilarni har tomonlama yetuk, barkamol qilib tarbiyalash masalalarini muvaffaqiyatli hal etish, ularda faol hayotiy mavqeni shakllantirish, o'zlashtirish va bilim sifatini oshirish ko'p jihatdan kuni uzaytirilgan guruhlarining samarali ishlashiga bog'liqdir. Sinfдан va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi to'g'ri shakllanishiga, axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarning amaliyot ishlab chiqarishi bilan bog'lanishiga zamin yaratadi.

Sinfдан va maktabdan tashqari ishlarga rahbarlik qiluvchi tashkilotchilarning vazifalari ham ko'p qirralidir. Ularga quyidagilar kiradi:

1. Darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va amalga oshirishni nazorat qilish.

2. O'quvchilarning sinfдан va maktabdan tashqari ko'p

qirrali ishlarini o'quvchilar tashkilotlari va sinf faollari yordamida yo'lga qo'yish.

3. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar yo'nalishiga bevosita rahbarlik qilgan holda o'qituvchilar, sinf rahbarlari, otanonalar, sinf faollariga uslubiy yordam ko'rsatish.

4. Umummaktab va maktablararo o'tkaziladigan eng muhim tarbiyaviy tadbirlarda qatnashish.

5. O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini tashkil qilishda tarbiya va madaniyat muassasalari hamda jamoatchilik kuchidan keng foydalanish. Bu borada direktor o'rinboosari faolligining uchta asosiy tomonini ko'rish mumkin: tashkilotchilik, uslubiy va ma'muriy.

Bular ko'pincha o'zaro uzviy bog'langan holda namoyon bo'ladi. Ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosarinig tashkilotchilik faoliyatiga quyidagi bir qator ishlarni ham kiritish mumkin: a) tarbiyaviy ishlar sohasida erishgan yutuq va kamchiliklarni tahlil qilish; b) tarbiyaviy ishlarining maqsad va vazifalarini aniqlash; c) tarbiyaviy, ommaviy, siyosiy ishlarni rejalashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash; d) sinfdan, maktabdan tashqari ishlarni rejalashtirish, guruhlashtirish va ularning mazmunini, shakl va usullarini aniqlash, boshqaruvchi shaxslarni aniqlash.

O'quvchilarning sinfdan tashqari ishlari o'z mazmuniga ko'ra tafakkur faoliyati va munosabat vositasi hisoblanadi. Chunki sinfdan tashqari ishlarda olingan axborot idrok etiladi, qayta ishlanadi. Shu asosda yangi bilimlar hosil qilinadi. O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib turli kishilar bilan muayyan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatga duch keladilar. Shuning uchun ham o'quvchilarning maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari doirasi shunchalik keng va ma'naviy o'sishi samarali bo'ladi. Maktabdan tashqaridagi tarbiyaviy ishlarda o'quvchilar jamoadagi ishlarni o'rganadilar. Ijtimoiy mehnat quvonchini his qiladilar. Ishlab chiqarish mehnatiga qo'shiladilar. Jamoatchilik fikriga bo'ysunishga, jamoa sharafi uchun kurashishga o'tlanadilar. Maktabdan

tashqari faoliyatga quyidagilar kiradi:

1. *Og'zaki ish usullari*: majlislar, yig'inlar, ma'ruzalar, kutubxonalar, konferensiyalar, munozaralar, uchrashuvlar, gazetalar, radio va jurnallar.

2. *Amaliy ish olib borish usullari*: turli joylarga sayyohatlar, sport musobaqalari, tabiatshunoslar to'garaklari, shanbaliklar, yangi kitoblar ko'rgazmalari.

Tarbiyaviy ish pedagogikadan butun qobiliyatlarni ishga solishni taqozo etadi. Sinf rahbarligi kursi bilan maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar metodikasi kursi bir-biriga bog'liq va uning davomiyligidir.

Yuqoridagi qayd etilgan topshiriqlarni bajarish jarayonida o'quvchilar turli qo'llanmalar, asboblari, apparatlar, didaktik materiallardan foydalanishni o'rganadilar, o'z-o'zini tekshirish uchun turli ma'lumot va tayanch materiallarini jalb etish ko'nikmalarini egallaydilar.

II. Sinfdan va maktabdan tashqari ishni rejalashtirish bolalarning yosh xususiyatlarini, maktabning joylashgan shart-sharoitlarini, ijodiy birlashmalar, ilmiy markazlar bilan o'zaro aloqasi kabi ishlarni inobatga oladi. Direktor o'rinbosarining faoliyati o'z ifodasini topadigan hujjatlar ro'yxati Xalq ta'limi vazirligi tomonidan doimiy ravishda berib boriladi.

«Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar» konsepsiyasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan 1993-yilda tasdiqlangan.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ishlab chiqiladi.

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda o'qituvchining yo'naltiruvchi ta'siri ostidagi o'quvchilarning o'z-o'zini nazorat qilish asosiga qurilgan va fan kabinetlarida, kutubxonada va uyda yakka tartibdagi reja asosida o'tkaziladigan mustaqil mashg'ulotlar yetakchi shaklga aylanishi kerak. Bunda sinfdan tashqari ishda ta'limning moddiy bazasi: qo'shimcha va ma'lumotnoma adabiyotlari, laboratoriya uskunalari, ko'rgazmali qo'llanmalar, didaktik materiallar, texnika vositalaridan oqilona

foydalanish ko'zda tutiladi. Ular o'z ichiga quyidagilarni oladi:

– darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashning xilma-xil shakllarini olgan, nazariy bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlovchi;

– tajribalar, ijodiy tushdagi ishlarni bajarishni, asboblarni loyihalashni, maketlar, modellar va hokazolarni tayyorlashni olgan mustaqil ishlash uchun topshiriqlar tizimi maqsadga muvofiqdir.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlar metodikasi fani va bo'limiga sinf rahbarlarining ishlari, maktab ma'muriyatining tarbiyaviy ishlari kiritiladi. Bunda o'qituvchilarning o'quvchilar bilan muomilasi adolatli bo'lishi, kerakli ta'sir ko'rsata olishi kerak.

O'quvchi yoshlarni hozirgi zamon ma'naviyati bilan ongini sug'orishi, ya'ni singdirishi kerak. O'quvchilarni qadriyatlarimiz asosida, urf-an'analарimiz asosida tarbiyalash har bir o'qituvchining vazifasidir.

O'quvchi atrofini o'rab turgan vositalar, yaxshi-yomon odatlar, o'qituvchilar, maktabning muhiti, o'quvchilar tarbiyasini to'g'ri, ongli ravishda o'rganishi va qabul qilishi lozim. Sinfdan tashqari ishlarni to'la qamrab olgan to'garaklar bir necha xilda bo'lishi mumkin:

1. Fan to'garaklari.
2. Mohir qo'llar.
3. Duradgorlik.
4. Sport musobaqalari.
5. Badiiy havaskorlik.

Bunda asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarur.

Tarbiyaning bosh maqsadi yosh avlodni ma'naviy, axloqiy tarbiyalashda xalqning boy, milliy ma'naviy an'analarga, urf-odatilari hamda qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy ishlarni amalda ishlab chiqishdir.

Tarbiyaning asosiy vazifasi – shaxsni aqliy-axloqiy tarbiyalashda erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

Tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishda bir qator pedagogik talablar qo'yiladi. Maktabdan tashqari ta'lim muassasalarining to'garak qatnashchilari ongida yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar mujassamlashgan bo'lishi kerak. To'garak qatnashchilarini doimiy ravishda fan va madaniyatning so'nggi yutuqlaridan xabardor qilib turish, ular ongini ijodiy ishlar va tarbiyaviy tadbirlar bilan band qilish muhim o'rin tutadi. To'garak qatnashchilarida mustaqillik tushunchasi shakllangan bo'lishi, ular davlatimiz ramzlarini, madhiyasini, urf-odatlarimizni yaxshi bilishi kerak. Maktabdan tashqari ta'lim o'qishlariga, xohishlariga asoslangan holda darsdan bo'sh vaqtlarda o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi va quyidagi yo'nalishlar bo'yicha to'garak qatnashchilariga talablar qo'yilishi kerak:

1. Vatanga muhabbat, komil inson tarbiyasi.
2. Estetik ta'lim.
3. Sayyohlik yo'nalishi bo'yicha to'garaklarga qatnashish.
4. Ekologik ta'lim yo'nalishi bo'yicha to'garaklar.
5. O'quvchilarning ma'naviy-axloqiy yo'nalishi bo'yicha.
6. Huquqiy ta'lim yo'nalishi bo'yicha.
7. Texnik ijodkorlik yo'nalishi bo'yicha.
8. Istiqloq bolalari va iste'dodli yoshlar.
9. Iqtisodiy ta'lim.

O'quvchilarning mustaqilligi turli darajada bo'lganida mustaqil tayyorgarlik amalga oshirilishi mumkinligini hisobga olish muhimdir, bu esa ular shaxsining shakllanishiga shubhasiz ta'sir ko'rsatadi. Ayrim o'quvchilarning ishdagi faol va mustaqil holati tarbiyachining aralashuvini talab etmaydi, chunki

o'quvchilarning o'zlari oldilarida turgan vazifalarini va ularni hal etish yo'llarini ancha yaxshi tushunadilar.

1. Bolalar tarbiyachi yordamisiz ishlaydilar. Bu yerda tarbiyachining aralashuvi maqbul emas. Chunki bunday holat bolalarning mehnatsevarligini, bilish ehtiyojlarini shakllantirishda eng katta imkoniyatga egadir.

2. O'quvchi mustaqil harakat qilib, lekin o'z ishini tarbiyalashning fikri va bahosiga bog'liq qilib qo'ygan paytda tobe holat vujudga keladi. Ish qiziqish va ishtiyoq bilan bajarilsa ham, mustaqil ishni bajarayotgan harakatlarida ishonchsizlik jihatlari mavjud bo'ladi.

3. Sinf rahbarining rahbarligi va nazorati ostida harakat qiladigan o'quvchilar toifasida majburiy ijro etish holati paydo bo'ladi. Bunda o'quvchilar ishga unchalik qiziqish bildirmaydilar. Ular ko'pincha sinf rahbarining yordamini so'rab murojaat qiladilar, kuchli o'quvchilarning qo'llab-quvvatlashidan foydalanishga intiladilar, agar bunday qo'llab-quvvatlash bo'lmasa, ishni davom ettirishda irodalarini ishga solmaydilar. Bunday o'quvchilarda tashqaridan majbur qilish vaqtida harakat qilish odati mustahkamlanadi. Agar bunday holat barqaror bo'lib qolsa, u o'quvchining faqat aqli emas, shu bilan birga ma'naviy rivojlanishiga ham to'sqinlik qilishi mumkin.

Maktabda va sinfdan tashqari ishlar jarayonida o'quvchilarning bir-biriga hurmati, axloqiy sifatleri jamoa orasida shakllanib boradi. Bunda o'quvchilarning bir-biriga bo'lgan muomala madaniyati ham shakllanadi. O'quvchi o'qituvchiga taqlid asosida yoki do'stlari orasida o'rgangan tarbiyasi muomilasiga ta'sir qilishi mumkin. O'qituvchi o'quvchilar orasida muomala madaniyatini shakllantirish uchun avvalambor o'quvchining o'ziga bo'lgan muomalasini, e'tiborini o'rganishi kerak.

O'quvchi maktab qoidalariga rioya qilish bilan birga, o'qituvchi talabiga ham javob berishi lozim. O'qituvchi talablariga quyidagilar kiradi:

A) darslarga to'liq qatnashish;

- B) o'quv qurollari bilan ta'minlanganligi;
- C) o'qituvchini diqqat bilan eshitish;
- D) topshiriqlarni o'z vaqtida bajarish;
- E) tashkiliy ishlarga faol qatnashish;
- F) sinf intizomiga rioya qilish;
- G) tozalikka rioya qilish.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni nazoratsiz ijro etish holati rasmiy ijrochilik, ishtiyoq va havas bilan mehnat qilishni istamasligini yashirishga intilayotgan o'quvchilarda kuzatiladi. Bunday holatning uzoq vaqt mavjud bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi, aks holda o'quvchilarda ishiga nisbatan rasmiy munosabat jihatlarini paydo bo'ladi, bu esa ularning mehnatdagi tashqi faolligini yo'qqa chiqaradi.

Sinfdan va maktabdan tashqaridagi ishlarda o'quvchilarning xatti-harakatlari oldindan juda qattiq tartibga solib qo'yilganligi xususida e'tirozlar bildirilmoqda. Mustaqillikni tarbiyalash vazifasi qo'yilmagan, bolaning har bir qadami pedagogning irodasiga bo'ysungan joylarda ana shunday holat mavjud. Xu bo'ladi. Shuning uchun mustaqil tayyorgarlik samaradorligi, o'quvchilarning mustaqilligini rivojlantirish to'g'risida g'amxo'rlik qiladigan o'qituvchi, sinf rahbari o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish vositalarini puxta o'ylab tanlaydilar, ularning ishlashi uchun oqilona shart-sharoit yaratishga intiladilar.

Maktab o'quvchilarining mustaqil tayyorgarligiga pedagogik rahbarlik shunday qurilishi kerakki, u o'quvchilarni charchatib qo'ymas, doim bir xil tusda bo'lmasin, yoki haddan tashqari oson, aqliy va irodaviy kuch-g'ayratini sarflashni talab qilmaydigan bo'lmasin.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazishda tarbiyachining eng muhim vazifasi o'quvchilarni o'quv vazifalarini hal etishga o'rgatish, buning uchun harakat usullarini to'g'ri tanlash, o'z xatti-harakatlarini, rahbarlik

faoliyatini nazorat qila bilish, mustaqil ish ko'nikmalarini boshqa muhim xayotiy vaziyatlarga o'tkaza olish ekanligini nazarda tutish lozim. Bunda mustaqillik mazmuniga fikrlash faoliyatining mustaqilligi, intizom, uyushqoqlik va o'z-o'zini nazorat qilish kabi to'rt tarkibiy qismi kirishini hisobga olish muhimdir.

Mazkur jihatlarni shakllantirish ustidan nazoratni amalga oshirish sinfdan tashqari ishlarga rahbarlik qilayotgan o'qituvchining muhim va murakkab vazifalaridan biridir. Buning uchun o'quvchi faoliyati natijalarini hisobga olishni va bu jarayonni tahlil etishni uyushtirish zarur. O'qituvchi sinf-dars faoliyati uchun xos bo'lgan shakllarni istisno etib, nazorat qilishning bir qancha usullarini qo'llashi mumkin. Eng kuchli va qobiliyatli o'quvchilarga xomaki yozuv bilan ishlash huquqi beriladi. Unda qoida ko'rsatiladi, bu qoidani tasdiqlovchi misollar keltiriladi, o'quv vazifasi qayd etiladi. Yozuv juda qisqa bo'ladi, lekin u o'quvchining fikrlashi qanday borganligini ko'rsatadi.

Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarda o'quvchilarni ayrim ko'nikmalarga o'rgatishni nazorat vositasi deb hisoblash kerak. O'z-o'zini tekshirish, o'zaro tekshirish usullariga o'rgatish o'qituvchining o'quvchilar bilan shunday aloqasini talab etadiki, bunda ularning fikrlash jarayoni ravshan bo'ladi. O'quvchilarning o'zlari harakatni taklif etadilar va shu bilan pedagogga muayan ma'lumot beradilar.

Sinf rahbari ishida o'quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash tarbiyaning yetakchi tamoyilidir. Bolalar jamoasini shakllantirish metodikasi yangi pedagogikada to'la ishlab chiqilgan. Bu metodikaning umumiy asoslari pedagogika kurslarida bayon etilgan jamoa va jamoada shaxsni tarbiyalash nazariyasiga tayanadi. Jamoa nazariyasi qoidalarga muvofiq uni yaratish metodikasi ishlab chiqilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish, faollarni tarbiyalash, o'quv-mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish, sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish va ko'paytirish. Ta'riflangan bu qoidalar har

qanday jamoani shakllantirish va rivojlantirish uchun qo'llanma hisoblanadi.

Sinfda va maktabdan tashqari tashkil qilingan ishlar o'quvchilar hayotidagi tarbiyaviy faoliyatni to'ldiradi. Ularning dunyoqarashi to'g'ri shakllanishiga va axloqiy kamol topishiga ko'maklashadi. Nazariy bilimlarni amaliyot ishlab chiqarishi bilan bog'lanishiga zamin yaratadi.

Shular asosida yangi bilimlar hosil qilinadi. O'quvchilar maktabdan tashqari ishlarda qatnashib, turli kishilar bilan muayan munosabatga kirishadilar. Turli vaziyatlarga duch keladilar. Shuning uchun ham maktabdan tashqari faoliyatlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, ularning munosabatlari shunchalik boy bo'ladi. Maktabdan tashqaridagi ishlarda o'quvchilar jamoadagi ishlarni o'rganadilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari reja asosida olib boradi va uning bajarilishini ham nazorat qilib boradi. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning ish rejasida maktabning umumiy rejasi, o'qituvchilar, sinf rahbarlari, yetakchi ota-onalar qo'mitasi ish rejalari ham e'tiborga olinishi kerak.

Ish reja maktab direktori tomonidan tasdiqlanadi. Ish rejasida bolalarning yosh xususiyatlari, maktabning joylashgan shart-sharoiti, ijodiy birlashmalar, ilmiy markazlar bilan o'zaro tarqalgan aloqasi kabi ishlar inobatga olinadi. Direktor o'rinbosarining faoliyati o'z ifodasini topgan hujjatlar ro'yxati Xalq ta'limi vazirligi tomonidan doimiy ravishda berib boriladi. A.Jo'raevning "Tarbiyaviy darslarni o'tish" risolasida mustaqillik g'oyasi bilan bog'langan tarbiyaviy tadbirlar, qonunlarga asoslangan qoidalar berilgan. Ijodkor rahbar hamda ilg'or o'qituvchi, tarbiyachilar o'z faoliyatlari jarayonida tarbiyaviy ishlarni tashkil qilishda quyidagi tamoyillarni asos qilib oladilar:

- tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish;
- ma'naviyatni yosh avlod ongiga singdirish e'tiqodga aylantirishdan iborat ekanligi;
- tarbiya jarayonini milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan

bog‘lab, bola qalbiga va ongiga ta‘sir ko‘rsatish;

– tarbiyaviy ishlarni o‘quvchilar jamoasini jipslashtiruvchi omillar bilan boyitib, tarbiyaning ta‘lim bilan uzviyligini ta‘minlash;

– tarbiyaviy jarayonda bolalarni tarbiyalash darajasini aniqlash va ijobiy tomonlarini o‘stirish;

– bola shaxsiga hurmat va talabchanlik;

– bolalarning yosh va ruhiy holatini hisobga olish;

– tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish tomonlari barkamol insonni tarbiyalashda keng imkoniyatlarga ega bo‘lib, uni qay darajada olib borish sinf rahbari va tarbiyachining pedagogik mohiyatiga bog‘liq.

1.9. Sinfдан va maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilishda ma‘naviyat ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari shaxsiga bo‘lgan talablar

Direktor o‘rinbosari o‘quvchilarga nisbatan mehr va muhabbat, pedagogik jamoasiga va ota-onalarga nisbatan talabchan bo‘lgan holda ish tutib, muntazam o‘z ustida ishlab, sabr-bardoshli bo‘lib, o‘z fikrlarini puxta bayon qilib, o‘zgalarni o‘ziga jalb qila oladigan xislatlarni o‘ziga mujassamlaydi.

Davlat va hukumatimiz tomonidan qabul qilingan barcha hujjatlar mohiyatini, Prezident asarlarini yaxshi bilishi, uni o‘quvchi-yoshlar orasida targ‘ib eta olishi, xalq pedagogikasi an‘analarini, o‘zbek xalqi milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini, allomalar o‘gitlarini yaxshi bilishlari lozim. Shuninhgdek, u:

– mamlakatimizning ichki va tashqi siyosatini yaxshi bilishi va doimo uni o‘z faoliyatida hisobga olishi, tarbiyaviy ishlarni tashkil etishning ilmiy asoslari hamda yangicha usul va metodlarini yaxshi bilishi;

– radio, televidenie va ommaviy axborotning boshqa vositalari orqali berilgan eng so‘nggi yangiliklardan boxabar bo‘lishi hamda ularning mohiyatini o‘quvchilarga etkaza olishi;

– sinfdan tashqari tadbirlarni tayyorlash va o‘tkaza bilishi;

– tuman, shahar, viloyat, respublika miqyosida o‘tkaziladigan tadbirlarda ishtirok etishi;

– maktabda o‘quvchilar bilan tarbiyaviy ishlarni olib borayotganlarga metodik tavsiyalar berib borishi;

– muntazam ravishda o‘z malakasini oshirib turishi, o‘z sohasi bo‘yicha o‘tkaziladigan seminarlarda ishtirok etishi lozim.

Direktor o‘rinbosarining huquqlari. Nizomda belgilangan vazifalar bilan bog‘liq ravishda tegishli pedagogik xodimlarga ko‘rsatma beradi.

Xizmat vazifasi doirasidan kelib chiqqan holda sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashkil etish va yangi to‘garaklarni ochish masalalarini hal qiladi. Direktor o‘rinbosari:

– sinf rahbarining ta‘lim-tarbiya ishlari bo‘yicha erishgan yutuqlarini hisobga olib, uni taqdirlash uchun direktorga taklif kiritish;

– sinf rahbarlarining o‘z vazifasiga nisbatan mas‘uliyatsizligi yoki uni suiiste‘mol qilganligi uchun direktor bilan kelishilgan holda tanbeh berish;

– bolani yaxshi tarbiyalagan ota-onalarni, maktabga yordam bergan mahalla faollarini taqdirlash uchun direktorga taklif berish huquqiga ega.

Direktor o‘rinbosari bilan quyidagi ishlar kelishilishi kerak:

– sinf rahbarlari ish rejasini direktor bilan hamkorlikda tasdiqlash;

– maktabda o‘tkaziladigan sport musobaqalari rejasini direktor bilan hamkorlikda tasdiqlash;

– turli xildagi to‘garak ishlari rejasini direktor bilan hamkorlikda tasdiqlash.

– maktabning jamoat tashkilotlari, otaliq qiluvchi korxonalar bilan aloqasini mustahkamlash;

– bolalar nazoratsizligi va qonun buzilishining oldini olish;

– yashash joyi bo‘yicha bolalarning bo‘sh vaqtini tashkil etish;

– o‘quvchilarning oilalariga borish va bolalarni tarbiyalashda

ularga yordam berish;

– yosh avlodning Vatanga, jamiyatga va mehnatga, o'ziga va odamlarga munosabatini anglab olishga qaratilgan axloqiy tuyg'ularini tarbiyalash.

Tarbiyaviy ishlar bolalarning kundalik hayotidan olingan aniq dalillar va voqealarni, badiiy adabiyot, vaqtli matbuot, kinofilmlardan olingan misollarni tahlil etish hamda muhokama qilish asosida o'tkaziladi. Bu ishlarning xususiyati shundaki, bu bolalarni o'zining axloqiy xatti-harakatlari haqida mulohaza yuritishga va ularga to'g'ri baho berishga o'rgatadi.

Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning darsdan bo'sh vaqtlaridagi o'quv-tarbiya jarayonini to'ldiradi va kengaytiradi, o'quvchilarning mustaqil bilim olishlariga, ijobiy qobiliyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi.

Shu sababli keyingi davrda o'quvchilarning darsdan tashqari vaqtlarini ko'ngilli uyushtirishga alohida ahamiyat berilmoqda.

Sinf jamoasi bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlarning hajmi, asosiy yo'nalishlari, mazmuni har bir yosh bosqichida o'quvchilarning psixik rivojlanishi darajasiga mos kelishi lozim.

Tarbiyaviy ish pedagogdan butun qobiliyatini ishga solishni, tinmay izlanishni taqozo etadi. Chunki kelajak avlod tarbiyalangan, uyushgan, ahil, jonajon Vatanimizning haqiqiy fuqarolari bo'lishi kerak.

Maktabda boshlang'ich sinflarda tarbiyaviy ishlarni olib borish, uni yo'lga qo'yish sinf rahbari yoki tarbiyaviy ishlar tashkilotchilari tomonidan uyushtiriladi.

Tarbiyaviy ishning asosiy yo'nalishlari: o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirish; ularni milliy istiqloq ruhida tarbiyalash; o'quvchilarning ijtimoiy foydali mehnatini tashkil etish; o'quvchilarda axloq madaniyatini, ularning o'z huquq va burchlariga nisbatan ongli munosabatini tarbiyalash; o'quvchilarda o'z-o'zini boshqarish malakalarini shakllantirishdan iborat.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi va sinf rahbari faoliyatining

asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning ahil tarbiyaliy jamoasini tashkil etishdir.

Boshlang'ich jamoa ishi shunday quriladiki, unda sinfnig boshqa jamoalar bilan aloqasi doimiy ravishda amalga oshiriladi, umummaktab an'analari saqlanadi. Boshlang'ich jamoa o'qituvchi-tarbiyachi va sinf rahbari, o'quvchilar o'z-o'zini boshqarish organlari rahbarligida umummaktab ijtimoiy-foydali ishlari faoliyatida ishtirok etadi.

O'qituvchi va sinf rahbari sog'lom, ahil bolalar jamoasini shakllantirish bilan birga doimiy bolalar qiziqishlarini qo'llab-quvvatlaydilar, ularning ijtimoiy foydali faoliyatini yo'naltirib boradilar.

Kichik yoshli o'quvchilar juda faol va harakatchan bo'ladilar. Faollikka intilish bu yoshdagi bolalarning organik ehtiyoji. Biroq bunda bolalar hali yetarli hayotiy tajribaga ega bo'lmaydi va kundalik pedagogik rahbarlikka ehtiyoj sezadi. Boshlang'ich sinf o'qituvchisi bolaning ilk maktabdagi qadamidanoq tarbiyaviy ishning chinakam jamoatchilik munosabatlarini yaratishga zo'r imkoniyat beradigan, bolalarda bir-birlariga g'amxo'r munosabatda bo'lishni tarbiyalaydigan, individual qobiliyatlarni rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratadigan usullarni tanlaydi.

O'qituvchi boshlang'ich sinflarda bolalarga o'zlarini qiziqtiruvchi faoliyat turini tanlashga yordam beradi. Biroq ko'pincha kichik yoshdagi o'quvchilar, yosh xususiyatlariga ko'ra, o'z xususiyatlarini to'g'ri baholay olmaydilar.

Bolalarning o'sishi, ularda jamoatchilik malaka va ko'nikmalarining shakllanib borishi o'qituvchi-tarbiyachining bolalar jamoasiga rahbarlik qilishidagi jarayonini o'zgartirib boradi.

O'qituvchi boshlang'ich sinflardayoq ahil bolalar jamoasini yaratish asosida sog'lom jamoatchilik fikrini yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bolalar tarbiyaviy jamoasini yaratish sohasidagi ishini yuqori sinflarning sinf rahbarlari davom ettiradilar.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi o'quvchilarni ta'lim va tarbiyaning tabiiy sharoitida, ularning jamoa faoliyati jarayonida o'rganadilar.

Sinfdan tashqari ish o'quvchilarga biror maqsadga qaratilgan pedagogik ta'sir vaqtini uzaytiradi, u o'qituvchiga o'quvchilarning darslarda egallagan bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, bolalarning qobiliyatini rivojlantirish, ularning xilma-xil qiziqishlarini qondirish, madaniy dam olishlarini uyushtirish imkonini beradi. Sinfdan tashqari ish bolalarni jamiyat hayotiga jalb qilishning katta imkoniyatlariga ega.

1.10. Ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari va o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ish metodikasi

Ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari, Xalq ta'limi vazirligi va boshqa yuqori tashkilotlarning qaror, buyruq va me'yoriy hujjatlari talablari asosida ish olib boradi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari ota-onalar hamda keng jamoatchilik bilan hamkorlikda o'quvchi-yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularni ona Vataniga, xalqiga va uning bugungi bunyodkorlik ishiga ehtirom bilan qarash ruhida tarbiyalashga rahbarlik qiladi.

Ma'naviyat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari lavozimiga kamida 5 yil pedagogik ish stajiga ega bo'lgan qobiliyatli, mahalla, ota-onalar va keng jamoatchilik o'rtasida hurmat-e'tiborga loyiq bo'lganlar tuman (shahar) Xalq ta'limi bo'limi tomonidan tayinlanadi va bo'shatiladi.

Jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy tarixiy va madaniy merosimiz, milliy an'analarimizga, umuminsoniy qadriyatlarga

hurmat, Vatanga muhabbat, istiqloq g'oyalari gadoqat ruhida tarbiyalash, keng fikrli, sog'lom, jismoniy, aqliy va ma'naviy jihatdan barkamol, iqtisodiy islohotlarning mohiyatini tushunadigan hamda ularni yangi ijtimoiy munosabatlar orqali hayotga tatbiq eta oladigan, milliy g'oya va istiqloq mafkurasi mustahkam bo'lgan shaxslarni shakllantirish direktor o'rinbosari faoliyati maqsadining asosini tashkil etadi.

O'quvchi-yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda milliy va umuminsoniy qadriyatlar, xalqimizning boy tarixiy, madaniy va ma'naviy merosi asosida, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, insonparvarlik, iymon-e'tiqod, mehr-shafqatlilik kabi insoniy fazilatlar misolida har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalaydi.

Direktor o'rinbosari tarbiyaviy ishlarini rejalashtirishda sinf rahbarlarining qiziqishlari, topshiriqlarni qay darajada bajara olishlarini hisobga oladi.

O'quvchilarning o'z-o'zini idora qilish organlari faoliyatida qatnashuvi ularning ijtimoiy faollik sifatlarini shakllantirishning ta'sirchan vositasidir. Bu bolalar va o'smirlarning fuqarolik, demokratiya borasidagi tushunchalarini kengaytiradi.

O'z-o'zini idora qilish – tashabbuskorlik va mustaqillik maktabidir. O'quvchilarning o'z-o'zini boshqaruvi o'quvchilar tomonidan fan va mashg'ulotlarning to'liq o'zlashtirilishiga, biror kasb o'rganishiga, Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalanishiga, Vatan himoyachisi bo'lishiga, maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarda, davlat, jamoat mulkini ko'z qorachig'iday asrashga, tabiatni muhofaza etishga ko'maklashadi.

O'z-o'zini boshqarish o'quvchilarni mustaqil hayotga, turmush va jamiyatga mos qilib tarbiyalashda, ta'lim muassasasida ma'naviy muhitni saqlashda, ma'muriyatga qo'shimcha ta'lim olish uchun o'quvchilar talabnomasini shakllantirishda ko'maklashadi.

O'quvchilar o'z-o'zini boshqaruvi a'zolari maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida o'tkazilayotgan barcha tadbirlarda, tanlovlarda, xonalarni jihozlashda faol ishtirok etadilar.

Mazkur boshqaruv tashkilotchilik ishi ko'nikmalarini tarbiyalaydi, umumiy g'oyalari bilan ahil, jipslashgan o'quvchilar jamoasini tuzadi. O'quvchilar o'z-o'zini idora qilish tizimi maktab o'quvchilari (jamoasi) tomonidan o'zining faoliyatida demokratik faoliyat tarzlarini chuqur o'zlashtirish uchun qulay sharoitlar yaratadi. Bu to'g'ri taqsimlash, ijro ustidan hisobot va nazoratni yo'lga qo'yish, harakatlar, tashabbuskorlikning uyg'unligini ta'minlash, musobaqalar uyushtirish, o'z zimmasiga mas'uliyat olish kabi ko'nikmalardan iborat. Tarbiyalanuvchilar davrimiz kishisi uchun zarur bo'lgan qator axloqiy sifatlarni, chunonchi, jamoat ishiga va unga qo'shadigan ulushi uchun shaxsiy mas'uliyat, jamoa manfaatlariga sodiqlik, o'zaro munosabatlarda qat'iylik, talabchanlik, jamoat tashabbusini qo'llab-quvvatlash kabi sifatlarni egallaydi.

Maktabda o'quvchilarning mustaqil faoliyati, barcha pedagogik jamoa bu ishga ma'naviy tayyor bo'lsagina, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida o'zaro chuqur hurmat, xayrixohlik, ishonch bo'lgan sharoitdagina tashkil etilishi mumkin. Hech qanday soxtalik va sun'iylik bo'lmasligi kerak. Barcha o'z-o'zini idora qilish tashkilotlari o'z faoliyati yuzasidan vaqti-vaqtida hisobot berib turishi, so'z va ish birligi saqlanishi, har kim huquqlari va vazifalarini bajarishda ijtimoiy rag'batlantirilishi e'tiborda bo'lishi kerak. Bunda, albatta, bolalarning Respublika bolalar va o'smirlar uyushmalari bilan hamkorligi katta ahamiyatga egadir.

1.11. Iste'dodli bolalarni aniqlash va ularni tarbiyalash

Iste'dodning o'z vaqtida namoyon bo'lishi tarbiyaga va qo'llab-quvvatlashga bog'liqdir. Har qanday jamiyatga iste'dodli shaxslar zarur. Shu nuqtai nazardan iste'dodli bolalarni aniqlash, tarbiyalash va o'qitish respublikaning bo'lajak aql-zakovatli va ijodiy fikrlovchi kuchlarini tayyorlashning yagona manbaidir.

Ijodiy qobiliyatlar rivojini samarali amalga oshirish uchun o'quvchilar iste'dodini aniq tahlil etish, bolalarning o'ziga xos

psixologik jihatlarini va fazilatlarini hisobga olish zarur.

Turli yoshdagi iste'dodli o'quvchilarni namoyon etishda hozirgi kunda, avvalo maktab pedagogika jamoasi ruhiy-diagnostika tajribalaridan unumli foydalanishlari zarur.

Bunda "Respublika Iste'dod Markazi" xodimlari bilan hamkorlik qilish muhim ahamiyatga ega. Iste'dod markazi xodimlarining faoliyati tajribasidan foydalanish, ularning iste'dodni aniqlashga mo'ljallangan psixologik tadbirlarini pedagogik tajribalar bilan hamohang ishlab chiqish lozim.

Yoshlar iste'dodining namoyon bo'lishida qobiliyatlarni aniq tahlil etish, bolaning o'ziga xos fazilatlarini hisobga olish ijodiy qobiliyatlar rivojini samarali amalga oshirish uchun zarur. Qobiliyatlarni rivojlantirish daraja va bosqichlari yangicha munosabatlar bilan bog'liq bo'ladi.

Qobiliyat ma'lum bir darajada istalgan o'quvchida shakllangan bo'lishi mumkin. Bu esa tashkil etilgan tarbiya va o'quv jarayoni sharoitlarida rivojlantiriladi.

O'quvchi yoshlar qobiliyatini rivojlantirish maqsadida iste'dod va iqtidorni ongli rag'batlatirish, mukammallik uchun sharoit yaratish, ularning ijobiy qiziqishlari rang-barangligini oshirish, turli ko'rgazmali tadbirlarda ishtirok ettirish, olimpiadalar, tanlovlar, uchrashuvlarga jalb etish lozim.

Iste'dodli bolalarning taniqli olimlar laboratoriyalarida shug'ullanishi, shoir, yozuvchi, rassom kabi san'at namoyondalari bilan hamkorlik qilishni tashkil etish muhim ahamiyatga ega.

Bolalar ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda oila va muhitning ahamiyati yuksak. Ayniqsa respublikaning qishloq joylarida iqtidorli bolalarni izlash, topish va ularning ta'lim va tarbiyasini muntazam ravishda to'g'ri yo'lga qo'yish muhimdir.

Iste'dodli bolalarni joylarning hududiy xususiyatlarini hisobga olib, ijodiy kamol toptirishda diagnostik uslubiyatlar, o'quv rejaları va o'quv-uslubiy, tarbiya va ta'lim dasturlari bilan ta'minlash lozim.

Shuningdek, iqtidorli bolalarni izlash, topish va tarbiyalash uchun zamonaviy moddiy-texnik va moliyaviy jihatdan to'liq

ta'minot zarur.

Iste'dodli bolalar salomatligini muhofaza qilish uchun ularni ruhiy zarbalardan asrash yo'llarini aniqlash, ruhan yordam ko'rsatish, ruhiy hayajonlanish holatlarini o'rganish – ularning ijodiy qobiliyatlari rivoji uchun sharoit yaratish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish darkor.

Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari xodimlari, yetakchi olimlar va mutaxassislar, ijodkorlar, amaliyotchi o'qituvchilar, to'garak rahbarlaridan iborat Respublika metodik kengashi tuzulishi lozim.

Turli yoshdagi guruhlarda iste'dodlarni qidirishning umumiy dasturi zarur. Ommaviy o'quv yurtlarida bo'lganidek, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida ham bu borada o'quv dasturi rejalarini ishlab chiqish kerak bo'ladi.

Iste'dodli bolalarni aniqlash, tarbiyalash va o'qitishni ta'minlash quyidagi omillarga bog'liq:

– ushbu aniqlashning ijtimoiy ahamiyati respublikaning zakovati, ijodkorligi, kuch-qudratini tayyorlashning istiqboli bilan bog'liqligini tushunishga;

– ruhiy diagnostik uslubiyat, uslubiy materiallari bo'lgani holda turli yoshdagi guruhlarda aniqlashning umumiy dasturlari yaratilishiga;

– iste'dodli bolalar (maxsus tayyorlangan rejalar, dasturlar va ilmiy asoslangan uslubiyat va hokazo bo'yicha) bilan ishlash uchun ixtisoslashgan muassasalarning yagona tarmog'ini targ'ib etishga;

– ommaviy o'quv yurtlarida iste'dodli bolalar bilan ishlash uchun zarur o'quv-dasturiy qo'llanmalarini ishlab chiqishga;

– joylarda mahsus guruhlar tomonidan ishlab chiqilgan xalq ta'limi, davlat va jamoat muassasalari, ijodiy uyushmalar tomonidan tasdiqlangan dasturlarga (bu dasturlarda iste'dodli bolalar bilan ishlashning istiqbollari va bosqichlari, o'z hududida bunday faoliyat va ko'pgina boshqa tadbirlar uchun mablag' ajratish, ularni ta'minlashga);

– qo'yilgan vazifalarni hal qilishga keng jamoatchilik diqqatini

jalb qilishga, respublika metodik kengashining tuzilishiga (bu kengash tarkibiga Xalq ta'limi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirliklari, xalq ta'lim boshqaruv organlari xodimlari, yetakchi olimlari va mutaxassislari, ijodiy uyushmalar, amaliyotchi o'qituvchi, maktabdan tashqari ta'lim muassasalari to'garak rahbarlari kiradilar);

– ilmiy tadqiqotlar maktablar uchun me'yoriy hujjatlar, sinf ishlanmalari majmuiga, iste'dodli o'quvchilar haqida ma'lumotlar manbaini yaratishga, ularni o'qitish va tarbiyalashning (tabaqalashtirish, individuallashtirish, insonparvarlashtirish) yagona uslubiy asosini yaratishga bog'liq.

Iste'dodli va iqtidorli bolalarning o'qituvchi hamda tarbiyachilari alohida iste'dodlar uchun turlicha o'quv reja va dasturlariga ega bo'lishlari maqsadga muvofiq.

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni aniqlash va o'qitish uslubiyati, psixologik-pedagogik va tashkiliy sharoitlarini yaratish, maxsus o'quv dasturlari va tizimli pedagogik texnologiyalar ishlab chiqish uchun eng yaxshi pedagog va olimlarning faol ishtirokini ta'minlash lozim.

Iqtidorli bolalar va iste'dodli yoshlarni chet ellarda umumiy va kasbiy jihatdan tayyorgarlikdan o'tkazishga qaratilgan sobitqadam faoliyatni amalga oshirish kerak. Akademik litseylarning o'quvchilariga, birinchi navbatda iqtidorli, yuksak iste'dod sohiblariga, bilimning tegishli sohalari va fanning aniq yo'nalishlari bo'yicha o'z tabiiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish, o'zlaridagi noyob iste'dodni ro'yobga chiqarish uchun keng imkoniyatlar yaratish lozim.

Umumta'lim maktabida ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarining bir yilga mo'ljallangan ish rejasi

1. Tashkiliy ishlar

T/r	Bajariadigan ishlar	Vaqti	Mas'ul
1	Maktabning umumiy ish rejasini tuzish va uni bajarishda qatnashish	Avgust	Maktab direktori, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari
2	Maktab atrofini, koridorlarni, xonalarni ta'lim-tarbiya faoliyatiga javob beradigan holatga keltirish	Yil davomida	Maktab ma'muriyati, sinf rahbarlari
3	Birinchi va so'nggi qo'ng'iroq tantanalarini o'tkazish	Sentabr, may	Maktab jamoasi
4	O'quvchilarni darsliklar bilan ta'minlash	Sentabr	Kutubxonachi, sinf rahbarlari
5	9-11 sinflarni bitirib ketgan bitiruvchilar bilan ishlash	Iyun, iyul, avgust	Maktab ma'muriyati va sinf rahbari
6	Maktab hovlisini mikrouchast-kachalarga bo'lish	Sentabr	Maktab direktori, ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari
7	Maktabning pedagogik kengashi ishida muntazam qatnashish, unda o'z sohasiga oid dolzarb masalalarning hal etilishini ta'minlash	Har chorak so'ngida	Komissiya a'zolari, sinf rah., ota-onalar qo'mitasi a'zolari, mahalla faollari
8	Maktabning "Voyaga etmaganlar ishlari bo'yicha komissiyasi", "Kasb-hunarga yo'naltirish ishlari bo'yicha komis-	O'quv yili davomida	Maktab ma'muriyati, ped. jamoa

	siyasi”, “Sinf rahbarlari metod birlashmasi”, “Ota-onalar qo‘mitasi” faoliyatini takomillashtirish		
9	Tarbiyaviy soatlarni talab darajasida o‘tilishini nazorat qilish	Yil davomida	Maktab ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari
10	Maktab, sinf, ota-onalar majlislarini o‘z vaqtida o‘tkazish	Reja asosida	Maktab ma‘muriyati, sinf rahbarlari
11	O‘quvchilarni qiziqishlariga ko‘ra to‘garaklarga jalb qilish va ular faoliyatini muntazam ravishda nazorat qilib borish	Yil davomida	Maktab psixologi, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari
12	“Mening maktabim – mening fahrim” ko‘rik-tanlovini muntazam ravishda nizom asosida o‘tkazish	O‘quv yili davomida	Maktab ma‘muriyati, sinf rahbarlari
13	“O‘z-o‘zini” boshqarish kunlarini o‘tkazish	Har oyda	Maktab ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, sinf rahbarlari, fan o‘qituvchilari
14	Maktab ichki tartib qoidalarini ishlab ishlab chiqish va ular o‘z vaqtida bajarilishini muntazam ravishda nazorat qilib borish	O‘quv yili davomida	maktab ma‘muriyati sinf rahbarlari
15	Umumxalq bayramlari, tarixiy shaxslar tavalludiga bag‘ishlangan tadbirlarni ko‘tarinki ruhda nishonlanishini tashkilashtirish	Belgilangan kunlarda taqvimga ko‘ra	Maktab ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, sinf rahbarlari, fan o‘qituvchilari, «Kamolot» YoIH
16	O‘quvchilarni o‘zlashtirish sifati, davomati, o‘quv anjomlari-	O‘quv yili davomida	Maktab ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar

	ning saqlanish ahvolini nazorat qilish		bo'yicha direktor o'rinbosari, sinf rahbarlari
17	Kam ta'minlangan, tarbiyasi og'ir, jinoyatchilikka moyil bo'lgan o'quvchilarni aniqlash, o'quvchilar bilan alohida reja asosida vasiylik va homiylikda ish olib borish	O'quv yili davomida	XTB, VEOXOOG, maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, psixolog, sinf rahbar mahalla faollari
18	Tashkiliy diktantlar, insholar ko'rik-tanlovlarini o'tkazish	Muntazam	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari
19	Yuqori tashkilotlardan kelgan hujjatlar bilan ishlash, ularning bajarilishini ta'minlash	Muntazam ravishda	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari
20	O'quvchilarni yo'l harakati qoidalariga rioya qilishlarini ta'minlash, YHX darslarini o'tilishini nazorat qilish	Muntazam ravishda	DAN xodimlari, maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, YHX fani o'qituvchilari
21	"Sardorlar kengashi" faoliyatini takomillashtirish va undan samarali foydalanish	Muntazam ravishda	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, yetakchi, sinf rahbarlari, sardorlar
22	O'quvchilar orasida huquqbuzarlik, giyohvandlik, o'z joniga qasd va suiqasd, shuningdek, diniy ekstremizm oldini olishga qaratilgan tadbirlarni muntazam ravishda o'tkazib borish	O'quv yili davomida	Tuman XTB, IIB va VEOXOOG xodimlari, tuman prokuraturasi, tuman SSB hodimlari, diniy idoralar, Milliy

			havfsizlik qo‘mitasi, maktab ma‘muriyati
23	Yosh o‘qituvchilar, ijodkor o‘qituvchilar bilan ishlash	muntazam ravishda	Maktab ma‘muriyati
24	“Yilning eng yaxshi ma‘naviy- ma‘rifiy ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari” ko‘rik- tanloviga tayyorgarlik ko‘rish va qatnashish	aprel, may	Maktab ma‘naviy- ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari
25	Homiylar va shifokorlar davlat dasturining bajarilishini ta‘min- lash	Yil moyaynida	Maktab ma‘muriyati
26	“Axborot kommunikatsiya tex- nologiyalaridan foydalanish-da pedagog kadrlar salohiyatini oshirish” o‘quv yilida maktab- dagi pedagogik jamoaning bi- lim saviyasini to‘liq oshirishga erishish	O‘quv yili davomida	Maktab ma‘muriyati
27	Ma‘naviy-ma‘rifiy yo‘nalishdagi yutuqlar, amalga oshirilayotgan ishlarni mahalliy matbuotda yoritib borish	O‘quv yili davomida	Maktab ma‘naviy- ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari
28	Bajarilgan ishlar hisobotini tayyorlash va tahlil qilish	Har chorakda	Maktab ma‘naviy- ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari

2. Sinf va to‘garak rahbarlari bilan ishlash

T/r	Bajariladigan ishlar	Vaqti	Mas‘ul
1	Sinf va to‘garak rahbarlarining yillik ish rejalarini tuzishda yordam berish va yo‘naltirish	Avgust	Maktab ma‘naviy- ma‘rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari

2	Sinf rahbarlari metod birlashmasi ishini tashkillashtirish va muntazam nazorat qilib turish	O'quv yili mobaynida	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, metodik kengash raisi
3	O'quvchilarni qiziqishlaridan kelib chiqqan holda fan to'garaklariga, maktabdan tashqari ta'lim muassasalariga jalb qilish	O'quv yili mobaynida	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari
4	Sinf va to'garak rahbarlarining ish rejalarining bajarilishini va jurnallarni talab darajasida yuritilishini nazorat qilish	O'quv yili mobaynida	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, psixolog, fan o'qituvchilari, sinf rahbarlari
5	O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini foydali mashg'ulotlar bilan to'ldirishda amaliy yordam ko'rsatish	O'quv yili mobaynida	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari
6	Sinf rahbarlariga o'quvchilar bilan birga o'tkaziladigan tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish uchun pedagogik va metodik tavsiyalar berish	O'quv yili mobaynida	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari
7	Tajribali sinf va to'garak rahbarlarining faoliyatini ommalashtirish va ularni rag'batlantirish	O'quv yili mobaynida	Maktab ma'muriyati
8	Tarbiyaviy soatlar (to'garak mashg'ulotlari) reja asosida va talab darajasida o'tilishini nazorat qilish	O'quv yili mobaynida	Maktab ma'muriyati
9	Noan'anaviy usulda tarbiyaviy soat (to'garak mashg'uloti) ishlanmasi ko'rik tanlovini o'tkazish	Mart	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

3. Ota-onalar va mahalla faollari bilan ishlash

T/r	Bajariladigan ishlar	Vaqt	Mas'ul
1	Maktab, sinf ota-onalar qo'mitalari faoliyatini Nizom asosida tashkil etish	2006-yil sentabr	Maktab ma'muriyati, sinf rahbarlari
2	"Ota-onalar universiteti" ish samaradorligini oshirish.	O'quv yili davomida	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, sinf rahbarlari
3	Ota-onalar, mahalla faoliyatini tarbiyaviy masalalarni hal etishga yo'naltirish.	O'quv yili davomida	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, sinf rahbarlari
4	"Ochiq eshiklar kuni"ni o'tkazish.	Har oyning birinchi payshanbasi	Maktab jamoasi
5	Maktab ichki nazorat ishlariga ota-onalar qo'mitasi va mahalla faollarini kengroq jalb qilish.	O'quv yili davomida	Maktab ma'muriyati, sinf rahbarlari
6	Maktabning ommaviy tadbirlarini o'tkazishga ota-onalar va mahalla faollarini jalb etishni davom ettirish.	Doimiy ravishda	Maktab ma'muriyati, sinf rahbarlari
7	Mahalla obodonchiligi ishlarida ko'maklashish.	Doimiy ravishda	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, sinf rahbarlari
8	"Maktab, oila va mahalla hamkorligi" konsepsiyasini amalga oshirish.	Doimiy ravishda	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, sinf rahbarlari

4. Qonun buzilishlari va jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha amalga oshiriladigan ishlar

T/r	Bajariladigan ishlar	Vaqti	Mas'ul
1	Maktabda mavjud tarbiyasi og'ir, jinoyatchilikka moyilligi bor o'quvchilar bilan ishlash rejasini tuzish.	Sentabr	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, sinf rahbarlari
2	Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarlik va nazoratsizlikning oldini olish, ularning kelib chiqish sabablarini aniqlash, bola huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida tarbiyasi og'ir, huquqbuzarlikka moyil o'quvchilarni aniqlash, ular bilan olib borilayotgan tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish.	O'quv yili davomida	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, sinf rahbarlari
3	O'qishidan bo'yin tovlab yurgan voyaga yetmaganlarni aniqlash, ularni maktabga qaytarish yuzasidan amaliy ishlar olib borish.	O'quv yili davomida	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, sinf rahbarlari
4	Notinch, nosog'lom oilalarni, farzandlarning tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan ota-onalar giyohvandlikka, ichkilikka ruju qo'ygan, turli diniy oqimlarga kirib qolgan ota-onalarni aniqlash, ular bilan ishlash.	O'quv yili davomida	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, sinf rahbarlari
5	Diniy ekstremizmning asl mohiyatini ko'rsatadigan ma'ruzalar, huquq-targ'ibot hodimlari, din arboblari bilan	O'quv yili davomida	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, sinf

	uchrashuv o'tkazish.		rahbarlari
6	Voyaga yetmaganlarning oilaviy sharoitini, ijtimoiy ahvolini, ta'minlanganlik darajasini o'rganish va ushbu ishlar bo'yicha doimiy nazorat olib borish.	O'quv yili davomida	Maktab ma'naviy- ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, sinf rahbarlari
7	Maktabda voyaga yetmaganlar orasida jinoyatchilikning va qonunbuzarlikning oldini olish bo'yicha olib borilayotgan ishlarini maktab pedagogik kengashida ko'rib chiqish.	Har chorakda	Maktab ma'naviy- ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, sinf rahbarlari
8	Yoshlarni jinoyatga va huquqbuzarlikka jalb qilayotgan shaxslarni aniqlash, ularga qonunda belgilangan choralarni ko'rish.	O'quv yili davomida	Maktab ma'muriyati, XTB, IIB, prokuratura, fuqarolar yig'inlari
9	Tuman prokuraturasi, IIB VEOXOOG, tuman hokimligi qoshidagi voyaga yetmaganlar komissiyasi, mahalla, qishloq fuqarolar yig'inlari bilan hamkorlik o'rnatish.	Muntazam ravishda	Maktab ma'naviy- ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, sinf rahbarlari
10	Tarbiyasi og'ir, jinoyatchilikka moyilligi bor o'quvchilar bilan alohida samimiy suhbat o'tkazish, ularning xohish-istak, qiziqishlarini, muammolarini aniqlash.	Muntazam ravishda	Maktab ma'naviy- ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, sinf rahbarlari
11	Tarbiyasi og'ir, jinoyatchilikka moyilligi bor o'quvchilarni aniqlagan, qiziqishlariga ko'ra maktabdagi, maktabdan tashqari ta'lim muassasalaridagi to'garaklarga 100% jalb qilish, hunarmand ustalarga birlashtirish va nazoratda tutish.	Doimiy ravishda	Maktab ma'naviy- ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, sinf rahbarlari
12	Tarbiyasi og'ir, jinoyatchilikka	Doimiy	Maktab ma'naviy-

	moyilligi bor o'quvchilar bilan ishlovchi tarbiyachi-o'qituvchilarni Patronaj usulida ishlashga jalb etish.	ravishda	ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, sinf rahbarlari
13	Direktor huzuridagi yig'ilishda, tarbiyasi og'ir, jinoyatchilikka moyilligi bor o'quvchilarga birlashtirilgan tarbiyachi o'qituvchilarning hisobotlarini tinglash.	Har chorak yakunida	Maktab ma'muriyati
14	O'quvchilarning yozgi ta'tili mavsumida voyaga yetmaganlar orasida huquqbuzarliklikning oldini olish bo'yicha ishlar olib borish.	Iyul-avgust	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari
15	Voyaga yetmaganlar bilan olib borilayotgan ishlarni mahalliy matbuot sahifalarida keng yoritib borish.	O'quv yili davomida	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari

5. Kam ta'minlangan oila farzandlari bo'lgan o'quvchilar bilan ishlash

T/r	Bajariladigan ishlar	Vaqti	Mas'ul
1	Kam ta'minlangan oila farzandlari bo'lgan o'quvchilar ro'yxatini tuzish va ular bilan ishlash rejasini aniqlash	Sentabr	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari
2	Kam ta'minlangan oila farzandlari bo'lgan o'quvchilarni maktab fondidan darslik va o'quv jihozlari bilan imkon darajasida ta'minlash	Sentabr	Maktab ma'muriyati va sinf rahbarlari
3	Hukumat qarorlariga asosan ushbu toifadagi o'quvchilarga ust-bosh, kiyim-kechak	Oktabr-noyabr	Maxsus komissiya

	tarqatilishini qat'iy nazorat qilish		
4	Tuman ijtimoiy ta'minot bo'limini kam ta'minlangan oila farzandlari bo'lgan o'quvchilarning oilalariga qonunda belgilangan nafaqalarni rasmiylashtirishga yordam berish	O'quv yili davomida	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, otanonalar qo'mitasi raisi
5	Kam ta'minlangan oila farzandlari bo'lgan o'quvchilarni to'garaklarga va mahallarning usta-hunarmandlariga biriktirish	O'quv yili davomida	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, sinf va to'garak rahbarlari, mahalla faollari
6	Ushbu o'quvchilarni gazeta-jurnallarga obuna bo'lish, o'lkashunoslik ekskursiyalariga qatnashishlariga otaliq tashkilotlarining yordamini tashkil etish	O'quv yili davomida	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, sinf va to'garak rahbarlari, otaliq tashkilotlari
7	Kam ta'minlangan oila farzandlari bo'lgan o'quvchilarning o'qishi va hulqini nazorat qilish	Muntazam ravishda	Maktab ma'muriyati

6. “Kamolot” YoIH va “Kamalak” bolalar tashkiloti bilan ishlash

T/r	Bajariladigan ishlar	Vaqti	Mas'ul
1	Maktabning “Kamolot” YoIH tashkiloti va “Kamalak” bolalar tashkiloti bilan teng huquqli hamkorlik munosabatini o'rnatish	Sentabr	Maktab ma'muriyati, yetakchi
2	“Kamolot” va “Kamalak” tashkilotlarining maqsad va vazifalarini maktab o'quvchilari orasida keng targ'ib etish	Doimiy ravishda	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari,

			yetakchi sardorlar.
3	“Kamolot” va “Kamalak” faollarini maktabning ta’limiy, ma’naviy va ma’rifiy yo’nalishdagi tadbirlarga kengroq jalb etish.	Doimiy ravishda	Maktab ma’muriyati
4	“Kamolot” YoIX faollariga o’quvchi-yoshlarning bo’sh vaqtlarini mazmuni va foydali mashg’ulotlar bilan to’ldirishga amaliy yordam berish	O’quv yili davomida	Maktab ma’muriyati, yetakchi
5	“O’zini-o’zi boshqarish” kunlarini o’tkazish	O’quv yili davomida	Maktab ma’muriyati
6	Sinf “Kamolot” YoIX tashkilotlari sardorlaridan tashkil topgan “Sardorlar kengashi”dan unumli foydalanish	O’quv yili davomida	Maktab ma’muriyati
7	“Kamolot” haftaliklarini o’tkazish davomida tashkilot faollariga mustaqil ish olib borishlariga, o’zini-o’zi boshqarishi uchun imkoniyat yaratish.	Muntazam ravishda	Maktab ma’muriyati

7. Sport va jismoniy tarbiya ishlari

T/r	Bajariladigan ishlar	Vaqt	Mas’ul
1	“Bolalar sportini rivojlantirish” davlat dasturi doirasidagi tadbirlarni amalga oshirish	Doimiy ravishda	Ota-onalar qo’mitasi, maktab ped. jamoasi, “Kamolot” YoIX, mahalla faollari
2	“Umid nihollari” sport musobaqalarini Nizom asosida (1–4, 5–7, 8–9) tashkillantirishni nazorat qilish, puxta tayyorgarlik	Mart-aprel	Maktab ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo’yicha direktor o’rinbosari,

	kurish va yuqori natijalarga erishish uchun zamin tayyorlash.		jismoniy tarbiya o'qituvchilari
3	Qo'shni maktab va qo'shni mahalla bolalari bilan ommaviy sport musobaqalari o'tkazish.	O'quv yili davomida	Maktab ma'muriyati, jismoniy tarbiya o'qituvchilari
4	Jismoniy tarbiya darslarini va maktabda faoliyat ko'rsatgan sport to'garak-seksiyalari ishini qat'iy nazorat qilish.	O'quv yili davomida	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari
5	Sport sohasida erishilgan g'alabalarni mahalliy matbuot sahifalarida yoritib borish.	O'quv yili davomida	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari
6	Sportni targ'ib qiluvchi stendlar, fotoalbomlar chiqarish.	O'quv yili davomida	Jismoniy tarbiya o'qituvchilari
7	O'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik ahvolini maktab ped kengashida muhokama qilish.	IV chorakda	Jismoniy tarbiya o'qituvchilari

8. Ekologik tarbiya

T/r	Bajariadigan ishlar	Vaqt	Mas'ul
1	Ekologik mavzuda ochiq tarbiyaviy tadbirlar o'tkazish.	O'quv yili davomida	Sinf rahbari, biologiya o'qituvchisi
2	Mahalla hududidagi ekologik muammolarni aniqlash va ularni imkon darajasida bartaraf etishga qaratilgan tadbirlarni amalga oshirish.	O'quv yili davomida	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, "Kamolot" YoIX, sinf rahbarlari
3	Atrof-muhitni obodonlashtirish va ko'klamzorlashtirishga qaratilgan xayriya shanbalik,	O'quv yili davomida	Maktab ped. jamoasi

	xasharlar o'tkazish.		
4	“Ekosan” fondiga mablag' ishlab topib o'tkazilishini tashkillashtirish	Har yarim yillikda	Maktab ma'naviy- ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari
5	Maktabda ekologik burchak tashkil etish	1-yarim yillik	Maktab ma'naviy- ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari
6	Ekologik mavzuda maxsus reja asosida tadbirlar, davra suhbatlari o'tkazish	Doimiy ravishda	Jismoniy tarbiya o'qituvchilari
7	«Ekologiya bolalar nigohida» rasmlar ko'rgazmasini tashkil etish	April	Jismoniy tarbiya o'qituvchilari

1.8. Huquqiy tarbiya ishlari

T/r	Bajariladigan ishlar	Vaqt	Mas'ul
1	O'quvchilarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan turli bellashuv, musobaqa va ko'rik-tanlovlarni o'tkazish	O'quv yili davomida	Maktab ma'naviy- ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, “Kamolot” YoIX, fan o'qituvchilari
2	O'quvchilarni qiziqtirgan mavzular bo'yicha davra suhbatlari va uchrashuvlar tashkil etish.	Har chorakda	Maktab ma'naviy- ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, “Kamolot” YoIX, fan o'qituvchilari
3	O'quvchilar orasida huquqbuzarlikning oldini olish maqsadida huquq-targ'ibot organlari bilan hamkorlikni mustahkamlash.	Har chorakda	Tuman prokraturasi, IIB, XTB xodimlari, maktab ma'naviy- ma'rifiy ishlar

			bo'yicha direktor o'rinbosari.
4	Huquqiy tarbiyaga oid ko'rgazmalar, stendlar, albom va bukletlar tayyorlash.	Doimiy ravishda	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, "Kamolot" Yo'lx, fan o'qituvchilari, sinf rahbarlari
5	Maktabda ijtimoiy-huquqiy fanlar o'tilishini nazorat qilish.	Doimiy ravishda	Maktab ma'muriyati
6	O'quvchilarning huquqiy tarbiya bo'yicha bilimlarini sinash maqsadida "Siz qonunni bilasizmi?" ko'rik-tanlovini o'tkazish.	Mart- aprel	Maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari.

II bo'lim. SINIF RAHBARI ISHINI TASHKIL ETISH METODIKASI

2.1. Sinf rahbari ishining maqsad va vazifalari

O'quvchilarning bir xil saviyada, bir xil yoshda, bilimi jihatidan ham teng bo'lgan jamoasini boshqarib turuvchi pedagog sinf rahbari deb ataladi.

Sinf rahbarining asosiy maqsadi o'quvchilarini to'g'ri tarbiyalash jarayonida o'quvchi va sinf rahbari bilan bir-birini tushuna olishini ta'minlashdir.

Maktabda o'quvchilarga tarbiya sinf rahbarining ishlari orqali beriladi. Jumladan, tadbirlar, mushoiralar, har xil kechalar, uchrashuvlar, tanlovlar va boshqa o'yinlar orqali o'quvchilarga ta'lim-tarbiya beriladi. Shunga qarab o'quvchilarning fikrlash qobiliyati rivojlanib boradi.

Sinf rahbari maktab ma'muriyati bilan birgalikda va mahalla jamoasi, ota-onalar bilan hamkorlikda tarbiyaviy ishlarni olib boradi. Maktab ma'muriyati sinf rahbari va uning olib borayotgan ishlarini doimo qo'llab-quvvatlashlari lozim. Chunki sinf rahbari o'z o'quvchilarini yaxshi biladi va ularni tarbiyalash uchun nimalar kerakligini hisobga olib ish yuritadi. Sinf rahbari ishini ma'naviyat va ma'rifat ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari boshqarib turadi.

Sinf rahbarining ish rejasini maktab direktori va direktor o'rinbosari tuzadi va nazorat qilib boradi.

Boshlang'ich sinf maktab ta'limining dastlabki bosqichidir. Bolalar o'qituvchi rahbarligida ta'limga birinchi qadam qo'yadilar. O'quv faoliyatida bilim, ko'nikma va malakalarni egallaydilar. O'qituvchi sinf bilan ko'pincha yolg'iz ishlaydi va tarbiyachi sifatida ish yuritadi.

O'qituvchilarning bolalarga bo'lgan munosabati katta mehribonlik va g'amxo'rlik bilan xarakterlanadi. Bular esa talabchanlik bilan olib boriladi. O'quvchilar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish hamda o'quvchi-

larning o'sishi va rivojlanishiga qarab ularni qayta qurish xususiyati ham sinf rahbari uchun muhim ahamiyatga ega.

Maktab ustavida sinf rahbarining asosiy vazifalari belgilab berilgan. Sinf rahbari barcha o'qituvchilar bilan birgalikda aloqada bo'lib, o'zining sinfi bilan tarbiyaviy ishlarni olib boradi. O'qituvchilar tomonidan o'quvchilarga qo'yiladigan pedagogik talablar birligiga erishadi. Ota-onalar, kun uzaytirilgan guruh tarbiyachilari, jamoatchilik bilan doimo aloqada bo'lib turadi.

Zarur bo'lgan vaqtda o'qishda o'quvchilarga yordam ko'rsatishni tashkil etadi. Sinf rahbari qiladigan ishlar hujjatlarini yuritadi va uni maktab ma'muriyatiga taqdim etadi. O'quvchilar sog'lig'ini mustahkamlashga doir ishlarni o'tkazadi va jismoniy hamda aqliy mehnat qilishga o'rgatib boradi.

Sinf jamoasini tashkil etishda sinf rahbarining roli kattadir. Sinf majlisi o'tkazish uchun avvalo jamoa jipslashtiriladi. Sinf rahbari majlisda ko'plab masalalarni ko'taradi. Sinf majlisida 3–4 ta masalalar ko'rib, muammoli tomonlari tahlil qilinadi va o'z echimini topishi kerak bo'ladi.

Sinf rahbari majlis o'tkazish davomida yaxshi o'qiydigan bolalarni sinfda, ya'ni jamoa ichida rag'batlantirishi kerak. Bolalar bir-biriga do'stona munosabatda bo'lishadi. Ularni bir-biriga qarab yaxshi o'qiy boshlashiga intiladi. Yomon o'qiydigan bolalar ham yaxshi o'qiydigan bolalarga intilib, ular ham yaxshi o'qishga harakat qiladi. Bundan tashqari sinf rahbari o'quvchilarning saviyasi rivojlanishi uchun o'zi sinfda kutubxona qilishi kerak. Bu kutubxonadagi kitoblarni o'quvchilar sinfdan tashqari o'qish vaqtida yoki darsdan so'ng bo'sh qolgan paytlarida o'qib o'zlariga foydali tomonlarini olishi mumkin. Bizning yosh avlod xalqimizning inqilobiy, mehnat, jangovar an'analarni o'zlashtirib, o'ziga katta avlodning eng yaxshi fazilatlarini, g'oyaviy e'tiqod va matonatini, Vatanga muhabbatini, uning iqtisodiy-siyosiy va jangovar qudratini mustahkamlashda ishtirok etishga intilishini singdiribgina, o'z bobolari va otalari ishini davom ettira oladi.

Oila ham jamiyatning bir bo'lagi hisoblanadi. Oilada bola tarbiyasini yo'lga qo'yish juda katta ahamiyatga ega.

Oila boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli ravishda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta'sir ko'rsatishga qodirdir va odatda ta'sir ko'rsatadi. Oila tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning mafkuraviy va psixologik ta'sir ko'rsatishning chuqur o'ziga xosligi bilan uyg'unlashib ketadi.

Ota-onalar bilan ishlash shakllarini odatda sinf rahbari o'z shaxsiy xususiyatlarini, tajribasini, o'quvchilarning oilalarida vujudga kelgan o'ziga xos xususiyatlarni, ota-onalarning bilim va tajribasini, bolalarni tarbiyalashda yuqorida ko'rsatib o'tilgan xatolar va qiyinchiliklarni, fe'l-atvor xususiyatlarini, maktab pedagoglar jamoasidagi muhitni, ota-onalar bilan ish olib borishda tarkib topgan an'analarni va hokazalarni hisobga olib belgilaydi.

Ota-onalarga pedagogik bilim berishni amalga oshirishda faqat bilim berib qolmasdan, ularni tarbiya sohasidagi amaliy malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirish, ularning pedagogik faoliyatini uyg'otish, mustaqil shug'ullanshga undash, maqsadga muvofiq oila ichki munosabatlarini yo'lga qo'yish g'oyat muhimdir.

Ota-onalar yig'ilishlari ota-onalar bilan ish olib borishning an'anaviy tarkib topgan shaklidir. Hal qilinayotgan aniq vazifalarga bog'liq holda sinf yig'ilishlarini tashkiliy, yakuniy, chorak yig'ilishlari, mavzuga doir yig'ilish, bahs, amaliy yig'ilish, ota-onalarning umumiy ta'limi bo'yicha sinf rejasiga ko'ra yig'ilishlar tashkil etadi.

Tashkiliy yig'ilishlarda ota-onalar qo'mitasi saylanadi, ish rejasi tasdiqlanadi. Maktab atrofida pedagogik muhit o'rnatish yuzasidan tadbirlar ishlab chiqiladi, jamoat topshiriqlari taqsimlanadi va turli ish yo'nalishlariga doir tashabbuskor ota-onalar guruhlarini tuziladi, ota-onalar ishtirokida umummaktab tadbirlarini o'tkazish rejalari muvofiqlashtiriladi.

Chorakdagi yakunlovchi sinf majlislari ota-onalarning e'tiborini o'quvchilarning bilimga doir qiziqishlari, qobiliyatini, axloqiy-irodaviy fazilatlarini rivojlantirishdagi yutuqlar, kamchiliklar, foydalanilmagan imkoniyatlarga qaratish maqsadini

koʻzda tutadi.

Biror mavzuga bagʻishlangan yigʻilishlar tarbiyaning eng dolzarb muammolari yuzasidan oʻtkaziladi, ularda ota-onalar qoʻmitasi va sinf rahbarining oʻquvchilarning u yoki bu sohadagi tarbiyalanganlik darajasi toʻgʻrisida toʻplangan materiallardan foydalaniladi.

Majlis-munozaralar ota-onalar eʼtiborini tarbiyaning biror muammosiga jalb etish maqsadida oʻtkaziladi. Bunday majlislarni ota-onalar qoʻmitasi aʼzolarida ota-onalarning bir qismi oʻz vazifalariga, maktabning tavsiyanomalariga notoʻgʻri munosabatda boʻlayotganliklari, ota-onalarning bir qismi tayyorgarlik kayfiyatida ekanligi haqida maʼlumotlar boʻlgan taqdirda oʻtkazish tavsiya etiladi.

Amaliy yigʻilish ota-onalarning tarbiyaviy jarayonlarda ishtirok etishini faollashtirish, unga maqsadga yoʻnaltirilgan tus bagʻishlash maqsadida oʻtkaziladi.

Ota-onalarning sinfdagi umumiy taʼlimiy rejasiga koʻra majlislar, avvaldan belgilangan reja, muayyan tizimga muvofiq, ota-onalarga pedagogik bilim berishning shakli hisoblanadi.

Yakka tartibdagi pedagogik suhbat – sinf rahbarining oʻquvchilar, ota-onalar bilan olib boradigan ishining eng ommalashgan, qulay va samarali shakli hisoblanadi. Suhbat yordamida vujudga keladigan masalalarni tez hal etish, ota-onalar bilan ishonchli munosabatlar oʻrnatish, oilaviy tarbiya sharoitlari haqida qoʻshimcha maʼlumotlar olish, ota-onalarga pedagogik bilim berish, bolaning yakka tarbidagi rivojlanishi dasturini va birgalikdagi pedagogik harakatlar tizimini ishlab chiqish orqali ota-onalarning tarbiyaviy taʼsir koʻrsatishlarini va tarbiyasi qiyin bolalar xulqini tuzatish va oʻquvchilar oʻrtasidagi munosabatlarda vujudga keladigan kelishmovchiliklarni hal etish kabi keng koʻlamdagi taʼlim-tarbiya vazifalari hal qilinadi.

Tarbiyaviy taʼsir koʻrsatish samaradorligi koʻp jihatdan oʻqituvchilar va ota-onalarning muvofiq harakatlari bilan belgilanishini nazarda tutib, bolaning oʻziga xos psixologik

xususiyatlarini hisobga olish, uning xulq-atvoridagi eng kichik chetga chiqishlarga ham o'z vaqtda e'tibor berish kerak, bunga sinf rahbari bilan ota-onalarning ishonchli munosabatlarini o'rnatish, o'quvchilarning oilaviy tarbiya sharoitlari haqida qo'shimcha ma'lumotlar olish, ota-onalarning ishonchli o'zaro munosabatlarini o'rnatish orqaligina erishiladi. Bunday munosabatlarni o'rgatish va chuqurlashtirish uchun yakka tartibdagi suhbatlardan foydalanish juda muhim.

Har bir ota-ona o'z farzandini yaxshi ko'radi, shuning uchun ular o'z farzandida hosil bo'lgan yangi, ijtimoiy jihatlarni mustahkamlash yuzasidan ehtimol tutilgan birgalikdagi harakatlari xususida maslahatlashishni muhim deb hisoblaydigan sinf rahbariga samimiy hurmat va ishonch bilan qaraydilar.

Sinf rahbarlari ota-onalar bilan birgalikda tarbiyaviy ishni tashkil etar ekanlar, eng yangi psixologik-pedagogik tadqiqotalar ma'lumotlarini e'tiborga olishlari ham muhimdir. Ularga muvofiq o'sib kelayotgan kishi shaxsini shakllantirishga oilaning qo'shadigan hissasi turli yosh bosqichlarda turlicha bo'ladi va to'lqinsimon o'zgaradi.

Bunday bilimlarning yo'qligi oilaviy tarbiyada ko'plab xatolarga olib keladi. Sinf rahbari ota-onalar bilan ishlashda buni hisobga olmay iloji yo'q. Bu jihatdan ota-onalarning bolalarni tarbiyalashdagi quyidagi qiyinchiliklari va xatolarini ajratib ko'rsatish mumkin.

1. Ota-onalarning bolalar bilan muomilasining yetishmasligi. Ular o'zlari, ishlari haqida kam so'zlab beradilar. Maktab bolalari jamoasining hayoti, o'z bolasining qiziqishlari, uning jamoat ishlari bilan, ishga munosabati va boshqalar bilan kam qiziqadi.

2. Bolalarni mehnat jarayonlariga jalb etish orqali ularning mehnat tarbiyasini tashkil qila bilmalik.

3. Ota-onalar turmushida salbiy misollarning mavjudligi maktabning pedagogik kuch-g'ayratini yo'qqa chiqaradi.

4. Ota-onalar tarbiyaviy ta'sirining izchil emasligi: onda-sonda o'qishini tekshirish, biror nojo'ya ish uchun tergash axloqiy immunitet hosil bo'lishiga yordam bermaydi.

5. Oilaviy tarbiyaning asosi sifatida ta'qiqlashlar tizimi ijtimoiy namuna asosida tarbiyalay bilmaslik, bola hayotini u har doim to'g'ri xatti-harakatini mashq qiladigan tarzda tashkil eta olmaslik natijasidir.

6. Harakatlarning maktab bilan muvofiqlashtirilmaganligi yoki u bilan kelishmovchiligidir.

7. Ayrim ota-onalarning bolalar ulg'ayib borishi bilan tarbiyaviy faolligini susaytirib yuborishlari, bu esa bolalarning ota-onalardan uzoqlashuviga, maktabga qiziqishi pasayishiga olib keladi.

8. Qarorlar qabul qilishda kechikish. Bola katta bo'lgandan keyin aqli kirib, tuzaladi deb o'ylash odatda o'zini oqlamaydi, ko'pincha qayta tarbiyalashni talab etadigan pedagogik jihatdan qarovsizlik holatiga olib keladi.

Pedagogik ma'ruza pedagogik bilim berishning eng mashhur shakllaridan biridir. Keyingi paytlarda ota-onalarga pedagogik bilim berish keng miqyos kasb etib, korxonalaridagi uyushmalar, madaniyat uylari huzuridagi, turar joylardagi va ota-onalar pedagogika universitetlari orqali turli shakllarda amalga oshiriladi.

Ochiq eshiklar kuni yoki ota-onalar kuni, odatda maktab ta'tillari paytida o'tkaziladi. Ularni tashkil etish shakllari xilma-xil bo'lishi mumkin. Bu tarkib topgan an'analarga va sinf rahbari ijodkorligiga bog'liqdir. Oilaning yuksak tarbiyaviy imkoniyati bolalar va ota-onalarning o'ziga xos xususiyatlari: qon-qarindoshligi, muhabbati, yaqinligi, ishonchi, burch hissi, obro'liligi bilan ta'minlanadi. O'z farzandining barcha zaif va kuchli tomonlarini yo'rgakdagi chog'idan biladigan, ularning qalbidagi eng kichik harakatni ham sezadigan va tushunadigan, unga ta'sir etishni biladigan onadan va otadan yaxshiroq kim ham ezgulikka, mehnatsevarlikka, do'stlikka, birodarlikka, muhabbatga o'rgata boradi?!

Sinf rahbari har doim o'quvchilaridan xabardor bo'lib turishi kerak. Masalan, bir o'quvchining o'zlashtirishi yomon bo'lsa, uni yaxshilash uchun o'qituvchi birinchi o'rinda ota-onasi bilan

uchrashib, surishtirshi kerak. Nimaga yaxshi o'qimayapti, nima uchun darslarni o'z vaqtida qilmaydi, shular haqida ota-onasi bilan suhbat olib borishi kerak. Agar bolaning oilasida hamma sharoit bo'lib, bola o'zi yaxshi o'qishni xohlasa-da, o'zi o'ylagan natijaga erisha olmayotgan bo'lsa, o'qituvchi bolani yaxshi o'qiydigan o'rtog'ining yoniga o'tqizib qo'yishi kerak. Bundan tashqari o'shanga o'xshagan o'zlashtiruvchi o'quvchilarni yig'ib har xil fanlardan, masalan, matematika, ona tili, o'qish va boshqalardan qo'shimcha darslarni tashkil etib, bolalarning o'qishga bo'lgan talabini, qiziqishini yanada oshirishga harakat qilishi kerak. O'qituvchi o'quvchilarning ota-onalari bilan faol ishlashi kerak. Negaki, maktabda sinfda bo'layotgan ishlardan ota-onalar ham xabar topib, qiynalgan vaqtida hamroh bo'lishi lozim. Buning uchun ota-onalar bilan o'qituvchining o'rtasida bog'lab turuvchi aloqa daftarchasini tutishi va uni doim qoldirmasdan yuritib turishi darkor.

1. Hozirgi zamon pedagogika fani oldida turgan muhim muammolardan biri o'qituvchi va pedagogika mehnat sharoiti muammosi hisoblanadi. Chunki o'qituvchida barcha pedagogik g'oyalar mujassamlangan bo'lib, uning faoliyati orqali bu pedagogik g'oyalar amalga oshiriladi va hayotga tatbiq etiladi.

O'qituvchining ko'p qirrali va murakkab faoliyati zaminida yosh avlodni odobli, e'tiborli qilib tarbiyalash, ularni ilmiy bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirish esa o'qituvchining xilma-xil faoliyatiga bog'liq: bolalarni o'qitish, maktabdan va sinfdan tashqari ishlarni tashkil eta bilish, o'tkazish, ota-onalar o'rtasida pedagogik targ'ibot ishlarni olib borish va hakoza. Bularni hammasi o'qituvchilardan chuqur bilimlarga ega bo'lishni, o'z sohasini, bolalarni sevishni talab etadi.

Respublikamiz mustaqilligi e'lon qilingan sana 1991-yil 31-avgust xalqimiz hayotida ulug'vor voqealardan hisoblanadi. Endi xalqimiz o'zining boy tarixi, madaniyati, urf-odatlarini o'rganish, targ'ib qilish, o'zligini tanish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu

voqeadan so'ng ko'p sonli o'qituvchilar jamoalari oldiga Vatan ravnaqi uchun hormay-tolmay xizmat qila oladigan, buyuk vatani uchun o'z jonini ham ayamaydigan yoshlarni tarbiyalash vazifasi ko'ndalang qo'yiladi. Bu vazifa oliy ta'lim konsepsiyasida alohida ta'kidlanadi.

Bunday ulkan vazifani amalga oshirishda sinf rahbari ham o'zining beqiyos hissasini qo'shadi. Sinf rahbarining asosiy vazifalaridan biri bizning kelajagimiz bo'lmish yosh avlodni to'g'ri, insonparvarlik ruhida tarbiyalashdan iborat.

Sinf rahbari ishining o'ziga xos xususiyatini shundan iboratki, u oddiy bolalar jamoasini emas, balki o'quvchilar jamoasini shakllantiradi. O'quvchilarning asosiy vazifasi o'qishdan iborat. Shuning uchun sinf rahbari dastavval bolalarning o'qishiga qanday munosabatda ekanliklarini, o'zlarini qanday tutishlarini, uy vazifalarini sidqidildan bajarishlarini yoki bajarmasliklarini aniqlaydi. Va nihoyat, eng muhimi, ularning o'qishidagi mo'ljallari nimalardan iboratligi, bu mo'ljallar ijtimoiy mohiyatga molik yoki molik emasligi hisoblanadi. Pedagog sinf bilan ishlashning dastlabki bosqichida turli vaziyatlarga duch kelishi mumkin.

Sinf rahbari jamoa rivojlanishining aniqlangan darajasiga qarab tarbiya usullarini tanlaydi. Bunda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish qo'shimcha shart hisoblanadi. Pedagog shaxsni har tamonlama yetuk kamol toptirishda katta rol o'ynaydi. Aqliy tarbiya shaxsni har tomonlama taraqqiy ettirishda muhim rol o'ynaydi.

2. O'qituvchilik kasbiga, shu jumladan sinf rahbari kasbiga xos bo'lgan muhim fazilatlardan biri – bolalarni sevishi, ularning hissiyoti bilan qiziqishi, har bir shaxsni hurmat qilishdan iborat. Bolani sevgan, butun kuch va bilimini bolalarning kelajagi buyuk vatanga sodiq fuqaro qilib tarbiyalashgan safarbar qila oladigan odamgina haqiqiy o'qituvchi bo'la oladi. Bolaga befarq, uning kelajagi bilan qiziqmaydigan, o'qituvchilik kasbiga loqayd odam haqiqiy o'qituvchi bo'la olmaydi.

“Boshlang'ich ta'lim konsepsiyasi”da boshlang'ich sinf

o'qituvchisi qiyofasi ta'riflanadi: "...eng muhimi bolalarda o'qish, o'rganishga chinakkam havas, ishtiyoq uyg'otuvchi, e'tiqod hosil qiluvchi ustoz sifatida alohida o'rin tutadi". Va yana shu konsepsiyada boshlang'ich sinf o'qituvchisi fazilatlariga qo'shimcha keltiriladi. O'qituvchi: "...O'zbekiston kelajagi buyuk davlat ekaniga ishonadigan milliy iftixorli bo'lishi;

– bolalarni xalq pedagogikasi durdonalari hamda milliy qadriyatlarimiz asosida tarbiyalay olishi;

– nutqi ravon, xalq tili boyligi, ifoda usuli va tasvir vositalarini, adabiy til uslubi va me'yorini to'la egallagan bo'lishi" zarur.

O'qituvchilik kasbga xos bo'lgan bunday fazilatlar, pedagogik odob sinf rahbarining yuksak kasbiy fazilatidir. U o'qituvchining savodli bo'lishiga, o'z hissiyatini idora eta olishiga, bolalarga pedagogik ta'sir o'tkazish vosita va me'yornlarni belgilash, aniqlashda yordam beradigan fazilat hisoblanadi. Yuksak pedagogik odobga ega bo'lgan sinf rahbarigina sinfda mo'tadil psixologik iqlim o'rnatadi, bolalar qalbiga tez yo'l topa oladi.

O'z xizmati xususiyatiga ko'ra sinf rahbari tashkilotchilik fazilatiga ham ega bo'lmog'i lozim. Buning uchun o'qituvchi tashabbuskorlik va tashkilotchilik qobilyatiga ega bo'lib, har doim tetik, g'ayratli, o'z kuchi va imkoniyatiga ishongan bo'lmog'i zarur. Tashabbuskor va g'ayratli sinf rahbari bolalarni o'z orqasidan ergashтира oladi, o'quvchilar unga ergashadi.

O'qituvchilik kasbi juda katta ruhiy va jismoniy kuch talab etadi, shuning uchun o'qituvchining salomatligig ham ma'lum talablar qo'yiladi. O'qituvchining ovoz paychalari rivojlangan, ko'rish qobilyati yaxshi bo'lishi kerak. Uzoq tikka tura olishi, ko'p yurishi, epcillik kabi fazilatlariga ham ega bo'lmog'i lozim.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim konsepsiyasida mutaxassis vazifalari quyidagicha belgilangan: "... mutaxassis o'z faoliyatini sohasidan qat'iy nazar, ijodiy jamoalarda ishlay olish qobilyatiga, menejment va marketing sohalarida tayyorgarlikka ega bo'lishi, yangi texnologiyalarni joriy etishning xo'jalik

ijtimoiy va madaniy jihatlarini aniq tasavvur qila olishi kerak”.

Ushbu fikrlar o'qituvchilarga ham, ya'ni mohir sinf rahbarlariga ham bevosita taalluqlidir. Chunki jamiyatimizda sodir bo'layotgan tub o'zgarishlar, bozor munosabatlariga kirib borishimiz o'qituvchilarni nafaqat kasbiy bilimlarini, balki iqtisodiy, yuridik, texnikaviy bilimlardan ham xabardor bo'lishini taqozo qilmoqda. Bu o'rinda boshlang'ich sinf o'qituvchilari, sinf rahbarlarining xizmati katta.

3. Boshlang'ich sinflar jamoasini jipslashtiruvchi omillardan biri o'quv-tarbiya mazmunidir. Davlat ta'lim standarti asosida belgilangan fanlarning mazmuni salohiyati o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi bilan birga jamoaga xos bo'lgan o'rtoqlik, do'stlik, hamkorlik, adolatparvarlik, mehr-u shavqat kabi fazilatlarining uyg'unligi tufayli jipslashadi. Shu tufayli davlatimiz darsliklarning yangi avlodini tuzish konsepsiyasiga e'tibor qaratdi, hamda ta'lim mazmunini milliy istiqloq g'oyasi asosiy tamoyillari bilan boyitishga e'tibor kuchaytirildi. Sinf rahbari ishida o'quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi. Chunki jamoa gultojini tarbiyalash tarbiyaning yetakchi vazifalaridan biridir. Tarbiya metodlarini tanlashda ularning jamoada rivojlanish darajasiga mosligi muvafaqiyatning muhim sharti hisoblanadi.

4. Hozirgi zamon o'qituvchisining asosiy fazilatlaridan biri – o'z kasbiga sadoqatliligi, g'oyaviy e'tiqodliligi – uni boshqa kasb egalardan ajratib turadi. Chunki maktabda ta'lim-tarbiya ishining yuqori saviyada bo'lishi o'qituvchiga, uning kasbiy tayyorgarligiga bog'liq.

Sinf rahbari shaxsiga qo'yiladigan muhim talablardan biri sinf rahbarining o'z ishini yaxshi bilishidir. U tarbiya metodikasini puxta o'zlashtirgan bo'lishi zarur. Ishni to'g'ri tashkil qilish va uni bolalar bilan tushunarli, qiziqarli va mas'uliyatni his qilgan holda olib borish kerak. O'quvchilar o'qituvchining bilimini bolalarga yetkaza olish imkoniyatlarini qadrlabgina qolmay, balki uning shu predmetga bo'lgan qiziqishini, uning fidoyiligini ham qadrlashadi.

Sinf rahbarining yuksak madaniyati, uning teran bilim doirasi,

ayniqsa, O'zbekiston mustaqilikka erishgandan so'ng xalqimizning o'z tarixini, madaniyatini, urf-odatini o'rganishiga, bilishga bo'lgan qiziqishi ortib borayotgan davrda, ta'lim-tarbiya ishlarini muvaffaqiyatli kechishiga yordam beradi. Hozirgi zamon o'qituvchisi, ayniqsa sinf rahbari milliy qadriyatlarimizni bilibgina qolmay, keng ota-onalar jamoatchiligi ichida, sinfda uning otashin targ'ibotchisi ham bo'lishi kerak.

O'qituvchilik kasbi juda katta va ruhiy va jismoniy kuch talab etadi. Shuning uchun o'qituvchining, ayniqsa sinf rahbarining salomatligiga ham ma'lum talablar qo'yiladi.

O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan umumiy talablar bilan boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbining o'ziga xosligi ayrim spetsifik talablarni keltirib chiqaradi. Chunonchi, boshlang'ich sinf o'qituvchisi anatomiya, fiziologiya, maktab gigienasi fanlaridan xabardor bo'lmog'i, o'quvchilar faoliyatini shu fanlar tavsiyasi asosida tashkil etishi lozim (sinf gigienik talabga javob berishi, o'quvchilar rejimi, ularning aqliy va jismoniy rivojlanishini kuzatish va to'g'ri yo'naltirish); o'qituvchi o'z nutqini iroda qilishi; adabiy nutq normalariga rioya qilishi; ovozning baland-pastligiga ahamiyat berishi, nutqining jonli, ifodali bo'lishiga e'tibor berishi; bolalarni charchatib qo'ymaslik maqsadida ish turlarini tez-tez o'zgartira olishi, ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ib qilishi, ular bilan yaqindan aloqa o'rnatish olishi (bu faoliyat turi boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy holatini o'rganishga yordam beradi) va ularga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishga yordamlashishi kerak.

Nihoyat, u o'z ustida tinmay ishlashi lozim. Ayniqsa qadriyatlarimizni o'rganishga, o'zligimizni bilishga ehtiyoj katta bo'lmoqda, zero bu narsalarni bilmay turib mustaqilligimizni mustahkamlab, buyuk davlat qurib bo'lmaydi. Shunday ekan, boshlang'ich sinfdan boshlab bolalar sharqona tarbiya ta'siriga o'tmog'i, o'z qadriyatlarini bilmog'i lozim. Bu o'qituvchidan, qolaversa sinf rahbaridan chuqur bilimli bo'lishni talab etadi.

5. Ustozlik – bu kelajak, istiqbol uchun meros qilib qoldiriladigan boylikdir. Bu boylikning qadr-qiymati shu qadar

buyukki, u odamni ma'naviy jihatdan boy qilib, qalbini baxtga, ilohiy nurga to'ldiradi.

“Ustoz” so'ziga berilgan ta'rifga e'tibor bering-a, uning mazmuni naqadar boy: Ustoz – muayyan fan, bilim, gohida betakror olim, pedagog mutaxassis, o'z yo'nalishi bo'yicha barcha yangiliklardan boxabar, hayotda o'z o'rnini topgan, mavqei, salohiyati va maktabiga ega; olim fuzalo, oqil, komil, o'mak bo'ladigan, o'zining ilg'or tajribasiga ega va kelajakni ilmiy tasavvur qiladigan; ilmi, bilimli, hamma tomondan tan olingan maslahatgo'y inson.

Dunyoda biron kimsa yo'qki, uning ustozlari bo'lmasa. U hukumat rahbarimi, buyuk allomami, vazir yoki iqtidorli shifokormi, xalq mehrini qozongan yozuvchimi yoki qo'li gul kosibmi, qarangki barcha-barchaning o'z ustozlari va hayot yo'lini charog'on etib turuvchi yo'lbo'shchisi bo'ladi. Siz o'zingizni ustozlik baxt sohibi hisoblasangiz, quyidagilarni unutmaslik kerak:

– “O'zbekiston kelajagi buyuk davlat” g'oyasi sizning har kungi faoliyatingiz uchun dasturulamal bo'lsin va shu buyuk xalq va davlatga munosib shogirdlar tayyorlang.

Ustozning eng buyuk burchi – xalqqa nafi tegadigan, aql-idrokli, qobiliyatli o'quvchi-shogirdlar tayyorlashdan iborat. Ustoz yaxshi shogird tayyorlash uchun eng avvalo uning o'zi ma'naviy jihatdan barkamol, fikrlash tarzi noyob, dunyoqarshi sog'lom, o'z yurti va xalqining g'oyasi va ilg'or mafkuraning bayroqdori bo'lishi kerak.

2.2. Maktabdagi tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbarining faoliyatini tashkil etish metodikasi

Hozirgi davr maktabdagi o'quv-tarbiya ishlarini amalga oshirayotgan pedagogik jamoa oldiga juda katta vazifalar qo'yimoqda. Maktab yosh avlodning dunyoqarashini tarkib toptirishi, g'oyaviy, siyosiy jihatdan chiniqtirishi, yuksak axloqiy fazilatlariga ega qilishi, mehnatga va ongli kasb tanlashga

tayyorlashi lozim. Bu vazifalarni hal qilishda sinf rahbari muhim rol o'ynaydi. Chunki u bir sinf sharoitida tarbiyaviy vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan ishlarni tashkil etadi va boshqaradi.

Sinf rahbari quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O'ziga yuklatilgan sinfdagi tarbiyaviy ishlarni amalga oshiradi. Bu vazifani bajarayotganda u yolg'iz o'zi emas, balki shu sinfda dars berayotgan turli fan o'qituvchilari bilan hamkorlikda va ularga suyangan holda o'quvchilarda milliy dunyoqarash asoslarini shakllantiradi, axloqiy tarbiyasini rivojlantiradi. O'quvchilarning darsdan tashqari tadbirlarini tashkil etadi va sinf jamoasini mustahkamlaydi.

2. O'quvchilarning bilimga bo'lgan qiziqish va qobiliyatini o'stirish, har bir o'quvchining individual-psixik xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbga yo'naltirish va hayotiy maqsadlarini shakllantirish sinf rahbarining alohida vazifasidir. Ayni paytda har bir o'quvchining sog'lig'ini mustahkamlashga ham alohida e'tibor beradi.

3. Sinf rahbarining diqqat markazida o'quvchilarning darsni yuqori o'zlashtirishlarini ta'minlash masalasi turadi. Buning uchun u har bir o'quvchining kundalik o'zlashtirishidan voqif bo'lib turadi. Orqada qolayotganlarga o'z vaqtida, kechiktirmay yordam uyushtiradi.

4. Sinfdagi o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ishlarini yo'naltirib turadi. Ular ishtirokida sinf jamoasining ijtimoiy foydali ishlardagi ishtirokini hamda maktab miqiyosida uyushtirilayotgan muhim tadbirlarda o'z sinfining faol qatnashishini ta'minlaydi.

5. Sinf o'quvchilarining ota-onalari, kuni uzaytirilgan guruhlarining tarbiyachilari, korxonalar va muassasalardagi, turar joylardagi otaliqqa oluvchilar bilan yaqin aloqa o'rnatadi.

6. Sinf rahbari shu sinfda dars berayotgan barcha fan o'qituvchilari o'rtasida o'quvchilarga nisbatan yagona talablar o'rnatilishiga erishadi, ota-onalarga pedagogik bilimlar tarqatib, oila bilan maktab o'rtasidagi aloqani mustahkamlaydi.

7. Sinf rahbari o'z sinfidagi turli hujjatlarini: sinf jurnali,

o'quvchilarning kundaliklari, tabellar, shaxsiy ma'lumotlari, turli xil reja va hisobotlarni yuritadi.

Ko'rinib turibdiki, vazifa keng va murakkab, ularni muvaffaqiyatli hal qilish sinf rahbarining shaxsiy sifatlariga ham bog'liqdir. Sinf rahbarining shaxsiy sifatlariga qo'yiladigan talablar o'qituvchiga qo'yiladigan talablardan farq qilmaydi. Lekin, sinf rahbari asosiy tarbiyachi, bolalar ma'naviy jihatdan andoza oladigan shaxs bo'lganligi uchun ham, bu talablar uning shaxsiy fazilatiga aylanib ketishi bilan tarbiyada alohida rol o'ynaydi.

Tarbiyaviy ishlarning sifat va samaradorligi, avvalo tarbiyachining g'oyaviy ishonchiga va siyosiylikining darajasiga bog'liq. Buning uchun sinf rahbari fan yangiliklarini muntazam egallab borishi bilan o'zining bilimini, ongini oshiradi.

Sinf rahbarining axloqiy obro'si g'oyat darajada yuqori bo'lishi ham bu o'rinda muhimdir. Sinf rahbari ana shundagina tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga ega bo'ladi. Tarbiyachining shaxsiy fazilatleri, ma'naviy qiyofasi o'quvchilar ongining va xulqining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Sinf rahbari uchun malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishning o'zi yetarli emas. U o'z tarbiyaviy faoliyatida yuksak darajadagi insonparvarlik fazilatleri, o'z ishiga sadoqati, intizomi, odamiyligi, axloqiy sifatleri bilan ham ta'sir o'tkazadi. Chunki, tarbiyachilik qobilyati juda ko'p sifatleri: chuqur bilim, keng fikrlilik, ishga jon-dildan ko'ngil qo'yish, bolalarga bo'lgan cheksiz muhabbat, muomalada nazokatlilik, qalb yoshligi, oqil va adolatlilik namunasi, alohida nazokat, sipolik va vazminlik kabi fazilatleri bo'lishini taqozo qiladi. Bunga yana tarbiyachilik texnikasi qo'shilsa, ishda muvaffaqiyat ta'minlanishi tabiiydir. Tarbiyachilik texnikasi sinf rahbarining asosiy qurolidir.

Sinf rahbarlaridan madaniyat darajasining kengligi, pedagogik odob talablariga rioya qilish, har bir bola shaxsini inson sifatida hurmat qilish bilan unga nisbatan talabchanlikni unutmaslik, tashkilotchilik malakalariga ega bo'lish, ishga ijodiy yondashish talab qilinadi. Muhimi shundaki, sinf rahbarining o'zi bolalarni

tarbiyalamoqchi bo'lgan g'oyaviy-axloqiy barkamollikka mos bo'lishi kerak. Tarbiyadagi xatolarning ko'pchiligiga asosiy sabab, bolaning oldiga qo'yilayotgan talablar tarbiyachi xarakterida hamisha ham namoyon bo'lavermasligidadir.

Sinf rahbarining faol jamoatchi sifatida hamisha namuna ko'rsatishi muhim ahamiyatga ega. Ayni vaqtda u kommunikativ qobiliyatga ega bo'lishi, ro'y berayotgan voqea va hodisalarni faqat pedagogik qoidalarga bog'lab baholashgina emas, balki ro'y berishning sababiga qarab hukm chiqarish qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerak. Sinf rahbari maktabdagi eng yetuk pedagog hisoblanib, u bajaradigan mehnatining o'lchovi, chegarasi yo'q. Uning bilmagan ishi, uddasidan chiqa olmaydigan sohasi bo'lmaydi. Su bilan bir qatorda, u beg'araz, xolis shaxs bo'lib, jamoatchilik asosida ishlaydi. Sinf rahbari pedagoglar, ota-onalar va o'quvchilarni o'zaro bog'lovchi shaxs sifatida barcha tomonlarning nuqtai nazarini hisobga olishi, harakatlarni bir markazga birlashtirishi, o'zaro aloqalarning to'g'ri bo'lishiga ta'sir o'tkazishi va ayni vaqtda, o'zining o'rnini aniq ta'minlay olishi kerak. Mana shu fazilatlar sinf rahbarining tarbiyaviy ishlari samarasini oshirishga va uning muvaffaqiyatini ta'minlashga garov bo'ladi. Sinf rahbari o'quvchilarga puxta bilim berishga, ularning fikrlash qobiliyatini faollashtirishga hamisha g'amxo'rlik qilib boradi. Hatto o'zlashtirish yuqori bo'lgan sinflarda ham bolalarda ilmga bo'lgan qiziqish va muhabbatni o'stirishga, ta'lim sifatini oshirishga harakat qilishi zarur.

Ayrim maktablarda yuqori o'zlashtirishga erishish o'quv, didaktik masala sifatida maktabda ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishga bog'liq bo'ladi. O'qish jarayonida bolalarda mehnatsevarlik, diqqat, matonat kabi sifatlarni tarbiyalash bilimni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga yordam beradi.

Maktabda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar tizimi to'g'ri va bevosita sinfda o'zlashtirishni ko'tarishga ta'sir etadi. Sinf rahbari o'qituvchilar bilan hamkorlikda bolalarni o'qishga ongli munosabatda bo'lishga o'rgatadi. O'quvchilarning o'qishlarini

nazorat qiladi, darslarga kiradi, kuzatadi va o'z sinfidagi o'quvchilar bilan birgalikda sinfda o'quv ishlarining sifatini oshirish chora-tadbirlarini belgilaydi. Yuqori sinflarda yuqori o'zlashtirish uchun kurash susaymaydi, aksincha u yana ko'proq ahamiyat kasb etib boradi.

2.3. Sinf rahbari tarbiyaviy faoliyatining samaradorligini oshirish shart-sharoitlari

Sinf rahbari maktab o'qituvchilar jamoasi va pedagogika kengashining a'zosi. Sinf rahbarining burchi juda keng va ko'p tomonlamadir.

Sinf rahbari ishining asosiy qismi o'quvchilarni o'rganish, o'quvchilar bilim sifatini oshirish hamda ularning tartib-intizomini mustahkamlashdan iborat. Darsdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil etish va ularni o'tkazish, o'quvchilarning otanalari bilan olib boriladigan ishlar ham sinf rahbarining asosiy vazifalariga kiradi.

O'quvchilar jamoasi – sinf rahbarining tayanchi. O'quvchilarni tarbiyalashda sinf jamoasidagi barcha o'quvchilarning bir-birlariga ta'sirlari katta ahamiyatga ega. Ularning bir-biriga ko'rsatadigan o'rnaklari intizomni yaxshilash va mustahkamlashga xizmat qiladi, ularda xulq madaniyatini, odatini, ko'nikmasini hosil qiladi.

Sinf rahbari bolalarni odobli qilib tarbiyalashni, ularga andisha bilan gapirishni, maqbul harakat qilishni o'rgatishi lozim.

Alisher Navoiy "Mahbub-ul-qulub" asarida ta'lim-tarbiya jarayonlarini, vositalarini, axloq-odob talablarini ko'rsatadi. O'z davridagi musulmon maktablarining yutuq va kamchiliklarini tahlil etadi. O'qituvchi odobi va muallimlik kasbi, mudarrislar, maktabdorlar ta'lim berayotgan fanini va tarbiya jarayonini sevishi kerak deydi. O'ziga xos o'quvchi jamiyatda obro'li va hurmatga loyiq insondir, deb hisoblaydi. Shogirdlar muallimni hurmat qilishlari, e'zozlashlari zarurligini uqtiradi.

Navoiyning fikricha, ba'zan bir kishi bitta bolaga tarbiya berishga o'z qiziqishini qo'yadi, muallim esa bir nechta bola – sinf jamoasini tashkil etadi va ilm-u adab o'rgatadi. Bu jarayonda sinf rahbari ko'p mashaqqatlarga duch keladi. Shuning uchun shogirdlar ustoz oldida umrbod qarzdor ekanliklarini his etishlari lozim. Shogird podsholik martabasiga erishsa ham muallimga qulluq qilsa arziydi.

Haq yo 'lida senga bir harf o'qitmish ranj ila,
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz ganj ila.

Sinf rahbari o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalar ekan, u o'z faoliyatida quyidagi talablarga rioya qilishi kerak:

– sinf rahbari o'quvchi ota-onasining mansabi, boyligiga qarab bolaga muomala qilmasligi lozim;

– sinf rahbari bolalarga axloqiy me'yorlarni o'rgatishi kerak;

– gerdayish, manmanlik, ta'magirlik, nodonlik kabi illatlar o'qituvchi axloqiga yot sifatlardir;

– xalq nazarida olim hisoblanadigan o'qituvchilar yomon ishlardan, fisq-u fasoddan o'zlarini tiya bilishlari zarur.

Sinf rahbarining ota-onalar bilan to'g'ri muomila qila olishi murakkab, nozik ish. Chunki hozirgi ota-onalarning ko'pchiligi o'rta yoki oliy ma'lumotli kishilar, ular vaqtli matbuot, televidinie, radio orqali ko'pgina pedagogik axborotlarni bilib oladilar. Shunday vaziyatlar ham bo'ladiki, o'g'il yoki qiz bola maktabda o'z boshimchalik qiladi, lekin oilada hushyor va gapga quloq soladi, yoki aksincha. Oilada muomalasi qo'pol, o'z boshimcha, maktabda esa o'zini xushmuamala, intizomli tutadi. Buning sababi nimada? Bunday holatlarning hammasi uchun bir xil sabab va to'g'ri javobni topish amri mahol. Chunki har bir holatda uning sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Demak, sinf rahbari va ota-onalarning maqsadlari bir xil bo'lsa ham, ularning hamkorligi, bir-birini tushunishi, muomala munosabatlari qarama-qarshiliklarsiz bo'lmaydi.

Sinf rahbarining faoliyati kamol topayotgan kishi shaxsini tarkib toptirishga qaratilgandir. Bu faoliyatning natijalari

tarbiyalanuvchining qiyofasida, uning shaxsidagi xususiyatlarida, xarakter va xulq-atvorida o'z aksini topadi. Tarbiyachi pedagog nimaga intilayotgani ravshan va aniq tushunilmagan joyda tarbiyalanuvchilar shaxsini takomillashtirishga astoydil intilish bo'lmaydi, balki tarbiyada o'tkaziladigan ish tasodifiy tusga ega bo'lib, buning uchun ajratilgan vaqtni to'ldirish uchungina olib boriladi. Tarbiya faoliyatining maqsadlarini aniq bilmagan va bu maqsadlarni hisobga olmagan holda to'la qimmatli tarbiya yo'q va bo'lishi ham mumkin emas. Ma'naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi jamiyat talablariga bog'liq bo'lib, bu talablar o'z navbatida ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va jamiyatda yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishlarining hammasi yosh avlodda ma'naviy axloq va e'tiqodni shakllantirishga, ularni Vatanga cheksiz sadoqat ruhida tarbiyalashga xizmat qilishi lozim.

Yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash tuzimini takomillashtirishda boshlang'ich maktab muhim o'rin egallaydi.

Ma'naviy axloqiy tarbiya – ma'naviy ongning bir maqsadni ko'zlab tarkib toptirish, axloqiy tuyg'ularni rivojlantirish hamda xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini hosil qilishdan iborat. Sinf rahbari o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning quyidagi vazifalarini hal etishi kerak:

1) Tug'ilib o'sgan joyiga, O'zbekiston Respublikasiga yuksak muhabbat tuyg'ularini, uning tabiati va kishilar haqida, Vatanning himoyachilari va mehnat qahramonlari to'g'risida, ota-bobolarimiz, ularni dunyo sivilizatsiyasiga qo'shgan hissalarini to'g'risida ko'proq bilishga intilishni tarbiyalash.

2) O'quvchilarda Vatanimizning boy tarixi, shuningdek boshqa mamlakatlar to'g'risida, tinchlik uchun kurash haqida, chet ellardagi bolalar tashkilotlari haqida dastlabki tasavvurlarni hosil qilish.

3) Bolalarda o'rtoqlik tuyg'usini, boshqalarga yordam ko'rsatish ishtiyoqini, umumiy foyda yo'lida birgalikda faoliyat ko'rsatishga intilishni tarkib toptirish. Bolalar o'rtasida, o'g'il va qiz bolalar o'rtasida do'stona munosabatlarni rag'batlantirish, soxta o'rtoqlik ko'rinishlariga qarshi kurash olib borish lozim.

4) O'z so'zi va va'dasi uchun, o'qituvchi va jamoa to'pshiriqlarining bajarilishi uchun mas'uliyat tuyg'usini tarbiyalash.

5) Bolalarda kishilarga to'g'ri munosabatni, keksalar, bemorlar, nogironlarga nisbatan e'tibor va g'amho'rlikni, xushfe'l va batartib, kamtar va haqgo'y bo'lishni tarbiyalash.

O'quvchilarni barcha kishilarning yaxshi va yomon xatti-harakatlarini farqlay olishga, o'z xatti-harakatlariga va o'rtoqlarining xatti-harakatiga adolatli baho berishga o'rgatishi hamda o'z kuch-g'ayratini o'quvchilarda nopoklik, adolatsizlik, kishilarga rahm-shafqatsiz bo'lishga nisbatan salbiy munosabatni tarkib topshtirishga qaratishi kerak.

O'quvchilarni tarbiyalash o'qitishga qaraganda ancha qiyin degan fikrni o'qituvchilar orasida tez-tez eshitish mumkin. Ma'naviy-axloqiy tarbiya, ta'lim berish bilan mustahkam aloqada bo'lgani holda, o'zining xususiyatlariga ega. Ma'naviy-axloqiy tarbiya o'sib kelayotgan avlodni tarbiyalashning barcha jarayonlarini bilim berish va o'rgatish bilan birga qamrab oladi. Bunday ikkita o'zaro bog'langan tomon: hayotni bilish va unga bo'lgan munosabatni tarkib toptirish protsesslari ajralib turadi. Hayotni bilish ma'lumot olishning asosiy funksiyasi, unga bo'lgan munosabatni tarkib toptirish tarbiyaning asosiy vazifasini tashkil etadi.

Sinf rahbari faqat ta'lim-tarbiyaning birligini emas, balki ularning xususiyatlarini ham ko'ra bilishi muhimdir. Maktabdagi tarbiya inson shaxsini tarkib toptirish yuzasidan olib boriladigan ulkan ishining bir qismi xolos, u bolaning ilgarigi tajribalarini hisobga olgan holda tashkil etiladi, undagi barcha yaxshi sifatlarni o'stirib, noto'g'ri tasavvurlar, odatlarni tuzatib borishi va bo'lajak sifatga zamin tayyorlashi kerak. Ma'naviy-axloqiy tarbiya o'quvchi maktabni tamomlagandan keyin ham tugallanmaydi, u butun umr bo'yi davom etadi.

Ma'naviy-axloqiy tarbiya, ta'lim berish bilan bog'liq bo'lgani holda, o'z xususiyatlariga, o'ziga xos vazifalari, uni tashkil

etishning forma va metodlariga ega bo‘lib, maxsus ravishda o‘rganilishi lozim.

O‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning muhim sharti ularning o‘quv va o‘qishdan tashqi xilma-xil faoliyatlarining birligi to‘g‘risidagi tushunchalar bilan bog‘liqdir.

O‘quv va ma’naviy-axloqiy tarbiya faoliyati bir-birlarini to‘ldirishi lozim. Sinf rahbari tomonidan tarbiyaviy bosqichga rahbarlik qilingan taqdirdagina tarbiyada biror maqsadga qaratilganlik bo‘lishi mumkin. Ma’naviy-axloqiy tarbiyalash avvalo tarbiyalanuvchi shaxsining tarkib topish protsessiga rahbarlik qilishni taqozo etadi.

Biror maqsadga qaratilgan tarbiya protsessida tarbiyalanuvchilarning jismoniy hamda ma’naviy-axloqiy yetukligi o‘sib borishiga qarab ularning mustaqilligi va ijodiy aktivligi ortib boradi. O‘quvchilar jamoasining ongliligi ortib borishi bilan tarbiyachining vazifalari o‘zgaradi. Tarbiya davomida tarbiyalanuvchining qarashlari, hayotiy nuqtai nazari asta-sekin tarkib topadi.

2.4. Sinf rahbarining o‘quvchilarni o‘rganish metodikasi

Sinf rahbarining faoliyati ko‘p qirrali va sermazmundir. U o‘zi rahbarlik qilayotgan sinf o‘quvchilarini tarbiyalash bilan bir qatorda o‘quv yili yoki chorak davomida nimalar qilish kerakligi, bolalar hayotini nima bilan band qilish va tanlangan ish turini qanday amalga oshirishni bexato aniqlash kabi ancha murakkab muammoni yechadi. Bu borada sinf rahbariga turli xil manbalar yordam beradi.

Tarbiyaga kompleks yondoshish, biror o‘quvchini ham e‘tibordan qochirmaslik sinf rahbari uchun alohida masaladir. Tarbiyalash uchun sinf rahbari tarbiya obyekti bo‘lgan bolani yaxshi bilishi, uni yaxlit idrok etishi kerak. Ko‘pchilik sinf rahbarlari bolani darsda o‘quvchi, musobaqada sportchi sifatida, ya’ni har bir aniq ish sharoitidan kelib chiqib idrok etadi va shunga ko‘ra muomala qiladi, bola shaxsining boshqa tomonlari

esa hozircha hisobga olinmaydi. Ammo har bir bolaning o'z tajribasi, o'z emotsional madaniyat darajasi, qadrlaydigan narsalar, ehtiyoatlari, talablari, umidlari, aloqalari, munosabatlari kabi butun bir dunyosi bor. Tarbiyada ana shular hisobga olinishi kerak. Sinf rahbari o'z o'quvchisining ichki dunyosini, kechinmalarini, hulqida vujudga kelayotgan holatlarning sababini, irodasini yaxshi bilsagina uning qalbiga yo'l topa oladi va bolaga ta'sir etishning to'g'ri yo'lini aniqlaydi. Ana shunday sifatlarga e'tibor bergan sinf rahbari tarbiyada yetakchi o'rinni egallaydi.

Shuni ham unitmaslik kerakki, bolaga tarbiyaviy ta'sir etuvchi omillar hozirgi davrda g'oyat darajada ko'paydi: oila, keng jamoatchilik, radio, televideniya, kino, teatr, kitob, jurnal, musiqa va boshqalar.

Sinf rahbarining bolaga tarbiyaviy ta'sir etishdagi yetakchilik, birdamlik rolini tarbiyaviy ta'sirning bu qadar ko'p tarmoqlari orasida saqlab qolish g'oyat qiyinlashib boryapti. Ba'zan bolaga tarbiyachidan ko'ra o'rtog'i, qo'shnisi, ko'chadagi do'stlari kuchliroq ta'sir etishi hollariga duch kelamiz. Ammo buning aksi bo'lgan taqdirdagina tarbiyada muvaffiqiyatga erishiladi. Bunga esa tarbiyachining nuqtai nazari ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Chunki, har bir bolada ma'lum kurtaklar: yaxshilik va poklik bilan bir qatorda salbiy, aktivlik va passivlik sifatlari mavjud. U munosabatlarga e'tibori jihatidan ham har xil sifatlarga ega. Agar tarbiyachi unga optimistik nuqtai nazardan yondashsa, bola yaxshilikka intilib, uning umidini oqlaydi va aksincha, bolaga oldindan noshud, yalqov, tartibsiz deb qaralsa hamda o'jarlik va terslik bolaning sifati deb hukm chiqarilsa, u holda tarbiyalanuvchi o'zini xuddi shunday qilib ko'rsatadi. Natijada u bu borada ham tarbiyachining «umidini oqlaydi».

Sinf rahbari bolalarni yaxshi bila olishi uchun ularni o'rganish darsda, darsdan tashqari vaqtlarda umuman bolaning hayoti o'tadigan barcha sharoitlarda amalga oshiriladi. Bolani o'rganish bilan sinf rahbari uning individual xususiyatlari haqida aniq ma'lumotga ega bo'ladi.

Bolaning individual xususiyati uning xulqiga, o'zlashtirishiga,

munosabatlariga, jamoadagi o'rniga ta'sir etadi. Shu boisdan ham jamoadagi individlar tarbiyalanayotganda alohida o'quvchini unitish yaramaydi. Chunki sinf rahbari ko'pgina tashkiliy ishlarni uyushtirishda kimga suyanish, kimga qanday vazifa yuklash, kimga mustaqillik berish va kimga muntazam yordam berish kerakligini faqat ularning individual xususiyatlarini yaxshi bilish tufayliga bexato aniqlaydi. Demak, individual munosabat bolaga tarbiyaviy ta'sir etishning eng samarali yo'lini topish imkoniyatini beradi.

Tarbiyaviy ishlar jarayonida sinf rahbari butun sinf jamoasini ham o'rganishi kerak. Sinf rahbari o'ziga berilgan sinfni qabul qilib olishi bilan bolalar haqida ko'pgina ma'lumotlarni aniqlaydi. Bu ma'lumotlar bolaning oilasidan, o'qituvchilaridan, o'rtoqlaridan olinadi va tarbiyaga yagona ta'sir birligi ham shu asosda vujudga keladi.

Mana shu o'rinda bolalar, ota-onalar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar masalasiga alohida e'tibor berish lozim. Bu uchlik markazida bola, ya'ni o'quvchi turadi, maktab va oila esa unga ikki tomondan ta'sir etadi. Ayni vaqtda bola maktab bilan oilasidagi aloqani ta'minlovchi vosita rolini ham bajaradi. Lekin uning maktab haqidagi oilaga yetkazadigan ma'lumotlari hamisha ham haqiqatga to'g'ri kelavermaydi va u hatto kundalik orqali beriladigan axborotlarni ham o'zicha talqin etib beradi. Ko'pincha oila bilan maktab o'rtasida vujudga keladigan anglashilmovchilik ham mana shu tufayli ro'y beradi. O'quvchi kattalarning o'zi bilan muomola qilayotgan vaqtdagi pozitsiyasini solishtirib ko'rish orqali ma'lum xulosaga keladi va o'ziga hukm chiqaradi. Xuddi shu hol uning xulqida o'z aksini topadi va u bir gal o'qituvchining, boshqa vaqt ota-onasining tarbiyasini oladi. Hatto eng vijdonli bolada ham bu holning ro'y berishi tabiiydir.

Ana shu holatning vujudga kelmasligi uchun ota-onaga yordam berish, o'qituvchi bilan ota-ona o'rtasidagi hamkorlikning to'g'ri bo'lishida oila tarbiyasiga rahbarlik qilish zarur. Buning uchun u har bir oilani har tomonlama o'rganishi kerak. Sinf rahbari har bir o'quvchisi oilasiga individual munosabatda bo'lishi

uchun quyidagilarni o'z ichiga olgan dasturga ega bo'lishi kerak:

1. Oila haqida umumiy ma'lumot: oila tarkibi, kattalarning ish joyi, kasbi, oilaning moddiy jihatdan ta'minlanganlik darajasi, uy-joy sharoiti.

2. Oilaning madaniy darajasi: oila a'zolarining ma'lumoti, oilaviy kutubxona bor-yo'qligi, qanday matbuotga yozilishi, an'analari va oilaviy bayramlar.

3. Oilaning tarbiyaviy imkoniyatlari: ota-onaning bolaga va bolaning ota-onaga munosabati, ularning insoniy yetukligi, bolalarning o'z ota-onalarining kasbi haqidagi tushunchalari, oilada salbiy ta'sirning bor-yo'qligi.

4. Bolaga oiladan tashqarida ko'rsatilayotgan ta'sirlar va ota-onalarning ularda munosabati, o'rtoqlari, hovli, ko'cha, qo'shnilar, ota-onaning tanishlari, qarindoshlar va boshqalar.

Sinf rahbari tarbiyaviy ishining muvaffaqiyati ko'p jihatdan uning bolalar ichki dunyosiga chuqur singib kirishiga, ularning kechinmalari hamda xulq-atvorini tushunishiga bog'liqdir. O'quvchining nima bilan yashayotganligini, uning qiziqishi va mayillari qandayligi, irodasining o'ziga xosligi hamda xarakteri xususiyatlarini o'rganish uning qalbiga mumkin qadar ishonchli yo'l topish, unga tarbiyaviy ta'sir etishning maqbul metodlaridan foydalanish demakdir.

Tarbiyachi o'quvchining individual xususiyatlarini yaxshi o'rgangan va tushungan taqdirdagina, bu o'quvchi shaxsini muvaffaqiyatli tarbiyalab yetishtira oladi. O'quvchilarni o'rganish o'qituvchining, ayniqsa sinf rahbarining vazifasidir. U o'quvchilarni faqat darsdagina emas, balki sinfdan tashqi vaqtda ularga tarbiya berish davomida ham, o'quvchilar uylariga borganda ham, har xil ekskursiyalar vaqtida ham o'rganadi.

Sinf rahbari sinfni qabul qilib olgandan keyin, uning birinchi ishi, odatda, o'quvchilarni o'rganish bilan bog'liq bo'ladi.

Bu ish uning o'ziga birlashtirilgan sinfdagi butun ish faoliyati mobaynida davom etadi va uning tarbiyaviy ishi tizimida muhim bir tomonni tashkil etadi.

O'quvchilarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning xulqlari va

mayllarini, ular olgan tarbiya darajasini bilgan holda, ma'lum maqsadga qaratilgan va ta'sirchan reja tuzish oson bo'ladi.

Ma'lumki, o'quvchi shaxsining tarkib topishi va rivojlanishi bir tekis bormaydi. Sinf rahbarining mazkur o'quvchi to'g'risida qilgan belgilari bugunga kelib yetarli bo'lmay qolishi mumkin.

To'g'ri, o'quvchilarni o'rganish ko'p vaqt va kuch talab etadi. Ammo keyinchalik bular hammasi katta natijalar beradi. Sinf rahbari o'quvchilarni, ularning xususiyatlarini bilgan holda, ular kamoloti jarayonini muvaffaqiyatli tarzda yo'lga solib ketishi mumkin bo'ladi. O'quvchilarni o'rganishga boshqa o'quvchilar, yetakchilar va ota-onalar jalb etiladi.

Bunda o'qituvchilar hamda sinf rahbarlari ishidagi munosiblikka rioya qilish juda muhimdir. O'quvchilarni o'rganish natijalari bilan barcha o'qituvchilarni tanishtirib borish zarur. Shu bilan birga ularning har qaysi o'quvchi to'g'risida bilganlarini ham hisobga olish lozim. Bular o'quvchilarga tarbiya berish jarayonida ularga bir xilda talablar qo'yish va ularga bir xil muomola qilishga erishishga yordam beradi. O'quvchilarni o'rganish ularga individual yondashishining zarur shartidir. O'quvchilarni ularga ta'lim va tarbiya berish jarayonida har qaysi o'quvchiga individual yondashishga erishish maqsadida o'rganish lozim. O'quvchilar o'z xarakteriga, qiziqishi va mayliga ko'ra bir xil emas. Ulardan bir xillari bir muncha chaqqon, boshqa bir xillari esa sustkash, uquvsiz, ba'zi o'quvchilar jasur va shijoatkor, boshqa birlari esa uyatchan va tortinchoq bo'lishadi. Ba'zi bir o'quvchilar o'z tashkilotchiligi va qa'tiyiligi bilan ajralib tursa, boshqa birlarida esa bu xususiyatlar mavjud emas. Xullas, sinf bir biriga o'xshamagan, turli xususiyatdagi bolalardan tashkil topgan bir jamoadir. Sinfda tashqi ko'rinish jihatidan bir-biriga o'xshash bolalar bo'lmagani singari, o'z ichki xususiyatlari jihatidan bir biriga o'xshaydigan bolalar ham bo'lmaydi. Ularning xarakteri, qiziqishlari, kayfiyatlari va xohishlari, ularning xulq-atvorlari sabablari, ko'nikma va malakalari, odatda, turlicha bo'ladi. Har qaysi o'quvchi o'ziga xos, boshqalarga o'xshamaydigan xususiyatga ega bo'ladi. U alohida shaxs sifatida kamol topib

boradi.

Odatda sinf rahbari sinfdagi barcha o'quvchilarga nisbatan yagona tarbiyaviy vazifalar qo'yadi va hal etadi. Masalan, u o'zining barcha o'quvchilarini mehnatsevarlikka, bir jon, bir tan bo'lishiga, haqqoniylikka o'rgatishga harakat qiladi. Ammo bu vazifalarni hal etish yo'llari, vosita va metodlari o'quvchilarning individual xususiyatlariga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Ularning ba'zilarini o'z vaqtida rag'batlantirish, ba'zilariga buyurish, xulq-atvor qoidalarini buzgan o'quvchilarni jazolash darkor. Buning uchun esa ularni chuqur va har tomonlama o'rganmoq zarur. Sinf rahbari o'z o'quvchilarini bilmasa, u o'quvchilarga yondashishda, pedagogik ta'sir ko'rsatish metodlarini tanlashda katta xatolarga yo'l qo'yishi mumkin.

O'quvchilarga individual yondashishning amalga oshirishi tarbiya va ta'lim berish prinsiplaridan biridir. Bu tamoyil o'qituvchilar va sinf rahbarlarining o'quv-tarbiyaviy ish tajribalarida bolalarni sevish va hurmat qilinishing nomoyon bo'lishi, ularning kamoloti to'g'risida kundalik g'amxo'rlik qilish asosida keng qo'llanadi.

Tarbiyachi o'quvchilar jamoasini tarbiyalar ekan, hech qaysi o'quvchini nazardan chetda qoldirmasligi darkor. O'quvchilarning xulq-atvori, tartib-intizomi, o'zlashtirishi ko'p jihatdan ularning individual xususiyatlariga bog'liqdir. Ba'zi bir o'quvchi o'zining o'qishga bardoshsizligi tufayli darslarga ulgurmasligi, ikkinchi birining darsda yaxshi javob berishga jur'atsizligi, tortinchoqligi halaqit berishi, yana birining yaxshi o'qishiga vaqtida o'zlashtirmaganligi sabablarini bilgan taqdirdagina, uning oldini olish borasida real va ta'sirchan tadbirlar qo'llash mumkin bo'ladi.

1. O'quvchilarning individual xususiyatlarini hamisha va hamma holda hisobga olmoq zarur.

O'quvchilarga individual yondashish bu har qaysi o'quvchining xususiyatlariga faol tarzda moslashish emas. Bu eng avvalo har qaysi o'quvchining individual xislatlarini, uning psixologik taraqqiyoti xususiyatlarini, uning shaxsiy tajribasini hisobga olgan holda unga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning yanada

samarali yo'llarini faol ravishda qidirib topishdir. Bunday yondashishga faqat tarbiyalash va o'qitish qiyin bo'lgan o'quvchilargina emas, balki istisnosiz hamma o'quvchilar muhtojdir, tarbiyachining, o'qituvchining vazifasi faqat qoloqlarni va intizomsizlarni ilg'orlar va intizomlilar qatoriga yetkazib olishdangina iborat emas, balki shu bilan birga barcha o'quvchilarning, jumladan, eng yaxshi, intizomli, bilimli, san'atga havasmand bolalarning ham aqliy, ham jismoniy quvvatlarini va tashkilotchilik qobiliyatlarini har tomonlama rivojlantirishdan iboratdir.

O'quvchilarga tarbiya berish jarayonida ularga individual tarzda yondashish har qaysi o'quvchini o'z nazar-e'tiborida tutishdan, uning xususiyatlarini bilishdan, uning ijobiy xislatlariga tayanishdan, unga og'ir paytlarda muntazam yordam ko'rsatib borishdan va uni yaxshi xatti-harakati uchun rag'batlantirib turishdan iboratdir.

Hatto o'quvchilarni sinfda joylashtirish kabi ishlarda ham ularga individual yondashishga rioya qilmoq darkor. O'quvchilarni o'rganish, qator talablarga javob bergan taqdirdagina, o'z oldiga qo'yilgan natijalarni beradi. Maktablar o'z tarbiyaviy ishini ko'p darajada yengillashtirish, bu tarbiyaviy ishni yanada aniq va maqsadga yo'naltirilgan tarzda olib borish ekanligini sinf rahbari uchun qoida tusiga kirmog'i zarur.

2. O'quvchilarni o'rganib, ularga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish.

O'quvchi shaxsini o'rganish ham piravord maqsad emas, balki ularga ta'lim-tarbiya berish uchun zaruriy shart-sharoitdir. Odatda tajribali sinf rahbarlari o'rganayotib tarbiya berish, tarbiyalayotib o'rganib borish qoidasiga amal qiladilar. O'quvchilarni o'rganishi bu tarbiyachilar uchun muvaffaqiyatli tarbiyalashning zaruriy shart-sharoiti bo'lib xizmat qiladi, tarbiyalash esa o'z navbatida o'quvchilarni kamol toptirish jarayonida ularni o'rganishning asosiy yo'llaridan biri sinfdatida foydalaniladi. O'quvchilarni o'rganish borasidagi ishlar shaxsning kamol topishida tabiiy tarzda faol ishtirok etish bilan, o'quvchilarda zaruriy ma'naviy xislatlar va xarakter xususiyatlarini tarkib toptirish bilan organik

ravishda qo‘shilib ketadi.

Sinf rahbari o‘quvchilar xulq-atvoridagi ijobiy xislatlarni rivojlantirish, salbiy xususiyatlarga barham berishni “loyihalashtiradi”.

3. O‘quvchilarni o‘rganishni rejali tarzda va muntazam olib borish darkor.

O‘quvchi xulq-atvoridagi yakka-yarim uchraydigan va tasodifiy voqealarni emas, balki uning shaxsida juda ko‘p uchraydigan tipik xususiyatlarni o‘rganmoq kerak. Shuni hisobga olish kerakki, o‘quvchilar hamma vaqt o‘sib kamol topib boradilar. Ularning qiziqishlari doim o‘zgarib boradi, ularning ichki dunyolari doimo boyib boradi. Shuning uchun ham o‘quvchilarni faol rivojlanishga o‘rgatmoq va bu rivojlanishni boshqarib borish zarur.

Bolalarni o‘rganish ularga tarbiya va ta‘lim berish sifatini oshirishga bo‘ysindirilmog‘i lozim. O‘quvchilarni muntazam tarzda o‘rganish asosida boshlang‘ich jamoaga hamda alohida o‘quvchilarga tarbiyaviy ta‘sir etishining yanada samarali usul va metodlarini tanlab olishga ijodiy yondashish mumkin bo‘ladi. O‘quvchilarning individual xususiyatlari, mayllari hamda qiziqishlarini qayd qilib berish bilangina cheklanib qolish noto‘g‘ri bo‘lur edi. Bu o‘rganish asosida o‘quvchilarning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olib, bular bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishini tashkil etish muhimdir. O‘z o‘quvchilarini yaxshi o‘rganish demak, tashqi tomoniga emas, balki ular hulq-atvor sabablarini o‘rganishga e‘tibor berish kerak.

4. O‘quvchilarni tabiiy hayot va ish faoliyati sharoitida o‘rganish.

O‘quvchini ta‘lim jarayonida ijtimoiy foydali hayotga va jamoat ishiga jalb qilish lozim. O‘qituvchilarning o‘qituvchi va o‘quvchilar jamoasi bilan, ota-onalar va tevarak-atrofidagi kishilar bilan munosabatlarga kirishini o‘rgatish juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu munosabatlar jarayonida shaxs yanada to‘la ochiladi. O‘quvchilarni tabiiy hayot va kundalik xatti-harakat jarayonida o‘rganish ularga haqiqiy baho berishga yordam beradi.

5. O'quvchilarni xilma-xil metodlar va usullar bilan o'rganish.

O'rganish metodlari qanchalik turli-tuman bo'lsa, o'quvchilarni shunchalik to'la va asosli o'rganishi mumkin bo'ladi. Ayni bir vaqtda qo'shimcha metodlar sifatida o'quvchilar bilan, o'quvchilarning ota-onalari bilan suhbatlardan foydalaniladi. O'quvchilarni o'rganish metodikasi ta'sirchan bo'lmog'i kerak. O'quvchini o'rganish uning xarakteri va hulq-atvoridagi salbiy xususiyatlarining oldini olish hamda ijobiy xislatlarni mustahkamlash yo'llarini belgilab olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

6. O'quvchilarni o'rganib, ular hayoti va turmush sharoitlari bilan tanishish.


O'quvchilarning axloqiy xislatlari, uning yutuqlar va kamchiliklari shakllanishida, eng avvalo uning ta'lim va tarbiya olish jarayonida ijtimoiy uy sharoiti, tevarak-atrofi ham ahamiyat kasb etadi. O'quvchilarni o'rgatish dasturi ularni faqat maktabdagina emas, balki shu bilan birga uy sharoitida, oilada ham o'rganishni nazarda tutmog'i darkor.

7. O'quvchining alohida xususiyatlarini emas, balki butun shaxsini o'rganmoq darkor.

Sinf rahbari tarbiyaviy ishning turli bosqichlarida o'quvchi xulq-atvorining ayrim tomonlarini o'rgatishga e'tiborini qaratishi mumkin. O'quvchini har tomonlama o'rganishga erishmoq uchun dasturni oldindan yaxshi o'ylab tuzish, o'quvchilarni o'rganish rejasini, suhbat savollarini, insholar mavzularni tayyorlab olish zarur.

I.	II.
<ul style="list-style-type: none">- oila;- mahalla jamoatchiligi;- maktab jamoatchiligi;- televideniya;- hozirgi davr yangiliklari;- o'zaro muomala	<ul style="list-style-type: none">- o'zining tajribasi;- qadrlaydigan narsalari;- shaxsiy talablari;- niyatlari va umidlari;- o'zaro aloqalari;- munosabatlari.

<p>III.</p> <ul style="list-style-type: none"> – alohida e'tibor berish; – har bir harakatini kuzatish; – rag'batlantirish; – suhbat o'tkazish; – erkin muloqotga o'rgatish; – yaqindan sirlashish. 	<p>IV.</p> <ul style="list-style-type: none"> – mavzuni to'g'ri tanlash; – tarbiyaviy ahamiyatini ko'rsata bilish; – qiziqarli o'tkazish; – o'quvchilar ijrosini eshitish va ko'rish; – maqsadga erishish; – mazmunli tashkil etish.
---	--



2.5. O'quvchilarni pedagogik kuzatish

O'quvchilar jamoasi mustaqil tashkilot, ammo u pedagogik rahbarlikka muhtojdir. O'quvchilarni o'z holiga tashlab qo'yish ham, ayni vaqtda bolalar jamoasiga nisbatan ma'muriyatchilik ham, buyruqbozlik yo'liga o'tib olish ham mumkin emas. Birinchi holda, sinf rahbari bu ishlardan umuman chetlashib, o'quvchilar

bilan aloqaning susayishiga yo'l qo'ysa, ikkinchi holda u tazyiq yo'liga o'tib o'quvchilar mustaqilligini yo'qqa chiqaradi.

Sinf rahbarining bosh vazifasi bolalar jamoasi faoliyatini mohirlik bilan boshqarish, o'quvchilar tashabbuskorligini o'stirish, sinf jamoasi faolligi va mustaqilligini tarkib toptirishdan iboratdir.

O'quvchilarni pedagogik kuzatish o'quvchilar hayoti va faoliyatini o'rganishning eng ishonchli usullaridan biridir. Bu ish darslarda, darsdan tashqari vaqtlarda, ijtimoiy-foydali mehnat sharoitida, qo'yingki, ijtimoiy hayotning hamma sohalarida amalga oshiriladi. Albatta, bu degani sinf rahbari hamma vaqt va hamma joyda o'quvchilar izidan yurib, ularni zimdan kuzatadi degan gap emas.

O'quvchilarni kuzatish nafaqat maktabda, balki ko'cha-ko'yda, oilada, teatrdagi, sayr-u tomoshada, sport o'yinlarida, oddiy gurunglarda ham olib boriladi. O'quvchilarni kuzatish qanchalik puxta, aniq, izchil reja asosida olib borilsa, ish shunchalik oson kechadi.

Tajribali sinf rahbarlari o'quvchilarning turli axloqiy va jismoniy xislatlarini bir qancha sinovlar orqali oppa-oson aniqlaydi qo'yadi. Jismoniy tarbiya darslarida turnikda tortilish, qiyin va nozik mashqlarni bajarishda, shifokor xonasidagi emlash jarayonida, bir oz qiyinroq mehnat topshiriqlarida, ulardan uzoqdagi biror kishini chaqirib kelish, yoqtirmagan ishni buyurish orqali ulardagi iroda va qo'rqqoqlik, kuch va nimjonlik, qat'iylik va jur'atsizlik, mehnatsevarlik va yalqovlik kabi xislatlar namoyon bo'ladi.

O'quvchilarni kuzatishdan to'plangan ma'lumotlar umumiylik va nisbiylik kasb etishini unutmazlik lozim. Shuning uchun ham tasodifiy va shoshilinch xulosalar chiqarmaslik kerak.

O'quvchilarni kuzatish davomida, ayniqsa ularning ba'zi bir xatti-harakatlarini baholashda ularning keltirib chiqargan sabablarini aniqlab olish juda muhimdir. Masalan, o'quvchi darsga kechikib keldi, deylik. Sinf rahbari uni koyishdan oldin vaziyatni

aniqlab olishi maqsadga muvofiqdir. Bu holatda balki ota-ona aybdordir, balki u ko'r kishini ko'chadan o'tkazib qo'ygandir, balki yo'lda ag'anab tushib, kiyimlarini qayta almashtirib kelgandir... Hayotda hamma narsa bo'lishi mumkin. Buni inkor qilib bo'lmaydi.

Ba'zan o'quvchi o'qituvchining gaplarini e'tiborsiz tinglaydi. Bu o'qituvchida narozilik uyg'otadi va u haq. Ammo ehtimol uning oilasida notinchlik bo'lgan-u, u tun bo'yi uxlamasdan bezovta bo'lib chiqqan, darsda fikrini bir joyga to'play olmayotgandir.

Nima bo'lgandayam, o'quvchilarni kuzatish yuksak madaniy, saxiy qalb, bolalar shaxsiga katta hurmat, bolalar tarbiyasini bilish, sinchkovlik, yetuk mahorat va malaka talab etadi.

Pedagogning kuzatishi qanchalik qimmatli bo'lmasin, butun sinf haqida va ayrim o'quvchilar to'g'risida ma'lumotlar o'rganishning boshqa usul va yo'l-yo'riqlari yordamida aniqlashni va kengaytirishni talab etadi.

Maktabda o'quvchilar shaxsiy ishini samarali tashkil etish zamon talabidir. Buning uchun ularga mehnatni ilmiy tashkil qilishning oqilona, eng oddiy usullarini o'rgatish zarur. Bu bilan ularga eng kam kuch sarflab eng ko'p samaraga erishish imkonini yaratgan bo'lamiz.

Mehnatni ilmiy tashkil qilishning quyidagi asosiy talablari mavjud:

1. Maqsadni aniqlab olish.
2. Ishni qismlarga ajratish.
3. Eng kerakli qurol-asboblarni tanlash.
4. Eng yaxshi usullarni o'rganish.
5. Maqsadga erishish.

Bularni o'quvchilar hayotiga qanday tatbiq qilib bo'ladi?

O'qish – aqliy mehnat turlaridan biri. Mamlakatimizda millionlab o'quvchilar maktablarda o'qishadi. O'qish – bu o'ziga xos xususiyatga ega mehnatdir. Shu narsa aniqki, bu mehnat ham ayni bir natijaga erishish uchun ko'p yoki oz kuch sarflanishiga

qarab u yoki bu darajada samarali bo'lishi mumkin.

O'quvchilarni har bir ishga kirishishdan oldin xoh yozma, xoh og'zaki reja tuzib olishga o'rgatish kerak. Ijtimoiy ishlab chiqarishda ham, shaxsiy ishda ham tartibli, tejamli rejaning mavjudligi va mukammalligiga bog'liqdir. Reja – ishdagi muvaffaqiyatning asosidir. Reja – harakat uchun dastur bo'lishi lozim.

Rejaning tarkibiy qismlari:

1. Ish maqsadini aniqlash.
2. Ish uchun kerak narsalar.
3. Ish tartibi, ish jarayoni, vaqti, joyi.

Nihoyat, ishning o'zini: uning nimadan boshlanishi, qanday borishi, nimadan keyin nima kelishini aniq tasavvur qilish kerak.

Ishni bajarish uchun eng avvalo tegishli ish o'rni kerak. Maktabdagi ko'pchilik darslar uchun parta yoki stol singari ish o'rni uchun to'liq kifoya qiladi.

Endi ish o'rniga quyidagi talablar qo'yiladi:

1. Ish o'rnida hech qanday ortiqcha narsa bo'lmadligi kerak. Aks holda kerakli narsani topish uchun ko'p vaqt sarflanadi.

2. Ish o'rnida tozalikni ta'minlash kerak. Ish o'rnini qanchalik toza bo'lsa, ishlash shunchalik oson, zavqli bo'ladi.

3. Ish o'rnida bajariladigan ishga muvofiq tartib ta'minlanishi lozim. Bizga kerak bo'ladigan hamma narsani bir tomonda, yaxshisi chapda, bajarilgan va foydalanilgan narsalarni o'ng tomonda saqlash kerak. Ko'p ishlatiladigan narsalar yaqinroq turishi kerak.

Stolda tartib saqlanishi uchun ruchka, qalam, knopka, qisqich, o'chirg'ich va maxsus qalamdondan foydalanish o'rinli. Shuni unutmaslik kerakki, sinf xonasidagi tartib, ozodalik har bir ish o'rnidagi tartib va ozodalikka bog'liq.

Bu xildagi ish jarayoni o'quvchilarni tartibli, ozodalikka, o'z-o'zini nazorat qilishga, qiziqib mehnat qilishga o'rgatadi.

2.6. O‘quvchilar bilim sifatini oshirish va sinfda intizomni mustahkamlash

O‘quvchilarning bilish faolligini taraqqiy ettirishda sinf rahbarining vazifasi quyidagilardan iborat:

1. Bilimga qiziqish va muhabbat uyg‘otish.

Bola bilimga qiziqmasdan turib, o‘qishga intilmaydi, muvaffaqiyatli o‘qiy olmaydi. Bolada o‘z kuchiga va qobiliyatiga ishonch hosil etish, o‘qishga jalb etish, ilk yutuqlari uchun rag‘batlantirish ayniqsa ahamiyatlidir. Boladagi o‘qishga qiziquvchanlik qiyinchiliklarni yengishga, faolligini oshirishga, ishonch uyg‘otishga va mustaqilligi kamol topishiga olib keladi.

2. O‘quv mehnatiga ongli munosabatda bo‘lish va unga mas‘uliyat bilan yondashish.

O‘quv mehnatiga ongli munosabatda bo‘lishlik ta‘limning ijtimoiy, o‘qishning shaxsiy ahamiyatini tushunish demakdir. Sinf rahbarlari o‘quvchilarga ularning bosh vazifasi – o‘qish ekanligini tushuntirishi kerak. O‘qishga mas‘uliyat hissi, faqat Vatan oldidagi burchgagina emas, keng ijtimoiy qamrovli – jamoa, o‘qituvchilar, ota-onalar va o‘z oldidagi mas‘uliyat, ularning fikrlari, ma‘qullashlarini eshitishga intilish, sinf, o‘quv jamoasida munosib o‘rinni egallashga ham tegishlidir.

3. O‘quv madaniyatini oshirish.

O‘zlashtirishning past bo‘lishi aksariyat hollarda, o‘quvni tizimli va rejali olib borish iqtidori va ko‘nikmasining bolalarda shakllanmaganligidan kelib chiqadi.

Sinf rahbarining va fan o‘qituvchilarining asosiy vazifasi har bir o‘quvchining faoliyatini quyidagi shartlar asosiga qurish bilan bog‘liq:

1. Faoliyatni reja asosiga qurish.
2. Qunt bilan ishlash.
3. Pala-partishlikka yo‘l qo‘ymaslik, saranjomlikka o‘rganish.
4. Bilim sifatini oshirish.
5. Qiyinchiliklarni engish.

6. O'quv mehnatida muayyan rejimga itoat etish.

Bu degani o'quv mehnatini o'quvchining dam olishi bilan to'g'ri almashtirib borilishidir.

7. O'qishda o'rtoqlarcha o'zaro yordam uyushtirish.

O'rtoqlarcha o'zaro yordam sinfda ulgurmovchilikning oldini oladi, sinf jipsligini oshiradi, jamoatchilik ruhining shakllanishiga olib keladi.

8. Sinf o'qituvchilari bilan hamkorlik.

Sinf rahbari ta'lim-tarbiyaviy ishlarni yakka o'zi emas, balki shu sinfda dars beruvchi boshqa o'qituvchilar bilan hamkorlikda olib boradi.

Endi bevosita ana shu ishlar mazmuni bilan tanyshib chiqamiz. Sinf rahbari tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish jarayonida o'qish nafaqat har kimning shaxsiy ishi, balki ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan ish ekanligini o'quvchilarga tushuntirib boradi. Mustaqil davlatimiz, butun xalqimiz maktab dargohidan chuqur bilimli, hayotga har tomonlama tayyorlangan kishilarning yetishib chiqishini kutmoqda. Bular haqida sinf majlislarida, har bir o'quvchi bilan alohida yoki bir guruh o'quvchilar bilan o'tkaziladigan suhbatlarda, turli tarbiyaviy tadbirlarda sinf rahbari batafsil gapirib beradi. O'qish bu jiddiy mehnat ekanligini va bunga astoydil yondashish, katta mas'uliyat bilan qarash kerakligi bolalarga tushuntirib boriladi.

“Bilim – takrorlash mevasidir”, degan edi Abu Rayhon Beruniy. Sinfda va uyda ko'p va jiddiy ishlaydigan bolalar, odatda o'qishda va mehnatda katta muvaffaqiyatlarga erishadilar. Har qanday muvaffaqiyatning zamirida tinimsiz mehnat yotadi. Bolalarni o'qishga mas'uliyat bilan qarash ruhida tarbiyalash kerak. Sinf majlislarida vaqti-vaqti bilan mazkur masalalar butun mazmun-mohiyati bilan muhokama qilinishi, shu orqali o'quv mashg'ulotlariga loqaydlik bilan qaraydigan o'quvchilarga sezilarli ta'sir o'tkazish kerak.

Sinfning o'zlashtirish masalasi atrofida jamoatchilik fikrining

shakllanishi, bu borada sinf devoriy gazetasi imkoniyatlaridan foydalanish yaxshi natijalar beradi.

O'quvchilarni bilimga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda ularning nazariy bilimlarini mustaqil ravishda qo'llay bilishlarini hisobga olish ayniqsa muhimdir. Bu tajriba juda ko'p maktablarda muvaffaqiyatli qo'llanilib kelinmoqda. O'quvchilarga biror bir fan bo'yicha ko'rgazmali qurol yoki biror jihoz yasab kelish buyuriladi. Bunda "Harakat qilsang, bu sening qo'lingdan keladi" degan gapni uning qulog'iga quyish kerak. Buni o'quvchi nafaqat oddiy topshiriq, balki o'qituvchining ishonchi sifatida ham qabul qiladi. To'g'risini aytganda, bunday narsalarni yasash uchun o'quvchi yetarli nazariy bilimga ega bo'lishi kerak. O'quvchi topshiriqni puxta qilib bajarishi uchun u yoki bu fan asoslarini o'rganishga, o'z bilimini chuqurlashtirishga harakat qiladi, o'zi yasayotgan o'quv quroliga, ushbu fanga nihoyatda qiziqib qoladi. Shu bilan birgalikda har bir yasalgan narsa zamirida mehnat yotganligini his qiladi, sinf va maktab jihozlarini avaylashga o'rganadi.

Maktab o'quvchilarining bilimga qiziqishi ularning hayotiy ehtiyojlariga bevosita bog'liqdir. Maktab hovlisidagi bog', tokzor, issiqxonada o'tkaziladigan amaliy jarayon – daraxtlarni butash, ularga payvand solish, tok kesish, daraxt o'tqazish, issiqxonalarda pomidor, sabzavotlar yetishtirish qoidalari o'quvchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Bu hol ularni botanika, geometriya, geografiya, mehnat fanlariga havas, ularni sevib o'rganishga rag'bat uyg'otadi. Axir, yuqoridagi fanlardan chuqur bilim va malaka hosil qilmay turib, mazkur ishlarning mohir ustalari bo'lib yetishish mumkinmi? Bolalarda ijtimoiy fanlarga qiziqishni orttirish uchun ularni turli madaniy-ma'rifiy tadbirlarga tortish ahamiyatlidir. Huddi shuningdek, fizika, kimyo, biologiya, tarix, mehnat, astronomiya, chet tili fanlari ham o'quvchilarda havas uyg'otadigan juda katta hayotiy amaliy imkoniyatlarga egadir. Bilimga bo'lgan qiziqishni shakllantirish va o'stirishda sinflarni, o'quv xonalarini va maktab binosini jihozlash ham katta ahamiyat kasb etadi, o'quvchilarda turli qarashlar, did, dunyoqarashni

shakllantiradi, estetik zavq uygʻotadi, tegishli maʼlum sohalarga havas uygʻotadi.

Bugungi kunda turli fanlar boʻyicha qiziqarli adabiyotlar nashr qilinmoqda: “Mashhur kishilar hayotidan”, “Qiziqarli matematika”, “Qiziqarli botanika”, “Qiziqarli geografiya”, “Oʻsimliklar hayoti”, “Bizni oʻrab turgan olam”, “Tariximizga bir nazar” va hokazo. Ilmiy-ommabop turkumdagi bu kitoblar oʻquvchilar qoʻliga berilsa, ular hayotida albatta burilish yasashi turgan gap. Kitobdan ham yaqinroq doʻst, undan ham qudratliroq tarbiya vositasi bormi oʻzi?

Oʻquv jarayonida fanlar boʻyicha oʻzaro bogʻlanishga katta eʼtibor berish kerak. Bundan oʻqituvchi ham, oʻquvchi ham yutadi. Bunga bir necha misollar keltirish mumkin. Fizika darsida masalalar yechish asnosida matematika formulalaridan foydalaniladi. Matematika darslarida fizik kattaliklar va oʻlchov birliklari qoʻllaniladi. Bulardan tashqari ikkala fan birgalikda oʻrganadigan mavzular boʻladiki, ularda ikkala fan oʻqituvchisi ham bir darsda oʻz sohalari boʻyicha tushuncha bersalar nur ustiga aʼlo nur boʻladi. Adabiyot-tarix, mehnat-botanika, tarix-geografiya juftliklari faoliyatida ham bunday imkoniyatlar cheksizdir. Bolaning muayyan bir fanga qiziqishiga suyanib turib, unda boshqa fanlarga ham ongli ravishda yondashish va fan asoslarini oʻrganishga havas uygʻotish mumkin boʻladi.

Oʻquvchilarning bilish faolligini takomillashtirish uchun toʻgarak, amaliy mashgʻulotlari jarayonidan kengroq foydalanish lozim. Sinf rahbari oʻz oʻquvchilarining qiziqishi, moyilligi, uy sharoiti haqida maʼlumotlar bilan fan oʻqituvchilarini tanishtiradi, bolaga qanday munosabatda boʻlish kerakligi haqida maslahatlar beradi. Hatto, shunday ham boʻladiki, biror fandan oʻzlashtirmayotgan oʻquvchi bilan sinf rahbarining oʻzi bevosita ish olib boradi. “Ikkalamiz bu topshiriqni bajarmasdan qoʻymaymiz”, deb dalda beradi shogirdiga. Kerak boʻlganda, aʼlochi oʻquvchilarni yoki ushbu fan oʻqituvchisini ham koʻmakka chaqiradi. Bundan oʻquvchini koʻngli togʻdek koʻtariladi, yolgʻiz

emas ekanligini tushunadi, topshiriqni o'zlashtirishga harakat, havas uyg'onadi.

Bolalarda o'quv mehnatiga javobgarlik va mas'ullik hissini tarbiyalash juda muhimdir. Mas'ullikni sezmagani o'quvchi palapartish o'qiydi. Mas'ullik kishini sergak torttiradi, o'quv faoliyatiga alohida javobgarlik hissi bilan qarashga undaydi

Ma'lumki, ongli intizom va mas'uliyat hissini sezish maktabda olib boriladigan tarbiyaviy ishlar tizimining samarasi hisoblanadi.

Bolalarning intizomli bo'lishida sinf rahbarining xizmati katta. U darsda va darsdan tashqari vaqtlarda turli tarbiyaviy usullardan foydalanib, bolalarda intizomni tarbiyalab boradi, sinfda aniq rejim va ichki tartib o'rnatishga kirishadi; jihozlash, tozalik va tartibni joriy etib boradi.

Bu ishlarni sinf rahbari bir o'zi emas, balki o'qituvchilar, sinf jamoasi, faollari va ota-onalar bilan hamkorlikda amalga oshiradi.

Sinfda intizomni saqlash va joriy qilish faqat sinf rahbarining ishi deb tushunuvchilar ham uchrab turadi. Bu mutlaqo noto'g'ri fikr. Intizom uchun butun sinf, pedagogik jamoa mas'uldir. Intizomni tarbiyalash juda qiyin va murakkab tarbiyaviy jarayondir. Shunisi ham borki, ko'p vaqt qilingan mehnatni bir paytning o'zidayoq yo'qqa chiqarish mumkin. Masalan, sinf rahbari va ayrim fan o'qituvchilari darslarida bolalar jim, intizomli o'tirishadi, darslarni berilib tinglashadi, o'quv yumushlari bilan band bo'lishadi; ba'zi o'qituvchilarning darslarida buning aksi: bolalar qiy-chuv qilishadi, bir-biriga qog'oz otishadi, partaning ostiga kirib yashirinishadi, natijada o'qituvchi tajanglashadi, o'quvchilar bilan ixtilofga boradi. Bunday ayanchli manzara har bir maktab hayotida uchrab turishi tabiiy.

Nega shunday bo'ladi? Bu holatda o'sha fan o'qituvchisining o'zi aybdordir. Negaki u dastlabki mashg'ulotlaridayoq o'z "siri"ni bolalarga oldirib qo'ygan. O'ta ko'ngilchan, so'zlari, harakatlari ta'sirsiz, bo'shang, muloyim, bolalarni o'ziga jalb qilolmaydi, tashkilotchilik qobiliyatiga ega emas.

Xo'sh natija nima bo'ladi? O'qituvchi o'z kayfiyatini buzadi,

jismonan charchaydi, o'quvchilarni uradi, dars maqsadiga erishish u yoqda tursin, darsni to'liq o'tolmaydi, bundan ham yomoni o'quvchilar intizomini buzadi, sinfda tarqoqlikni, boshboshdoqlikni vujudga keltiradi. Mana, sizga birgina bo'shang o'qituvchining keltirgan ziyoni.

O'quvchilarda intizomni tarbiyalamasdan turib, ularni maktabga, atrof-muhitga, kishilarga, darslarga to'g'ri munosabatda bo'lishga, uy vazifalarini bajarishga, saranjomlikka o'rgatish qiyin. Ongli intizomni tarbiyalash – maktabning' asosiy vazifasi hisoblanadi.

Sinf rahbarlari huddi shunday holatlarga o'z e'tiborlarini qaratishlari lozim. Butun sinf o'qituvchilari oldiga yagona pedagogik talablarni, qattiqqo'llikni, sinfda intizomni saqlash, o'quvchilarga bo'lgan talabchanlikni oshirishni alohida vazifa qilib qo'yish lozim. Sharqning faylasuf shoiri Shayx Sa'diy:

*Agarda muallim bo'lsa beozor,
Bolalar sinfni qilishar bozor,*

deb bejiz aytmagan.

Yana shuni ham aytish kerakki, intizom deganda bolalarning partada qimirlamay o'tirishini emas, balki ongli intizomni tushunish kerak. Ko'pgina o'qituvchilar o'zicha intizom o'rnatmoqchi bo'ladilar. Sinfga qosh-qovog'idan qor yog'dirib kiradilar, dag'dag'a qilib bolalarni siquvga oladilar, gah desa qo'lga qo'nadigan qilmoqchi bo'ladilar. Bu bilan mutlaqo kelishib bo'lmaydi. Zo'ravonlik asosiga qurilgan tartib yaxshilikka olib bormaydi. Bu murg'ak qalblarga adovat urug'ini sochadi, ularni sovuqqon, qo'rqoq, jur'atsiz, yolg'onchi, ozurda qilib qo'yadi.

Darslardagi tartib-intizomni saqlashning eng yaxshi usuli o'quvchilar ishonchini qozonishdir. Darsni qizg'in, ijodiy, ko'rgazmali qurollar yordamida, ular havasini va hayratini uyg'otish, lol qoldirish, dars o'tilgach birorta ham o'quvchini "beish" qoldirmaslik – har biriga o'ziga xos amaliy topshiriqlar berish ayni muddaodir.

Intizomli bo'lish nafaqat maktabda, balki o'quvchining kelgusi hayotida ham asqotishi turgan gap. Chunki, inson hayotining chigal va murakkab so'qmoqlarida ham tartib-intizom muhim ahamiyatga ega.

2.7. O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning usul va metodlari

Sinf rahbari o'z o'quvchisini doimo o'rganib borishi uchun faqat o'quvchilar bilangina emas, balki o'qituvchilar bilan, o'quvchilarning ota-onalari bilan ham ish olib borishi kerak. Sinf xonasining jihozi va ko'rinishi o'quvchilarning estetik tarbiyasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Sinf rahbarining ko'rgazmali qurollardan samarali foydalanish, o'quvchilarni darsdan bo'sh vaqtlaridan foydalanish va bolalar ijodiy qobiliyatlarini o'stirishda ularni har tomonlama kamol toptirishga yordam beradi. Darsdan tashqari vaqtlarda o'quvchilarning jamoat toshiriqlarini bajarishini, to'garaklarda ishtirok etishini nazorat qilish kerak.

Bolalarni sevish, ularni hurmat qilish yaxshi xislatlarni yuzaga keltirishi mumkin. Agar o'qituvchi o'z o'quvchilariga nisbatan befarq, ayniqsa mensimasdan munosabatda bo'lsa, bunday o'qituvchini o'quvchilar hurmat qilmaydi va obro'si tushib boradi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq. Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi. O'zbekistonda yoshlarni barkamol insonlar qilib tarbiyalash, ular ongiga umuminsoniy va milliy-madaniy, ma'naviy, axloqiy qadriyatlarni singdirishi talab etiladi.

O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda sinf rahbari o'z oldiga quyidagi maqsad va vazifalarni qo'yadi:

– yosh avlodni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma’naviy tarxiy an’analarga, urf-odatlarini hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etish;

– shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishi, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratish;

– yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko’maklashish, o‘z-o‘zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, ularda reja va amal birligi hissini uyg‘otish;

– o‘quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, vatanimizning boy ma’naviy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo‘lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o‘stirib-boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;

– har bir o‘quvchining bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish, inson faoliyatining turli sohalarida joriy qilib ko‘rish. Bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo‘llab-quvvatlash uchun shart-sharoitlar yaratish;

– insonparvarlik odobi me’yorlarini shakllantirish, bir-birini tushunadigan, mehribonlik, shafqatlilik, irqiy va milliy kamsitishlarga toqatsizlik, muomala odobi kabi tarbiya vositalari (nohaqlikka, yolg‘onchilik, tuxhmat, chaqimchilikka toqatsizlik) keng qo‘llanilishi lozim;

– vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o‘zaro munosabat – muloqotni o‘rganish, o‘z xalqiga, davlatiga, uning himoyasi uchun hamisha shay bo‘lib turish, O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga hurmat bilan qarash, yosh avlodni O‘zbekiston Konstitutsiyasiga, bayrog‘iga, gerbiga, madhiyasiga, prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash;

– qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi

fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyat hislarini rivojlantirish, o'zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoyilik, ekologik ta'lim-tarbiya berish;

– mustaqil respublikamiz O'zbekistonning ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va holisona baho berishga o'rgatish, uning tinchliksevarlik, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, ochiq-oshkora tashqi siyosatiga va o'z xalqining turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatini to'g'ri tushuntirmog'i kerak.

– turmushda eng oliy qadriyat hisoblangan mehnatga ijodiy yondashish fazilatlarini shakllantirish;

– sog'lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila sohibi bo'lish istagini shakllantirish;

– yoshlarimizni erkin mustaqil fikrlashga o'rgatish;

– barkamol avlodga xos odoblilik san'ati va madaniyatini o'rgatish;

– o'zbek xalqining milliy urf-odat, an'ana va qadriyatlarini amalda qo'llash malakalarini shakllantirish;

– insoniyat tarixiy taraqqiyoti jarayonida madaniy, ma'naviy, milliy merosdagi avlod-ajdodlarimizdan qolgan odob-axloq haqidagi bilimlardan boxabar etish;

– marakaziy Osiyo mutafakkir va ma'rifatparvarlarning asarlaridagi hikmat, o'git va nasihatlarini o'rgatib, ularga amal qilishni uqtirish;

– tabiatga to'g'ri munosabatning mohiyatini, tabiatni muhofaza qilish insonning burchi ekanligini, ekologik nochorlikka olib keladigan sabablarni anglash va baholash bo'yicha bilimlar berish;

– ota-ona va vatan oldidagi burchni va unga sodiqlik nima ekanligini anglatish;

– o'z-o'zini anglash shart-sharoitlarini, inson qadri va hurligini anglash, uning tabiatini, milliy va umuminsoniy madaniyatini, ona tilishini saqlash, ma'naviy taraqqiyotni bozor

iqtisodiyoti bilan uzviy rivojlanishini tushuntirib berish;

– yuksak insoniy fazilatlar mohiyatini anglatish, ularga ongli munosabatda bo'lish, yaxshini yomondan ajrata olish bilimiga ega bo'lishini tushuntirish;

– ta'lim-tarbiya jarayonida beriladigan bilimlar yaxlit va ijtimoiy shart-sharoitlar, milliy va tarixiy, ma'naviy omillar, umuminsoniy qadriyatlar mohiyatini tushuntirish;

– o'quvchilarni bilim olish bilan birgalikda yuksak insoniy komillik mohiyatini tushunib amal qilishga o'rgatish;

– darslarda ma'naviy, ma'rifiy, iqtisodiy, huquqiy, kasbiy tushunchalarning mohiyatini uzluksiz anglatib borishi muhimdir;

– odob-axloqqa xos sifatlarni o'quvchilarning kundalik ehtiyojiga aylantirish;

– o'quvchilarda mehnat ko'nikmalarini, ijodiy mustaqil fikrlashni, kasb tanlashga va atrof olamga ongli munosabatni hosil qilish;

– axloqlikning oddiy hayotiy qoidalari bo'lishi, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, oilada bir-birini e'zozlash, mehmon kutish va boshqalarni kundalik turmushga singdirib borishi.

Bolalarni tarbiyalashda o'qituvchi quyidagilarni hisobga olishi kerak;

– tarbiyaning o'quvchilar ruhiyati va yosh xususiyatiga mosligini;

– o'quvchilarning aqliy-ma'naviy munosabatlari ta'sirini o'rganish;

– o'qituvchi-tarbiyachining savodxonlik darajasi, san'at va mahorati.

O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashda darslarni ijodiy, noan'anaviy, suhbat, o'yin, tabiatda, bahs-munozara, uchrashuv shaklida bo'lishi maqsadga muvofiqdir.

Pedagogik texnologiyalarni qo'llashda o'qituvchi quyidagi qoidalarga amal qilishi lozim:

1. Zamonaviylik – ta'lim-tarbiya amaliyotga asoslangan tajriba, sinovdan o'tgan didaktika sohasidagi yangiliklarni joriy

etish.

2. Tarbiya mazmunini uzluksiz yangilab borish.

3. Umumiy va milliy qadriyatlar sohasidagi yangi-yangi ijodlarni o'rganib borish.

4. Tarbiya jarayonida o'quvchi bilan o'quvchi faoliyatini optimallashtirish, faollashtirish. Ularning ichki ruhiyati va tarbiya darajasini kengaytirish.

5. Ilmiylik – yangi usul, vosita muammosi holatlaridan foydalanib, o'quvchilarni mustaqil fikrlash va o'zini anglashga o'rgatish.

6. Bolalarni rejadagi mavzular asosida amaliy faoliyatga jalb etish.

7. Ilg'or tajribalarga suyanish.

8. Tarbiyaning maqsadini aniqligi, mazmunining zamonaviyligi, milliy ma'naviy qadriyatlar bilan boyitilishi, o'quvchining ijodiy mustaqil faoliyati, tarbiya jarayonida maqol, matal, ertaklardan o'rinli foydalanish, o'yin, test savollari, ko'rgazmali qurollar, savol va topshiriqlardan foydalanish.

9. Yangi pedagogik texnologiyani amalga oshirish uchun o'qituvchi nazariy chuqur bilimlarga ega bo'lishi kerak.

1–4- sinflarda darslarni turli shakllarda tashkil etish lozim:

– O'yin, suhbat, bahs, uchrashuv, ertalik, oilada, jamoat joylarda, mahallalarda har bir dars maqsadining aniqligi, tarixiyli va zamonaviyligi bilan odob-axloq tushunchalarini tarbiyalashga qaratilishi.

– O'quv mashg'ulotining rang-barang usullar: audio, video, ko'rgazmalilik, jonli so'z ta'sirida tashkil etilishi.

– O'qituvchini yangi texnologik mahoratga ega bo'lishi va ijodkorligi.

Tarbiyaviy soatlarni maqsadiga ko'ra xilma-xil shakllarda tashkil etish:

- ijodiy dars,
- ertalik darsi,
- baxs,
- suhbat,
- sayohat darslari,
- uchrashuvli dars.

Yangi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga odatlantirish maqsadida kino, televidenie, ma'naviy o'yinlar, mushoiralar qo'llanilishi mumkin. Kishilik jamiyatining har bir sohasi, u yoki bu ijtimoiy-siyosiy masalalarni hal qilishda insondan mahorat talab etishi xalq og'zaki ijodiyotida, yozma yodgorliklarida, afsona, doston, ertak, hissa, hikoyat, rivoyatlarda hamda hurfikrli, dono, ma'rifatparvar, mutafakkirlarimizning asarlarida atroflicha talqin etilgan. O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda bu asarlardan keng foydalanish mumkin.

2.8. O'quvchilarning o'quv faoliyati samaradorligini oshirish borasida sinf rahbari olib boradigan ishlar

Sinf rahbarining faoliyati ko'p qirrali va sermazmundir. U o'zi rahbarlik qilayotgan sinf o'quvchilarini tarbiyalash bilan bir qatorda o'quv yili yoki chorak davomida nimalar qilish kerakligi, bolalar hayotini nima bilan band qilish va tanlangan ish turini qanday amalga oshirishni bexato aniqlash kabi ancha murakkab muammoni yechadi. Bu borada sinf rahbariga turli xil manbalar yordam beradi.

Sinf rahbari pedagoglar, ota-onalar va o'quvchilarni o'zaro bog'lovchi shaxs sifatida barcha tomonlarining nuqtai nazarini hisobga olishi, harakatlarni bir markazga birlashtirish, o'zaro aloqalarning to'g'ri bo'lishiga ta'sir o'tkazish va ayni vaqtda o'zining pozitsiyasini aniq ta'minlay olishi kerak. Mana shu fazilatlar sinf rahbarining tarbiyaviy ishlari samarasini oshirishga

va uning muvaffaqiyatini ta'minlashga garov bo'ladi. Sinf rahbari o'quvchilarga puxta bilim berishga, ularning fikrlash qobiliyatini faollashtirishga hamisha g'amxo'rlik qilib boradi. Hatto o'zlashtirish yuqori bo'lgan sinflarda ham bolalarda ilmga bo'lgan qiziqish va muhabbatni o'stirishga, ta'lim sifatini oshirishga harakat qilish zarur.

Maktablarda yuqori o'zlashtirishga erishishga o'quv, didaktik masala sifatida maktabda ta'lim-tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yishga bog'liq bo'ladi. O'qish jarayonida bolalarda mehnatsevarlik, diqqat, matonat kabi sifatlarni tarbiyalash bilimni muvaffaqiyatli o'zlashtirishga yordam beradi.

O'quv mehnatiga ongli munosabatda yondashish hissini tarbiyalash. Bilimning sifatli bo'lishi, bolaning o'qishga bo'lgan intilishi, qiziqishiga, uning harakatchangligiga, diqqatiga, faoliyatiga, tashabbuskorligiga, mustaqilligiga bog'liqdir. Bunday sifatlarni o'quvchilarda shakllantirish, ularga o'quv mehnatining ijodiy ahamiyatini tushuntirish va o'quv mashgulotlariga mas'uliyat bilan yondashishni o'quvchilardan talab etish sinf rahbarining faoliyatida muhim o'rin egallaydi. Sinf rahbari har bir bolaga ilm olishning foydaliligini ochib berishga harakat qiladi. Bunga esa ularning o'qishdagi har bir yutug'ini ijtimoiy foydali mehnat bilan bog'lash, o'qish bilan hayot o'rtasidagi, mehnat faoliyati o'rtasidagi aloqani ko'rsatish, vatanni himoya qilish hissasini tarbiyalash orqali erishiladi.

Har narsani bilishga qiziqish va bilimga muhabbat uyg'otish.

Bola bilimga qiziqmay turib, o'qishga intilmay turib, muvaffaqiyatli o'qiy olmaydi. Birinchi navbatda qiyinchilik bilan o'zlashtirilgan fanlariga nisbatan bolaning qiziqishini uyg'otish kerak. Boladagi o'qish mehnatiga nisbatan, mehnatga nisbatan havas va qiziqish o'qishidagi qiyinchiliklarni yengishga, bilim faoliyatini oshirishga, qiziquvchanlik va mustaqilligini kamol topishiga olib keladi.

O'quv mehnati madaniyatini oshirish.

Sinf rahbarining va o'qituvchining asosiy vazifasi har bir

o'quvchini fikrlashga o'rgatishdan iboratdir. Ayniqsa bolalarda o'qish qiyinchiliklarini yengish, tushunib o'qish va kitob bilan mustaqil ishlash, uy vazifalarini bajarishga rioya qilish, olgan bilimlarini amalda qo'llash kabi bilim olish uchun zarur bo'lgan sifatlarini shakllantirish katta ahamiyatga egaadir.

O'quvchilarni o'quv mehnatida muayyan rejaga itoat etishga o'rgatish. O'quv mehnati bilan dam olishni to'g'ri almashtirib borish, tashkiliy ravishda uy vazifalarini bajarish ta'lim samaradorligini oshiradi. O'quvchilar rejimga itoat etishlarini o'qituvchi, sinf rahbari va ota-onalar muntazam ravishda nazorat qilib borishlari kerak. Shu yo'l bilan ularni muvaffaqiyatli o'qishga, o'quv mehnatida saranjomlikka o'rgatish mumkin.

Sinfda o'qish jarayonida o'rtoqlarga yordam uyushtirish. O'rtoqlarga o'zaro yordam sinfda ulgurmovchilikni, ikki yillikni va maktabni tashlab ketish hollarining oldini olishga yordam beradi. Shu bilan birga sinfda o'rtoqlik do'stlik va bir jamoa bo'lib shakllanishga olib keladi.

Sinf o'quvchilari bilan hamkorlik. Sinf rahbari ta'lim-tarbiyaviy ishlarni yakka o'zi emas, balki shu sinflarda dars beruvchi boshqa o'qituvchilar bilan hamkorlikda hal etadi. O'quv ishlarida sinf rahbarining va shu sinfda ishlaydigan boshqa o'qituvchilarning bir yoqadan bosh chiqarib ishlashi, o'quvchilarga nisbatan yagona talabni amalga oshirish va o'quvchilarning bir-biriga o'zaro yordamlari ta'lim-tarbiya sifatini oshiradi.

2.9. Maktab o'quvchilari shaxsini har tomonlama kamol toptirish

Bola shaxsining rivojlanishiga irsiyat, muhit va tarbiya kabi omillar ta'sir etadi. Bola shaxsining rivojlanishiga naslning ta'siri deganda, ota-onalarga o'xshashlikni ifodalovchi biologik belgilarning takrorlanishini tushunmoq kerak. Har bir bola ota-onasidan meros shaklida ba'zi biologik sifatlarga (tananing

tuzilishi, sochning, ko'zning, terisining rangi, bo'y-basti va boshqalar) ega bo'lgan holda dunyoga keladi. Bular jismoniy xususiyatlardir. Oliy nerv faoliyatining xususiyatlari ham tug'ma o'tadi. Bu fiziologik xususiyat hisoblanadi.

Akademik I.P.Pavlov ta'limotiga ko'ra bola bir qator tug'ma xususiyat va instinktlarga ega holda tug'iladi va bular shartsiz reflekslar guruhini tashkil etadi. Bular orasida oshqozon refleksi (so'lak ajratish), muhofaza refleksi (issiqdan qo'lni tortish, yorug'likdan ko'zini qisish) kabilar alohida ahamiyat kasb etadi. Ammo bu xususiyatlar insonga ham, hayvonga ham taalluqlidir. Ayni vaqtda insonlarga xos bo'lgan xususiyatlar ham irsiyat yo'li bilan o'tadi.

Masalan, tananing vertikal holdagi harakati, tafakkur va nutq rivojlanishi, mehnat qilish qobiliyati – bular tug'ma imkoniyatlar bo'lib, ularning rivojlanishi uchun inson bolasi odamlar orasida yashab, ular bilan aloqa qilishi darkor. Bu ruhiy imkoniyatlarning chindan ham rivojlanmog'i, ro'yobga chiqmog'i uchun bola faqat o'sibgina qolmay, balki shu o'sish jarayonida insonlar orasida yashamog'i, ulg'aymog'i va ijtimoiy hayotda ishtirok etmog'i kerak. Chunki inson biologik mavjudot sifatida emas, balki ijtimoiy mavjudot sifatida rivojlanadi va kamolga etadi. Bola nutqni egallashi uchun nutq sharoitida, mehnat qilish uchun mehnat sharoitida, aqliy taraqqiy etmog'i uchun aqliy faoliyat sharoitida yashamog'i kerak. Ana o'shanda bolaning nimaga, qanday sohaga layoqati borligi namoyon bo'ladi. Fiziologiya va psixologiya fanining ko'rsatishicha, inson bolasi tayyor qobiliyat bilan emas, balki biror xil qobiliyatning ro'yobga chiqishi va rivojlanishiga ta'sir etadigan potentsial imkoniyatlar, ya'ni shaxs xususiyatini ifodalaydigan layoqat bilan tug'iladi. Tug'ma layoqat o'z holicha rivojlana olmaydi, go'yo u "mudroq" holatda bo'lib, uning uyg'onishi, rivojlanishi uchun qulay muhit kerak.

Agar bola o'z layoqatiga mos sharoitda o'sib, zarur faoliyat bilan shug'ullansa, layoqat erta ko'rinib rivojlanishi, aks holda yo'q bo'lib ketishi mumkin. Shuning uchun pedagogik layoqatning namoyon bo'lishi va qobiliyat sifatida rivojlanishi

to'la-to'kis hayot sharoitiga va tarbiyaga bog'liq.

Inson kamolotiga ta'sir etadigan omillardan biri tashqi muhitdir. Muhit deganda kishiga tabiiy ta'sir etadigan tashqi voqealar majmui tushuniladi. Bunga tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhiti (mikromuhit) kiradi.

Tabiiy (geografik) muhit (iqlim, tabiiy sharoit) so'zsiz insonning hayot tarziga, xarakteriga va mehnat faoliyatiga ta'sir etadi. Masalan: tropik mintaqada hayot kechirayotgan insonlarning hayot tarzi uzoq shimoldagi insonlar hayot tarzidan farqlanadi, bu ularning hayot tarziga va ularning rivojlanishiga ta'sir etadigan qator omillar bilan isbotlanadi.

Shu bilan birga, inson kamolotida mikromuhit – oila sharoiti ham katta ta'sir kuchiga ega. Chunki bola ko'z ochib ota-onasini, qarindosh-urug'ini ko'radi. Uning intensiv-jismoniy va psixologik rivojlanadigan davri oila ta'sirida shakllanadi. Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bekorga aytilmagan. Oilaning hayot tarzi, undagi bola tarbiyasiga ijobiy ta'sir etadigan tarbiyaviy muhit uning kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bola kamolotida ijtimoiy muhit ham muhimdir. Chunki ishlab chiqarish munosabatlari va ularni tartibga solib turadigan ijtimoiy qonun-qoidalar kishiga alohida ta'sir qiladi. Ijtimoiy aloqa, ya'ni insonlararo o'zaro munosabat natijasida odam bolasi hayotga va mehnatga tayyorlanadi, kerakli tajriba va bilimlarni egallaydi.

Inson kamolotiga ijtimoiy muhitning ta'siri turli tarixiy davrda (formatsiyalarda) turlicha bo'ladi, turli sotsial guruhlarga ham turlicha ta'sir etadi. Shunday ekan, hozirgi zamon pedagogika fani muhitga, uning inson rivojlanishidag'i ta'sirining roliga alohida e'tibor beradi. Muhit tushunchasiga kiradigan ijtimoiy hayot voqealarining shaxsga ta'siri g'oyat muhim ekanligini ko'rsatadi va ijtimoiy muhit abadiy emas, o'zgaruvchan deb qaraydi. Shuning uchun muhit inson taqdirini belgilab beradigan omil deb hisoblanmaydi. Ammo uning ta'siri ham rad etilmaydi.

Tarbiya muhit kabi inson kamolotiga ta'sir etuvchi tashqi omillardan hisoblanadi. Tarbiyaning xususiyati shundaki, u aniq maqsadni ko'zlab, insonda ijobiy fazilatlarini tarkib toptirish

yo'lida tarbiyachi rahbarligida muntazam amalga oshirib boriladi.

Ammo tarbiya ta'sirining kuchi va uning natijasi irsiyat va muhit kabi omillarning hamkorligi bilan belgilanadi.

Inson kamoloti irsiyat yo'li bilan orttirilgan va tabiiy layoqatlar bilan belgilanib qolmay, balki butun hayoti davrida uni qurshab olgan voqelik ta'sirida orttirgan xususiyat va sifatlar bilan ham belgilanadi.

Shubhasiz tarbiya odamning ko'zi, sochi, terisining rangiga, uning badani tuzilishiga ta'sir eta olmaydi, lekin jismoniy taraqqiyotga ta'sir etishi mumkin. Chunki maxsus tashkil etilgan jismoniy mashqlar orqali bolaning salomatligi mustahkamlanadi va chiniqtiriladi. Insonning tabiiy qobiliyati faqat tarbiya orqali, uni ma'lum bir faoliyat turiga jalb qilish orqali rivojlanishi mumkin.

Ma'lumki, bola layoqatini rivojlantirish, uni qobiliyatga aylantirish va hayotga mos holda o'stirish uchun mehnatsevarlik va ishchanlik kerak. Mehnatsevarlik va muttasil o'tirib ishlash kabi fazilatlar faqat tarbiya natijasida orttiriladigan fazilatlardir. Garchand inson kamolotiga ta'sir etadigan omillar bir qancha bo'lsa ham, lekin maxsus tarbiya muassasalarida tarbiyachi rahbarligida amalga oshiriladigan tarbiya jarayoni yetakchi hisoblanadi. Chunki, *birinchidan*, tarbiya ta'sirida turli fazilatlar o'zlashtiriladi va bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikmalar, malakalar ham maxsus uyushtirilgan tarbiya orqali hosil qilinadi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklarni ham o'zgartirib, shaxsni kamolga etkazish mumkin. Masalan, ko'rlar, gunglar ham o'qitilib, sog'lom kishilar qatori hayotga tayyorlanadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish yoki bartaraf qilish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya doimo kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi. Shu tufayli, u shaxsning kamolga yetishini tezlashtiruvchi rol o'ynaydi. Inson kamol topishida maktabning ahamiyati katta. Bolalar maktabga qadam qo'yar ekan, ular o'quv

mehnati bilan band bo'ladilar. Bolalar maktabda fan asoslarini egallash bilan birga, ularda sekin-asta ilmiy dunyoqarash shakllanib boradi, o'qituvchi-tarbiyachilarning rahbarligida insonga xos bo'lgan yuksak fazilatlarni egallaydilar. Tarbiyaviy ishlarni reja asosida tashkil etish bolani tarbiyalashda oilaga har vaqt yordam ko'rsatadi. Tarbiyachi o'z tarbiyalanuvchisining oilaviy sharoitidan xabardor bo'lishi, pedagogik maslahatlarga, yordamga muhtoj bo'lgan oilalarga yordam berishi muhim. Tarbiyachi uchun bola bo'sh vaqtini kimlar bilan va nimalar bilan mashg'ul bo'lib o'tkazayotgani ahamiyatsiz emas. Chunki o'z holiga tashlab qo'yilgan bola ko'chaning salbiy ta'siriga berilib ketishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, inson faqat faoliyatda rivojlanadi, undan tashqarida rivojlanish yo'q. Bola juda yoshligidan boshlaboq kattalar yordamida tashqi muhit bilan turli xil aloqada bo'ladi. Maktab yoshida bu aloqalar o'qish va shu bilan bog'liq bo'lgan boshqa faoliyat bilan bog'lanadi va bular rivojlanish uchun manba sanaladi.

Pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat shaxsning aqliy va irodaviy rivojlanishiga ta'sir etadi. Demak, bola ulg'aya borgan sari uning faoliyati ham shakli va mazmuni bilan hamohang o'zgarib boraverar ekan.

Masalan, bog'cha yoshida bolalarning asosiy faoliyat turi o'yin bo'lsa, maktab o'quvchisi uchun o'qib, mehnat qilish asosiy faoliyat bo'lib qoladi. Demak, bola hayotida faoliyat turlarining o'zaro munosabati ham o'zgaradi va buning ta'sirida bola kamoloti ham yangi, yuqoriroq bosqichga ko'tariladi.

Umuman, pedagogik jihatdan to'g'ri uyushtirilgan har qanday faoliyat bola shaxsining aqliy, axloqiy, estetik, jismoniy va irodaviy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Rahbarlik qilinmagan faoliyat esa bir yoqlama yoki salbiy ta'sir etishi mumkin.

Shunday qilib, inson taraqqiyotining ilmiy konsepsiyasi inson kamolotiga ta'sir etadigan omillarni tahlil etib, inson kamoloti va uning shaxsini shakllantirishni yagona va bir butun jarayon

ekanligini ta'kidlaydi. Bu jarayonda insonning faolligiga katta o'rin beriladi. U faolligi bilan o'z shaxsini shakllantira oladi. Tarbiyachi tomonidan qo'yiladigan maqsad aniq bo'lsa va bu maqsadga erishish uchun odam astoydil harakat qilsa, kutilgan natijaga erishiladi.

2.10. Sinf rahbari ishini rejalashtirish va hisobga olish

Sinf rahbari o'z ishlarini maktab ma'muriyati rahbarligi va bolalar tashkilotlari bilan hamkorlikda olib boradi. Shuning uchun uning faoliyatini rejalashtirish umummaktab hamda bolalar va o'smirlar "Kamolot" tashkiloti ishining rejalashtirilishi bilan uzviy ravishda bog'langandir.

Sinf rahbari ishini rejalashtirishning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, unda o'quvchilarning o'zlari faol ishtirok etadilar, biroq unga sinf rahbari boshchilik qiladi. Sinf rahbarlari oldida juda qiyin vazifa – tarbiyaviy maqsadlarda o'ylangan har bir narsani bolalar o'zlarining shaxsiy fikr va g'oyalari sifatida qabul qilishlariga erishish vazifasi turadi.

Reja – o'quvchilarga tarbiya berish jarayonini muvaffaqiyatli tashkil etishning zaruriy shartidir. Rejasiz ish olib borish sinfdagi tarbiyaviy ishlar mazmuni, shakllari va uslublari o'lda-jo'lda, tarqoq, noaniq, tasodifiy holatlarda bo'lishga va ko'r-ko'rona harakat qilishga olib keladi. Bunday taqdirda tarbiyaning asosiy vazifalarini hal etish qiyinlashadi, ba'zan esa butunlay samarasiz bo'ladi. Reja sinf rahbariining tarbiya berish faoliyatini to'g'ri tashkil etish uchun juda katta imkoniyatlar ochib beradi.

Sinf rahbarining tarbiyaviy faoliyatini rejalashtirishga qo'yiladigan asosiy uslubiy talablar nimalardan iborat?

Sinf rahbarlari o'tkazilayotgan ishlarni hamda ularning o'quvchilar tarbiyasiga ko'rsatgan ta'sirini har kuni tahlil qilishlari, o'zlari erishgan yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklari sabablarini tushunishga harakat qilishlari, jamoasining rivojlanishida ro'y berayotgan o'zgarishlarni qayd qilishlari kerak.

Shunday qilib, rejalashtirishning har bir bosqichiga tayyorlanish muntazam olib boriladi. Jamoani va ayrim o'quvchilarni o'rganish yuzasidan olib borilgan barcha ishlar yakunida sinfga pedagogik tavsifnoma yoziladi. Mazkur tavsifioma sinf jamoasini o'ziga xos aniq xususiyatlarini hisobga olish imkonini beradi.

Har bir sinf rahbari o'z-o'zini boshqarishning saylab qo'yiladigan o'quvchilar qo'mitasi hamda bolalar va yoshlar tashkilotlari bilan birga ishlab, sinf jamoasiga rahbarlik qilish yuzasidan olib boriladigan amaliy ishlarda bu talabni ro'yobga chiqaradi.

Tajribali sinf rahbarlari o'zining kuzatishlari va xulosalarini alohida varaqlarga qisqacha qilib yozib boradi. Bular maxsus jildlarda saqlanadi. To'plangan ma'lumotlar o'quvchilar jamoasi hayotini, uning erishgan yutuqlari va kamchiliklarini keyinchalik tahlil qilish uchun xizmat qiladi.

Sinf rahbari o'quv yili oxirida sinf jamoasi ishini tahlil qilishga alchida e'tibor beradi. Bunda rejada belgilangan vazifalar qanday ha etilganligini, sinf ijtimoiy hayotda qanday ishtirok etganligini mamlakatimizdagi va chet ellardagi voqealarga qanday qaraganligini, amalga oshirilgan ishlardan qaysilari muvaffaqiyatli bo'lgan va an'anaga aylanishi kerakligini, o'quvchilar o'rtasida qanday munosabatlar vujudga kelganligini, sinf faollarining tashabbuskorligi, mustaqilligi, obro'-e'tibori va boshqa masalalarni atroflicha tahlil qilish muhimdir.

Sinf rahbari tajriba orttirgan sari ancha murakkab masalalar bilan qiziq boshlaydi. Uni sinfdagi ishlar qanchalik muvaffaqiyatli o'tgani emas, balki ular o'quvchilarga qanday ta'sir ko'rsatgani, sinfning ijtimoiy foydali ishlarda ishtirok etishi emas, balki ishtirok etish sabablari qiziqtiradi.

Shuni nazarda tutish kerakki, sinf rahbari o'z sinf jamoasi oldiga qo'yadigan aniq tarbiyaviy vazifalari dastlabki vaqtlarda uncha murakkab bo'lmasligi mumkin.

Masalan, sinf rahbari sinfga kelgandan so'ng deyarli hamma o'quvchilar yaxshi ishlashini, lekin ularning bir-biri bilan aloqasi

yoʻqligini aniqladi. Bunday sinfda shunday bir ish topish kerakki, bu ish hamma oʻquvchilarni yagona maqsadga olib borsin. Bolalarga bu vazifa – maktab hovlisida hashar oʻtkazib, ekinlarni parvarishlash topshiriladi. Oʻz mazmuniga koʻra juda oddiy boʻlgan bu topshiriq oʻquvchilarda qiziqish uygʻotadi, uni tezroq bajarish ishtiyoqini hosil qiladi.

Boshqa bir sinf rahbari oʻz ishlarini tahlil qilib chiqib, shunday xulosaga keldi: sinfda koʻp ishlarni oʻzi bajaradi, oʻquvchilar esa shaxsiy hayot egalari boʻlib emas, balki koʻpincha ishning ijrochilari boʻlib qoladilar. Shuning uchun u oʻquvchilarning tashabbus va mustaqilligini rivojlantirish, barcha oʻquvchilarni sinf ijtimoiy faoliyatiga jalb etish va har bir oʻquvchida oʻziga yoqadigan ish boʻlishga erishish vazifasini qoʻydi. Shunday vazifa qoʻygach, sinf rahbari oʻquvchilarning koʻpchilik qismini zarur malaka va koʻnikmalar bilan qurollantirish uchun oʻz diqqat-eʼtiborini sinf faollarini tarbiyalashga qaratish kerakligini tushunadi.

Ana shu taxlitda izchil ish olib borilsa, tarbiyaviy vazifalar oʻquvchilar uchun qiziqarli, istiqbolli vazifalarga aylanadi.

Sinf rahbari turli rejalar tuzib olishi mumkin: kelajakka moʻljallangan, yaʼni istiqbolli (yillik, bir necha yillik) va muvaqqat (oylik, haftalik, kunlik).

Xoʻsh, rejaning asosiy manbai nimalardan iborat boʻlishi kerak?

Bosh manba – hukumatimizning farmon va qarorlari, prezidentimiz I.Karimovning qator risolalari hamda xalq taʼlimi tizimining rasmiy yoʻl-yoʻriqlari, hujjatlari hisoblanadi.

Rejaning yana bir muhim manbai – oʻtgan oʻquv yilidagi tarbiyaviy tadbirlarning yutuq va kamchiliklari tahlilidir.

Reja quyidagi bir qator talablarga javob berishi kerak:

- reja Istiqlol gʻoyalari singdirish;
- rejaning shakl va yoʻnalishlari rang-barang hamda istiqbolli boʻlishi;
- reja uzluksiz va izchil boʻlishi;
- rejaning aniqligi.

Ushbu talablarning qisqacha mazmuni bilan tanishib chiqamiz.

Rejaga mustaqillik g'oyalarining singdirilishi. Barcha tarbiyaviy vazifalar maktab oldiga qo'yilgan asosiy maqsadni – o'quvchilarni har tomonlama, "Sog'lom avlod uchun" dasturi asosida ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalash, ularni hayotga, mustaqil davlat qurilishiga faol qatnashishga tayyorlash maqsadini amalga oshirishga qaratilmog'i darkor.

"Har qanday ulug' maqsadlarga etishish yangi jamiyat, farovon turmush qurish, inson zotiga munosib go'zal hayot barpo etish, avvalo, shu jamiyat a'zolari bo'lgan komil odamlarga, kelajak barkamol avlodga bog'liqdir", – degan edi prezidentimiz I. Karimov.

Sinf rahbari g'oyaviy-siyosiy ishlarni rejalashtirishda bolalarni faqat kitobiy bilimlar bilan emas, balki amaliy, hayotiy tajribalar bilan qurollantirishni nazarda tutishi zarur. Bu ma'ruzachilar, siyosiy maktablar, siyosiy klublar va hokazolarni tashkil qilish mo'ljallanayotgan vaqtda o'quvchilarning o'z g'oyaviy e'tiqodlarini qay darajada ekanligini sinab ko'rishga imkon beradigan vaziyatlarni vujudga keltirishni nazarda tutadi. Bu ishlarni munozaralarda, bahslarda, og'zaki va yozma jurnalarda, mehnat harakatlarida, bayramlarda, bolalar va yoshlar tashkilotlari ishlarida, tabiatni, hayvonot dunyosini, tarixiy yodgorliklarni qo'riqlash kabi rang-barang tadbirlarda amalga oshirish mumkin.

Axloqiy va vatanparvarlik tarbiyalariga istiqloq ruhi tom ma'nosi bilan singib ketgan bo'lishi kerak. Ba'zan ayrim sinf rahbarlari ish faoliyatida ko'ngilochar o'yinlarni ko'proq o'tkazish an'anasi ko'zga tashlanadi. Rejalashtirishda shuni nazarda tutish kerakki, u o'yinmi, u ishmi, biror maqsadga qaratilganligiga, uning tarbiyaviy ahamiyatiga e'tibor berish kerak bo'ladi.

Rejaning shakl va yo'nalishlari rang-barang hamda istiqbolli bo'lishi. Tarbiyaviy ishning xilma-xil shakl va uslublari bo'yicha ish olib borish tarbiyaviy ishlarni o'quvchilar uchun yanada rang-barang va qiziqarli tarzda olib borishga yordam beradi. Rejada o'quvchilar bilan faqat umumiy holda emas, balki shu bilan birgalikda bolalarning qiziqishlari va mayllarini hisobga

olgan holda ham ish yuritishni nazarda tutish muhimdir.

Reja uzluksiz va izchil bo'lishi. Rejada belgilanadigan tarbiyaviy tadbirlar yagona tarbiyaviy jarayonning tadrijiy bo'laklaridan iborat bo'lmog'i kerak. Har bir tadbir o'zidan oldingi tadbirning davomi bo'lishi va erishilgan tarbiya natijalariga asoslanishi lozim. Bu uzluksizlik va izchillikni ta'minlaydi, erishilgan yutuqlar, qimmatli ko'nikmalarni yo'qolib ketishdan saqlaydi.

Rejaning aniqligi. Rejaga bajarib bo'lmaydigan ishlarni kiritmaslik kerak. Ishni rejalashtirishda mahalliy sharoitlardan kelib chiqish lozim. Rejada hamma narsa: ish vaqti, joyi, mas'ullar aniq bo'lsin.

Sinf rahbarining tarbiyaviy ishlar rejasi – bu majburiy pedagogik hujjatdir. Uni amalga oshirish uchun sinf rahbari shaxsan mas'uldir. “Sinf rahbari haqida Nizom”da: “Sinf rahbarining ishi reja asosida olib borilishi lozim” deb belgilab qo'yilgan.

Sinf rahbari umummaktab ish rejalari, bolalar yetakchisi, “Kamolot” tashkiloti kotibi ish rejalari bilan tanishib, direktor o'rinbosarlari, sinf o'qituvchilari, sinf faollari, ota-onalar bilan fikrlashib, ularning qimmatli takliflarini hisobga olgan holda ishning istiqbolli rejasini tuzadi.

Ishning istiqbolli rejasi sinf jamoasi tomonidan to'plangan tajribaga qarab va sinf rahbarining o'z vazifalariga muvofiq ravishda bir yoki bir necha yilga tuzilishi mumkin. Nizomda “Sinfning yillik ish rejasi tuziladi. Uni tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari tasdiqlaydi”, deyilgan.

Rejani ifodalash shakli juda oddiy bo'lgani ma'qul: ishning nomi, bajarish muddati, mas'ul kishi. Reja qisqa va aniq bo'lishi kerak. Bo'lar-bo'lmas ishlar ro'yxatini qalashtirib, qappaygan reja tuzishga berilib ketmaslik kerak. Rejaga faqat hayot ilgari surgan va o'quv yili davomida muvaffaqiyatli bajarilishi mumkin bo'lgan tadbirlarnigina kiritmoq lozim. Kiritilgan tadbirlar ham biri bog'dan, biri tog'dan olib yozilmasligi, balki ular tarbiyaviy ishlar

tizimida bir-biri bilan bog‘langan, bir-birini to‘ldiradigan holda bo‘lishi zarur.

Reja bola shaxsiga ta’sir ko‘rsatuvchi turli tarbiyaviy omillarning nafaqat umumiy, balki xususiy aniq tadbirlarini ham o‘z ichiga olishi kerak.

Biz quyida sinf rahbari ish rejasining asosiy bo‘limlari va mazmunini beramiz:

I. O‘quvchilar jamoasi bilan ishlash. O‘quvchini o‘rganish (o‘quvchi haqida ma’lumot to‘plash, uning aqliy, jismoniy, ruhiy rivoji, bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini; tarbiyalanganlik, jamoatchilikka intilish darajalarini diagnostik dasturlar asosida o‘rganish), sinf jamoasini o‘rganish (o‘quvchilar soni, jinsi, millati, yoshi, rasmiy va norasmiy liderlar, ilg‘orlar, qoloqlar, intizomsiz va tarbiyasi qiyin bolalar, ularning sinfga ta’siri, sinfning jamoatchilik topshiriqlariga munosabati, sinfning tarbiyalanganlik, jipslik, rivojlanganlik darajalarini diagnostik dasturlar asosida o‘rganish), sinf jamoasini tashkil etish va yo‘naltirish (tashkiliy ishlar, sinf faollari bilan ishlash, umumiy ishlar ustidan nazorat, bolalarni o‘z-o‘zini nazorat qilishga o‘rgatish, navbatchilikni, o‘zaro yordamni yo‘lga qo‘yish, gazeta tahririyati bilan ishlash, kasalmand va nogiron bolalarga g‘amxo‘rlik, vaqtli matbuot nashrlariga yozilish, mehnat harakatlarida qatnashish, sinf mulkini saqlash, kundalik rejimga bo‘ysunish va hokazolar).

II. “Kamolot” yoshlar ijtimoiy harakati bilan birgalikda olib boriladigan ishlar. Ushbu bo‘limda bolalar yetakchisiga, “Kamolot” YIH kotibiga, ularning tarbiyaviy ish faoliyatlarida beriladigan yordamning aniq shakllari ko‘rsatiladi.

III. Sinf o‘qituvchilari bilan ishlash. Darslarda o‘quvchilarni o‘rganish (o‘quvchining darsda o‘zini tutishi, ularning o‘zlashtirmasligi, bilimdagi nuqsonlar, xulqi), o‘quvchilardagi bilim ko‘nikmalarini aniqlash (o‘quvchilar kundaliklari, daftarlarini ko‘rib chiqish, o‘qituvchilar bilan suhbatlashish, o‘quvchilarning o‘quv ishlarini kuzatish, darsliklar, ma’lumotnomalar, jadvallar va hokazolar bilan ta’minlanish

ahvolini o'rganish, nutq madaniyati, uyga vazifa, kasb tanlash masalalari bilan qiziqish), o'quvchi-o'qituvchi munosabati (o'quvchi bilan o'qituvchining chiqishimligi, o'qituvchiniig pedagogik odobga, pedagogik talablarning bir xilligiga erishishi masalalari), o'zaro yordamni tashkil etish (qoloq o'quvchilarni aniqlash, fan o'qituvchisi bilan birgalikda uning saablarini tahlil qilish va tegishli tadbir belgilash, a'lochi o'quvchilardan o'zaro yordam harakatini uyushtirish), o'qituvchilarga yordam berish (o'quvchilar haqida tegishli ma'lumotlar, maslahatlar berish, fanga oid tadbirlarni o'tkazishda ko'maklashish).

IV. Sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil qilish.

Bunda aqliy, axloqiy, vatanparvarlik, huquqiy va boshqa tarbiyalar bo'yicha belgilangan ishlar va tadbirlar, kasb tanlash ishlari (kasblar ro'yxatini tuzib chiqish, kasb haqida burchak tashkil qilish, mehnat ahli bilan uchrashuvlar, o'quvchilarga anketalar tarqatish, javoblarni tahlil qilish, qiziqishlar kartasini to'ldirish, kasb haqida insho yozdirish, o'quvchilarning texnik ijodiyoti ko'rgazmasini tashkil qilish, sinfdan tashqari o'qishni tashkil qilish), fan o'qituvchilari bilan birgalikda adabiyotlar ro'yxatini tuzib chiqish, o'qilgan asarlar yuzasidan suhbat uyushtirish, sinfda adabiy ko'rgazma tashkil qilish, kutubxona bilan aloqa bog'lash va hokazolar), sinfda ko'rgazmali tashviqot ishlari olib borish (sinf burchagi, devoriy gazetalar, varaqalar chiqarish, sinfni mazmunli bezash, ekologik burchak tashkil etish va hokazolar).

V. Ota-onalar bilan ishlash. Bu bo'limda oilalarni o'rganish (oilaning ijtimoiy ahvoli, o'quvchiga yaratilgan shart-sharoitlar, oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini o'rganish), ota-onalar faollari bilan ishlash (ular yordamida va ishtirokida bolalar tarbiyasiga oid turli-tuman ishlar rejasini tuzish, ular tomonidan ba'zi oilalarga ko'mak va ta'sir o'tkazish), ota-onalarning tarbiyaga oid bilimlarini oshirish (ota-onalar majlislari, dorilfununlari tashkil qilish, yaxshi oilalar tashviqoti bilan shug'ullanish, o'zaro tajriba almashish).

Keltirilgan reja tartibini majburiy deb qaramaslik kerak. Sinf rahbarlari ish rejasi turlicha tuzilishi va har xil shaklda bo'lishi mumkin. Bu sinf rahbarlarining ish saviyasi, tajribasi, o'z kasbiga qiziqishi, har xil sinflarda ish sharoitlarining turlichaligiga bog'liqdir. Shuni nazarda tutish lozimki, ish rejasi qaysi shaklda bo'lishdan qat'i nazar, tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalari mazkur rejaning muhim bo'limlaridan biri bo'lishi shart.

Ish rejasini tuzish va uni hayotga tadbiq qilish ishlariga o'quvchilar va ota-onalar faollarini jalb qilish kerak. Avvalo ular alohida topshiriqlarni, asta-sekin esa rejada ko'rsatilgan keng hajmdagi ishlarni amalga oshiradi.

Rejaga kiritiladigan ish va tadbirlar, ularning mazmun-mohiyati, amaliyotga tadbiq qilish haqida mazkur kitobning tegishli bo'limlarida atroflicha fikr yuritilgan.

III bo‘lim. JAMOADA SHAXSNI TARBIYALASH

3.1. Sinf jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash metodikasi

Sinf rahbari ishida o‘quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi, chunki jamoada shaxsni tarbiyalash – tarbiyaning etakchi maqsadidir.

Bolalar jamoasini shakllantirish metodikasi hozirgi kunda ancha to‘liq va mukammal ishlab chiqilgan. Bu metodikaning umumiy asoslari pedagogika kursida bayon etilgan, jamoa va jamoada shaxsni tarbiyalash nazariyasiga tayanadi. Jamoa nazariyasi qoidalariga muvofiq uni yaratish metodikasi ishlab chiqilgan. Uning umumiy asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo‘yish; faollarni aniqlash, o‘quv mehnat, ijtimoiy siyosiy va ommaviy madaniy faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish; sog‘lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an‘analarni yaratish va ko‘paytirish.

Ta‘riflangan bu qoidalar har qanday jamoa (maktab, sinf jamoasi, maktabdan tashqari bolalar birlashmasi va hokazolar)ni shakllantirish va rivojlantirish uchun qo‘llanma bo‘lib hisoblanadi.

Bolalarning jamoa turmush normalari va qoidalarining, intizomning buzilishiga munosabatlarini kuzatib, jamoaning tashkiliy tuzulishi ta‘sirchanligiga ishonch hosil qilish mumkin. Jamoa rivojlanishining dastlabki bosqichlarida bolalar tarqoq bo‘lib, ularda yakdil fikr va sinf rahbari tayanishi mumkin bo‘lgan ta‘sirchan faollar bo‘lmaydi. Shuning uchun jamoada salbiy hodisalar ochiq muhokama qilinmaydi va mustaqil jamoa qarori qabul qilinmaydi. Agar jamoa rivojlanishning 2-chi bosqichida bo‘lsa, nomigagina emas balki harakatlarini qo‘llab-quvvatlaydigan haqiqiy harakat qiluvchi faollar bo‘lsa, uning ayrim o‘quvchilar va jamoa oldiga muayyan talablar qo‘yishini kuzatish mumkin.

Jamoaning rivojlanish darajasidan dalolat beradigan muhim belgilardan biri – o‘quvchilarning birgalikdagi faoliyatga ishtiyoqi

chiqindi qog'oz yoki metallolom to'plash, kechaga tayyorgarlik ko'rish kabi maktab tajribasida muntazam uchrab turadigan ishlarda ko'zga tashlanadi. Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashda o'quvchilarning faqat sinfdan tashqari faoliyatida namoyon bo'ladigan munosabatlarni tahlil etish bilangina cheklanib bo'lmaydi.

Sinf rahbari ishining o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u oddiy bolalar jamoasini emas, balki o'quvchilar jamoasini shakllantiradi. O'quvchilarning asosiy vazifasi o'qishdan iborat. Shuning uchun sinf rahbari dastavval bolalarning o'qishga qanday munosabatda ekanliklarni, o'zlarini darsda qanday tutishlarni, uy vazifalarni sidqidildan bajarishlarini yoki bajarmasliklarini aniqlaydi. Va nihoyat eng muhimi – ularning o'qishdagi mo'ljallari ijtimoiy mohiyatga molik yoki molik emasligi hisoblanadi.

O'quvchilar o'rtasida salbiy holatlar ro'y bermasligi uchun jamoaning rivojlanish usulini aniqlab olishimiz kerak. Buning eng ishonchli usuli – o'quvchilarni ular bilan darsda, darsdan tashqarida o'zaro faol hamkorlik qilish jarayonida kuzatishdan iboratdir. Maxsus diagnostik usullar, masalan, anketa tarqatish, pedagogik vaziyatlarni vujudga keltirish va boshqalardan ham foydalanish mumkin.

Lekin, bu usullar guruhini juda ehtiyotkorlik bilan, katta pedagogik odobi bilan qo'llash lozim. O'quvchilarni o'rganishning har bir usuli ayni vaqtda tarbiya usuli ham ekanligi o'qituvchilar uchun qonun bo'lishi kerak.

Jamoadi shaxsni yakka tartibda tarbiyalashda maktab o'quvchisini o'z-o'zini tarbiyalashga jalb etish, uni tegishli malaka va ko'nikmalar bilan qurollantirishdan iboratdir. Tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishga bo'yni yor bermaydigan tarbiyasi qiyin bolalar – bu albatta, yomon o'zlashtiruvchilar emas, holbuki ular orasida odatda ko'pchiligi ana shunday bolalardir. Zamonaviy sinf rahbari o'quvchidar yomon xulq-atvorining, past o'zlashtirishning sabablarini puxta o'rganadi. Bunda o'quvchining sinfdoshlari bilan munosabatlari, bu munosabatlarning ma'naviy asoslari eng

muhim masalalardan biridir. Jamoa munosabatlari – dastavval muayyan maqsadlarga asoslangan va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan maqsadlar yo‘naltirib turadigan o‘zaro ma‘suliyatli munosabatlardir.

Sinf o‘quvchilari ko‘p bo‘lgan sharoitda har bir bolaga yakka tartibda yondashish, har bir bola qalbiga to‘g‘ri yo‘l topish juda qiyin. Agar o‘quvchilar jamoasi qo‘llab-quvvatlasa, har holda bunday yo‘lni topish mumkin.

Jamoada shaxsni tarbiyalashda yakka tartibdagi yondashuvning mohiyati alohida o‘quvchini jamoa faoliyatiga jalb etishdan, jamoani esa mazkur o‘quvchi bilan qiziqtirib qo‘yishdan ham iboratdir. Har qanday jamoada tarbiyasi qiyin bolalar bo‘ladi, lekin “ajratib qo‘yilgan” bolalar bo‘lmaydi.

O‘quvchilarning xulq-atvorini muntazam o‘rganishni o‘qituvchi o‘z oldiga maxsus maqsad qilib qo‘ymasa u o‘qituvchi uchun sezilmagan tarzda o‘zgarishi mumkin. Bunday o‘rganish yakka tartibda ishni tashkil etishning hal qiluvchi sharti hisoblanadi. Jamoani shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ish albatta ayrim o‘quvchilarning rivojlanishga ta‘sir etadi va shuning uchun ham bu jarayon stixiyali emas, balki maqsadga qaratilgan va boshqariladigan bo‘lishi kerak.

Sinf rahbari o‘quvchilarni yakka tartibda va jamoa bilan tarbiyalashda ota-onalar bilan o‘zaro hamkorlikda bo‘ladi. Ota-onalarga pedagogik bilim berishni uyushtirishda sinf rahbariga muayyan tarzda yordam beradigan asosiy manba”Ota-onalarga pedagogik bilim berishning namunaviy dasturi”dir. Mazkur dastur o‘quvchilarning ota-onalari bilan xilma-xil mashg‘ulotlarni birga qo‘shib olib borishini ko‘zga tutadi.

Dasturda o‘quv yili mobaynida ikkita umumta‘lim mashg‘uloti va har bir sinf ota-onalari uchun 6 tadan 9 tagacha mashg‘ulot o‘tkazish ko‘zda tutilgan. Mashg‘ulotlar shunday tarzda quriladiki, ota-onalar pedagogika, psixologiya va fiziologiya asoslari izchil kursini o‘zlashtirib, farzandlari bilan sinfdan-sinfga o‘tgandek bo‘lishadi. Kurs bolalarning yosh xususiyatlariga muvofiq va ta‘limining har bir yildagi ta‘lim-

tarbiya vazifalarini hisobga olib qurilgan.

Ota-onalarning yuksak ta'limiy va madaniy darajasi, pedagogik va psixologik ta'sir etish sifatini oshirish uchun ular bilan bevosita muomalada bo'lib, o'qituvchilarning bu yo'nalishdagi ijodiy ishini jamoa ishida o'rganish mumkin.

Ota-onalar bilan ish olib borishning an'anaviy tarkib topgan shakli bu ota-onalar yig'ilishlaridir. Ota-onalar majlislari turli xil ko'rinishda bo'ladi:

1) Tashkiliy yig'ilishlar: ota-onalar qo'mitasi saylanadi. Bunda asosan jamoatchi, o'qimishli kishilar saylanadi.

2) Chorakdagi yakunlovchi sinf majlislari: ota-onalarning e'tiborini o'quvchilarning bilishga doir qiziqishlari, axloqiy qobiliyatlari, irodaviy fazilatlarini, rivojlanishdagi yutuqlari, kamchiliklari, foydalanilmagan imkoniyatlariga qaratish maqsadini ko'zda tutadi. Agar har bir ota-ona majlisdan keyin o'z bolasiga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish tizimiga tuzatishlar kiritishning asosiy yo'llarini aniq tasavvur etsagina, sinf rahbari o'tkazilgan majlislardan qanoat hosil qilishi mumkin.

3) Biror mavzuga bag'ishlangan yig'ilishlar: tarbiyaning eng dolzarb muammoalari yuzasidan o'tkaziladi.

Agar maktab sinf rahbarlari orqali ota-onalarga ularning pedagogik bilimini oshirishda yordam berar ekan, o'z navbatida ota-onalar ham maktabga bolalarni tarbiyalashni tashkil etish ishida har tomonlama yordam berishlari mumkin va lozim.

Sinf rahbarining ota-onalar komiteti bilan mohirona, yaxshi uyushtirilgan va yo'lga qo'yilgan ishi, bolalar bilan olib boriladigan butun tarbiyaviy ishlarning muvafaqqiyatli bo'lishiga garov hisoblanadi. Tashabbuskor, ijodiy ishlaydigan ota-onalar komiteti sinf rahbariga sinf jamoasini tashkil qilishida bebaho yordamchidir.

Yakka tartibdagi pedagogik suhbat sinf rahbarining o'quvchilar ota-onalari bilan olib boriladigan ishining eng ommalashgan qulay va samarali shakli hisoblanadi.

Suhbat yordamida vujudga keladigan masalalarni tez hal etish, ota-onalar bilan ishonchli munosabatlar o'rnatish, o'quvchilar

oilaviy tarbiya sharoitlari haqida qo'shimcha ma'lumotlar olish, ota-onalarga pedagogik bilim berish, bolaning yakka tartibdagi rivojlanish dasturini, birgalikdagi pedagogik harakatlar tizimini ishlab chiqish, ota-onalarning tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishlarini va tarbiyasi qiyin bola xulqini tuzatish va o'quvchilar o'rtasidagi kelishmovchiliklarni hal etish kabi keng ko'lamdagi ta'lim-tarbiya vazifalari hal qilinadi.

O'qituvchilar u yoki bu o'qituvchining biror o'quvchi uning darsida intizomni buzganligi xususidagi shikoyatiga javoban ota-onani maktabga chaqirtiradilar. Sinf rahbari hamma narsani sinchiklab o'rganib chiqishi kerak. Ba'zan o'quvchilarning darsda yomon ishlashiga, gap qaytarishiga va hokazolarga o'qituvchining o'zlari aybdor bo'ladilar. Bunday holda o'qituvchida pedagogik odobning yo'qligi yoki uning darsdan, sinfdan tashqari ta'lim-tarbiya jarayonini yomon tashkil etganligi uchun ma'suliyatni o'quvchi va ota-onalarga ag'darish noto'g'ri bo'lur edi. Agar o'quvchi bir muncha tarbiasiz va intizomsiz bo'lsa ham sinf rahbari ota-onalarga faqat uning kamchiliklari haqida gapirmasligi kerak. Bu juda yoqimsiz bo'lib, ular va pedagog o'rtasida ishonchli munosabatlar o'rnatishiga yordam bermaydi.

Har bir ota-ona o'z farzandini yaxshi ko'radi, shuning uchun ular o'z farzandida hosil bo'lgan yangi, ijobiy kurtaklar xususida quvonchni o'rtoqlashadigan va bolalarning xulqidagi ijobiy jihatlarni mustahkamlash yuzasidan ehtimol tutilgan, birgalikdagi harakatlar xususida maslahatlashishni muhim deb hisoblaydigan sinf rahbariga samimiy hurmat va ishonch bilan qaraydilar. Bunday sharoitda ota yoki ona juda xayrixoh bo'ladi va sinf rahbari bilan bajonidil aloqa bog'laydi.

Sinf rahbarining o'quvchilar oilalarida bo'lishi maktab va oila o'zaro hamkorligining muhim shakli hisoblanadi. Oilada bo'lishning maqsadini aniq vaziyat belgilab beradi. Sinf rahbari nima maqsadda oilaga borishiga muvofiq tarzda unga oldindan tayyorgarlik ko'radi (O'qituvchilar bilan maslahatlashadi, o'quvchining o'zlashtirishi xulqini aniqlaydi, avvalgi borishi natijalari to'g'risidagi mavzularni ko'rib chiqadi, suhbat

mazmunini va shaklini belgilaydi, muhokama qilish, ota-onalar bilan kelishish uchun masalalarni tanlaydi, yaqin kelajak uchun ota-onalarning tarbiyaviy vazifalarini, tavsiyanomalarini va hokazolarni belgilab oladi).

Oilada bo'lganda faqat maslahatchi bo'lib qolmasdan, o'zi ham ota-onalarning fikri va takliflariga quloq solishlari kerak, chunki ular farzandlarining muvaffaqiyatidan bizga nisbatan kam manfaatdor emaslar. Yuqori sinf o'quvchilarining oilalariga borishni zarur emas deb hisoblaydigan sinf rahbari nohaqdir. Yuqori sinf o'quvchilari oldida kasb tanlash mummosi turadi, ota-onalar esa bunga o'z farzandlarining u yoki bu faoliyatiga qiziqishi va qobilyatini inkor etib, o'z hayotiy tajribalari asosida yondashadilar. Bu jihatdan sinf rahbari tomonidan odob bilan yordam berishi zarurligi ravshandir.

Nobop oilalar bilan ishlash sinf rahbari uchun alohida qiyinchilik tug'diradi. Odatda bola oilaviy notinchlikning qurboni bo'ladi, binobarin uni pedagogikaga zid oilaviy munosabatlardan asrash – maktabning vazifasidir.

Jamoatchi va bilimli sinf rahbari har qanday vaziyatdan juda ustalik bilan chiqib ketadi va har tomonlama rivojlangan sinf jamoasini tashkil qiladi.

Maktab, oila va jamoatchilikning tarbiyaviy ta'sirini muvofiqlashtirishda oila, boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli ravishda, odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta'sir ko'rsatishga qodir va odatda ta'sir ko'rsatadi.

Oilalar tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning mafkuraviy va psixologik ta'sir ko'rsatishining chuqur o'ziga xosligi bilan uyg'unlashib ketadi. Bu esa uni oila darajasida ta'sirchan qilibgina qolmay, shu bilan birga shaxsiy tiklantirish jarayoninig zarur bo'g'iniga aylantiradi.

Maktablar tajribasida faoliyat odatda ommaviy jamoa, guruh va individual shakllarda tashkil etiladi. Tabiiyki individual shakllar muammolashni nazarda tutmaydi.

Faoliyatni tashkil etishning ommaviy shakllari ham (ya'ni

ularida o'quvchilarning muayyan guruhlari ishtirok etadi), o'z mohiyatiga ko'ra uni amalga oshirish jarayonida faoliyat maqsadiga (masalan, leksiya, konsert va hokazo) erishish uchun qatnashchilarning o'zaro muammosini nazarda tutmaydi.

Jamoa tashkil etishning samarali shakllaridan biri guruhiy ishdir bunda mazkur ish bolalarning tarkib jihatdan kichik (eng ko'pi bilan besh kishi) guruhlarida amalga oshiriladi. Shunday kichik guruhlarda barcha a'zolar bir-birlari bilan bevosita muomilada bo'ladilar va bir-birlariga bevosita ta'sir ko'rsatadilar.

O'qituvchilar guruhlarda muammolarning o'ziga xos xususiyatini o'rganish, uning guruhlarini o'quvchilar muomalasini tashkil etishning samarali shakliga aylantiriladigan xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Maktablarda guruhiy ishlarni tashkil etishning turli usullari qo'llaniladi:

– bir xil ishlar: unda jamoani tashkil etgan barcha guruhlar bir xil topshiriqlarni bajaradilar;

– tabaqalashtirilgan guruhiy ishlar: unda guruhlar individual topshiriq oladilar. Tashkil etishning guruhiy shakllari amalda o'quvchilar faoliyatining barcha sohalarida qo'llaniladi. Masalan, sinfdagi darsdan tashqari bilish faoliyatida “topilgan va topilmagan sirlar kechasi” o'tkaziladi. Sinf bir necha guruhga bo'linadi, ulardan har biri o'z “siri”ni belgilab va uni sinfga taqdim etadi. Darsda bilish faoliyatini, masalan, 8-sinfdagi tarix darsida o'quvchilar guruhlariga bo'linadilar, ularning har biri topshiriq oladi. Guruhlarning vakillari topshiriqlarning bajarilish yakunlarini butun sinfga ma'lum qiladilar, sinf ularni muhokama qilib, tuzatishlar kiritadi.

Jamoa tashkil etganda o'quvchilar muhitida mavjud bo'lgan haqiqiy guruhlarini tuzish, bir-biriga mehr bilan qaraydigan va o'zaro do'stlashadigan bolalarni birlashtirish zarur. Pedagog bu guruhlarining xususiyatlarini, ularning yo'nalishi, qiziqishlari, malakasini va hokazolarni bilishi, hisobga olishi va foydalanishi kerak. Jamoa ishni tashkil etishda va amalga oshirishda, vazifalarni taqsimlash vaqtida mazkur xususiyatlarni hisobga olish

ishning samaradorligini oshiradi. Ikkinchi tomondan, bu hol guruhdagi muammolarni jamoaning qiziqishlari sohasiga va jamoaning qiziqishlarini guruhdagi muomala sohasiga olib kiradi.

Jamoa faoliyatini tashkil etishda o'quvchilarning shaxslararo real mavjud bo'lgan aloqalarini hisobga olish ikki xil maqsadga erishish: guruh a'zolarini jamoa hayotiga jalb qilish va ular o'rtasiga muomalaga ta'sir ko'rsatish imkonini beradi.

3.2. Shaxsga jamoaviy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish

O'qituvchi faoliyatida o'quvchilar jamoasini shakllantirish markaziy vazifa hisoblanadi. Jamoa nazariyasi qonunlariga muvofiq uni yaratish metodikasi asoslari quyidagilardan iborat: talablar qo'yish, faollarni tarbiyalash, o'quv, mehnat, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy-madaniyat, faoliyatdagi istiqbollarni tashkil etish, sog'lom jamoatchilik fikrini shakllantirish, ijobiy an'analarni yaratish va ko'paytirish.

Ta'riflangan bu qoidalar har qanday jamoani shakllantirish va rivojlantirish uchun qo'llanma hisoblanadi.

Tarbiya metodlarini tanlashda ularning rivojlanish darajasiga mosligi muvaffaqiyatining muhim sharti hisoblanadi. Shuning uchun har bir o'qituvchi tarbiyaviy ishni sinfdan, jamoa munosabatlarining rivojlanish darajasini aniqlashdan boshlaydi. O'qituvchining esa yangi sinf bilan ko'p marta ish boshlashiga to'g'ri keladi: o'z mehnat faoliyatining dastlabki yilida, sinfni navbatdagi bitirib chiqish mavsumidan keyin, ba'zan esa maktabda vujudga kelgan vaziyat taqozosi bilan sinf rahbari o'zining metodlari jamoaning rivojlanishiga to'sqinlik qilmasligi uchun shundan keyingi ishlari davomida vaqti-vaqti bilan jamoaning rivojlanishi darajasini aniqlab turadi.

Nazariyada jamoa rivojlanishning uch yoki to'rt darajasi ajratib ko'rsatiladi.

Boshlang'ich daraja pedagogning kuch-g'ayrati natijasida sinfda o'rnatilgan muayyan darajadagi tartib, intizom bilan,

o'quvchilarning uncha katta bo'lmagan qismi sinf rahbarining harakatlarini qo'llab-quvvatlashi bilan izohlanadi. Tarbiya jarayoniga, o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga o'tganda yuksak darajaga erishiladi. Ayrim o'quvchilar va umuman jamoa o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi va tashkil etadi, o'ziga va bir-biriga talablar qo'yadi va o'z-o'zini nazorat qiladi. Sinf rahbari va o'quvchilar jamoasi o'y-niyatlari va ishlarida birgadirlar.

Past darajadan yuqori darajagacha boradigan yo'l uzoq bo'lib, muayyan qiyinchiliklarni bartaraf etish bilan kechadi. Ayni paytda jamoani shakllantirish yuzasidan olib boriladigan ishlar yuzasidan juda qiziqarlidir. Bu sinf rahbarining asosiy ishidir. Umuman maktab o'quvchisi tarbiyasining asosiy natijalari bu ish qanchalik muvaffaqiyatli o'tishiga bog'liq bo'ladi. Agar o'quvchilar jamoasi tashkil etilmagan bo'lsa, o'quvchi maktabni hech afsuslanmay tark etadi, hatto keyinchalik maktab yillarini eslamaydi ham. O'quvchilarni inoq jamoaga birlashtirishga mohir sinf rahbari qo'lida tarbiyalangan odam baxtlidir. Ulg'ayayotgan kishining hayotdagi mavqeini shakllantirishda, uning hayot yo'lini belgilashda o'z vazifasini anglash sinf rahbarining bolalar jamoasini barpo etish yuzasidan olib boriladigan faol va qat'iy faoliyatining zarur sharti hisoblanadi.

Jamoaning rivojlanish darajasini belgilash metodikasi.

Uning mohiyati u yoki bu rivojlanish darajasidagi jamoa normativ ta'rifini aniq jamoa ta'rifi bilan taqqoslashdan iboratdir. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan maqsadning, pedagoglar bilan o'quvchilarning birgalikdagi har tomonlama sobitqadam faoliyatining, o'zaro ma'suliyatli munosabatlarning mavjudligi: o'z-o'zini boshqarish organlarining faoliyati va h.k.

Sinf rahbari jamoaning rivojlanish darajasini belgilash uchun bolalarda ularning hozirgi va bo'lajak hayotlarida ijtimoiy ahamiyatga molik maqsadlari mavjudligini bilish muhim, ya'ni jamoaning hayotiy faoliyati istiqbollari barcha yoki yarim o'quvchilar qabul qilishni va bu istiqbollarning xususiyati qandayligini bilib olish zarur. Agar bo'lajak shanbalik yoki bayram kechasi bolalar uchun faoliyatga undovchi bo'lsa va bu

kun istiqboli faqat ayrim o'quvchilar uchun ahamiyatli bo'lsa, jamoa rivojlanishining ikkinchi bosqichi haqida gapirish mumkin.

Pedagog sinf bilan ishlashning dastlabki bosqichida turli vaziyatlarga duch kelishi mumkin. Sinfda haqiqiy jamoa munosabatlari bo'lmashligi mumkin, bunda o'qituvchi ishni boshidan boshlashga to'g'ri keladi. Ko'pincha bunday holat yangi shakllangan, "yig'ma" sinflarda, yangi qurilgan maktablarda bo'lishi mumkin. To'g'ri, boshqa hollarda ham shunday bo'lishi, avvalgi sinf rahbarining kuch-g'ayrati muvaffaqiyat keltirmagan bo'lishi, tarkibi o'zgarmagan jamoa VII-VIII cinflarda ham shakllanmasligi mumkin.

Ikkinchi tomondan sinf rahbari sinf bilan ishlar ekan, har doim jamoa rivojlanishning boshlang'ich davri bilan ish ko'radi, deb mo'ljallab bo'lmaydi. Boshlang'ich sinfdayoq (I-IV sinflarda) ko'pincha yaxshi sinf jamoalari shakllanadi. O'qituvchi bunday holda jamoa faoliyatining avvalgi tajribasini tahlil etadi va uning ancha yuqori rivojlanish darajasiga mos keladigan tarbiya metodlarini qo'llaydi.

Komil inson shaxsini tarbiyalashda jamoaning roli va ahamiyati. Odam bolasining rivojlanishi bu muhim jarayon sanaladi. Bizga ma'lumki, hayoti davomida inson jismoniy va psixik tomonidan o'zgarib boradi, lekin bolalik va o'smirlik davrida rivojlanish nihoyatda kuchli bo'ladi. Bola mana shu yillarda ham jismoniy, ham psixik jihatdan o'sishi, o'zgarishi bilan shaxs sifatida kamolga etadi. Bunda berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq ta'sir etishi natijasida bola jamiyat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri aniqlash va behato baholash uchun uni turli munosabatlar doirasida, turli munosabatlar doirasida, turli vaziyatlarda kuzatib ko'rish lozim. Ana shundagina shaxsning ijtimoiy xulqi, ma'naviy qiyofasi, insoniy fazilatlarini ro'yobga chiqadi. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal qilish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillarni, bu omillarning tabiatini, shaxsning xususiyatini yaxshi bilmoq kerak.

Bolaning kamolotiga, ruhiyatiga, fe'l-atvori shakllanishiga quyidagi omillar ta'sir etadi: biologik omil, ijtimoiy omil va tarbiya ta'sir etadi.

O'rta Osiyo mutafakkirlaridan Forobiy, Abu Ali Ibn Sinolar ham inson tarbiyasiga ta'sir etadigan omillar ahamiyatiga e'tibor berib kelganlar Forobiy inson kamolotida ta'lim-tarbiyaning muhimligini ta'kidlab: "munosib inson" bo'lishi uchun odamda ikki imkoniyat: ta'lim va tarbiya olish imkoniyati bor. Ta'lim olish orqali nazariy kamolotga erishiladi, tarbiya esa, bu kishilar bilan muloqotda axloqiy qadr-qimmatni va amaliy faoliyatni yashirishga olib boradigan yo'ldir, deydi. Abu Ali Ibn Sino etika va axloqiy tarbiya masalalarini falsafiy pedagogik asosda yoritib berishda yordam berdi. U ayniqsa oila tarbiyasida ota-onaning o'rniga alohida to'xtalib, bola tug'ilgach, avvalo, ota unga yaxshi nom qo'yishi, so'ngra esa uni yaxshilab tarbiya qilishi kerak. Agar oilada tarbiyaning yaxshi usullaridan foydalanilsa oila baxtli bo'ladi degan fikrni ilgari suradi.

Bola shaxsining rivojlanishga, kamol topishga irsiyat, muhit va tarbiya kabi omillar ta'sir etadi. Bola shaxsining rivojlanishga naslning ta'siri deganda, ota-onalarga o'xshashlikni ifodalovchi biologik belgilarning takrorlanishini tushunmoq kerak, har bir bola ota-onasidan meros shaklida ba'zi biologik sifatlarga (tananing tuzilishi, sochning, ko'zning, terisining rangi, bo'y-basti va boshqalar) ega bo'lgan holda dunyoga keladi. Bularning barchasi jismoniy xususiyatlarga kiradi. Bulardan tashqari oliy nerv faoliyatining xususiyatlari ham tug'ma o'tadi. Bu esa fiziologik xususiyat hisoblanadi.

Inson kamolotiga ta'sir etadigan omillardan yana biri bu muhitdir. Muhit deganda kishiga hayajonli ta'sir etadigan tashqi voqealar majmuasi tushuniladi. Bunga tabiiy muhit, ijtimoiy muhit, oila muhiti kiradi. Shular bilan birga muhit – oila sharoiti ham katta ta'sir kuchiga ega. Chunki bola ko'z ochib ota-onasini, qarindosh urug'ini ko'radi. Bola kamolotida ijtimoiy jamiyat muhit bo'lib hisoblanadi. Chunki bu yerda ishlab chiqish munosabatlari va ularni tartibga solib turadigan ijtimoiy qonun-

qoidalar alohida ta'sir qiladi. Bu xil munosabat natijasida odam bolasi hayot tajriba va bilimlarini egallaydi. Inson kamolotida ijtimoiy muhitning ta'siri turli tarixiy davrda turlicha bo'ladi, turli sotsial guruhlariga ham turlicha ta'sir etadi.

Bizga ma'lumki, komil inson shaxsini tarbiyalashda yuqoridagi omillardan tashqari yana bir omil, ya'ni jamoaning roli ham katta hisoblanadi. Chunki jamoa har qanday bola tarbiyasini to'g'ri yo'lga soladi. Masalan, sinf jamoasini oladigan bo'lsak, agar shu sinfda bir yomon o'quvchi, ya'ni xulqi, tarbiyasi jihatdan yomon bo'lsa, shu sinf jamoasi unga asta-sekinlik bilan o'z ta'sirini albatta o'tkazadi. Ya'ni qanday yo'llar bilan degan savol tug'ilish mumkin. Masalan, tadbirlar yoki sayohatlar orqali. Komil inson shaxsini tarbiyalashda jamoaning ahamiyati juda katta. Azal-azaldan bizgacha ota-bobolarimizdan qolgan o'lmas maqollarimizdan birini shu o'rinda keltirib o'tsak: "Aqlni beaqlad o'rgan". Ushbu maqol zamirida bir qancha ma'nolar bor. Ya'ni jamoada har xil bolalar bo'lib, ular bir-biriga qarab ham o'zlaridagi yomon xulqlarni yuqotadilar. Bu xislatlar esa ularning komil inson bo'lib tayyorlanayotganidan darak beradi.

3.3. O'quvchilarni tarbiyalashda jamoaning roli

Har bir ishning o'ziga xos, ma'lum qonun-qoidalari bo'lganidek, bola tarbiyasining ham o'ziga xos bir qator muhim qonun-qoidalari bor, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali bo'ulishini ta'minlaydi. Chunonchi,

- tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi;
- tarbiyaning hayot, mehnat bilan, O'zbekistonimizning mustaqilligi, gullab yashnashi yo'lida qilinayotgan fidoiy ishlar bilan bog'lanishi;
- o'quvchini jamoada, jamoa orqali tarbiyalash;
- tarbiyada bola shaxsini hurmat qilish va unga talabchanlik;
- tarbiyaviy ishlarning izchilligi, muntazamligi hamda birligi;
- tarbiyada o'quvchilarning yoshi va o'ziga xos

xususiyatlarini hisobga olish.

Quyida tarbiya jarayonining qonun-qoidalarini ko'rib chiqamiz.

Tarbiyaning bir maqsadga qaratilganligi. Tarbiya maqsadini belgilashda jamiyat talablari, davr nafasi, milliy xususiyatlar asos qilib olinadi.

Tarbiyaning maqsadi – har tomonlama kamol topgan – mukammal inson shaxsini tarbiyalashdir.

O'qituvchilar jamoasi va har bir o'qituvchi-tarbiyachi ana shu maqsadlardan kelib chiqib, tarbiyaviy ishlarning, vazifalarini belgilaydi, uning mazmunini aniqlaydi hamda maktab ish sharoitlarini hisobga olgan holda o'quvchilarni tarbiyalashning shakl va uslublarini tanlaydi.

Tarbiyaning hayot bilan bog'liqligi qoidasi tarbiyaviy ishlarning mazmuni va tashkil etilishini doimo yangilab turishini talab etadi. Tarbiyachilar bolalar tarbiyasini hayot bilan bog'lar ekanlar, ularga o'zlarida iymon-e'tiqodni tarbiyalash imkonini beradilar. Tarbiyaviy ishlar shunday tashkil qilinganda yoshlar jamiyat hayotiga faolroq jalb qilinadi, bu esa o'quvchi shaxsining tarkib topishiga yordam beradi.

O'quvchini jamoa orqali tarbiyalash. Ilg'or o'qituvchilar tajribasining ko'rsatishicha, o'quvchilar ahil jamoa bo'lib uyushgandagina tarbiya ishlarida faol o'quvchilarga tayanish, o'quvchilarni turli ishlarni birgalikda bajarishga odatlantirib, ularga jamoatchilik ruhini singdirib borish mumkin.

Tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalash jarayoniga o'tganda yuksak darajaga erishiladi. Ayrim o'quvchilar va umuman jamoa o'z faoliyatini mustaqil rejalashtiradi, o'ziga va bir-biriga talablar qo'yadi va o'z-o'zini nazorat qiladi.

Sinf rahbari va o'quvchilar jamoasi o'z niyatlari va ishlarida birgadirlar. Jamoani shakllantirish yuzasidan olib boriladigan barcha ishlar juda qiziqarli bo'lib, bu ish sinf rahbarining asosiy ishi bo'lib hisoblanadi. Jamoaning rivojlanish darajasini aniqlashning eng ishonchli usuli – o'quvchilarni ular bilan darsda, darsdan tashqarida, maktabda, maktabdan tashqarida o'zaro faol

hamkorlik qilish darajasida kuzatishdan iboratdir.

Tarbiyada bola shaxsini hurmat qilish.

O'qituvchi jamoaning kuchli va zaif tamoyillarini aniqlash uchun pedagogik vaziyatlar vujudga keltirishni qo'llaydi. Lekin bunda shuni esda tutish kerakki, o'quvchi kamchiliklarini hamma o'rtasida yorqin namoyish qilish uni ma'naviy halok etishi, qalbini jarohatlashi mumkin. Shunday vaziyatlarni vujudga keltirish kerakki, ular salbiy tomonlarni emas, har bir bolada odatdagi sharoitda boshqalardan yashiringan ijobiy tomonlarini ham ochib bersin. Sinf rahbari jamoa rivojlanishining aniqlangan darajasiga qarab tarbiya usullarini tanlaydi. Bunda ***o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olish*** qo'shimcha shart hisoblanadi. Bu haqda gapirmasa ham bo'lardi, chunki bu shart pedagogik tamoyillardan biridir. Shu bilan birga ishni endi boshlagan o'qituvchi, ayniqsa sinf rahbari tarbiya usullarini emas, balki shakllarini tanlashda o'z tarbiyalanuvchilari yoshini hisobga olishi muhimdir. Bunda bir xil usullar, talablar, topshiriqlar va hokazolar turlicha izohlanadi. Ta'lim jarayonida jamoa munosabatlarini rivojlantirish istiqbollari sinf rahbarining katta e'tibor berishini talab etadi.

Jamoa faoliyatida ko'proq muomala qilishga bo'lgan ehtiyoj yotadi. Darslarda bu ehtiyoj kam qondiriladi. Agar darsdagi muomalaga bo'lgan ehtiyoj to'g'ri tushunilsa, uning negizida o'quvchilarning o'zaro yordami, darslarga birgalikda foydali tayyorgarlik ko'rish, qiziqishlar bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etiladi. Ta'lim jarayonidagi jamoatchilik tuyg'usi ana shu, ya'ni birgalikdagi mehnat bolalarda katta qoniqish hosil qilish, ijobiy kechinmadan boshlanadi. Shu tariqa o'zaro yordam tashkil etish sinfdagi jamoa munosabatlarini shakllantirishning yo'llaridan biridir. O'qituvchi yana o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, sinf jamoasining xususiyatlarini, uning shakllanganlik darajasini hisobga oladi, o'sha talablarida jamoa fikrining qo'llab-quvvatlanishiga tayanadi.

Jamoa rivojlanishining har qanday darajasida sinf rahbari muayyan usullardan foydalanib, jamoatchilik fikrini shakllantirish

to'g'risida maxsus g'amxo'rlik qiladi. O'quvchilar jamoasini shakllantirish jarayonini past darajadan yuqori darajaga boradigan vaqt davomidagi harakat, ijtimoiy talablar avval shaxsan sinf rahbaridan, o'qituvchidan faqat yakka bolalar, keyinchalik ko'pchilik bolalar idrok etadigan va nihoyat, barcha uchun va har bir bola uchun hayot qonuni bo'lib qoladigan tarzda jo'n tushunib bo'lmaydi. Hatto uyushgan jamoada ham jamoatchilik xususiyatlari zaif rivojlangan ayrim o'quvchilar bo'ladi. Sinf rahbari jamoa va har bir alohida o'quvchining tarbiyasi uchun ma'suldir. Shuning uchun uning jamoa tarzidagi va yakka tartibdagi shakllarini qo'shib olib borishi tarbiyaviy ishdagi o'ziga xos xususiyatlaridan biridir. Jamoaning shaxsga nisbatan yuksak talabchanligi kuzatiladi.

Maktablar tajribasida faoliyat odatda ommaviy, jamoa, guruh va individulal shakllarda tashkil etiladn. Faoliyatni tashkil etishning ommaviy shakllari ham (ya'ni ularda o'quvchilarning muayyan guruhlari ishtirok etadi) o'z mohiyatiga ko'ra uni amalga oshirish jarayonida faoliyat maqsadga (masalan, ma'ruza, konsert va hokazo) erishish uchun qatnashchilariing o'zaro muomalasini nazarda tutmaydi. Biroq, bundan oldingi holda bo'lgani kabi, bu shakllarda bevosita tengdoshlar bilan birgalikda qatnashish ba'zi hollarda ularning faoliyatidagi ishtirokini faollashtiradi, boshqa hollarda aksincha bo'ladi. Bu ko'p jihatdan o'quvchilarning faoliyat mazmuniga munosabatiga (ijobiy, passiv yoki salbiy) bog'liq bo'ladi.

Faoliyatni amalga oshirish jarayonida uning maqsadiga erishish uchun o'quvchilarning o'zaro muomalaga kirishishlarini nazarda tutuvchi faoliyat shakllari jamoa shakllari deyiladi, bu muomala jarayonida o'quvchilar o'rtasida jamoa aloqalari vujudga keladi. Bu shakllar obyektiv jihatdan o'zida muomala uchun muayyan shart-sharoitlarga ega bo'ladi. Ular o'quvchilarga ishni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun vazifalarni o'zaro taqsimlab chiqish imkonini beradi, qatnashchilar o'rtasida aloqa ta'sirining paydo bo'lishiga olib keladi.

Misol tariqasida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil

etishning jamoa shakllaridan biri – bilimlarning ijtimoiy ko‘rigini qarab chiqamiz. U biror fan bo‘yicha o‘tkaziladi. Unda ikkita parallel sinf yoki bir sinfdan ikkita komanda ishtirok etishi mumkin. Ko‘rikning dasturi ishlarning har xil turlaridan (yozma, og‘zaki, grafik, masalalar echish, topshiriqlarni bajarish va shu kabilar) tashkil topadi, ularni bajarish umuman olganda 40–60 daqiqadan oshmaydi. Ko‘rik oxirida hay‘at a‘zolari har bir qatnashchiga va umuman komandadagi o‘rtacha bahoni e‘lon qiladi. Bu o‘rinda bilish faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan muomala ko‘rikka hozirlik ko‘rish vaqtidayoq boshlanadi va uni o‘tkazish jarayonida juda samarali davom etadi. Bunga sabab shuki, ko‘rikka doir dastlabki topshiriqlar jamoadan tayyorgarlik rejasini muhokama etishni, vazifalarni taqsimlashni yoki guruh bo‘lib ishlashni talab qiladi. Ko‘rik jarayonida muomala uning hamma qatnashchilari o‘rtasida sodir bo‘ladi, chunki ulardan har biri muayyan vazifaga ega bo‘lib, o‘z harakatlarini boshqa qatnashchilar bilan muvofiqlashtirgandagina vazifani muvafqiyatli bajarishi mumkin.

Guruhiy ish jarayonida o‘quvchilarning muomalasi juda samarali bo‘ladi. Bunga sabab shuki, birinchidan, guruh muayyan topshiriq oladi, ya‘ni o‘ziga xos yo‘l-yo‘riq oladi. U guruh a‘zolari uchun maqbul bo‘lgan maqsadlarni ma‘lum qiladi, lekin bungacha bu maqsadlarni uning o‘zi ilgari surmagan bo‘ladi. Yo‘l-yo‘riq muammo, masala, topishmoqni o‘z ichiga oladi. Bu hol jamoa a‘zolarida taxminiy-tadqiqodchilik javobini va ish maqsadiga intilishni vujudga keltiradi. Jamoadagi muomala munozara tusiga ega bo‘ladi, bu hol qatnashchilardan ilgari surilgan qoidalarni isbotlashni talab qiladi, jamoaga muammoni to‘g‘ri hal etishga intilishga, tezda javob qilish, bir-birini tuzatish va to‘ldirish imkonini beradi.

Jamoa yetarli darajada obro‘ qozongan, jamoatchilik yo‘nalishiga ega bo‘lgan guruhga muayyan bir tadbirni tayyorlash va o‘tkazishga boshchilik qilishni topshirsa bo‘ladi. Qandaydir o‘ziga xos qiziqishlari bor guruhga butun jamoa uchun bu qiziqishlarga mos keladigan ishning tashabbuskori va

tashkilotchisi bo'lish taklif etiladi va hokazo.

3.4. Jamoada o'quvchilarni o'rtoqlik va do'stlik hissida tarbiyalash

Do'stlik – inson axloqining bebaho go'zalligi, ijobiy fazilatlar gavhari. Insondagi barcha go'zal fazilatlar bir marvarid shodasi bo'lsa, uning dur-gavhari chin insoniy muhabbatga asoslangan do'stlikdir. Do'stlik tufayli xonadonimiz obod, dunyoda tinchlik va dasturxonimizda to'kinlik hukmron. Shuning uchun ham dono kishilar hamma jamiyatda ham do'stlikni ulug'lab, qadrlab kelganlar va odamlarni do'st bo'lib yashashga, ko'proq do'st orttirishga undaganlar.

Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (s.a.v.) hadislaridan birida: “Bir-biringizga hayr-ehsonli, mehr-muhabbatli bo'lib, qo'l berib so'rashib yuringlar, shunda dillaringizdagi g'ill-u g'amlik ketadi”, – deganlar.

Do'stlik insonning kuchiga kuch, qudratiga qudrat qo'shadigan, kishini baxtli qiladigan, hayotini bezaydigan eng muhim omillardandir.

Xalqimiz o'rtasida do'stlik munosabatlariga bag'ishlab juda ko'p hikmatli so'zlar yaratilganki, ular orqali do'stlikning kishi hayotida tutgan o'rni ifoda etilgan. Jumladan:

“Qora kuningda do'sting yaraydi”.

“Do'st achitib, dushman kuldirib gapirar”.

“Qoqilganingda do'sting suyab qoladi”.

“O'zini siylamagan, o'rtoqlarini ham siylamas”.

“O'zingni qurbon qilib bo'lsa ham, o'rtoqlaringni saqlab qol”.

“Kuning quvnoq o'tishini istasang, o'rtoqlaring bilan bo'l”.

“Ulfat qancha ko'p bo'lsa, kulfat shuncha oz bo'ladi”.

“Aqli ko'pni dov olmas, do'sti ko'pni yov olmas”.

“Yaxshilar bo'lsa o'rtoq, kunda bo'lurlar qo'noq”.

“Chin do'st chin yurakdan so'zlaydi”.

“Arpa, bug'doy bir kuningga yaraydi, sodiq do'sting o'lguningcha yaraydi”.

“Qalin o‘rtoq – qarindoshdan ortiq”.

“Yaxshi do‘st – davlat”.

“Yaxshi libos – tanga oroyish, yaxshi yo‘ldosh – jonga osoyish”.

“Do‘stdan-do‘st kamol topadi”.

“Do‘sting mingta bo‘lsa ham kam degin, dushmaning bitta bo‘lsa ham ko‘p bilgin”.

Bu purma‘no hikmatli so‘zlarda el-ulusning bir umrli orzu-umidlari yashaydi. Mazkur hikmatli so‘zlarda do‘stlik va o‘rtoqlikka xos bo‘lgan eng yaxshi xislatlar ifodalanganki, biz o‘z hayotimizda ularga har qadamda duch kelib turamiz.

Do‘stlik-birodarlikning eng yaxshi xislatlaridan biri kishilarga mehr-shafqatli bo‘lishni anglatadi.

Masalan, bir sinfda o‘qiydigan o‘rtoqlarimizdan biri betob bo‘lib qoldi yoki xonadonida biror ko‘ngilsizlik ro‘y berdi deylik. Shunday paytda darhol hol-ahvol so‘rab, dardiga malham bo‘la olsak, nur ustiga a‘lo nur bo‘ladi. Buning natijasida kishilar o‘rtasida yaqinlik, mehr-oqibat ortib boradi.

Do‘stlikka xos bo‘lgan yana bir xislat o‘zaro yordam hisoblanadi. Biz o‘qishda, mehnatda, jamoat ishlarida o‘rtoqlarimizdan yordamimizni ayamasligimiz kerak.

Do‘stlik, o‘rtoqlik rishtalarining bog‘lanishi va mstahkamlanishini ta‘minlovchi birmuncha xislatlar bor. Jumladan, rostgo‘ylik, bir-birini o‘zaro hurmat qilish va sirdosh bo‘lish, o‘rtoqlarga doimo g‘amxo‘r bo‘lish kabilarni o‘z vaqtida amalga oshirib borsak, bizning o‘rtoqligimiz ortib, haqiqiy do‘stlik darajasiga ko‘tarila oladi, shuning uchun ham do‘stlik o‘rtoqlikning oliy shaklidir, deb yuritiladi. Chunki do‘stlik avvalo o‘rtoqlikdan boshlanadi. Kishi o‘z o‘rtoqlaridan birini boshqalardan ortiqroq sevadi. Uni boshqalardan ko‘proq hurmat qiladi, unga nisbatan o‘z moyilligini amalda ko‘rsatishga intiladi. Ikkinchi tomon ham bu hurmatga hurmat bilan javob berishi ayni muddao bo‘ladi. Do‘stlar doimo bir-birlaridan maslahat oladilar, bir-birlariga muntazam yordamlashib turadilar, moddiy va

ma'naviy jihatdan bir-birlarini qo'llab-quvvatlaydilar. Shunday qilib, avvalgi oddiy o'rtoqlar keyinchalik yaqin do'st bo'lib ketadilar.

Do'stlikni tor ma'noda, ya'ni ikki kishi orasidagi aloqadagina iborat, deb tushunmaslik darkor. Do'stlik tushunchasi ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lib, million-million kishilarning ahil yashashi, iqtisodiy, siyosiy va madaniy sohalarda hamjihatligini bildiradi. Hozir ham, bundan avval ham yer kurrasi xalqlari orasidagi baynalmilal do'stlik jahon ahamiyatiga ega bo'lgan, bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, do'stlik avval ikki kishi orasida boshlanib, ko'payib, kengayib boradi va ijtimoiy tus oladi. Do'st orttirish hamma yoshda ham zarur, lekin yoshlikda boshlangan do'stlikning ildizi juda chuqur va mustahkam bo'ladi. Shuning uchun ham yoshlarimiz iloji boricha ko'proq do'st orttirishlari va bir-birlari bilan ahil yashamoqlari kerak. Do'stlik shirinsuxanlikdan boshlanadi va xushmuomalalik, ochiq ko'ngillilik, mehr-sadoqat bilan mustahkamlanib boradi.

Yengiltaklik, jizzakilik, ig'vo-bo'htonga berilish va o'zaro hurmatning yo'qolib borishi do'stlikka rahna soladi, uning yemirilishiga olib keladi. Do'stlik o'rnini dushmanlik, g'arazgo'ylik egallaydi.

Ota-bobolarimiz do'stlikni yuqori darajada qadrlashgan. Do'sti yo'q odamni qurigan daraxtga, jisman mavjud bo'lsa ham qalbini o'lik murdaga o'xshatishgan. Do'sti ko'p odamni hurmat qilishgan. Do'st orttirish uchun mehnat qilish, birovlarining yukini ko'tarib mushkulini oson qilish kerakligini uqtirishgan.

Rivoyat. Ulug' shoir Alisher Navoiyning Pahlavon Muhammad degan shogirdi ham do'sti bor ekan. Shoir uni juda yaxshi ko'rar, shogirdi bo'lsa ham qadrdon, sirdosh do'sti, deb bilar ekan. Kunlardan bir kuni Pahlavon Muhammad kichik bir gunoh qilib qo'yib, shu tufayli Sulton Husaynning qattiq g'azabiga uchrabdi. Voqea bunday bo'libdi: Sulton Husayn g'azab otiga minib turgan bir paytda Pahlavon Muhammadning gunoh ish qilib qo'yganini yetkazishibdi. Husayn Boyqaro:

– Pahlavonning soqol-mo‘ylovini qirib tashlanglar, so‘ng kaltadum libos kiydirib, ko‘cha-ko‘yda sazoyi qilinglar, – deb buyruq beribdi.

Pahlavonning bunday jazoga giriftor bo‘lganini Alisher Navoiyga aytishibdi. Navoiy, agar bu jazo amalga oshirilsa, Pahlavon Muhammadning izzat-nafsi kamsitilib, u bunga chiday olmasligini anglab, uni bunday sharmandalikdan qutqazish harakatiga tushibdi. Tezlikda Husayn Boyqaro huzuriga yetib borib:

– Sultoni bokaram, ma‘lumingizki, men va Pahlavon Muhammad yoshligimizdan bir xil kiyinamiz, birga soqol-mo‘ylov qo‘yib, do‘st-birodar bo‘lib yuramiz. U boshqa kiyinib, men boshqa kiyib yursam, o‘rtadagi ahd buzilib, gapimiz tuzsiz, o‘zimiz subutsiz bo‘lib qolamiz. Buyursangiz, mening soqol-mo‘ylovlarimni qirsinar, menga ham huddi Pahlavon Muhammadga berilgandek kalta libos kiygizilib, do‘stim bilan birga sazoyi qilsinar, – debdi.

Navoiyning shogirdi hamda do‘stiga bo‘lgan sadoqatini, mehr-oqibatini ko‘rgan Husayn Boyqaro g‘azabidan tushib qolganini o‘zi ham bilmay qolibdi va:

– Pahlavonning gunohidan o‘tdim, jazo qoldirilsin, – deb farmon beribdi.

Biz tarixda katta njobiy fazilatlari bilann kom qozongan ulug‘ bobolarimizdan hamisha ibrat olib yashaymiz. Oilada, maktabda, ko‘cha-kuyda, mahallada, davralarda yoshlarimizni do‘st orttirishga chaqiramiz. Yoshlikda bog‘langan do‘stlik iplari mustahkam bo‘ladi, uni g‘iybat, tuhmat shamollari uza olmaydi. Do‘sting bilan bir umrga bog‘lanib qolsang, kayfiyating yaxshi bo‘lsa uni baham ko‘rgani, diqqat bo‘lsang uni yozgani do‘stingnikiga borasan, mehmon bo‘lasan yoki do‘sting ham shunday holatlarda senikiga keladi, ko‘nglini yozadi.

Mehmonnavozlik do‘stlikni mustahkamlovchi omillardan biridir. Chunki mehmonni kuzatish jarayonida mezbondagi saxiylik, pazandalik, tozalik, inson ko‘nglini olish kabi olijanob fazilatlar namoyon bo‘ladi. Do‘stlik an‘analariga sadoqatli oilaga

mehmon kelishi bayramga, xursandchilikka aylanadi. O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning “Do‘st bilan obod uying” g‘azalida bu haqda ajoyib fikrlar bor.

Do‘st bilan obod uying,
Gar bo‘lsa u vayrona ham,
Do‘st qadam qo‘ymas esa
Vayronadir koshona ham.

Intizor har uy qadrdon
Dilkusholar bazmiga.
Gar bosh qo‘ysa qabohat,
Yig‘lagay ostona ham.

Do‘st qidir, do‘st top jahonda,
Do‘st yuz ming bo‘lsa oz.
Ko‘p erur bisyor dushman,
Bo‘lsa u bir dona ham.

Abu Ali Ibn Sinoning fikricha, insonda axloqiy sifatning kamol topishida yaxshi xushtabiat, ilmi do‘st katta o‘rin tutadi. “Yaxshi do‘st ojizdir, – deydi olim, – unda kishining butun yaxshi yoki yomon tomonlari aks etadi”. Yaxshi do‘st o‘z vaqtida o‘rtog‘ining yomon qiliqlarini ko‘rsatadi, o‘zining maslahati va xulq-odobi bilan ularni bartaraf etishga yordam beradi.

Ibn Sino do‘stlikning uch xil ko‘rinishini aytib o‘tadi.

1. Haqiqiy do‘stlik – bunda do‘stlar har qanday sharoitda, jumladan hayotda yuz bergan eng og‘ir damlarda ham birga bo‘ladilar.

2. Boylik, amal-daraja tufayli bog‘langan do‘stlik.

3. Yagona maqsad va g‘oyaviy birlik asosidagi do‘stlik.

Bulardan birinchi va uchinchisi mustahkam, haqiqiy va buzilmas, ikkinchisi esa, muvaqqat va mustahkam bo‘lmagan, soxta do‘stlik ekanini ta’kidlaydi.

Fors-tojik adabiyotining mumtoz namoyondasi Abdurahmon Jomiy fikricha, kishi muayyan hayot kechirib tarbiyalanar ekan, demak, boshqa odamlar bilan aloqasiz yashay olmaydi. Har bir kishining do‘stona, o‘zgalarning yordamisiz kamolotga erishishi juda qiyin. Shuning uchun ham har bir kishining o‘ziga munosib,

haqiqiy do'sti va yor-birodari bo'lishi lozim.

Chin do'st ul do'stligi oshaversa gar

Do'stidan yomonlik ko'rganida ham,

Boshiga ming jaf osh toshi yog'ilsa,

Mehr uyi u toshdan bo'lar mustahkam, –

deb Jomiy do'stlikka katta baho beradi.

Birov bilan do'st tutingan kishi o'z do'stining kamchiliklarini bartaraf qilishga, yaxshi xulq sifatlarini e'zozlashga yordam berishi kerak. Lekin, ikkinchi tomondan, do'stlarining aybini o'zigagina aytish lozim, ammo begonalar oldida kamchiligini aytib, mulzam qilish chin do'stning ishi emas. Hayotda haqiqiy do'stlardan tashqari, soxta nodon do'stlar ham uchrab turadi. "Soxta do'stdan oshkora dushman afzal" deyishadi. Ayrim soxta do'stlar borki, ular boshqalarning boyligiga uchib, shaxsiy manfaatlari yo'lida do'st bo'lishga intiladilar. Bunday qalbaki do'stlikni Jomiy kattiq qoralaydi.

Jomiy haqiqiy do'st do'stlikning hamma qonun-qoidalariga rioya qilishi, do'stiga har qanday yo'l bilan yordam ko'rsatishga intilishi, agar zarur bo'lsa, hatto jonini berishi kerakligini ta'kidlaydi. Bunday do'stlikning namunalari o'zbek xalq og'zaki ijodida, yozma adabiyotida ham ardoqlanib, og'izdan-og'izga ko'chib, ulug'lab kelinadi. Masalan, o'zbek xalq dostoni "Alpomish"da uning yetakchi obrazlari Alpomish va Qorajon o'rtasidagi do'stlik tufayli asar voqealaridagi ziddiyatlar yaxshilik bilan hal bo'ladi. Chunki, bu do'stlik Alpomish bilan Qorajon o'rtasidagi samimiyat, adolat g'alabasi uchun kurash yo'lidagi yagona maqsad bilan mustahkam bog'langan do'stlikdir.

Alisher Navoiy do'stlik, rostgo'ylik, o'rtoqlik madhini baralla kuylagan va shu g'oyani rivojlantirishga hissa qo'shgan. U Farhod bilan Shopur, Majnun bilan Navfal, Shirin bilan Mehinbonu obrazlarini yaratib, ana shu obrazlar timsolida kishi kishiga do'st, birodar bo'lishi haqidagi azaliy orzularini benazir madh etgan. Inson va uning qadr-qimmatini Navoiy ijodida markaziy o'rinni egallaydi. Navoiyning fikricha, xalqni o'ylagan kishigina haqiqiy

insondir. Shuning uchun ham shoirning:

*Odami ersang demagil odami,
Onikim yo'q xalq g'amidin g'ami, –*

degan bayti xalq hikmatiga aylanib ketgan.

Navoiy insonlarni milliy, irqiy va diniy e'tiqodlaridan qat'i nazar, bir-birlari bilan inoq yashashga da'vat etadi.

Navoiy do'stlikni ulug'laydi. Shu bilan birga, sohta g'araz bilan do'st bo'luvchi kishilarni qoralaydi. Haqiqiy do'st kishining og'ir, alamli-dardli kunlarida hamdam bo'ladi. Do'stlikning eng muhim va asosiy sharti vafodir, – deydi shoir.

Vafo – xalqqa, davlatga, do'st-yorlarga har qanday qiyinchiliklardan qo'rqmay, sadoqat bilan xizmat etish va yordam berish demakdir. Vafodorlik insonni, do'stlarni sevish, hurmat qilish demakdir:

*Yorki, bora anda vafo yor bil,
Umr degan yori vafodor bil.*

Hukmron doiralardan vafosizlik va hayosizlik ko'rgan Navoiy kishilarning vafodor bo'lishi zarurligi haqida juda ko'p fikrlarni aytadi. U, avvalo, bu xislatga o'zi amal qiladi va barcha asarlarida bunga da'vat etadi.

“Boburnoma”da ham do'stlashish, uni e'zozlash haqida yoshlarga ibrat bo'larli nasihatlar jamlangan. Chunonchi do'stga hamisha e'tiborli bo'lish, ziyoratga borish, yaxshi-yomon kunida hamdardlik qilish, do'sti ko'p knshining ayblari sir tutilishi, fazilatleri ko'payishi, yangi do'st topganda eskisidan yuz o'girmaslik va boshqalar uqtiriladi.

Bir kuni Iskandardan so'rabdilar:

– Buncha oz sarmoya bilan bu miqdor ko'p mulkni qanday xislat bilan qo'lga kirgizding?

Iskandar javob qildi:

– Dushman birlan iltifotli muomala qilish, o‘zaro kelishuvchi hamda do‘stlarga sadoqatli bo‘lish ila shuncha mamlakatni qo‘lga oldim, yana bilgingki, do‘stlarning do‘stlari ham do‘stlaringdir. Agar do‘sting sening dushmaningni sevsa, bunday do‘stdan ehtiyot bo‘l, bunday do‘st dushman tarafidan senga yomonlik qilishdan ham andisha qilmagay. Sening do‘stingga dushman bo‘lg‘on do‘stdan parhez etgil – muruvvatsiz, fazilatsiz kishini do‘st tutmagilki, bunday kishining xosiyati bo‘lmas va ularni oshnon do‘stlari toifasidan bilg‘il, or va nomus do‘sti emasdurlar. Yaxshilarga ko‘ngil bila va yomonlarga til bila do‘stlik qilg‘il, toki ikki toifaning ham do‘stligi senga nisbatan hosil bo‘lsun, nedinkim, kishining hojati tanho do‘stiga tushmag‘usidir.

Do‘stlikka loyiq odamni ikki narsa bila bilsa bo‘lur: biri ulki, do‘stiga tangdastlik yetishg‘on vaqtda qudrati yetguncha molin do‘stdan darig‘ qilmas va qashshoqlik vaqtida undin yuz o‘girmas; yana biri ulki, do‘sti bu jahondan o‘tg‘ondan so‘ng ul do‘stining farzandlarini, qarindoshlari va do‘stlarini yo‘qlab, ularga yaxshilik ko‘rgizg‘ay. Goh-goh ul do‘stning mazori ziyoratiga borg‘ay va hasrat chekib, duolar qilg‘ay.

Hikoyat. Suqrot hakimni o‘ldirish uchun olib borishayotgan chog‘da shogirdlardan bir jamoa unga hamroh bo‘lib borar edilar. Ular yig‘lab, zorlig‘ qilib so‘radilar: “Hay hakim, endi o‘linga ko‘ngil qo‘ymishsan, aytgil, seni qaysi yerga dafn etaylik?” Suqrot tabassum qilib dedi: “Qay joyni ko‘nglingiz tilasa, ul joyga dafn qiling, ya‘ni mening jasadim qayda bo‘lsa, so‘ngaklarim unda bo‘lg‘ay, faqat meni yod qilsangiz bas”.

*Odamlar bila do‘stliging o‘rtacha bo‘lsun,
Do‘stlaringning e‘tiqodidan g‘ofil bo‘lmang.*

Do‘stlikni farog‘likda va tangdastlikda imtihon qilg‘il, farog‘likda roz va taom bila, tangdastlikda sud va ziyon bila. Har do‘stki, sening dushmaningni dushman tutmas, uni do‘st demag‘il. Ta‘magir, kekchi do‘stdin uzoq bo‘lg‘il.

Yusuf Xos Hojib ham “Qutadg‘u bilig» asarida ulfat tutish

haqida, ularga hamisha e'tiborli bo'lish, hamdardlik ko'rsatish, zinhor dillariga ozor yetkazib, do'stni dushmanga aylantirmaslik haqida fikr bildiradi. Chunonchi:

*Ko'ngil deganlari misoli shisha,
Sinib qolmasin u, asra hamisha.
Ko'ngil nozikligi bu so'zga nishon,
U issiq-sovuqda bog'liq har qachon.
Jo'ra ko'ngli sinsa, bo'lar ichki yov,
Qayda yov bo'larkan, keki – beayov.*

Yovi bor odamning hayoti totli bo'larmidi? Yovi bo'lgan, yovi bilan urisha-urisha qarigan kishi nima deydi, eshitgin:

*Dushmanim kichik deb g'aflatda qolma,
Nega qo'rqayin deb sen shov-shuv solma.
Yoving bo'lmasa, aslo g'omil bo'lmagin,
Yovga yov, yaxshiga yaxshi bo'l, tolma.*

Muallif fikrini davom ettirib, kimning do'sti ko'p bo'lsa, uning ismi yoyiladi. Barcha ishlari o'z vaqtida ado etiladi. Do'stlar kishining yaxshi tomonini oshiradi, ayb-nuqsonlarini yashiradi, deydi.

Agar yaqin do'stlar, qarindosh-urug'lar sendan oyoq uzib ketgudek bo'lsalar, sen o'zing yaqinlik iplarini ulagin, deb nasihat qiladi.

*Yaqin bo'lsa ko'ngil, yiroq yer yaqin,
Vafo bilan ammo yaqinlik tag'in.
Sharqu G'arb orasi bir o'rlam yerdir,
Vafo deb bilsa kim yaqinlik haqin.*

Do'stlik, o'rtoqlik, hamkorlik, birodarlik, ahillik va birlikning ulug' kuchi haqida maqollar, hikmatlarda ham ajoyib fikrlar mavjud:

“Birlashgan daryo bo‘lar,

Tarqalgan irmoq bo‘lar”.

“Birlashgan kuch – engilmas”.

Inson hamma vaqt yaxshi kishilarga yaqinlashishga harakat qiladi, bu xususiyat juda erta, bolalik chog‘idan boshlanadi. Har birimiz yoshlikdanoq o‘z tengimiz bilan o‘ynab, do‘st tutinishga iitilamiz, hayot va mehnatda, boshga har xil ish tushganda sinashta bo‘lganlar bilan do‘stlashamiz. Ba‘zi do‘stlar sodiq bo‘lib qoladi, ba‘zilari ajrashib ketadi. Zotan, dono do‘st, shinavanda ulfat, g‘amguzor o‘rtoq orttirish jo‘n ish emas, albatta.

Bu o‘rinda, do‘st va o‘rtoq orttirish haqida bir rivoyat keltirib o‘tishni lozim topdik.

Rivoyat. Bir kuni Abu Husayn Abdulloh voyaga yeta boshlagan o‘g‘li Ibn Sinoni yoniga chaqirib:

– Siz shahzodalarni davolash uchun saroyga ko‘p qatnamoqdasiz. Xohlardimki, o‘zingiz saroy qursangiz. Siz qurgan saroy shahar va qishloqda son-sanoqsiz bo‘lsa.

Ibn Sino “xo‘p” deb otasi oldidan chiqibdi-yu, o‘ylanib qolibdi. Ko‘plab saroy qurish uchun pulni qayerdan olishga boshi qotibdi. Oradan bir necha kun o‘tgach, donishmand oqsoqolning oldiga boribdi va otasi istagini aytibdi.

– Buxoroi Sharifga atrofdan odamlar ko‘p keladi. Ana shu odamlar bilan ko‘ngil bog‘lang, yaxshilik qiling, shahar-u qishloqlarni aylaning, bemorlarni davolang, ko‘ngil yaralariga malham bo‘ling. Siz yaxshilik qilgan behisob odamlarning xonadoni siz uchun behisob saroy bo‘ladi. Qachon borsangiz siz uchun ochiq turadi. Otangiz ana shuni orzu qilibdi.

Do‘stlik guldand nozik, po‘latdan qattiq, dovuldan kuchli, deyishadi. Do‘stlik o‘zaro munosabatda samimiyligni, ziyraklikni, rostgo‘ylikni, to‘g‘rilikni talab etadi. Masalan, bir kishi do‘stiga ko‘p yaxshiliklar qilgan deylik: qiynalib qolganda uni samimiy qo‘llab-quvvatlagan, ko‘nglini ko‘targan, moddiy yordam berib turgan. Yaxshilik ko‘rgan kishi do‘stining bu yaxshiliklarini unutgani yo‘q, ammo yaxshilikka yaxshilik bilan javob berishga hali uning qurbi etmaydi. Nima bo‘ldi-yu, do‘stining ko‘ngliga

yoqmaydigan bir gap aytib, ranjitib qo‘ydi. Shundan so‘ng yaxshilik qilgan odam ko‘pchilik ichida: “Falonchiga shuncha yaxshiliklar qildim, bilmadi, nonko‘rlik qildi”, – deb shikoyat qiladi. Shunda yaxshilik ko‘rgan odam hijolatda qoladi. “Nega o‘sha narsalarni oldim, deb afsuslanadi. Xalqimizda “Minnatli oshni it ham ichmaydi”, deb bekorga aytilmagan.

Bu o‘rinda do‘stiga yaxshilik qilgan odam andishasizlik qilyapti. Agar kishi odamgarchilikni, o‘zaro hamkorlikni, do‘stlikni bir yoqlama tushunsa, u do‘stini tez ranjitib qo‘yadi. Yordam ko‘rgan kishi hatto shu yordamni unutib qo‘yganda ham buni uning yuziga solish odobdan emas.

Har bir yaxshilik beminnat, beta‘ma bo‘lganda ma‘quldir. Aytadilar-ku, “Yaxshilikni baliqqa qil, baliq bilmasa holiq biladi” deb. Vijdonan aytganda do‘stining qilgan yaxshiligini bilish, unga minnatdorchilik izhor qilish, yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarish yaxshilar ishidir.

Hakim aytadi: Tashakkur – do‘stning qilgan yaxshiligini e‘tirof etish, uning o‘ziga so‘zlab minnatdorlik bildirishdir. Tashakkurning g‘oyasi – yaxshilik qilgan kishining qilgan yaxshiligi tan olinganini, o‘rinsiz ketmagannni bilishi, yaxshilik qilgan kishiga uning himmatini, go‘zal axloqini e‘tirof qilishdir. Yana bu munosabat, fursat kelganda sen ham unga yaxshilik qilishga shoshil, do‘stingning qilganiga yarasha qaytar, deganidir.

Xo‘sh, shunday ekan, do‘st-o‘rtoqlarni ko‘paytirish uchun qanday muomala-munosabat lozim? Buning uchun kishi biron bilan do‘st-yor bo‘lsa, yoki do‘st-yorlik da‘vosini qilsa, o‘ziga ravo ko‘rmaganini unga ham ravo ko‘rmasligi kerak, ba‘zi noxush narsalarni o‘ziga ravo ko‘rsa hamki, do‘stiga ravo ko‘rmasligi lozim.

Rivoyat: Qadim zamonlarda bir mamlakatda ikki qalin va inoq do‘st bo‘lgan ekan. Ular zamona zayli bilan bir-birlaridan ajralishib, bir necha yillardan so‘ng yana uchrashib qolibdilar. Ulardan biri juda boyib ketgan, ikkinchisi esa faqir holda ekan. Faqiri qadrdon do‘sti bilan bir dildan suhbatlashmoqchi bo‘libdi.

Badavlati esa do'stini tanimay, kekkaygan holda undan: "Sen kimsan va nima uchun mening huzurimga kelding?" – deb so'rabdi. Shunda faqir unga: "Men sening qadrdon do'stingman. Seni ko'r bo'lib qolibdi deb eshitdim. Shuning uchun seni ko'rgani kelgandim", – degan ekan.

Bir donodan so'rashdi:

– Do'stlik ramzi nima?

Dono keksa aytdi:

– Do'stlik ramzi – dilkash va yelkadosh bo'lmoq, ammo, yana uning uch sharti bor: birinchisi – do'stlikni avaylamoq, ikkinchisi – uni ziyon-zahmatdan saqlamoq, uchinchisi – yaxshi-yomon kunda hamdam bo'lmoq.

Do'stlik fazilatini bilganlar turmush ziynatini topadilar. Har bir kishi o'zining qayg'usi yoki shodligini ko'ngil tortar do'stiga aytib, yuragini yozgisi keladi. Do'st o'zining yupatuvchi so'zlari, oqil maslahatlari bilan do'stining dardini yengillashtiradi, shodligidan quvonadi.

Odamlar o'rtasidagi do'stlik ko'pincha ochiq ko'ngillilik, to'g'rilik, maqsad birligi va ana shu yagona maqsadga sodiqlik asosida mustahkamlanib kelgan.

Do'stlar bir-birlariga hech vaqt xiyonat qilmasliklari va bir-birlarining sirlarini boshqa birovlariga aytmasliklari, o'zaro hurmat va ishonchni ardoqlashlari zarur.

Do'stlik o'z vafosi bilan go'zaldir. Va'daga vafo qilish, hamdam, hamdard bo'lish samimiy do'stlikning belgilaridan biridir. Xalqimizda turli ma'raikalarni ko'pchilik bilan birga o'tkazish odati bor. Shunday kunlarda do'stiga do'stning yordami nihoyatda zarur. Katta ma'raikalarda yoshlar qiladigan yumushlar ko'p bo'ladi. Shunday chog'da do'st xonadonida o'tayotgan ma'rakada xizmatini ayamagan o'g'il-qiz el hurmatiga sazovor bo'ladi.

Ayrim pedagoglarimiz turli xil ma'raikalarda yoshlarning ishtirok etishini yoqtirmaydilar. Aslida esa bunday yig'inlar yillar o'tib, yoshlarimiz boshiga ham tushadi. Shuni hisobga olib, bunday ma'raikalarni o'tkazishni, unda xizmat qilish odobni va

do'stining ramu shodligiga sherik bo'lishni yoshlar o'rganib borgani ma'qul.

Shunday qilib, hayot tajribalari do'stlikni mustahkamlovchi quyidagi omillarni vujudga keltirdi:

- 1) o'zaro hurmat va ishonch;
- 2) do'stga sodiqlik;
- 3) zarur paytda bir-biridan moddiy va ma'naviy yordamini ayamaslik;
- 4) kamchiligini yotig'i bilan o'ziga aytib tuzatish;
- 5) do'st sirini saqlay olish;
- 6) do'stning shodligidan quvonish, tashvishiga sherik bo'lish;
- 7) maqsad birligi;
- 8) o'zaro munosabatda samimiylik, ziyraklik, rostgo'ylik, to'g'rilik;
- 9) bir-birini yurakdan quvontirishga intilish.

Hikmatlardan namunalar

– Tangriga iymon keltirishdan keyingi amallarning afzali bu odamlar bilan do'stlashish, ya'ni solih amallar qilishdir.

– Oliy himmatli, mard odam bir lahzada do'st orttiradi, pastkash esa necha yillik oshnoligini bir lahzada barbod qiladi.

– Bir-birlaringizga ehson qilinglar, chunki ehson muhabbatni oshiradi va dildagi g'ashliklarni yo'qotadi.

– Odamlar bilan do'stlashish aqlning yarmiga teng.

– Sir saqlash – til ostiga cho'g' olib turishdan ham mashaqqatliroqdir.

– Kishi birodari uchun hikmatli so'zdan afzalroq narsa hadya qilolmaydi. Chunki shu hikmat sababli Tangri uni to'g'ri yo'lga solib qo'yadi yoki yomon yo'ldan qaytaradi.

– Do'stlarning hasadi dushmanlarning xusumatidan yomondir.

– Hisobli do'st ajralmas.

– Inson qo'lga kiritgan o'ljalardan eng hayrlisi samimiy do'stliklar.

– Aybsiz do‘st qidirgan kishining do‘sti kamayib qoladi, do‘stlarini ranjitaversa, dushmani ko‘payadi.

– Uch narsa do‘stlikni mustahkamlaydi: do‘stlarning bir-birlarini ziyorat qilib turishlari, samimiy suhbatlashishlari va birgalashib sayr-u sayohat qilishlari.

– Davlatli, ne‘matli bo‘lgan vaqtingizda do‘stlarni yodga oling.

– Dushmaningizni kichik deb hisoblamang. Agar dushmaningiz do‘st bo‘lmoqchi bo‘lsa andisha qilmang.

– Do‘st g‘am va kulfat vaqtida ma‘lum bo‘ladi.

– Faqirlarni do‘st tuting, chunki davlatmandlarni shundoq ham barcha do‘st tutadi.

– Kimki do‘stlarining dushmanlari bilan sulh qilsa, do‘stlariga ozor bergan bo‘ladi.

– Do‘st-u dushman bilan muomalada ehson yo‘lini tutki, do‘stlarning mehru-muhabbati ortadi, dushmanlarning adovati kamayadi.

– Do‘stlar dilini ranjitish dushmanni murodiga yetkazishdir.

– Hayot ta‘mi do‘stlikdadir.

– Faqat maslahat berib, qo‘lini cho‘zmaydigan do‘st yarim do‘stdir.

– Do‘st tutishdan oldin u bilan avval tuz-namak bo‘l.

– Baxt do‘stlik keltirsa, baxtsizlik uni sinovdan o‘tkazadi.

– Mehmondorchilik qancha qisqa bo‘lsa, do‘stlik shuncha uzayadi.

– Vijdoni nopok odamlar bilan do‘st tutinma. Sovib qolgan do‘stlikni isitib bo‘lmas. Atrofingni devor bilan emas, do‘stlar bilan o‘ra, zero jilg‘alar birlashib, daryo bo‘lur.

– Daraxt – shoxsiz, shon-shuhrat – safdoshsiz, do‘stsiz bo‘lmaydi.

– Daraxt – daraxtga, odam – odamga suyanadi.

– Do‘stlik – umr bahorining guli. Do‘stlik o‘limni engadi.

3.5. O'qituvchining o'quvchilar jamoasi bilan ishlash usullari

Sinf rahbarining ish usullari – bu sinf jamoalari faoliyatini tashkil etish hamda o'quvchilarning ongi va his-tuyg'ulariga ta'sir etish usullaridir. Sinf rahbari tarbiya usullaridan o'z ish xususiyatlarini hisobga olgan holda foydalanadi. Turli xil o'zaro bog'langan majmuani qo'llanish bolalar, o'smirlar va yoshlarning ma'naviy qiyofasi, ongi, e'tiqodi, axloqiy tuyg'ulari va xulq-atvorini tarkib toptirishga yordam beradi.

Sinf rahbari o'quvchilarni faoliyatga jalb etishi tarbiya jarayonida alohida o'rin egallaydi, bu faoliyat ularning ijtimoiy faolligini tarkib toptiradi. Turli xil jamoa ishlarida o'quvchi ishini ijtimoiy mazmuniga ko'ra bilishga o'rganadi, o'zining tengdoshlari va katta kishilar bilan bo'ladigan munosabat doirasini kengaytiradi, ma'naviy boylklarni o'zlashtirib oladi. Sinf rahbari ish faoliyatining asosiy vazifasi shaxsning o'z munosabatlarini va faol o'rmini tarkib toptirishdan, shaxsiy tuyg'ular va axloqiy xatti-harakatlarning muayyan bir yo'lini rivojlantirishdan iboratdir.

Sinf rahbarining tarbiyaviy imkoniyatlari o'z-o'zidan namoyon bo'lmaydi. Bunda muayyan usullarni qo'llash zarur. Biz quyida ana shu usullardan eng muhimlarini ko'rib chiqamiz.

Faoliyatning biror maqsadga qaratilganligi avvalo barcha ishlarning shaxsning ijtimoiy qimmatli, g'oyaviy-axloqiy sifatlarini tarbiyalashga, sinf jamoasining maqsadga erishishga qaratilganligi sifatida namoyon bo'ladi. Biror maqsadga qaratilganlik yana shunda ifodalanadiki, faoliyatning ijtimoiy ahamiyatli maqsadi o'quvchilarning o'zlari tomonidan qabul qilinadi, anglab olinadi va amalga oshiriladi.

Biror maqsadga qaratilganlik o'quvchilarning faolligi va mustaqilligi talabi bilan mustahkam bog'langan. Ijtimoiy faoliyatda faollik ko'rsatish har qaysi yoshdagi o'quvchiga xosdir. Kichik yoshdagi o'quvchi ko'p narsa qilishni istaydi, ammo o'zining imkoniyatlari darajasini bilmaydi, yetarli malaka, sabotmatonat, qat'iylikka ega emas. O'quvchilarni ishga asta-sekin jalb qilish, ularga tobora ko'proq mustaqillik berish jamoa hayotining

murakkablashib boruvchi me'yorlarini egallab olishiga yordam beradi.

Faollikka va mustaqillikka tayanish har qanday aniq ishni tashkil etish uslubiyotida asosiy talablardan biri sifatida namoyon bo'ladi. Agar o'quvchilar biror kechani o'tkazishga qaror qilgan bo'lsalar, bu qarorga o'zlari kelishgan bo'lishlari kerak. U sinf rahbari tomonidan tanlangan parchalarni shunchaki yodlash va uni o'qish bilan almashtirilmaslgi, balki kechani tayyorlash jarayonidagi qizg'in va faol ishlar davomida amalga oshirilishi lozim. O'quvchilarni jamoa ishiga jalb qilish yo'li bilan ularning ongi va xulq-atvoriga ta'sir etish jarayoni amalga oshiriladi. Agar o'quvchilar o'z ishlarining ijtimoiy ma'nosini anglasalar, qiyinchiliklarni yengib o'tsalar, ijtimoiy maqsadga erishsalar bu jarayon samarali bo'ladi.

Yorqinlik va jo'shqinlik talabidan kelib chiqish sinf rahbari ish faoliyatiga yangicha ruh va mazmun baxsh etadi. Agar o'smirlar oldida yorqin, qiziqtiruvchi maqsad bo'lsa, ular juda ko'p ishlarni amalga oshirishlari mumkin. Sinf an'analari va bayramlarini nishonlash, tog'larga, shaharlarga sayohat qilish qaysi o'quvchini befarq qoldiradi deysiz? Gap bolalarning ko'nglini olish, ular uchun mumkin qadar ko'proq bayramlar uyushtirishda emas, balki sinf jamoasining kundalik hayoti yetarlicha yorqin va jo'shqin bo'lishida, ijtimoiy yo'nalish olgan faoliyatda quvonchli kechinmalar paydo bo'lishidadir.

O'quvchilarning g'oyaviy-axloqiy jihatdan o'sishi, ijobiy sifatlarning tarkib topishi, shaxsning rivojlanishidagi kamchiliklarning yo'qotilishi – bu tarbiyaviy natijadir.

Sinf jamoasi faoliyatiga baho berishda qilingan ishlar miqdori, olingan yorliqlar, mukofotlar soniga qarab emas, balki o'quvchilar jamoasining tashkil topishida ro'y bergan aniq ijobiy o'zgarishlarga e'tiborni qaratish kerak.

Avvalo ijobiy tarbiyaviy natijalarni baholay bilish va shunga intilish – sinf rahbarining uslubiy jihatdan qurollanganligining muhim ko'rsatkichlaridan biridir.

Ijtimoiy foydali mehnatni tashkil etish. O'quvchilarning o'z

mehnatlarining ijtimoiy ahamiyatini anglab yetishi sinf rahbari ishini uslubiy jihatdan to'g'ri tashkil etilganligini bildiradi.

Mehnat qilish orzusi turli sabablar bilan paydo bo'lishi mumkin. Agar sinf rahbari har qanday ishni tashkil etishda ishning ijtimoiy ahamiyatini anglashni nazarda tutuvchi yuksak darajadagi mavzular (sabablar) haqida qayg'ursa, har bir ish o'quvchida mehnatda qatnashishning barqaror ko'nikmalari, unga ehtiyoj tarbiyalanishiga yordam beradi.

O'quvchilar jamoasida agar mehnatdan ko'zlangan maqsadning o'zi aniq ifodalangan yuksak ma'noga, ko'tarinki ruhga ega bo'lsa, sinf rahbari osongina mehnat qilish istagini yuzaga keltiradi.

Odatda, o'quvchilar o'zlari uchun qiziqarli ish bo'lib ko'ringan mehnat topshiriqlarini bajarishga kirishadilar. Maktab hovlisini tozalash, sinfda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish kabi ishlarda kishini jalb qiladigan narsalar kam. Bu o'rinda sinf rahbari bolalar bajarayotgan ishlarning ahamiyati haqida gapirib berish, ularning umum ishiga qo'shayotgan hissalarini nimalardan iborat ekanligini tushuntirishi kerak.

Sinf rahbaridan o'quvchilarga shu narsani ko'rsata bilish talab etiladiki, sinf jamoasining ijtimoiy foydali ishlari – o'quvchilarning kattalar bilan birgalikda ishtirok etadigan muhim ijtimoiy ishlarning bir qismidir.

Mehnatni tashkil etishda bolalarning yoshini hisobga olib yondashish talab qilinadi. Bu har bir ma'lum yosh uchun mehnat topshirig'ining og'ir-engilligini, mehnatning turli darajada anglashilishini hisobga olish demakdir.

Mehnat ko'tarinkiligini bajarilayotgan ishning oxirigacha saqlab turish juda muhimdir. Ko'pincha bolalar ishtiyoq bilan ishga kirishib, tezda charchab qoladilar, mehnat turlarini chalachulpa bajaradilar. O'quvchidan ishni oxirigacha yetkazishni talab qilish, uni o'z kayfiyatini boshqara bilishga o'rgatish, charchashni yengish, zerikish hissini yo'qotish – bularning hammasi mehnatda shaxsning axloqiy mashq qismlari sifatida namoyon bo'ladi.

Mehnat topshiriqlari qanday bajarilganligi, jamoaning har bir

a'zosi qanday ishlaganligi, ishga qanday munosabatda bo'lganligi, ijodiy tashabbus, zehn, o'rtoqlarcha o'zaro yordam qanday namoyon bo'lganligi bilan qiziqishi ayniqsa muhimdir. Bu masalalarni butun sinf jamoasi bilan muhokama qilish ijtimoiy qimmatli axloqiy sifatlarning tarbiyalanishiga hamda jamoada samimiy va do'stona munosabatlarning vujudga kelishiga yordam beradi.

Ijodiy namunada tarbiyalash sinf rahbari ish faoliyatida juda katta o'rin tutadi. Ijodiy namunalar taqlid qilish uchun yaqqol namuna sifatida juda katta ishontiruvchi va ilhomlantiruvchi kuchga ega. Ibratli misolning tarbiyaviy kuchi bolalarning taqlid qilishga moyilligi va qobiliyatiga asoslangan. Bolalarda yetarli darajada bilim hamda hayot tajribasi bo'lmagani uchun atrof-tevarakdagilarning xatti-harakati va qiliqlariga diqqat bilan qaraydilar, ularga taqlid qiladilar, katta kishilar o'zlarini qanday tutsalar, ular ham o'zlarini shunday tutishga harakat qiladilar. Ijodiy namunalar tarbiyani yaqqolroq, ko'rsatmaliroq qiladi, uning hayot bilan bog'liqligining qaror topishiga yordam beradi.

Tarbiyaviy ishda ota-onalar, o'qituvchilar, tarbiyachilarning shaxsiy namuna ko'rsatishlari, o'zlaridan katta avlodning eng yaxshi mehnat namunalaridan, yurt mustaqilligi uchun kurashchilar hayotidan misol sifatida foydalanish ayniqsa muhimdir.

Ijodiy namunani idrok qilish hamda o'quvchilarning unga bo'lgan munosabati bolalarning yoshiga qarab farq qiladi.

Masalan, 8–10 yoshli o'quvchilarni hamda kichik yoshli bolalarni yorqin voqealar, mashhur kishilar hayotidan olingan misollar qiziqtiradi, lekin ular hali mustaqil ishlar olib borolmaydilar.

Qahramonlik sarguzashtlari bilan qiziqish – kichik o'smirlar, 11–12 yoshli o'quvchilarga xos xususiyatdir. Ular bu haqidagi kitoblarni berilib o'qiydi, kitob qahramonlarining jasoratli, shijoatli, mardonavor ishlariga qiziqadi, atrofdagi kishilarda ana shu sifatlarni qadrlaydi. Botirlik va mardlik o'smir hayotining faol qirralariga aylanadi. U ko'pincha ularni ham kuchli, botir,

qo‘rqmas, jasoratlarga qodir deb biladi. Bu hol o‘quvchilarni ko‘pincha jasoratning faqat tashqi tomoni bilan qiziqishini ko‘rsatadi, qahramonliklar qanday maqsadda amalga oshirilganligi va uni keltirib chiqaradigan sabablar bilan bog‘lanmaydi.

Bu yoshdagi o‘quvchilar chinakam jasoratda yuksak axloqiy soflik, kishilarga bo‘lgan cheksiz muhabbat, zo‘r samimiylik namoyon bo‘lishini har doim ham tushunib yetmaydi. Sinf rahbarining diqqat-e‘tibori o‘quvchilar tushunchasining shunga o‘xshash cheklanganligini bartaraf etishga qaratilishi kerak.

Katta yoshli o‘quvchilar, ya‘ni 13–15 yoshdagi o‘smirlar qahramon siymosini o‘zlarining ichki dunyolariga mos, ongli ravishda ajrata biladilar. Shuning uchun ham tanlash jo‘shqin tus oladi. O‘zlariga turli-tuman savollar beradi, o‘ziga xos umumlashmalar qilinadi, jasoratning asliy xususiyatlari yo u yo‘sin, yo bu yo‘sin idrok qilinadi. Suhbatlar, uchrashuvlar, kitobxonlik kechalari, san‘at, musiqa, kino asarlari ustidagi bahslar bu borada yaxshi natijalar beradi.

O‘quvchilarga tarbiya berishda sinf rahbarining shaxsiy namuna ko‘rsatishi juda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham uning sinfdagi xulq-atvori, uning o‘quvchilarga bo‘lgan muhabbati samimiy bo‘lishi kerak.

Va nihoyat, o‘quvchilarning faoliyati va munosabatida o‘rtoqlari namunasining ta‘siri ham muhimdir. Tashqi yurish-turish xususiyatlari qabul qilinadi; qiziqishlar, axloqiy jihatdan baho berish, mulohazalar, sevimli mashg‘ulotlar, qiziqish va didlar o‘zaro bir-biriga ta‘sir etadi.

Ana shu ishlar jarayonida paydo bo‘ladigan o‘quvchi an‘analari har bir o‘quvchining xulq-atvoriga qo‘yiladigan talablarni aniqlashtirishga yordam beradi. Ijtimoiy ahamiyatli ishlarda ijobiy namunaga taqlid qilish o‘quvchining axloqiy jihatdan mashq qilishiga aylanadi.

Topshiriqlar – muhim tarbiyaviy usul hisoblanadi. O‘quvchilarning jamoa hayotida qatnashishi ularning faolligiga bog‘liqdir. Faollik esa faoliyat jarayonida tarkib topadi va namoyon bo‘ladi.

Topshiriqlar:

- ijtimoiy ahamiyatga qaratilgan natijaga qaratilgan;
- jamoaning ijtimoiy hayotida faol qatnashuvchi kishining tashkilotchilik qobiliyatlari va sifatlarini tarkib toptiradi;
- bolalarning faol faoliyatga, o‘z-o‘zini qaror toptirishga bo‘lgan intilishini qanoatlantiradi, turli ishlarda faollik ko‘rsatish uchun sharoit yaratadi;
- bolalar o‘rtasidagi munosabatlarning yangi imkoniyatlarini vujudga keltiradi.

Topshiriqlar o‘quvchilar jamoasiga va ayrim o‘quvchilarga berilishi mumkin.

Topshiriqning tarbiyaviy ta’siri uning mazmuniga ham, turli yosh va jinsdagi o‘quvchilarning bu topshiriqdan manfaatdorligiga ham bog‘liqdir.

Topshiriqlar turlicha bo‘lishi mumkin:

- tashkiliy topshiriqlar (turli-tuman tashkiliy ishlar, saylovlar, sinf faollarini belgilash va ularni yo‘naltirish ishlari);
- Ijtimoiy-ma’rifiy topshiriqlar (bolalar va o‘smirlar harakatida qatnashish, devoriy gazeta chiqarish va hokazo);
- o‘quv ishlari bilan bog‘liq topshiriqlar (o‘zaro yordam uyushtirish, imtihon va olimpiadalarga tayyorgarlik ko‘rish, fan kechalari va hokazolar);
- Sport va o‘yin topshiriqlari.

Topshiriqlarning mohiyati va mazmuniga qarab o‘quvchilarning ularga turlicha munosabatda bo‘lishni, u yoki bu topshiriqlarning ma’lum darajada ta’sir etishini nazarda tutish kerak. Sinf rahbari bolalarda o‘zlik tuyg‘ulari paydo bo‘lmasligi, ulardagi ishonchsizlikning yo‘qolishi, ishdagi ishtiyoqi mustahkamlanishi uchun alohida e’tibor qilishiga to‘g‘ri keladi.

Shuni ham hisobga olish kerakki, ayrim bolalar topshiriqni bajarishdan mamnun bo‘ladilar, har qanday ishdan seskanmaydilar, ba’zi bolalar esa ishga umuman qiziqish sezmaydilar. Bular tarbiyasi ancha qiyin bolalar bo‘lib, alohida yondashishni talab etadi. Hayotda uchinchi toifa o‘quvchilar ham bor. Ular jamoada yaxshigina obro‘ga ega bo‘lsalar-da, o‘z

kuchiga yetarli ravishda ishonch sezmaydi, uyatchan, tortinchoq bo'ladi, garchi u ishni bemalol uddalay olsa ham, o'z zimmasiga kattaroq jamoat ishini olishga botina olmaydi. Bu holatlarning hammasi jamoatchilik obro'yinging pasayishiga, jamoa aloqalarining bo'shshib ketishiga olib keladi.

Jamoaning ijtimoiy hayot darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, topshiriqlar mazmuni qanchalik qiziqarli, xilma-xil-bo'lsa, jamoada ba'zi qarama-qarshiliklar oson bartaraf etiladi.

Topshiriqlar o'quvchilarni yosh xususiyatlariga javob berishi, ularning kuchi yetadigan bo'lishi kerak. O'quvchiga kuchi yetadigan ishni topshirish ayni vaqtda mavjud qiyinchiliklarni yengish imkonini beradi. Qiyinchiliklarni yengish esa o'z navbatida irodani tarbiyalaydi.

O'yin – yetakchi faoliyat turidir. U tufayli o'quvchi ruhiyatida muhim o'zgarishlar ro'y beradi, shaxs rivojiga katta ta'sir o'tkazadi.

O'yin erkin faoliyat bo'lib, u faqat o'yin natijalaridan iborat emas, balki u o'zidan ham quvonch, ham qanoatlanish hissini keltirib chiqaradi, bolalarda faol, ijodiy, shirin kechinmalar hosil qiladi.

O'quvchilar bilan olib boriladigan ishda o'yin usulidan turlicha foydalaniladi. Hozirgi paytda o'yin usullaridan dars jarayonida ham keng foydalanilmoqda va yaxshigina natijalarga erishilmoqda.

Sinf rahbarining uslubiy mahorati o'quvchilarni o'yin g'oyasi bilan qiziqтира bilishda, o'yinning mohiyati, qoidalari, talablarini tushunib olishda ularga yordam berishda namoyon bo'ladi. Bolalar bilan birgalikda o'yin uchun zarur bo'lgan hamma narsalarni tayyorlash va ijrochilikni bo'lishda ularda yordam berish lozim. Musobaqalashadigan jamoalarni o'z jismoniy va aqliy tayyorgarligi jihatidan taxminan bir xilda bo'lishiga erishish ayniqsa muhimdir. O'yinda bo'lar-bo'lmasga ma'muriyatchilik qilish, buyruq berish, har qanday ta'qib zararlidir.

Bolalarning o'yin faoliyatini tashkil etishda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan o'yinlar mavjudligiga e'tiborni qaratish

lozim. Shu bilan birgalikda, shafqatsizlik, dag'allik, ortiqcha zo'riqish va qiziqish holatlarini keltirib chiqaradigan, bolalarning sog'ligiga, tarbiyasiga ziyon yetkazadigan ko'ngilochar o'yinlardan ehtiyot bo'lmoq kerak.

Ishontirish orqali o'quvchilarning ongi g'oyaviy-axloqiy me'yorlar va tushunchalar bilan boyishiga erishiladi. Ishontirish usuli birinchi navbatda onga ta'sir etadi, g'oyaviy-axloqiy tushuncha, qarash, baho berishni tarkib toptiradi. Ma'lumki, e'tiqod, qarash, baho berish xatti-harakatlarning axloqiy talqinlariga aylanadi va pirovardida xulq-atvorga ham ta'sir etadi. O'quvchilarda o'zlari bilib olgan axloqiy talablar darajasida bo'lishga intilish paydo bo'ladi va rivojlanib boradi. Bu intilishni saqlash va mustahkamlashgina emas, balki uni amalga oshishi uchun imkoniyat yaratish muhimdir.

O'quvchilarning to'g'ri so'zlari va ularning haqiqiy e'tiqodi, qarashlari, baho berishi, xulq-atvori o'rtasida uzilish paydo bo'lganda ishontirish usulining noto'g'ri qo'llanilishi og'zaki tarbiya xavfini keltirib chiqaradi. Bundan soxtalik, ikkiyuzlamachilik, tilyog'lamalik kelib chiqadi, tarbiyaga jiddiy putur etadi. Bolalarni ma'nosi tushunarsiz, mazmuni qiziqarsiz, ular tomonidan his qilinmagan so'zlarni tinglashga majbur qilmaslik kerak. Ularning shaxsiy tajribalariga tayanib, yangicha qarash paydo qilishga yordam berish, ishontirish va agar zarur bo'lsa, fikridan qaytarish juda muhimdir.

O'quvchilar faoliyatining eng tarqalgan shakllaridan biri sinf majlisi, bolalar tashkilotlari harakatlari, yig'inlari bo'lib, ularda ishontirish usuli keng qo'llaniladi. Bulardan tashqari, tarbiyaviy soatlarda, uchrashuvlarda, axloq muammolariga doir bahslarda, kechalarda, o'quvchilar bilan yakkama-yakka suhbatlarda bu usul qo'l keladi.

O'quvchilarni faqat sinf rahbarining suhbat va tushuntirishlari yordami bilangina emas, balki ularning o'z hayotiy tajribalari, kundalik ijodiy faoliyatlari, boshqa kishilar bilan doimiy suratda muomalalari orqali ham tarbiyalash lozim. Yaxshi kitob, yuksak g'oyali san'at asari, qiziqarli radio eshittirishlari,

oynai jahon ko'rsatuvlari, sinfdan tashqari o'qishni tashkil etish, gazeta va jurnallar o'qishga o'rgatish ham ishontirish maqsadiga xizmat qiladi.

Ammo, ba'zi hollarda, odatda o'quvchi biror xatolikka yo'l qo'ygan taqdirdagina tanbeh beriladi, nasihat qilinadi. Bunday suhbatning ishontiruvchi ta'siri juda kam bo'ladi. Sinf rahbarining ishontiruvchi so'zi katta ta'sir kuchiga egadir. U paydo bo'lgan savolga javob beradi, muammoni oydinlashtiradi, shubhagumonlarni bartaraf etadi, ma'lum bir yo'l-yo'riqlarni tavsiya etadi.

Rag'batlantirish – pedagogik ta'sir ko'rsatish usulidir. O'quvchilarning, bolalar jamoasining xatti-harakatlari va ishlarini ijobiy baholash uning asosini tashkil qiladi. Rag'batlantirishning tarbiyaviy ahamiyati shundan iboratki, u o'quvchilar xulq-atvorida ijobiy xislatlarni ko'paytirib, mustahkamlashga yordam beradi. Unda rag'batlantirilgan o'quvchilargina emas, balki butun sinf zaruriy saboq oladi. Buning natijasida o'quvchilar jamoasida ishni yanada yaxshi bajarishga, tartib-intizomli bo'lishga, ishonchni oqlashga intilish yuzaga keladi.

Rag'batlantirish maqtash va mukofotlash, ularni quvvatlovchi fikr-mulohazalar aytish, ba'zan bosh qimirlatib qo'yish, bosh barmoqni ko'rsatish, jilmayish, ishora qilish shakllarida o'z ifodasini topadi. Rag'batlantirish ijobiy his-tuyg'ular uchun turtki bo'ladi, boladagi o'ziga, o'z kuchiga bo'lgan ishonchni oshiradi, ijobiy jo'shqin kayfiyat uyg'otadi va pirovardida xulq-atvorning ijobiy axloqiy talqinlarini tarbiyalaydi, to'g'ri ishlar qilish va odobli bo'lish maylini uyg'otish vositasi sifatida namoyon bo'ladi. Agar sinf jamoasi rag'batlantirilayotgan bo'lsa, har bir o'quvchi o'z jamoasi uchun quvonch va iftixor hissini boshidan kechiradi, uning muvaffaqiyatlarini saqlash va rivojlantirishga harakat qiladi.

Ammo noto'g'ri rag'batlantirishlar ayrim o'quvchilarda va jamoalarda o'z-o'zidan mag'rurlanish, o'z-o'ziga yuqori baho qo'yish, o'rtoqlariga nisbatan hurmatsizlik kabi salbiy xislatlarni tarbiyalashi mumkin. Maqtov, tashakkur, mukofot jamoa

a`zolarining fikr-mulohazalariga asoslangan bo`lsagina ko`zda tutilgan maqsadlarga erishiladi.

O`quvchilarning nojo`ya xatti-harakatlariga salbiy baho berish jazolashda o`z ifodasini topadi. Jazolash o`quvchilarning yomon xatti-harakatlariga qarshi kurashishga yordam beradi va ulardagi zararli odatlarni tag-tubi bilan yo`qotishga imkon turdiradi. Bundan tashqari, u ranjish, uyalish, pushaymon bo`lish, o`z ishlarini qoralash kabi tuyg`ular uyg`otib, xatti-harakatning axloqiy jihatlarini tarbiyalaydi ham.

Ko`pgina pedagoglar jazolashni qo`llamasdan turib, o`z o`quvchilari intizomli bo`lishiga erishadilar. Ammo bolalar maktabda yoki oilada intizom va tartibni qattiq buzganlarida ularni e`tiborsiz qoldirib bo`lmaydi.

Sinf rahbarlari ogohlantirish yoki tanbeh berish, nomaqbul xatti-harakatlarni ko`rsatish, bunday holatlarni qoralash, yanada qattiq jazolash berilishi haqida ogohlantirish, sinf oldida ogohlantirish va boshqa jazo choralarini qo`llaydilar.

Hozirgi zamen maktabida rarbantlantirish va jazolashni qo`llash bolalar shaxsini hurmat qilishga asoslangan.

IV bo‘lim. MAKTAB, OILA VA JAMOATCHILIK HAMKORLIGI

4.1. Hamkorlik ishlarining mazmuni

Mamlakatimizda bolalar to‘g‘risida, onalar haqida g‘amxo‘rlik qilish chinakam davlat ahamiyatiga molik ishdir. “Jamiki yaxshi narsalar – bolalarga” shiori yanada baralla jaranglamoqda. Keyingi yillarda mazkur masala yuzasidan qabul qilingan qarorlar fikrimizning isbotidir.

Ma‘lumki, bola maktabga kelgunga qadar ham, maktabda o‘qish davrida ham, asosan oilada tarbiyalanadi. Oila davlatning asosiy kurtagi sifatida bolalarning dunyoqarashi, xulqi va didiga ta‘sir ko‘rsatishi tabiiy holdir. Oila a‘zolarining ma‘naviy birligi yoshlarni har tomonlama kamol toptirishning dastlabki va asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

• Bolalarni barkamol inson qilib yetishtirishda maktabni oila bilan mustaxkam boglamayturib, tarbiya sohasidagi butun ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo‘lmaydi. Shu maqsadda otanonalar o‘rtasida ta‘lim-tarbiyaga oid tashviqot ishlarini kengaytirish ularni maktabning faol yordamchilariga, o‘quvchilarning sinfdan va maktabdan tashqaridagi ishlarida har tomonlama foydali tashkilotchilariga aylantirish zarur.)

Jamiyatning jadal rivojlanishi, faoliyat turlarining tobora murakkablashib borishi shaxs ongiga ko‘rsatayotgan ko‘rinmas ta‘sirlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Mana shunday sharoitda kishining mavjud bilimi, kasb-hunari, malakalari kamlik qilib qolmoqda. Eng avvalo, insonlarda oilada tarkib topgan did, farosat, aql, odob, emotsional madaniyatga muhtojlik sezilmoqda. Estetik, axloqiy va boshqa tarbiya sifatleri kundalik hayot ehtiyojga aylanib bormoqda. Tabiiyki, bunday sifatlarga oilaviy tarbiya orqali asos solinadi, kamol toptiriladi. To‘g‘ri, bunda ijtimoiy tarbiyaning o‘rnini inkor etib bo‘lmaydi. Ana shu nuqtai nazardan ularning monolit birligiga, o‘zaro hamkorliklariga asoslansak, barkamol inson tarbiyasida muvaffaqiyatlarga erishish

mumkin. Oilaviy tarbiya pedagogika fanida murakkab muam-molardan biridir. Uning murakkabligi shundaki, har bir oila o'ziga xos ibtidoiy guruh bo'lib, tarbiyada faqat mazkur guruhga xos xususiyatlarga asoslanadi. Ta'kidlaganimizdek, oilaviy tarbiyani ijtimoiy tarbiya bilan almashtirish bolalar kamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Masalan, yasli, bog'chalarga bormay, faqat oilada o'sgan va voyaga yetgan bolalar maktabga borganlarida o'z tengqurlari ichida ko'p jihatlari bilan ajralib turadi. Oilaning bolalarga moddiy va ma'naviy g'amxo'rligini, ko'rsatayotgan tarbiyasini yasli, bog'cha tarbiyasi bilan yoki, aksincha, yasli, bog'cha tarbiyasini oilaviy tarbiya bilan almashtirib bo'lmaydi. Faqat o'zaro hamkorlik masalani ijobiy hal etish imkoniyatini beradi.

Lekin o'zining xususiyatlari va takrorlanmas ta'siri bilan oila bola tarbiyasida muhim omilligicha qoladi. Amaliyotda kuzatganimizdayoq bolada ota-onasining mehri, erkalashlari asosida ota-onalariga, qarindosh-urug'lariga bo'lgan issiyotlari shakllanadi. Bolaning otasiga bo'lgan hurmati onaning hurmatini joyiga qo'yishda asos bo'ladi. Onaga bo'lgan mehr-muhabbat oqibat natijada o'z oilasiga, xotini, farzandlariga bo'lgan munosabatlarda o'z aksini topadi.

Ikkinchi tomondan bolalar ham o'z ota-onalariga ta'sir ko'rsatadilar. Oilaviy aloqalarning, oilaviy qiziqish, ma'naviy qoniqish hislarining takomillashiga sabab bo'ladilar.

Ota-onalarning o'ziga va bolalariga bo'lgan talabchanligi, katta va kichiklarning o'zaro munosabatlari, do'stona muhit, ishonch va o'zaro bir-birlarini tushunish oila, maktab va jamoatchilikning bolalar tarbiyasi yuzasidan olib boriladigan muhim omillaridir. Bunday birlikning ruyobga chiqishida, eng avvalo, ota-onalarning siyosiy ongilligi muhim rol o'ynaydi. Chunki ota-onalarning faolligi oilaviy hayotda o'z ifodasini topadi. Shu ma'noda bolalar o'z ota-onalarining siyosiy va fuqarolik qiyofalariga qarab o'z xulq-atvorlarini tartibga soladilar, jur'atlarini joyiga qo'yadilar.

Bolalar ulg'aya boshlashi bilanoq o'z ota-onalarining qayerda ishlashlari, jamiyatda tutgan o'rinlari, ularning bilimiga qiziq boshlaydilar. Shuning uchun ham ota-onalarning nimalarga qiziqishlarini, kimlar bilan safdosh ekanliklarini bolalar mumkin qadar ertaroq bilganlari ma'qul. Ota-ona qanday ishda bo'lmasin, uni jiddiy, el hurmatiga loyiq bir ish deb biladigan bo'lishi kerak. Bu borada oiladagi tarbiyaning maqsadga muvofiq tashkil etilishi yuzasidan javobgarlik ma'lum darajada maktabga yuklanadi. Oiladagi hukmronlikning tarbiyaviy jihatdan to'g'ri bo'lishini ta'minlash maktabning muhim vazifalaridan biridir. Oilaviy tarbiyaning mazmunli tashkil etilishiga dastlabki ta'sirni maktab belgilaydi. Maktabgina oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish yuzasidan rahbarlik qila oladi. Bu vazifalarning muvaffaqiyatli bajarilishida, ijobiy hal etilishida ota-onalar o'rtasida olib boriladigan tarbiyaga oid targ'ibotning, roli benihoyadir. Chunki ota-onalarni hozirgi zamon ruhiy-ta'lim-tarbiyaviy bilimlar bilan qurollantirmay turib, oilaviy tarbiyani yo'lga qo'yib bo'lmaydi. Ommaviy-tarbiyaviy targ'ibotda eng yaxshi oilalar namunasida ta'sir ko'rsatish eng maqbul yo'ldir.

Bola tarbiyasi yuzasidan oila, maktab va jamoatchilik hamkorligi hozirgi kunimizning dolzarb masalaligi ham mana shundadir. Chunki, *birinchidan*, bola tarbiyasida oila, maktab va jamoatchilik hamkorligining o'zi murakkab jarayon bo'lib, bunda muallimlardan tashqari ishlab chiqarish jamoalari vakillari, yoshlar, kasaba uyushmalari ishtirok etadilar. *Ikkinchidan*, ota-onalar va qarindosh-urug'lar turli mehnat jamoalarining vakillari bo'lib, ishlab chiqarish va yor-u do'stlarining ma'naviy hayotlaridagi omillarni muhokama qiladilar, ularning hayotga, san'atga, oilaviy majburiyatlarga bo'lgan munosabatlari haqida gapiradilar. Shu sababli ham mana shunday toifa oilalarida tarbiya topayotgan bolalar boshqa ota-onalarning ko'chada, jamoat joylaridagi hayot faoliyatlariga qarab o'z ota-onalariga baho beradilar. To'plangan tajribalarini bog'cha, maktabdagi o'rtoqlari bilan muhokama qiladilar va hokazo. *Uchinchidan*, o'zbek oilalari, ularning hayot tarzi jumhuriyatimizdagi ulkan ijtimoiy

voqealar natijasida sifat jihatidan o'zgarishlarga uchramoqda. Shu sababli hozirgi kunda oilaviy tarbiyada sifat va mazmun jihatidan o'zgarishlar qilish uchun yangi samarador yo'l va usullar qidirilmoqda.

O'zbek oilalarining bolalar tarbiyasi uchun imkoniyat doiralari ancha keng bo'lib, ko'plab oilalarimiz moddiy jihatdan yaxshi ta'minlangan. Ota-onalar eng kamida o'rta ma'lumotli. Bunday holatlar ota-onalarning pedagogika, psixologiya sohasidagi bilimlar bilan qurollanishiga va maktab bilan hamkorlikda bolalar tarbiyasini yaxshilash imkoniyatlarini yaratadi. Ota-onalarning bilim saviyasi, umumiy tarbiyaga oid-madaniyati, ijtimoiy intilishlari va talablari, bolalar tarbiyasiga nisbatan turlicha munosabatlari, shakllangan hayotiy tajribalari, tarbiya va ijtimoiy taraqqiyot natijasida hosil qilgan ishonch va e'tiqodlari, oiladagi o'ziga xoslik bolalar tarbiyasiga salmoqli ta'sir ko'rsatadi. Ko'plab o'zbek qishloq oilalarida ma'lum darajada (bolalar tarbiyasi yuzasidan jamoatchilik yordami mavjudligiga qaramasdan) tarbiyaviy kuchlarning bir butunligiga erishilmagan, o'zaro hamkorlikni qanday tashkil etish mumkinligi haqida ma'lumot yetarli emas. O'qituvchilar ham sinf ota-onalar majlisining o'tkazilishi maktab va oila hamkorligini ta'minlaydi, deb o'ylashadi. To'g'ri, ota-onalar majlisi ham hamkorlikni ta'minlashning eng muhim omillaridan hisoblanadi, lekin oila, maktab, jamoatchilik hamkorligi uchun, ularni birlashtirish uchun maxsus tashkil etilgan markaz bo'lishi lozim.

Demak, maktab mukammal tashkilot sifatida barcha tarbiyaviy ishlarni maqsadga muvofiq tashkil etishi lozim. O'z o'qituvchilar jamoasini uyushtira olgan jamoatchilikni bolalar tarbiyasiga yo'naltira olgan, ularning ota-onalarini yaxshi bilgan maktab ma'muriyatigina tarbiyaviy yutuqlarni qo'lga kirita oladi. Bunday maktablar esa o'z atrofidagi jamoa va davlat xo'jaliklari, otaliqqa olgan korxonalar bilan aloqani mustahkamlab, o'quvchilarning maktabdan bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etmoqdalar, qarovsiz, tarbiyasi og'ir bolalarni o'z nazoratlariga olmoqdalar. Bunday xayrli ishlarda ko'plab ota-onalar maktab

bilan yaqindan aloqada bo'lib o'quvchilar tarbiyasi yuzasidan o'qituvchilar jamoasi bilan bamaslahat ish olib borishmoqda.

Lekin, ko'plab ota-onalar bolalar tarbiyasiga tayyor emasliklari, ularga ta'sir etuvchi turli omillardan bexabarliklari; bola kamolotining murakkab tomonlarini bilmasliklari natijasida oilaviy tarbiyada ko'plab ko'ngilsiz voqealar ham sodir bo'lmoqda. Bunday salbiy omillar o'g'il yoki qizlarning maktabdagi ta'lim-tarbiyasiga yomon ta'sir ko'rsatmoqda. Voyaga yetmagan yoshlar orasida qonunbuzarliklarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Kuzatishlar shuni ko'rsatmoqdaki, hali ham ayrim ota-onalar bolalar tarbiyasi va ularning kelajaklari haqida zamon talabi darajasida tarbiyaviy mas'uliyatni his qilmayaptilar. Ota-onalar bilan suhbatlashish natijasida shu narsa aniqlandiki, ular farzandlari 15-16 yoshga yetgandagina "O'g'lim yoki qizim yuqori sinfda o'qimoqda. Kelajakda qayerga yuborsam ekan? Qayerda o'qitsam ekan?" degan fikrga boradilar. Imkoni boricha, tanish-bilish orqali o'zlari uchun ma'qul dargohga o'qishga yoki ishga joylashtirmoqchi bo'ladilar. Ular bolalarining qobiliyatiga ham, qiziqishiga ham, xohishiga ham e'tibor bermaydilar. Bunday holat ota-onalarning tarbiya masalasida aniq maqsad va dasturlari yo'qligi oqibatida sodir bo'ladi.

O'rni kelganda shuni alohida ta'kidlash kerakki, ayrim maktab o'qituvchilari orasida o'z ishiga mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'luvchi shaxslar ham yo'q emas. Ularning eng yomon xatolaridan biri tarbiyaga oid barcha kamchiliklarni ota-onalar zimmasiga yuklab qo'yib, o'zlari esa kuzatuvchi bo'lib qolishlaridir.

O'qituvchi ota-onalarning faol yordamisiz bolalarning barkamolligini ta'minlay olmaydi. Bu o'rinda tarbiyachining o'zini tarbiyalash lozimligini ham esdan chiqarmaslik kerak. O'ziga nisbatan talabchan muallim ota-onalar bilan hamkorlikda o'quvchilarda mustaqil fikrlash va harakat qilish, yangilikni sezish, tashabbuskorlik hamda ijodkorlik qobiliyatlarini shakllantirish maqsadida ularga qat'iy talablar qo'yish uchun

ma'naviy huquqqa ega bo'ladi.

Ayrim maktablarida ota-onalarni ma'lum guruhlariga bo'lib majlislarga chaqirish joriy etilmoqda. Masalan, yosh va kam tajribali oilalarni alohida, noto'liq oilalarni, ko'p bolali oilalarni alohida-alohida chaqirib, ular bilan ishlash yo'llari belgilanmoqda.

Ba'zan ota-onalar bolalarining "Uy vazifalariga yordam berish kerakmi?" degan savolni berishadi. Bunga daf'atan "Ha" yoki "yo'q" deb javob berish ham noo'rin. Gap shundaki, uyga berilgan topshiriqlar bolalarning mustaqil ishlari bo'lib, ularning fikrlash faolligini ta'minlashni maqsad qilib qo'yadi. O'quvchilarning u yoki bu o'quv materiallari bilan amalda tanishishlari, tegishli xulosa chiqarishlari nazarda tutiladi. Shu sababli uy vazifalarini bolalarining ishtirokisiz o'zlari yechib bermasdan, balki uni yechishda tarbiyaviy rahbarlik qilishlari, fikrlash uchun imkoniyat yaratishlari lozim. Ba'zan shunday holatlar uchraydiki, ota-onalar bolalarini o'qitayotgan o'qituvchilarni, tarbiyachilarni tanimaydilar, bilmaydilar. Bolalari bo'sh vaqtlarini qayerda, kim bilan o'tkazishidan bexabar bo'ladilar. Ba'zan esa, o'qituvchilarning talablari, iltimos-istaklariga ters javob beruvchi, teskarisini bajaruvchi ota-onalarni ham uchratish mumkin.

"Maktabga tez-tez borib turuvchi ota-onalarning faoliyati maqtovga sazovordir. Chunki o'qituvchilar bilan bo'lgan uchrashuvlar, bolalari yuzasidan bildirgan fikrlar o'z navbatida ota-onalar uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Eng muhimi, ular bolalari qayerda, kim bilan yuradi, ularning do'stlari kim va qanday fanlarga qiziqishlarini bilib oladilar, nazorat qilish imkoniyati ortadi.

Maktabni oila bilan bog'lovchi vosita – bu o'quvchilardir. O'quvchilar bilan ishlash, ularning ilmiy dunyoqarashlarini shakllantirish, ijtimoiy faolliklarini ta'minlash orqali ota-onalarga ta'sir ko'rsatish usullarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bu borada maktab va oila aloqasini ta'minlovchi, ota-onalar majlislari, bolalar tarbiyasiga aloqador muammolarni jamoa bo'lib hal etish kabilarning rolini inkor etib bo'lmaydi. Jumladan, "Bolangizning qanday o'qishini bilasizmi?", "Bolalarimiz odobi

haqida suhbatlashaylik”, “Mustaqil hayot bo’sag’asida” kabi mavzularda olib boriladigan suhbatlar ota-onalarni o’z bolalari haqida, ularning kelajagi haqida qayg’urishlariga sabab bo’ladi.

Majlisda faol ota-onalarning ishtiroki va o’z tajribalarini batafsil bayon etishlari ko’plab ota-onalar oldida turgan murakkab vazifalarning ijobiy hal etilishiga olib keladi. Albatta, buning uchun o’qituvchilar jamoalari, sinf rahbarlari majlis o’tkazish uchun asosli tayyorgarlik ko’rishlari, qachon va qanday holda majlis o’tkazish va undan ko’zlangan maqsad rejalarini mukammal ishlab chiqishlari, to’plangan tajribalarni tahlil qilish, ota-onalardan kimlar so’zga chiqishi haqida kelishib olishlari lozim. Ana shundagina majlisning tarbiyaviy samaradorligi ta’minlanadi.

Ota-onalarning tarbiyaga oid bilimini oshirish uchun jonli, hayotiy mavzularda qiziqarli ma’ruza, suhbatlar tashkil etish tavsiya etiladi. Bunda oilaning o’zaro munosabatlari, oilaviy tarbiyada o’qituvchining tutgan o’rni, ularga ta’sir etish va boshqa sifatlarni chuqur tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Hayotiy bo’lmagan misollar, umumlashtirishlar, quruq ma’ruzalar hech qanday samara bermasligini hamma tushunadi. Maktab va oila hamkorligidagi ishlarda qo’shimcha uslublardan ham foydalanish yaxshi natija beradi. Jumladan, tashkilotchilarning ota-onalarning o’zlari o’z xatti-harakatlarini, xulq-odoblarini tanqidiy baholashlari, ma’qullash va muhokama yuritish metodlarni qo’llashdagi shaxsiy ta’sirni hisobga olish nihoyatda muhimdir. Bunday xatti-harakatlarga doir usullar, odatda, jamoatchilik tomonidan ijobiy baholangan bo’lishi kerak. Chunki kattalar faoliyatining ijobiy yoki salbiy baholanishi ular ko’rsatadigan tarbiyaviy ta’sirning kuchini yo oshiradi, yoki kamaytiradi. Maktablarda ota-onalar bilan ishlashda esga solish, maslahat, taklif, iltimos, talab kabi uslublar ham mavjud bo’lib, ularni o’rni kelganda, o’z vaqtida qo’llash yaxshi samara beradi. Ularni tatbiq etishda nihoyatda nazokatli bo’lish, kishi shaxsini hurmat qilish tavsiya etiladi.

Yuqoridagi mas’uliyatli vazifalarning bajarilishida sinf

rahbarlarining tarbiyaviy faoliyatlari nihoyatda muhim ahamiyatga ega. Masalan, sinf rahbarlarining har bir oilaga kirib borishi shu oilaga va ota-onalarga hurmat sifatida baholanadi. Sinf rahbarining ota-onalar bilan birgalikda tarbiyaviy chora-tadbirlarni belgilashlari, sinf rahbarining o'quvchilar ko'z oldida ota-onalari bilan suhbatlashishlari ularning tarbiyasiga samarali ta'sir ko'rsatadi. Hatto, sinf rahbarining uyga kelishining o'zi ularning qalblarini quvonchga to'ldiradi. Sinf rahbarining ota-onalar bilan suhbatidan keyin o'quvchilar hayotida sezilarli o'zgarishlar yuz beradi, bu ularni xursand qiladi, yanada kuch-g'ayrat sarflashga ilhomlantiradi. Faqat sinf rahbarlari emas, balki fan o'qituvchilarining ham ota-onalar bilan qilayotgan hamkorliklari foydadan holi emas. To'g'ri, hamma sinf rahbarlari yoki fan o'qituvchilari o'quvchilarning uylariga hadeganda borishga imkoniyat topolmaydilar. Bunday paytlarda o'quvchilar kundaliklariga "Bugun o'g'lingiz berilgan savollarga juda yaxshi javob berdi", "Farhodning odobi yaxshilanmoqda", "Salima dugonalariga o'z xulqi-odobi bilan namuna bo'lmoqda", "Turobjonni odobli qilib tarbiyalayotganingiz uchun sizlarga rahmat" kabi yozuvlarning ham tarbiyaviy ahamiyati nihoyatda kattadir. O'z navbatida, sinf rahbarlari ota-onalar tomonidan bildirilayotgan xabar, tanqidiy fikrlarini vazminlik bilan tinglashlari, muloyimlik bilan eshitishlari va imkoniyat doirasida ijobiy hal etishlari juda muhimdir. Bunday munosabatlarda sinf rahbarlariga ota-onalarni o'z tengqurlaridek do'st tutishlari, "Keling birgalikda o'ylab ko'raylik", "Siz nima deysiz" kabi do'stona savol-javoblar orqali ish tutishlari tavsiya etiladi.

4.2. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarda oila va mahalla hamkorligi

Oila – tarbiya o'chog'i. Oila – jamiyat negizi har bir insonda ilk yoshligidan boshlab ongida shakllanadigan barcha insoniy fazilatlar, ezgu niyat, maslaklar, qadriyatlar takomil topadigan,

mafkuraviy va ma'naviy tarbiya amalga oshiriladigan muhitdir. O'zbek oilasi o'zida ko'p asrlik mustahkam ma'naviy qadriyatlarimiz ravnaq topadigan shunday maskanki, uning barqarorligi va mustahkamligi jamiyatimiz rivojining muhim omillaridan biridir. Agar oiladagi muhit sog'lom bo'lsa, unda kamol topayotgan yosh avlod qalbi va ruhiga shu xususiyatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, milliy istiqloq g'oyasini singdirish uchun qulay sharoit yaratilgan bo'ladi.

1998-yilning "Oila yili" deb e'lon qilinishi va shu yilning o'zida Oila kodeksining qabul qilinishi hamda mamlakatimiz tarixida ilk bor tashkil etilgan Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazining maqsadi ham davlatimizning oilani har tomonlama mustahkamlash, himoya etish borasidagi siyosatiga hamohang bo'ldi. Shuningdek bu markaz oldida oilaga taalluqli boy va sermazmun milliy an'analarni avaylab-asrash, ularni umuminsoniy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqur singdirish yo'li bilan oilani mustahkamligi, barqarorligini ta'minlash, oila a'zolarining huquqiy savodxonligini oshirish muammolarini ilmiy o'rganish, oilaviy hayotga bog'liq muammolarni tadqiq etish va fuqarolarga bu masalalarda amaliy yordam berish bosh vazifa qilib qo'yildi

Markazning muhim maqsad va vazifalaridan biri – oila konsepsiyasini yaratish va uni hayotga joriy etishning uslub va vositalarini joriy etish orqali hukumatimizning ijtimoiy sohadagi insonparvar siyosatini amalda har bir fuqaro ongiga oila instituti orqali singdirishdan iboratdir.

Davlatimiz rahbari I.A.Karimov har chiqishlarida oila masalalariga katta e'tibor berar ekan, uning tarbiya beradigan maskanlar orasida eng muhimi va qadrli ekanligini ta'kidlaydi. "Oila haqida gapirar ekanmiz, avvalambor oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanligini tan olishimiz darkor". Mustaqillik yillarida respublika hukumati va Prezidenti I.A. Karimov

tomonidan oilaga ko'rsatilayotgan e'tibor, oilani mustahkamlash, nikohni qadriyat sifatida e'zozlashga qaratilgan chora-tadbirlar tom ma'noda yurtimizda oila va farzandlar hukumatning doimiy e'tiborida ekanligidan dalolatdir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki "Oila konsepsiyasi"ni yaratish va bu bilan bog'liq ishlarning dolzarbligi hamda bajarilishining maqsadga muvofiqligi mustaqillik yillarida Respublika rahbari I.A.Karimov tashabbusi bilan amalga oshirilayotgan davlat dasturlarining oilani, ona va bolani ijtimoiy muhofaza qilishga qaratilganligi, hukumat tomonidan oila manfaatlariga ajratilayotgan sarmoyalarning amalda oqlanishi zarurati bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 5-fevraldagi "Ona va bola" Davlat dasturi to'g'risida"gi qarorida belgilangan vazifalarning muhimligi va dolzarbligidan ham kelib chiqadi.

Oila va jamiyat – mohiyatan bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lib, oilada jamiyatning tub mohiyati va muammolari o'z aksini topadi. Shuning uchun ham oilani kichik jamiyat deyish mumkin. Har bir jamiyat a'zosi oila bag'rida voyaga yetadi, ijtimoiy munosabatlarni o'zlashtiradi va insoniy fazilatlarni namoyon etadi. Barkamol insonni shakllantirish, uni hayotga, mehnatga tayyorlash oilaning muqaddas vazifasidir. Oilani mustahkamlash jamiyat barqarorligi va qudratining muhim shartidir. Shu boisdan ham davlat oilani o'z himoyasiga oladi.

Oila qanday bo'lsa, jamiyat ham shunday bo'ladi. Mamlakatimizda milliy mustaqillik yillarida ma'naviyat sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, avvalo, oila qadriyatlarini eng ilg'or an'analarini tiklashga qaratilgandir. Oilaviy tarbiya – oilada ota-onalar, vasiylar yoki katta kishilar tomonidan bolalarni tarbiyalash, yosh avlodning har tomonlama rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Oila tarbiyasida doimiy tarbiyaviy ta'sirchan kuch – oilaviy tartibdir.

Oila va mahalla boshqa tarbiyaviy muassasalardan farqli ravishda odamning butun hayoti davomida uning barcha tomonlariga, qirralariga ta'sir ko'rsatishga qodirdir va odatda

ta'sir ko'rsatadi. Oila va mahalla hamkorligidagi tarbiya vazifasining bu ulkan miqyosi uning mafkuraviy va psixologik ta'sir ko'rsatishning chuqur o'ziga xosligi bilan uyg'unlashib ketadi. Bu esa uni oliy darajada ta'sirchan qilibgina qolmay, shu bilan birga shaxsni shakllantirish jarayonining zarur bo'g'iniga ham aylantiradi.

Oila va mahallaning yuksak tarbiyaviy imkoniyati bolalar va ota-onalarning o'ziga xos xususiyatlari: qon-qarindoshligi, qo'ni-qo'shniligi, muhabbati, yaqinligi, ishonchi, burch hissi, obro'ligi va hokazolar bilan ta'minlanadi.

Ma'lumki, xilma-xil faoliyat sharoitida bolaning qobiliyatlari eng samarali rivojlanadi, uning ijodiy imkoniyatlari ochiladi, bolani oila va mahalladan boshqa qayerda ham faoliyatning xilma-xil turlariga jalb etish mumkin. Oila va mahalla hamkorligidagi tarbiyaning qimmatligi ahamiyati yana shundaki, kichik bolalik paytida oilada egallagan narsalar bir umr saqlanib qoladi. Huddi shuning uchun ota-onalarning bolalarni har tomonlama tarbiyalash majburiyati qonuniy tarzda belgilab qo'yilgan.

Oila va mahalla hamkorlikda tarbiyaviy ishni tashkil etar ekanlar, eng yangi psixologik-pedagogik tadqiqotlar ma'lumotlarini e'tiborga olishlari ham muhimdir, ularga muvofiq o'sib kelayotgan kishi shaxsini shakllantirishga oilani qo'shadigan hissasi turli yosh bosqichlarda turlicha bo'ladi va to'liqinsimon o'zgaradi.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarni ko'ngildagiday olib borishda, o'sib kelayotgan yosh avlodni yetuk va barkamol inson qilib tarbiyalashda oila va mahalla hamkorlikda ish olib borishi lozim. Chunki kelajak avlod tarbiyalangan, uyushgan, jonajon Vatanimizning haqiqiy fuqarosi bo'lishlari lozim.

V bo'lim. OILADA BOLA TARBIYASI

5.1. Shaxsning oila muhitida va jamiyatda shakllanishi

O'zbek xalqining buyuk shoiri Alisher Navoiyning quyidagi she'riy parchasiga e'tibor bering.

*Ulcha erur tiflg'a shoyista ish,
Bilki kichiklikda erur parvarish,
Qatraga chun tarbiyat etdi sadaf,
El boshiga chiqquncha topdi sharaf.*

Tifl, ya'ni bolani kichikligida parvarishlash, ya'ni tarbiyalash kerak, sadaf qatoriga kirgan qatra, ya'ni dur odamlarning boshida turish sharafiga muyassar bo'ldi. Huddi shuningdek, ota-ona go'yo sadaf, bolalar esa ularning bag'ridagi qatralar – durlardir.

Oiladagi sharoit, oziq-ovqat va jihozlar ta'minoti, o'zaro munosabatlar: er-xotin, bobo-buvi, qaynona-qaynota, aka-uka, opa-singil, tog'a-amaki hamda boshqa qarindoshlarning bir-biriga muomalasi oila a'zolarining birgalikda ishlashi, dam olishi, adabiyot, san'at, ilm-fan va sport bilan shug'ullanishi, daromad, ruhiy-ma'naviy holatlar, qo'ni-qo'shnichilik aloqalari, mahalladagi to'y-ma'rakalarga qatnashish va hokazolar oila muhitini tashkil etadi.

Oila muhiti axloq-odob, madaniyat qoidalari asosida tashkil topsa, bola shaxsining to'g'ri shakllanishi uchun shart-sharoit yaratilsa, bunda oiladagi bolalar to'g'ri kamol topadi. Oila muhitining ahamiyati shundaki, boladagi tabiiy iste'dodning qirralari dastlab shu yerda ko'zga tashlanadi. "Insonlarda bo'lgan tabiiy iste'dod yog'ochdagi yonish xususiyatiga o'xshaydi: yog'ochga o't qo'yilmasa, yonmaydi" ("Kalila va Dimna"dan). Binobarin, bola iste'dodining yonishi oilada qancha erta boshlansa, shuncha yaxshi. Ota-ona o'z bolasini kuzatib borib (go'dakligidanoq) boshqa bolalardan farqini, nimaga qobil-u, nimaga qobilmasligini aniqlasa, uni qobiliyati kuchli bo'lgan

tomonga turtki bersa, rivojlantirsa, shaxsning iste'dodi shuncha yorqin va tez ko'zga tashlanadi. Murg'ak ongli go'dakning himoyaga, yordamga muhtojligi, qiziqishi, intilishini birinchi bo'lib ota-ona sezmasa, kim sezadi?! Ko'zlarini mo'ltiratib turgan go'dak, sizga faqat non uchun javdirab qarayotgani yo'q-ku! Uni tushuning, his qiling, unga yo'l oching! Qobiliyati, iste'dodi bolaligidanoq ota-onasi yohud boshqa bir murabbiy yordamida rivoj topgan kishilardan buyuk daholar yetishib chiqqan.

Oila muhitidagi ota-ona va bolalarning munosabatiga to'xtalib, quyidagi rivoyatni keltirish mumkin.

Rivoyat. Bir yo'lovchi qishloq oralab ketar ekan, bir xonadon oldida turgan keksa kishiga yoshgina yigitning qattiq-qattiq gapirayotgani, qariyani beibo so'zlar bilan haqorat qilayotgani ustidan chiqib qoldi. Keksa ko'ziga yosh olib, bag'ri xun bo'lganicha uy oldidagi kunda ustida o'tirardi. Yosh yigit begona kishini ko'rish bilan uyga kirib ketdi, shunda yo'lovchi keksa yoniga bordi, salom berib uni yupatmoqchi bo'ldi.

– Ey otaxon, bu yigit kimki, sizni shunday haqorat qilyapti?

– O'g'lim, – deb javob berdi keksa ko'z yoshini artgancha.

– Vo ajab! – hayron qoldi yo'lovchi.

– Ey yo'lovchi, ajablanma, men ham yoshligimda o'zimning qo'pol muomalam bilan otamning qalbiga ko'p ozor bergan edim. Qarangki, otamga o'tkazgan sitamim, o'g'limdan o'zimga qaytdi! – dedi.

– Vo darig', qaytar dunyo ekan-da! – deb yo'lovchi yo'lida davom etdi.

Bu rivoyat muhokama qilinib, "O'z ota-onangga qanday hurmat-e'tibor yoki bepisandlik ko'rsatsang, kelajakda farzandlaringdan senga ham shunday hurmat-e'tibor yoki bepisandlik qaytadi", degan xulosa chiqariladi.

Jamoatchilik ruhining bolaga singishi ham oiladan boshlanadi. Bola birgalikda ovqatlanish, ishlash, dam olish, birgalikda to'y-ma'ralalarda ishtirok etish jarayonida unga o'rganib boradi. O'qituvchi o'quvchilar diqqatini «Hotamnoma» dan (Toshkent, G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at

nashriyoti, 1988) olingan quyidagi parchaga qaratadi.

«Hotam tug‘ulg‘on kuni olti ming o‘g‘ul Yamandin va atrofдин tavallud qildi. Ul bolalarni hozir qilib, olti ming enagaga bolalarni boqmoqg‘a buyurdi. To‘rt enaga – xush va shod va yoshni ilg‘ab (ajratib), Hotamni parvarish qilib, sut bermakka tayin qildi. Hotam sut emgali unamadi. Tayg‘a xabar berdiki:

–Hotam sut emmaydur?

Ahli nujumlarni hozir qilib so‘radiki:

– Bola nima uchun sut emmaydur?

Ahli nujumlar ayttki:

– Bu o‘g‘ul sahovat birla olamda oti pur (mashhur) bo‘ladur.

Toinki hamma tiflar va enagalar bir yerga jam bo‘lub, hamma bolalarg‘a sut berdilar. Hotam ham sut emdi».

Bu parcha Hotamning faqat sahovatpesha ekanligini ko‘rsatmaydi, uning xudbinlik qobig‘iga sig‘maydigan fe‘l-atvorini ham bildiradi. Zotan oila a‘zolarining barchasi dasturxon atrofida jam bo‘lib ovqatlanishida ham hikmat bor. Jamoat-chilikning dastlabki urug‘lari ana shunday inoq davralarda unadi.

O‘zbek xalqi qadimdan jamoa an‘analarini mahkam tutgan. Qo‘shning boshiga og‘ir kun tushsa, atrofdagi odamlar darhol yetib kelishadi, har qanday ishini tashlab qo‘shniga yordam beradilar. Bu esa oilaning qaddini tiklab olishida muhimdir. Quyidagi hikoya o‘qib beriladi.

“Yakshanba kuni tom suvoq hashari bo‘ldi.

- Normat polvon hasharga aytibdi, nuqul ertaga suv muzlaydi-yov devdim, hayriyat, ertalab tursam kun issiq ekan, – deb dadamga hazillashdi hammadan ilgari etib kelgan Fayzi bobo. Oldinma-ketin Ergash bobo, Rashid aka, Musulmonqul va Said akalar, ulardan sal keyin Bosim aka kirib keldi. Eng oxiri Mo‘min amaki chiqdi. Hamma yig‘ilguncha usta Fayzi bobo dadam bilan qilinadigan ishlarni maslahatlashib oldi, loyni borib ko‘rdi; kerakli narsalarni tez tayyorlashni dadamga buyurdi. Hasharchilar supaga o‘tirib, loviya va atirgul gulbargi solib pishirilgan sutchoyni maqtab-maqtab ichishdi. Dadam o‘rinlaridan qo‘zg‘almoqchi bo‘lgan hasharchilarga:

– O‘tiribsizlar-da, avval choy ichib olinglar, – deb manzirat qilgan edi, Fayzi bobo dadamni qattiq koyib berdi:

– Polvon, siz odamlarning badanini sovutmang! Ular oshga emas, ishga kelganlar! Qani, turdik bo‘lma-sa! Omin!..

Fotiha o‘qilib, hamma o‘rnidan turdi. Fayzi bobo bir zumda odamlarga ish taqsimladi. Ergash bobo usta katta uyga deraza o‘rnatguncha tomga chiqib andava tortib turadigan bo‘ldi. Soli aka ham tomga loy tashishga tayinlandi. Qo‘shnimiz Mo‘min amaki kekxa bo‘lgani uchun yengilroq ishga qo‘yildi; u paqirlarni loydan tozalab, tagiga oz-oz suv solib turishi kerak edi. Ustaning gapi bilan Musulmonqul aka loyxonaga tushdi, chunki faqat ugina usta boboning ko‘nglidagidek loy qila olardi. Polvonkelbatli Said aka usta aytib o‘tirmasdanoq loyni tortib olish uchun tomga chiqa boshladi. U bu vazifani baribir o‘ziga qolishini yaxshi bilardi. Axir, u haqda odamlar: “Machitning tomiga ham bir siltov bilan loy chiqargan!” deb gapirib yurishardi-da! Loyni paqirlarga solib ayvonning oldiga olib borish dadam bilan Rashid akaning zimmasiga tushdi. Usta bobo meni ham ishsiz qoldirmadi, paqirlarni ilgakka ilib yuboradigan “lavozi”ga tayinlandim.

Usta bobo “Meni nima ishga tayinlaysiz?” deb ko‘zlarini jaltanglatib turgan Bosim akaga qarab:

– Bosimboy, siz tomga chiqing! Sizga past havfli! – dedi.

Bu gapni eshitib hamma kulib yubordi. Chunki usta boboning gapi tagida gap bor edi. Bosim aka kimnikiga hasharga bormasin, bir-ikki soat ishlamasidan qizi yoki o‘g‘li borib, uyga mehmon kelgani yo boshqa bir sababni aytib chaqirib ketarkan: aslida Bosim aka hasharga ketish oldidan bolalariga shunday deb tayinlab kelarkan, o‘zi ishyoqmas emasmi, shu bahonada ancha vaqt yo‘qolib ketib, dam olib yana hasharga qaytardi. Dastlab odamlar buni bilsalar ham bilmaslikka olishibdi, bu odatini tashlayvermaganidan so‘ng bir-ikki marta yuziga ham aytishibdi, lekin Bosim akada o‘zgarish bo‘lmapti. Bir kuni Bosim aka ham hashar qilibdi. Odamlar endi ish boshlashgan ham ekan, Soli akaning o‘g‘li kelib “Uyga mehmon keldi!” deb otasini ergashtirib ketibdi. Yana birozdan so‘ng boshqasining qizi kelibdi. Shunday

qilib, birining qizi, birining o'g'li kelib turli bahonalarni aytib, o'talarini chaqirib ketaveribdi, oxiri hech kim qolmabdi.

Soli akaning quvnoq tovushi eshitildi:

— Hoy, Bosim aka! O'g'lingiz kelayapti, uyga mehmon keldi-yov!

Hasharchilarning qah-qah otib kulishlaridan atrof jaranglab ketdi. Bu qahqahga Bosim akaning o'zi ham qo'shilib, zavqi oshganidan tizzalariga urib kulardi. Men ba'zan arzimagan narsa uchun bir-birlari bilan xirillashib qoladigan bu qishloq odamlarining hashar paytida aka-ukadek bo'lib hazil-mutoiba gaplar aytishib, jon-dildan berilib ishlashlariga qoyil qolib turardim. Mana, usta bobo birpasda ikkita derazani o'rnatib bo'lib, tomga chiqdi. Hasharchilar “Tezroq qimirlanglar, usta bobo tomga chiqdilar”, deb bir-birlarini shoshiltira boshladilar. Darhaqiqat, usta bobo qo'liga andavani olib yenglarini shimardi. Rashid aka Musulmonqul akaning paqirga solgan loyini ko'tarib ketarkan, sekingina:

– Usta yengini shimarayapti, o'ldim deyaver, Musulmonqul!
– dedi.

– Parvo qilma Rashid, charchab qolsang, loyni ketmon bilan shu yerdan otib tomga chiqarib yuboraveraman, – dedi Musulmonqul aka paqirlarni loyga to'ldirar ekan.

Usta bobo esa tom suvashni boshlash oldidan dadamga dedi:

– Polvon, kelinga aytasiz-da, tushlikka o'sha zo'r sho'rvadan bo'lsin.

– Xo'p bo'ladi, usta bobo, –dedi dadam.

Ayam tayyorlaydigan sho'rva qishloqqa mashhur edi. U sho'rvaga oshqovoq, lavlagi, kartoshka, no'xat solib, shunday boplab pishirardiki, ularning hech qaysisi ezilib ketmas, huddi joyida turib pishgandek bo'lib, sho'rva suvining ta'mi esa ichgan odamning og'zidan bir umr ketmasdi. Usta bobo ana shunaqa sho'rva haqida gapirayotgandi. Uning gapi bu sho'rvaning mazasini tez-tez tatib turadigan Mo'min maslahatga ham juda yoqib tushdi.

– Ichimsiz-da, usta, ichimsiz! – deb qo'ydi u.

– Mulla Mo‘min, hotirjam bo‘ling, siz sho‘rvaga loyiq ish qilayotganingiz yo‘q,- dedi usta bobo.

– Hoy, usta, ko‘rayapsizmi, men bu yerda qanday o‘lib-tirilayapman! – U shunday deb o‘zini ko‘rsatmoqchi bo‘l-di, o‘rnidan turib, paqirlarga suv quyayotgan edi, o‘zi suv to‘kaverib, sirpanchiq qilib yuborgan loyxonaning chetidan sirpanib ketdi; muvozanatini saqlash uchun qaddini tiklashga harakat qildi-yu, o‘zini o‘nglab ololmay bor bo‘yicha shaloplab loyxonaga qulab tushdi. Hamma qah-qah otib kulib yubordi. Mo‘min amaki og‘ziga kirib ketgan loyni zo‘r berib tuflab:

– O, bachchag‘ar! O, bachchag‘ar! – derdi.

Musulmonqul aka tovushini baralla qo‘yib, baqirdi:

– Hoy, odamlar! Maslahat bilan Mo‘min amakini loyxonadan qanday chiqarib olamiz, endi! Ha-ha...

– Ha-ha-ha ...

– Said, arqoningni tashla, qaynatangni bog‘lab beray, – dedi Musulmonqul aka yana ha-halab kularkan.

Mo‘min amaki kulgi sadolari ostida apil-tapil loyxonadan chiqib kiyimini almashtirib kelgani uyga jo‘nab qoldi.

Bu samimiy kulgilar, nazarimda, hasharchilarning charchog‘ini yozib yubordi; ular ishni yanada jadallatib yubordilar; ust-boshlari, yuz-qo‘llari loy bo‘lib ketganiga qaramay, usta boboni kutdirib qo‘ymaylik, deb bir-birlarini shoshirib ishlashardi. Mana, Mo‘min amaki ham kiyinib kelib o‘z o‘rnini egalladi. Hasharchilar tushlik payti ham uzoq o‘tirishmadi; bir kosadan sho‘rva ichishdi va yana turib ketishib shu bilan kechgacha ishlashdi.

Ayam tandir-o‘choqlarini ham suvatib oldi; hammadan ham u xursand edi, har ikki gapning birida: “Hovlimizga fayz kirib qoldi!” – derdi. Chindan ham katta uyga deraza qo‘yilishi, atrofi yaxshilab suvalishi hovlimiz chiroyiga chiroy qo‘shgan edi”.

Bu hikoyadan ko‘rinadiki, hamqishloqlar bir oiladek yashab, bir-birlaridan xabardor, bir-birlariga mehribon bo‘ladilar, qishloqning, jamoaning ishi haqida hisob berib turadilar, bir-birlarini va shu asnoda bolalarini ham jamoa ruhda tarbiyalaydilar.

Inson oilada dunyoga kelgani bilan jamiyatga aloqadordir. Forobiy fikricha, insonning va jamiyatning g'alabaga erishuvi, yaxshilikni qo'lga kiritishi, axloqiy va aqliy mukammallikka erishuvi, inson va jamoaning o'z qo'lidadir: "... tabiiy boshlang'ichlar ta'siri ostida kamol topib insonga aylanishgina kifoya qilmaydi, chunki inson bo'lib, insoniy kamolotga erishuvi uchun so'zlash va kasb-hunarga muhtojdir". O'z-o'zidan ma'lumki, bu ehtiyojlar jamiyatda qondiriladi.

Shaxs jamoada, jamiyatda mehnat qiladi, jamiyatning kichik bir tabiiy hujayrasi bo'lgan oilada yashaydi. Shaxs oila-jamiyat muhitida shakllanadi, kamol topadi. Jamiyatning qanchalik rivojlanganini oila farovonligida, shaxsning kamolotida ko'rish mumkin. Yoki shaxsning barkamolligi, oilaning to'la-to'kisligiga qarab, jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ma'naviy-axloqiy ahvolini bilish mumkin. Zero shaxs-oila-jamiyat munosabatlari o'zaro mustahkam bog'langandir.

5.2. Oilaning bola tarbiyasida xalq milliy an'analaridan foydalanish

Xalq – axloqiy qadriyatlar, qimmatli an'analar ijodkori. Xalq qadriyatlar va an'analarni o'zining ozodligi uchun olib borgan kurashlardan mardonavor ijod qildi, ularni tolmas mehnatda, chet el bosqinchilari bilan qilgan janglarida qadrlaladi va e'zozladi.

An'analarning ijtimoiy, siyosiy, axloqiy mazmuni turli tarixiy davrlarda, ayniqsa keskin kurashlarda yaqqol ko'rindi. Ommaviy xalq harakatlari, inqilobiy janglar avj olgan davrda ham kishilar ijtimoiy qiziqishlar bilan yashaganlar. Yuksak g'olar uchun kurashgan vaqtlarda ham an'analar tarkib topgan.

Urf-odatlar va marosimlar ota-bobolar tomonidan ijro etilib, ularning avlodlari ham ana shu urf-odatlar va marosimlarga rioya qilishlari lozim bo'lgan.

Ensiklopediyada an'ana quyidagicha ta'riflanadi: "an'ana" (lot.trado – uzatish) ijtimoiy va madaniy merosning avloddan avlodga o'tadigan va muayyan jamiyatlarda, sinflarda va ijtimoiy

guruhlarda uzoq vaqt saqlanadigan elementi bo'lib, u ijtimoiy merosning obyekt (moddiy va ma'naviy qadriyat) larini o'z ichiga qamraydi.

Kichik Ensiklopediyada bu ta'rif shunday aniqlashtirilgan: "an'analar (tratio – uzataman so'zidan) tarixan tarkib topgan va avloddan avlodga o'tadigan odatlar, ijtimoiy tartib, xulq normasi, g'oyalardan iboratdir". Pedagogika lug'atida an'ana xususida shunday deyiladi: "Oilaviy an'ana (lotincha – trado – uzatish so'zidan olingan) oilada qabul qilingan va katta avlod kichik avlodga beradigan odatlar hamda xulq normalarining majmui. An'analar maktabda mustahkam o'rin olgan, jamoa saqlaydigan va o'quvchilarning bir avloddan boshqa avlodga o'tadigan odatlar, tartiblar, xulq qoidalaridir".

Shunday qilib, an'analar o'tish, berish degan ma'noni anglatadi. An'analar tasodifan vujudga kelmasligi, balki yillar mobaynida tarkib topishi ma'lum. Demak, an'analar ko'p marta takrorlanadigan va ajdoddan avlodga o'tadigan muayyan qarashlar, e'tiqodlar, didlar, xatti-harakat normalari va qoidalari, ishlar va hodisalardir. Biz an'analar yashashining asosiy sharti ularning saqlanishi va uzatilishida deb hisoblaymiz. An'ana ko'p qirrali, murakkab hodisadir. Uni turli belgilariga ko'ra tasniflash mumkin.

"Urf-odat va an'analar nima?", "Ular bir-biridan nimasi bilan farqlanadi?", Bularni aniqlashning muhimligi shundaki, mavjud adabiyotlarda mazkur muammolarni yoritish bo'yicha juda ko'p chalkashliklar uchraydi, ayrim tushunchalar aralashib ketadi va hokazo. Masalan, "O'zbek tilining izohli lug'ati" kitobida "odat" so'zi muayyan xalqda qabul qilingan an'analar, shakllar deb, "bir odam tomonidan qabul qilingan usullar, harakat tarzi, tamoyillar" deb izohlanadi. An'analar esa tarixan tarkib topgan va ajdoddan avlodga o'tib kelgan marosimlar, axloqiylik normasi deb ta'riflanadi.

Bizningcha, urf-odatlar va an'analarni bunday izohlash ilmiy nuqtai nazardan u qadar to'g'ri emas. Chunki mazkur holda "an'ana – urf-odat" va "urf-odat – an'ana" tushunchalari ta'rifi

orasiga tenglik belgisi qo'yilgan. Holbuki, bizningcha, an'ana urf-odatga nisbatan keng tushunchadir.

An'ana tushunchasida muayyan marosimlar va urf-odatlar, axloq qoidalari birlashadi. An'ana o'ziga xos integratsiyalangan va ahamiyatli hodisa bo'lib, unda avlodlarning ijtimoiy hayotga bog'liq tajribasi umumiy shaklda aks etadi. An'ana qadriyatlarning tarkibiy qismi bo'lib, u ijtimoiy va madaniy merosda uzoq davrlar mobaynida saqlanadi, keyingi avlodlar tomonidan qabul qilinadi va yil davomida yangi elementlar bilan boyib boraveradi. Binobarin, an'ana muayyan marosimlarga, udumlarga, urf-odatlarga qaraganda ancha keng va umumlashgan hodisadir.

An'analar, urf-odatlar va bayramlarning har biri muayyan tarixiy davrning mahsulidir. Ular moddiy turmush shart-sharoitlarining ta'siri bilan paydo bo'lgan, rivojlangan, takomillashgan, asrlar osha ajdoddan avlodga o'tib kelgan va xalqning yaxshi orzu niyatlari hamda ma'naviy boyliklarini o'zida mujassamlashtirgan bo'ladi. Ilg'or an'analar yangi davr, ijtimoiy tuzum ehtiyojlariga moslashadi. Masalan, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehmondo'stlik, bolalar tarbiyasi bilan bog'liq an'analar asrlar davomida yaralgan bo'lib, ular hozir ham ijtimoiy.

Har bir avlod o'zidan oldingi avlodlardan meros qolgan an'analar va urf-odatlarni mehnati, bilimi, tajribalari bilan boyitadi va rivojlantiradi.

Marosimlar – an'ananing badiiylashgan, ramziy belgilar, obrazlar, musiqa, raqs, qo'shik, publitsistik na badiiy so'z vositasida anglashiladigan muayyan g'oyalar, axloq normalari shaklidagi ko'rinish. Marosim bir nechta rasm-rusum, udumlar zanjiridan iborat. U an'analarning tantanali badiiylashgan qismi bo'lib, ommaviy harakatlar yig'indisidir.

Marosim urf-odatning hamma vazifasini ado etishga qodir emas, balki uning biror qismi – boshlanishi, kulminatsiyasi, tugallanishini namoyon qiladi. Shu bois urf-odat keng rejali xatti-harakat majmui bo'lsa (to'y, bayramlar, armiya safiga chaqirilish

va hokazolar), marosim ana shu tantana (urf-odat) ni o'tkazish payti badiiylashgan qismidir.

Bayramlar – kishilarning xususiy va jamoa bo'lib hayot kechirish sharoitining yig'indisi bo'lgan tarixiy ijtimoiy taraqqiyot jarayonida yuzaga kelgan, o'zida ideallarni, estetik ehtiyojlarni ifodalagan an'analar va urf-odatlarining muayyan shakldagi tantanali ko'rinishi. Bayram – jamiyat, davlat, ijtimoiy guruh, oila hayotidagi biror muhim va quvonchli voqeaga bag'ishlangan kundir. Bayramlar bir qancha elementlarni o'zida namoyon qilib, siyosiy tadbirlar (tantanali majlis, ilg'orlarni mukofotlash), o'ziga xos odatlar (xalq bayramlari, mehnatkashlar namoyishi), oilaviy tantanalar (qarindoshlar, do'stlar uchrashuvi) kabilarning zanjiridan iborat.

Xalq an'analari, urf-odatlar va bayramlar kishilarning jamoa bo'lib uyushishlarini, muloqotga kirishishlarini taqozo etadi. Zotan, ular xalq hayotining barcha tomonlari – iqtisodiy, ijtimoiy, milliy, ilmiy, madaniy, harbiy, kasb-hunar va ishlab chiqarish jabhalarida namoyon bo'ladi.

An'ana, bayram va urf-odatlar turmush madaniyati tushunchasining tarkibida harakat qiladi. An'ana va urf-odatlar kishilarning o'zaro va jamiyatga ijtimoiy munosabatlarini takror ishlab chiqarishda, oldingi avlod erishgan moddiy va ma'naviy boyliklarni o'zida aks ettirib, keyingi avlodga yetkazishda muhim muhim rol o'ynaydi.

5.3. Oilada bola tarbiyasining o'rni

Bola shaxsini kamolga yetkazish uchun oiladagi tarbiyaviy jarayonni pedagogik madaniyat asosida tashkil eta olish juda muhimdir. Pedagogik madaniyat nima? Pedagogik madaniyat – bolani klassik va zamonaviy pedagogik bilimlarni bilgan holda, zamon talabi asosida tarbiyalashdir. Ota-onada pedagogik madaniyat o'z-o'zidan hosil bo'lmaydi, balki unga tarbiya bilan jiddiy shug'ullanish, izlanish, o'qish, tajriba orttirish orqali erishiladi. Oilada bola tarbiyasini rejimdan boshlash, rejimni

bolaning yoshiga qarab belgilash lozim; rejimga o'rgangan bolada tartiblilik, intizomlilik xislatlari tabiiy ravishda rivojlanadi; shuningdek, uni tozalikka o'rgatish kerak. Bu tarbiyaviy omillarni amalga oshirishda bolaning jismoniy rivojlanishiga, chiniqishiga ham e'tibor berib borish lozim. Bola tilga kira boshlashi bilan nisbatan murakkab tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish kerak. Bola ozoda, intizomli, odobli qilib tarbiyalansa-yu, zamonaviy ijtimoiy-psixologik va taraqqiyot talablari hisobga olinmasa, uning kelajagiga, baxtiga zomin bo'lib qolish mumkin. Shuning uchun ota-ona ijtimoiy tarbiya muassasalari bilan hamkorlikda bolalarning kasb-hunarni, kompyuter savodxonligini, tillarni, badiiy adabiyotni, ilmni o'rganishga qiziqishini, sportga intilishini rag'batlantirishlari zarur.

Ota-ona sinchkov psixolog, nozik didli pedagog, bolaning kelajagini yaratuvchi bashoratgo'y bo'lishi lozim. Agar ota-ona boladagi iste'dod kurtaklarini o'z vaqtida sezib, ularning rivojlanishiga sharoit yaratib bera olsa, bola shaxsining kamol topishiga katta yo'l ochadi.

Ota-onaning o'z xulq-atvori– hal qiluvchi eng muhim narsadir. Bolani faqat u bilan gaplashganda, nasihat qilganda, yoki unga biror narsa buyurgandagina tarbiyalayman deb o'ylash kerak emas.. Siz bolani turmushingizning har bir daqiqasida, hattoki o'zingiz uyda yo'qligingizda ham tarbiyalaysiz. Sizning qanday kiyinishingiz, boshqalar bilan va boshqalar haqida qanday gaplashishingiz, xursand bo'lishingiz yoki tashvishlanishingiz, do'st va dushmaningiz bilan qanday muomala qilishingiz, kulishingiz, gazeta o'qishingiz – bular hammasi bola uchun katta ahamiyatga ega. Gapingiz ohangi sal o'zgarsa ham, bola buni darrov payqab oladi yoki sezadi, bola fikringizdagi hamma o'zgarishlarni har xil yo'l bilan bilib oladi, lekin o'zingiz bundan bexabar bo'lasiz. Agar siz uyda qo'pollik yoki maqtancholik qilsangiz, bolalaringizga nihoyatda katta zarar yetkazgan bo'lasiz, ularga yomon tarbiya bergan bo'lasiz va sizning bu nojo'ya qiliqlaringizning oqibati juda yomon bo'ladi.

Ota-ona o'ziga talabchan bo'lishi, o'z oilasini hurmat qilishi,

o'zining har bir qadamini nazorat ostiga olishi lozim.

O'zbek oilalarida bolani mehnatsevarlikka o'rgatishga alohida e'tibor beriladi. Bunda ko'pincha ota-onalarning o'zlari bolalarga o'rnak ko'rsatadilar. Masalan, ona ovqat pishirish, kir yuvish, uyni saranjom-sarishta tutish kabi ishlarni sidqidildan bajaradi va buni o'zining oiladagi burchi deb biladi, hech qachon eriga: "Huquqimiz teng-ku, siz ham kir yuving, non yoping!" demaydi. Ota ham o'z navbatida ro'zg'ordagi barcha og'ir ishlarni, oilani iqtisodiy jihatdan ta'minlashni o'z zimmasiga oladi, bu borada mehnatsevarlik, jonkuyarlik namunalarini ko'rsatadi. Bunday sharoitda ota-onaga taqlidan bola shaxsida mehnatsevarlik, oilaparvarlik xislatlari tarkib topa boradi. O'zbek xalqining "bir bolaga yetti qo'shni xo'jayin", degan naqli bor. Bola ulg'aygan sayin mahalladagi to'y-ma'rakalarda qatnashadi, atrofdagi yaxshi odamlarni ko'rib o'zining fazilatlarini boyitadi, kamchiliklarini yo'qotishga harakat qiladi, undagi xudbinlik hislari yo'qolib boradi. Katta yoshli kishilar bolani yaxshi ishlari uchun maqtab, yomon qiliqlari uchun uyaltirib turadilar.

Yuqoridagi fikrlardan o'zbek oilalarida bola shaxsini kamolga yetkazish uchun hamma shart-sharoit muhayyo, degan xulosa kelib chiqmaydi. Ba'zi o'zbek oilalarida bolaning usti but, qorni to'q bo'lsa yetadi, bo'ladigan bola o'zi bo'laveradi, degan salbiy qarashlar ham mavjud. Yoki katta-katta to'y-ma'rakalar qilgan holda bola shaxsining rivojlanishi uchun zarur buyumlarni xarid qilishni istamaydilar. Ba'zi xonadonlarda bolalarning darsligidan tashqari badiiy, ilmiy-ommabop kitoblar yo'q, gazeta-jurnallarga obuna bo'lishmaydi, men bir kosib yoki savdo xodimiman, kitobni nima qilaman deyishadi. Vaholanki, kitobsiz hech kimning shaxsi kamolga yeta olmaydi. Keyingi yillarda har bir xonadon uchun zarur "Salomatlik", "Uy-ro'zg'or ensiklopediyasi", "U kim? Bu nima?" kabi kitoblar chop etildi. Bu kitoblar oilada bola tarbiyasi bilan shug'ullanishda juda qo'l keladi, shuning uchun o'zbek xonadonlari ularga ega bo'lishi lozim. Ba'zi ota-onalar bog'cha, maktab bor deb bola tarbiyasi bilan jiddiy shug'ullanmaydilar, bodalari noto'g'ri yo'lga kirib

ketgandan so'ng esa oh-voh qilib yuradilar. Ota-ona bog'cha, maktab bilan yaqin aloqa o'rnatsa, oiladagi tarbiyaviy ishlar ijtimoiy tarbiya bilan uyg'unlikda olib borilsa, bola shaxsining shakllanishida xatolar ro'y bermaydi.

Oila tarbiyasida katta-kichik masala yo'q. Shuning uchun ovqatlanish, muomala, yurish-turish, kiyinish, shaxsiy gigiena qoidalariga amal qilish, televidenie, radio eshittirishlaridan foydalana bilish, ko'pchilik orasida o'zini tutish, kattalarni hurmat qilishni o'rganish bola shaxsining kamol topishida birdek ahamiyatga ega bo'lgan ishlardir.

Har bir xalq o'z bolalarining baxtli bo'lishi uchun qadimdan kurashib kelgan. Buni avlodlardan avlodlarga o'tib kelgan ma'naviy xazina – kitoblardan bilsa bo'ladi. Ana shunday kitoblardan biri Sharqda mashhur bo'lgan “Qobusnoma” dir. U XI asrda, fors-tojik tilida yaratilgan, juda ko'p tillarga tarjima qilingan. 1860-yilda Ogahiy tomonidan o'zbek tiliga tarjima qilingan bu asar o'zbek xalqining oila tarbiyasini amalga oshirishda yordam beradigan qo'llanmalardan biriga aylangan. Bu kitobda kasb-hunar o'rganishning zarurligi xususida shunday deyiladi: “Agar tabiatning har qancha asl bo'lsa ham, unga mag'rur bo'lmagil, chunki tan go'zalligi hunar bezagi bilan ziynatlanmas ekan, hech narsaga arzimaydi. Masalan, debdurlarkim, ulug'lik akut va bilim bilandir, nasl-nasab bilan emas. Ota-onang qo'ygan otlariga mag'rur bo'lmagil, bu ot faqat tashqi ko'rinishdan boshqa narsa emas. Ammo sen hunar bilan bir nomga ega bo'lgil”. Binobarin, har qanday kasbning ustasi bo'lish uchun oilada bolaga yo'l ochish kerak, chunki bolalikda shakllangan mohirlik, uddaburonlik sifatleri bir umr doimiy yo'ldosh bo'ladi.

Ota-ona bola tarbiyasida bir yoqadan bosh chiqarishi zarur, agar ota boshqacha, ona boshqacha talab qo'ysa, bolada ikkiyuzlamalik alomatlarini ko'ramiz. Bunday paytda ota-ona darhol o'z xatosini to'g'rilashi, boladagi nojo'ya qiliqlarni yo'qotishga harakat qilishi lozim. Ota-ona shunday ish tutib, o'zlari berayotgan tarbiyaning bolaga qanday ta'sir ko'rsatayotganini kuzatib borishi, bolada nojo'ya qiliqlar sezilsa,

tarbiyaning boshqa samaraliroq usullarini qo'llashi zarur. Bolaga mehribonlik qilib, haddan tashqari erkalash uning kalondimog', xudbin qilib qo'yishi, yoki pismiqlik, jur'atsiz, tashabbussiz bo'lib qolishiga olib kelishi mumkin.

Ma'lumki, pedagogikada tan jazosi berish taqiqlangan. Shuningdek, oila tarbiyasida ham bolaga tan jazosi berishdan saqlanish lozim. Buning o'rniga tushuntirish, dashnom berish, oilaviy yig'ilishda gunohkor bolani muhokama qilish usullaridan foydalanish zarur. Bolani hadeb jazolayverish, "sen odam bo'lmasan" deb kamsitish ham noto'g'ri. Bunda bola qaysar bo'lib qoladi. Shuning uchun bolani vaqt-vaqtida rag'batlantirib turish kerak.

Xullas, har bir ota-ona bolaga tarbiya berish borasida o'zining pedagogik madaniyatini yuksaltirib borib, bu juda mas'uliyatli ishga qat'iyat va ijodkorlik bilan yondoshishi zarur.

5.4. Tarbiya jarayonida o'quvchilarda tejamkorlik tushunchalarini singdirish

Bozor iqtisodiyoti oila tarbiyasida keng qo'llanib kelingan milliy qadriyat sifatidagi tajribalariga suyanishni ham taqozo etadi. Masalan, o'zbek oilalarida bolalarni tejamkorlik ruhida tarbiyalab kelganlar, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaganlar.

Ma'lumki, "iqtisod" so'zining ma'nosi keng bo'lib, chuqur mazmunga ega. Ko'p o'rinda bu so'z xalq ichida "tejamkorlik" so'zining sinonimi sifatida qo'llaniladi. Tejamkorlik haqida so'z ketganda isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslikni tushunamiz.

"Iqtisod" tushunchasiga, mashhur o'zbek muayyini Abdulla Avloniy quyidagicha ta'rif beradi: "Iqtisod deb pul va mol kabi ne'matlarning qadrini bilmakka aytilur.

Mol qadrini biluvchi kishilar o'rinsiz yerga bir tiyin sarf qilmas, o'rni kelganda, so'mni ayamas. Sahovatning ziddi baxillik o'ldig'i kabi iqtisodning ziddi isrovdur. Alloh Taolo isrof qiluvchilarni suymas".

Ota-bobolarimizning o'z farzandlarini tejamkor bo'lishga

undaganlarini xalq og‘zaki ijodi misolida ham ko‘rishimiz mumkin. Masalan, tejamkorlik mavzusi xalq maqollarida ham o‘z aksini topgan. Zero, bu maqollar yuz yillar davomida avloddan-avlodga o‘tib, xalqning dilida saqlanib kelgan.

Maqollar kishilarning tarixiy tajribasi sifatida ko‘pgina sinovlardan o‘tib shakllanadi va chuqur ma‘no kasb etadi. Mana ularning ayrimlari: “Tejagan – birga birni qo‘shar, tejagan birini ham boy berar”, “Pul topish uchun kuch-quvvat kerak, tejash uchun – fahmu-farosat”, “O‘zingnikini bir bor tejasang, xalqnikini ming bor teja”, “Tejamlig-u rasomadlik – aka-uka, to‘g‘riligu halollik –opa-singil”, “Tejamkor – olqish olar, isrofgar koyishga qolar” va hokazo.

Hattoki, ota-onalarimiz tejamkorlik ruhida tarbiyalash vazifasiga farzandlarining baxtli-saodatli bo‘lishning bir sharti, axloqiy tarbiyaning bir ko‘rinishi sifatida qaraganlar.

Bozor iqtisodiyotining maqsadi jamiyatning barcha a‘zolarini, jumladan, ota-onalarni, ularning farzandlarini amaliy hisob-kitobga va oqilona omilkorlikka o‘rgatishdan iborat. Zotan, pul ham shaxsni tarbiyalaydi. Uni mensimaslik ikki tomonlama xatolarni keltirib chiqarishi mumkin. Uning bir tomoni, bolada oilaning moddiy qiyinchiliklarini bilishni istamaslik odati paydo bo‘ladi va u tekinxo‘rlikka o‘rganadi. Ikkinchi tomoni, pulga xirs qo‘yish, ochko‘zlik, xudbinlik, xasislik kabi illatlarni keltirib chiqaradi.

Ma‘lumki, azaldan ota-onalarimiz bolalarni xo‘jalik ishlari bilan tanishtirib, oilaning kiritim va chiqim ishlarini ularga o‘rgatib kelishgan. Shu tarzda, bolada oilaning moddiy ahvoli haqida tasavvur hosil bo‘lishiga e‘tibor berilgan.

Hozirgi zamonda butun dunyoda ko‘zga tashlayotgan oziq-ovqat, ichimlik suvi, foydali qazilmalar va shu kabi zaxiralarning kamayib borayotganligi, shuningdek, ahvoli sonining ortib ketayotganligi qator muammolarni keltirib chiqarayotganligi tejamkorlik, ishbilarmonlik, omilkorlik kabi qadriyatlarining umuminsoniy, umumbashariy ahamiyatini, zarurligini ko‘rsatib bermoqda.

Demak, tejamkorlik ishbilanmonlikning bir ko‘rinishi sifatida qadriyat hisoblanib kelingan va u ma’naviy-axloqiy mazmunga egadir. Bu tushunchani bola ongiga singdirib borish ota-onaning vazifasini bo‘lib, uni bajarish faqat shaxsiy ish bo‘lmasdan, balki ijtimoiy ahamiyatiga molik hodisadir. Chunki, bola o‘zida tejamkorlik tuyg‘usini shakllantira borib, o‘z mehnatini va o‘zgalar mehnatini qadriga yetadigan bo‘ladi. Buni anglab yetgan bolada o‘zi, ota-onasi va jamiyat yaratgan boyliklarni qadriga yetish, ularni asrab-avaylash ko‘nikmasi va malakasi paydo bo‘la boshlaydi.

Ota-onalar bolalarining kelajagini o‘ylab, ularni ilk yoshlaridan mehnatga solib chiniqtirib boradilar. To‘g‘ri tarbiyaning eng ta’sirli, eng samarali usuli ham shu mehnatdir. Ota-onalar bolalarining mehnatiga hamma vaqt ham muhtoj bo‘lavermaydilar, lekin bolani yoshligidan ishga o‘rgatish, mehnatga ko‘niktirish zimmalaridagi burch ekanligidan shunday yo‘l tutadilar.

Ma’lumki, har bir oilaning o‘z xo‘jaligi bo‘ladi va u o‘z xo‘jaligini sof, halol mehnati bilan quradi, bu xo‘jalik daromadi oila a‘zolarining qandaydir doimiy foyda olib turishlari orqasidan emas, balki ish haqining oshuvi va oila harajatlaridan orttirib, tejab qolish tufayli ko‘payadi.

Bizdagi oila xo‘jaligi ro‘zg‘or uchun kerakli bo‘lgan buyumlardan, ashyo va jihozlardan iboratdir. Oila davlatmand bo‘lsa, bu hol oila a‘zolari yaxshi va baxtli kechirayotganini, iste’mol buyumlari ko‘proq kelayotganini, o‘z ehtiyojlarini ko‘proq qanoatlantirayotganini bildiradi.

Har bir oila o‘z xo‘jaligini tuzatib olish yo‘li bilan turmushini yaxshilashga urinadi. Oilaning davlatmand bo‘lishi ko‘proq butun mamlakat erishgan muvaffaqiyatlarga, uning iqtisodiyot va madaniyat sohasidagi yutuqlariga bog‘liq bo‘ladi. Oilada bolalarni tejamkorlik ruhida tarbiyalashga qanchalik ko‘p e’tibor berilsa, ular xalqqa ham, ota-onalariga ham, o‘zlariga ham shuncha ko‘p foyda yetkazadilar.

Har bir bola oilaning tenghuquqli a‘zosisidir. Demak, u oila

xo'jaligining ishtirokchisidir. Shu bilan birga, bolalarimizni faqat oila xo'jaligini yuritishga qobiliyatli kishilar qilib tarbiyalabgina qolmay, shuningdek butun jamiyat xo'jaligini ham tejab-tergab yuritadigan sadoqatli fuqarolar qilib tarbiya qilmog'imiz lozim.

Barcha ota-onalar bunday tarbiya maqsadlari to'g'risida o'zlarida ravshan tushuncha hosil qilib, bu bilan o'z tarbiya yo'sinlarini doimiy ishga solib va tekshirib borishlari zarur.

Ko'pincha ota-onalar bolalarining hamma narsasi muhayyo bo'lishi, ya'ni yaxshi yeb-ichishi, yaxshi kiyinishi, katta bo'lganda uy-joyli bo'lishi haqida o'ylaydilar. Bularning hammasini farzandlariga cheksiz mehribonliklaridan va ularni behad sevganliklaridan qiladilar. Bolalarini deb o'zlarining eng zarur ehtiyojlarini qondirishni ham chetga surib qo'yadilar, lekin buni bola esiga ham keltirmaydi va hatto sekin-asta o'zini hammadan ortiq, mening istagim ota-onam uchun qonun, deb o'ylashga odatlanadi.

Bu tarbiyaning noto'g'ri va zararli yo'li bo'lib, bundan ota-onalarning o'zlari ko'proq zahmat chekadilar. Bizningcha, ota-onalar o'z farzandlarini mehnatsevar va tejamkor qilib tarbiyalash uchun quyidagilarga amal qilishlari kerak.

1. Bola o'z ota-onasining qayerda ishlashini va nima ishlab chiqarishini, bu ishlab chiqarishning butun jamiyat uchun qanday ahamiyati borligini bilishi kerak.

Umuman, bola ota-onasi ishlab, topib keltiradigan daromadning katta va foydali ijtimoiy mehnat evaziga olinadigan ish haqi ekanini mumkin qadar ertaroq yaxshi tushunishi lozim.

2. Bolani oila byudjeti bilan mumkin qadar ertaroq tanishtirish lozim. U otasi va onasining qancha maosh olishini bilishi kerak. Bola ota yoki onasining nimaga muhtoj ekanligini, bu muhtojlikning qanchalik zarurligini bilishi zarur, u oilaning boshqa a'zolari ehtiyojini yaxshiroq qondirish uchun o'zining ba'zi ehtiyojlaridan vaqtincha kechishga odatlanishi kerak. Oilaning umumiy ehtiyojiga doir masalalarini muhokama qilishga bolani ko'proq jalb qilish lozim.

3. Agar oilaning moddiy sharoiti juda yaxshi bo'lsa, bolaning o'z tengdoshlari oldida bunday yaxshi sharoit bilan g'ururlanish va maqtanishga odatlantirmaslik kerak. Bola oilaning boyligidan o'zgaralar oldida gerdayishga hech qanday asos yo'qligini tushunishi zarur.

4. Ota-onalar bolalarining halol, rostgo'y va sofdillikka odatlanib borishlarini diqqat bilan kuzatib borishlari kerak. Ular hech narsani boladan atayin yashirmasliklari va shu bilan birga uning ko'z o'ngida yotgan bo'lsa ham, so'roqsiz olmaslikka o'rgatishlari zarur. Havas keltiradigan har xil narsalarni atayin bolaning ko'z o'ngicha qo'yib, uni ana shu narsalarga beparvolik bilan, suqlik qilmay qarashga o'rgatish lozim.

5. Oilada tejamkorlik va extiyotkorlik tarbiyasini to'g'ri tashkil etib, eskirib qolgan narsalarni yaxshilab ta'mir qilib, yangisini sotib olish vaqtini cho'zish va shu yo'l bilan ota-onalar yoki oilaning boshqa a'zolari topgan pulning ma'lum qismini tejab qolish bolani juda kichik yoshligidan boshlab tejamkorlikka o'rgatiladi. Xo'jaligini yaxshi yuritmoqchi bo'lgan kishi ro'zg'orda qaysi narsaning eskira boshlanganini avvalroq payqashi, ro'zg'or buyumlarining juda eskirib qolishiga yo'l qo'ymasligi, ularni o'z vaqtida tuzattirish, bozorda yoki do'konda tasodifan ko'rib qolgan narsasini sotib olavermay, balki haqiqatan kerak bo'lgan narsani sotib olishi maqsadga muvofiqdir. Bolalarga ham shu odatni singdirib borish kerak.

6. Bola faqat o'z xonadonidagi buyumlarinigina ehtiyot qilib qolmay, balki boshqa kishilarning buyumlarini, ayniqsa, ko'pchilik foydalanadigan buyumlarni ham ehtiyot qiladigan bo'lishi lozim.

7. Tejab-tergab ish ko'rish odatlarini bolada mumkin qadar ertaroq tarbiyalamoq kerak. Odat mashq qilish bilan hosil bo'ladi. Bolada buyumlarni tejab-tergab turish istagini doimo rag'batlantirib turish kerak.

8. Pulni tejab-tergab sarflash ayniqsa muhimdir. Harajatlar ro'yxati bolaning yoshiga va oilaning qurbiga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Deylik, 10 yashar bola uchun taxminan

quyidagicha ro'yxat tuzsa bo'ladi: daftar, kitob sotib olish, yo'l kira, butun oila uchun non, sut, saryog', sovun sotib olish, uning o'zi va ukasiga ruchka olish... bola katta bo'lgan sari, bunday harajatlar ro'yxati ancha ma'suliyatliroq va murakkabroq bo'la borishi lozim.

Oilada ota-onalar o'z farzandlarining mehnatsevar, tejamkor va ehtiyotkor kishilar bo'lib etishishlarida o'zlari namuna bo'lishlari kerak. Bu tarbiya ishlari uchun juda muhim omillardan sanaladi.

Oila byudjeti va xo'jaligi.

Bu mavzuni o'rganishda oila byudjeti va xo'jaligi, uni rejalashtirish, ota-ona, bolalar o'rtasida ishlarning taqsimlanishi va oilaning iqtisodiy manbai xususida fikr yuritilib, o'quvchilarda oila byudjetining daromadi va xarajati, oila xo'jaligini boshqarish kabi tushunchalar shakllantiriladi.

O'qituvchi darsning tashkiliy qismidan keyin quyidagi ikki lavhani ikki o'quvchiga o'qitadi.

Iqtisod

Pul va molni kerakli, zarur narsalarga sarflagandan keyin qolgan puldan bir qismini kelgusi kunlar uchun saqlash lozim. shunday qilinsa, doimo iqtisod qilib borilsa, katta sarmoya hosil bo'ladi.

Iqtisod qilishga, tejashga odatlangan odamlar saodat va tinchlik bilan umr kechiradilar. To'g'ri, yaxshi yeyish, ichish, kiyish kerak, ammo "ko'rpangga qarab oyoq uzat" naqliga amal qilinsa, boshqalarning narsalariga ta'ma qilinmaydi, ko'ngil ham xotirjam bo'ladi. Qo'lida bo'lgan pulga, mulkka qanoat qilmagan odamning nafsini butun dunyo moliga ham qanoat qilmaydi.

Isrof

Isrof – o'rinsiz foydasiz ishlarga pul va mol sarflashdir. Qo'ldagi pul va molni kerakli joylarga sarflash, yaxshi idora qila olish, isrofgarchilikdan saqlanish lozim. Shuhrat qozonish uchun to'y va ziyofatlar qilib, pul sarf etish nodonlikdir. Isrof natijasida

yo'qchilik, keyin har kimning mol, davlatiga ta'ma va hasad qilish kelib chiqadi.

Bayt:

*Sen agar isrof etishni tashlading,
Ul zamon davlat etagin ushlading.*

O'quvchilarning ana shu ikki lavha xususidagi fikrlari umumlashtirilib, davom etiladi.

Har qanday oila ma'lum bir daromad hisobiga yashaydi. Davlatimiz oilalarning iqtisodiy quvvatini oshirishga yaqindan yordam berish maqsadida yildan yilga mehnatkashlarning oylik ish haqlarini oshiryapti, pensioner, talaba, yolg'iz ona ham davlat e'tiboridan chetda qolayotgani yo'q. Davlatimiz oilaga ma'naviy, iqtisodiy jihatdan yordam berar ekan, oilada kelajak yaratuvchisining xarakteri, mehnatga munosabati, axloqi, g'oyaviy-madaniy saviyasi o'sishini ko'zda tutadi, oilalarni kundalik ro'zg'or uchun zarur narsalar, uy-joy bilan ta'minlashni, ayolning mehnatini engillashtirishni o'z oldiga vazifa, qilib qo'yadi. Bu esa o'zbek oilasining mustahkamlanishida, xo'jaligi rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Shunday oilalar borki, qiyinchilik bilan topilgan pulni osongina sovradilar, ular oilaning iqtisodiy masalalari bilan yuzaki shug'ullanadilar. Ammo bu borada o'ylab ko'riladigan ko'p muammolar bor.

Oila a'zolari oyiga qancha ish haqi olishlari aniq, lekin shu pulni qaysi maqsadlarga, qanday sarflayotganlari haqida aniq hisob-kitob yo'q.

Oila byudjeti – oila a'zolarining oylik ish haqi hisobidan to'planib, daromad va xarajatlar yig'indisidir. Xo'sh tabiiy va maishiy ehtiyojiga sarflanganidan qolgan mablag'ni nimaga sarflash kerak? Turkiston sayohati uchunmi? Kitob sotib olishgami? Qimmatbaho kiyimlar uchunmi? Mashina xarid qilishgami? Buni oila a'zolari hal qilishi kerak.

Oilada bolalarni yoshligidanoq oilaning iqtisodiy masalalarni hal qilishga jalb etish, birinchidan, bolaning ota-ona oldidagi

qadrini oshiradi, bolaning o'ziga ishonchini kuchaytiradi, ikkinchidan, pul sarflash madaniyatiga, hisob-kitobga, tejamkorlikka o'rgatadi. Oila xo'jaligining iqtisodiy masalalari demokratik asosda, hamma oila a'zolari ishtirokida o'tadigan oilalarda pul-mablag' sababli janjallar ro'y bermaydi, balki oila a'zolarini oila jamoasiga yanada jipslashtiradi.

Doimiy ravishda pul yetmay qolishi ko'pgina oilalarda urush-janjalga sabab bo'ladi. Ular pulni rasamadi bilan xarajat qilishni bilmaydilar. Pulni hisob-kitob bilan xarajat qilish haqida o'quvchilarga bir jumboq aytish mumkin:

“Ota o'g'liga chaqa pul berib:

– O'zimizga, sigirimizga, tovuqlarimizga yegulik biror narsa xarid qil, –dedi.

O'g'li bozorga bordi, o'ylab-o'ylab bir narsa xarid qilib keldi. Bundan ota xursand bo'ldi”.

O'g'il nima sotib olgan edi? Qovun.

O'qituvchi javobini izohlab beradi.

Oila byudjetini, xo'jaligini to'g'ri bosh qarish uchun yil boshida er-xotin bir yil davomida qilinadigan harajatlarni hisoblab chiqadi. Bu umumiy daromadga nisbatan olinadi. Harajatlar uch qismga ajratiladi.

1. Har oyda takrorlanadigan joriy harajatlar: oziq-ovqat, turar joy haqi, transport, gigienaga sarflanadigan mablag'.

2. Aniq hisob-kitobsiz, taxminiy sarflnadigan (kitob xarid qilishga, gazeta-jurnalga) mablag'.

3. Uzoq muddat saqlanadigan buyumlar sotib olishga sarflanadigan mablag'.

4. Yillik umumiy daromaddan sug'urtaga, oilaning katta a'zolari sarf qiladigan ba'zi harajatlarni chiqarib tashlaymiz. Harajatni rejalashtirishni kunda bo'ladigan harajatlarning aniq miqdorini belgilashdan boshlash kerak, shunda undan ortgan daromad uzoq muddat saqlanadigan buyumlar sotib olishga harajatlanadi.

Kundalik harajatlar oilaning umumiy daromadiga hamda yashash usuliga qarab belgilanadi. Bunda uy-ro'zg'or ishlarini

boshqaradigan ayolga ham ko'p narsa bog'liq, shunday ayollar borki, hech qachon ovqatni aynitmaydi, nonni isrof qilmaydi, hammayoq saramjon-sarishta, hech shoshib qolmaydi, ro'zg'orida doim hamma narsa yetarli bo'ladi. boshqa bir ayol buning mutlaqo teskarisi. Bu esa ayolning qizligida uyida olgan tarbiyasiga ham bog'liq.

Ba'zi oilalar kayf-safoni, to'kin-sochin dasturxon atrofida mehmon kutishni, sovg'a-salom bilan mehmonga borishni, boshqalarni sayohatni, yana ba'zilarni kutubxonalarini uchun kitob yig'ishni sevadilar. Harajat ham shunga qarab bo'ladi.

Ayrim bolalar ota-onalarining oylik daromadlari qancha ekanligini bilmagani uchun ba'zi qimmatbaho narsa olib berishni talab qilib turib oladi. Oylik daromadni bilganda bunday qilmasdi. Shuning uchun bolani oila xo'jaligini yuritish ishlaridan xabardor qilib turish kerak.

Agar oila yaxshi ta'minlangan bo'lsa, bu haqda bolaning o'rtoqlariga maqtanishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Oila o'z ehtiyojlarini qiyinchilik bilan (ma'lum bir sabablarga ko'ra) qoplayotgan bo'lsa, shunday qilish kerakki, bola boshqalarga xasad bilan qaramasin. Bola mehnatsiz keladigan daromaddan ko'ra, qiyinchilik bilan, mehnat bilan oila hayoti yaxshilanishidan faxrlansin.

Agar oilada pul mablag'lari to'g'ri sarflansa, bu oiladagi bola bosiq, tejamkor, pulning qadrini biladigan bo'lib ulg'ayadi.

Shunaqa oilalar borki, oylik olishi bilan bolalarga shirinliklar, o'yinchoqlar sovg'a qilinadi-yu, keyin tang holga tushib qolishadi. Bunday oilalardagi bolalar pul va buyumlarning qadriga yetmaydi, borgan sari katta talablar qo'ya boshlaydi. Ota-ona qiyinchilik bilan bo'lsa-da bolaning xarxashasidan qutilish uchun aytgan narsasini olib beradi. Bunday bolada boqimandalik kayfiyati, isrofgarchilik odati, xudbinlik paydo bo'ladi. u haqiqiy yurt grajdani, mehnatkashi bo'la olmaydi.

Bundan bolaga umaman sovg'a bermaslik kerak, degan ma'no chiqmaydi, sovg'a bolaga katta xursandchilik baxsh etadi. Puxta o'ylab qilingan sovg'aning tarbiyaviy ahamiyati katta

bo'ladi.

Bolaning oila xo'jaligi ishlarida qatnashishi o'zining ortiqcha talablarini tiyishga, isrofgarchilikka qarshi kurashga o'rgatadi. Bola 8–9 yoshga yetganda harajatlarni hisobga olgan holda oldindan pul berib turish mumkin. Bola bunga o'rgangandan keyin uni muntazam ta'minlab turish zarur.

Bolaning mehnati yoki o'qishi hech qachon pul bilan rag'batlantirmasligi kerak.

5.5.Ota-onalarga tarbiyaga oid bilim berish

Inson omilini har tomonlama kamol toptirish, o'zaro yordam, o'rtoqlik munosabatlarini yanada yaxshilash, shaxsiy oilaviy va ijtimoiy hayotda oddiylik va halollik, xushmuomalalik va rostgo'ylik kabi ma'naviy-axloqiy insonlarga xos bo'lgan sifatlarni yanada takomillashtirish asosida jumhuriyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini jadallashtirish davrimizning eng muhim istiqbolli rejalaridan hisoblanadi.

Kishilik jamiyati taraqqiyoti tarixidan ma'lumki, bola shaxsining kamoloti oilada shakllanadi.

Oila jamiyat hayotini olg'a suruvchi, uni yanada yuksak bosqichlarga ko'tarib, ravnaq toptiruvchi, kelajak avlodlarni tarbiyalab yetishtiruvchi, kamol toptirish uchun mas'ul bo'lgan g'oyat muhim o'chog'idir.

Jamiyatimiz taraqqiyoti o'zining rivojlanish qonuniyatlariga asoslangan holda shaxs yetukligini ta'minlovchi va tarbiya samaradorligini oshiruvchi omillarni vujudga keltirish talabini qo'ymoqda. Shu bilan birga jumhuriyatimiz taraqqiyoti bilan oila, uning barcha hayotiy bosqichlari jiddiy o'zgarishlarga uchrayotganligini ham esdan chiqarmaslik kerak. Bizning yangi oila vujudga keltirish borasidagi muvaffaqiyatlarimiz shak-shubhaizdir. Oila erkaklar va ayollarning to'la teng huquqligi, oila uchun bab-baravar javobgarligi asosida quriladi. Biroq, yangi oilani vujudga keltirish oddiy ish emas. Bu murakkab jarayon

bo'lib, uning o'z muammolari mavjud. Mustaqil oila – uning eng muhim negizlaridan biridir.

Respublikamiz moddiy-texnika bazasining rivojlanishi o'z navbatida oilaning moddiy ma'naviy kamolotiga, bu esa o'z navbatida oiladagi bolalar tarbiyasiga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadi. Mehnatkashlarning turmush sharoitlarining muttasil yaxshilanishiga, farovonligiga olib keladi.

Oiladagi daromadlarning oshishi, bir tomondan, ota-onalarning bilim saviyalari va madaniy hayotlarning yaxshilanishiga sabab bo'lsa, ikkinchi tomondan, oila a'zolarining yuqori ma'naviy ehtiyojlarining ijobiy shakllanishiga, oilaviy munosabatlarning takomillashuviga, boyishiga, kattalar va kichiklar orasidagi muloqot mazmuniga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu sababdan bo'lsa kerak, davlatimizning, jamoatchilikning diqqat-e'tibori oilalarni mustahkamlash, yangi oilalarning qaror topishi va shakllanishiga qaratmoqda. Chunki yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash davr talabiga aylanib bormoqda.

Oila va oilaviy tarbiya muammolari ichida ota-onalarning tarbiyachilik madaniyatini oshirish va ularga umumiy tarbiyaga oid bilim berish davrimizning dolzarb masalalaridan biridir. Oilalarni pedagogika yutuqlari bilan tanishtirish ularning mustahkamligini ta'minlash vositalaridan biridir. Ikkinchi tomondan esa, bu o'z navbatida, bolalarning tarbiyasida tegishli shakl va uslublarni takomillashtirish yo'llaridan biridir. Shuning uchun ham ota-onalarni, oilalarni tarbiyaga oid bilimlar bilan, tarbiya uslublari bilan qurollantirish nihoyatda zarur.

Tarbiyaga oid bilim berish muammosi faqat ota-onalarning ishi bo'lib qolmasdan, balki keng ma'noda davlat ahamiyatiga molik ishdir. Hukumatimiz qarorlarida ta'kidlanganidek, barcha tashkilotlar, mehnat jamoalari, umuman jamiyat axloqiy sog'lom, ma'naviy boy, mustahkam oilani vujudga keltirish to'g'risida, onalar haqidagi, mamlakatning kelajagi bo'lgan yoshlar haqidagi g'amxo'rlikni kuchaytirishi zarur. Ota-onalarning bolalar tarbiyasi haqidagi, ularni turmushga va mehnatga tayyorlash to'g'risidagi mas'uliyatini oshirish zarur.

Jamiyatimizdagi har bir to'laqonli shaxs bolalarning tarbiyachisi bo'lishi, yangi insonni har tomonlama kamol toptiruvchi barcha holatlarda, shart-sharoitlarda ishtirok etishi lozim. Har bir yigit-qiz bo'lajak ota-onalardir. Shu sababli jamiyatimiz ularning qanday oila qurishlariga befarq qarab turolmaydi.

Tarbiyani maqsadga muvofiq tashkil etish sharoitlaridan biri ota-onalarning tarbiyaviy savodxonligiga bog'liqdir. Faqat tarbiyaga oid bilimlarni targ'ib qilish orqaligina oilaviy tarbiya bilan ijtimoiy tarbiya uyg'unligini ta'minlash mumkin. Bu ishlarni amalga oshirishda mahalliy shart-sharoit, tarbiyaga oid jurnallar, gazetalar va ularda bosilgan tarbiyaga oid mavzulardagi maqolalardan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ota-onalarni tarbiyaga oid psixologik bilimlar bilan qurollantirmasdan turib oilada tarbiya jarayonini to'g'ri tashkil etish mumkin emas. Demak, oila hayotini tarbiyaviy jihatdan to'g'ri tashkil qilish uchun o'qituvchilar, keng jamoatchilik pedagogika fani orqali aholida yordam berish, ota-onalarga tarbiyaviy bilim berish tizimini ishlab chiqishlari lozim.

3 Pedagog-olimlar tadqiqotlarida isbotlanganidek, oilaviy tarbiyaga doir ishlar quyidagi sharoitlarda bajarilsa, uning samaradorligi yanada oshadi:

– maktab o'zining barcha ta'sirlari majmuini oilaviy tarbiya jarayoniga izchil yo'naltira olsa;

– o'qituvchilar jamoasi oila bilan o'zaro hamkorligi davrida o'zlarining etik-pedagogik tarbiyaviy talablarini to'g'ri tashkil eta olsalar;

– Xalq ta'limi sohasidagi idora va muassasalar tashkilotchi ota-onalarni tarbiyaviy jarayonga torta olsalar;

– o'qituvchilar tomonidan oilaviy tarbiyaga rahbarlik bolalar maktabga kelmasdan oldin boshlansa va bu ish ularning barcha o'quv yillarida davom ettirilsa. /

Bu masalalarni ijobiy hal qilishda shahar, tuman hokimliklari va xalq ta'limi organlarining tarbiyaviy imkoniyatlari kengayotgan paytdagi ta'siri hozirgi kun nuqtai nazaridan muhim

ahamiyat kasb etmoqda. Demak, mamlakatimizda umumiy ta'limni sifat jihatidan tubdan yangilash asosida yoshlarni har tomonlama kamol toptirish uchun aholiga tarbiyaviy bilim berishni har qachongidan ham yuqori saviyaga ko'tarish bizning muqaddas burchimizdir.

Oilaning ijtimoiy kuch-quvvati uning tarbiya berish imkoniyatlarida, ijtimoiy faol insonni tarbiyalash qobiliyatlarida ekanligini deyarli hammamiz bilamiz. Lekin bila turib hamma vaqt ham bu imkoniyatlardan foydalana olmaymiz yoki tarbiya berishda o'zimiz sezmaganda holda xatolarga yo'l qo'yamiz.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, umumiy o'rta ta'lim saviyasining pastligi past malakali shaxslarning vujudga kelishiga, bu esa o'z navbatida moddiy ta'minotning yomonlashishiga, oila ma'naviy dunyosining g'ariblashishiga, madaniy boyliklardan ma'lum darajada bebahra qolishisha, shuningdek, ularni o'zlashtirish qiyinchiliklarini yuzaga chiqaradi. Shularga asosan, bolalarning ta'lim va tarbiya taraqqiyoti saviyasi ko'p omillarga:

- ota-onalarning savodxonligiga;
- bolalari uchun xonalarning ta'minlanish sharoitlariga;
- oiladagi bolalar soniga;
- oilada ota yoki onaning borligiga yoki birortasining yo'qligiga;
- ota-onalarning ma'lumoti, kasbiga;
- oilaning moddiy ta'minlanishi va hokozolarga bog'liq deb ayta olamiz.

Agar ota-onalarga umumiy tarbiyaviy bilim berishda olimlarning tavsiyalari, oilaviy tarbiyaga doir xalq pedagogikasi tajribalari, shahar, tuman, qishloq, mehnat jamoalari, shuningdek, mehnat va urush faxriylarining maslahatlari, tavsiyalariga tayanilsa, so'zsiz bu ishning samaradorligi oshadi. / 2

Oiladagi tarbiyaviy sharoitni yaxshilash yoshlar tarbiyasi samaradorligini oshirishga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Albatta, bunda oilaning ruhiy muhiti, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari asosiy va hal qiluvchi rol o'ynaydi. Maktab, sinf,

o'rtoqlari va barcha muloqot manbalariga nisbatan oilada aniq tarbiyaviy omillarga amal qilinsa, nazorat ostida olinsa, tarbiya to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'ladi.

Ota-onalarning bolalar tarbiyasiga doir o'z bilimlarini doimo oshirib borishlari, tarbiyada talabchanlik, ota-ona va katta yoshdagi kishilarning o'zaro ahilligi, kichiklarga g'amxo'rlik oilaviy tarbiya asosini tashkil etadi. Busiz oilaviy tarbiyada muvaffaqiyatga erishish mumkin emas.

Ikkinchi tomondan, har bir oilada bola tarbiyasi yuzasidan aniq bir maqsad bo'lishi kerak. Eng muhimi, yosh avlod tarbiyasiga ota-ona yoki aka-uka, opa-singil sifatidagina emas, balki jamiyatning haqiqiy fuqarosi sifatida ham e'tibor berish, yoshlarni mazmunli kelajagimizga ishonch va sadoqat ruhida tarbiyalash zarur.

Bola hayot haqida, yaxshilik yoki yomonlik, foydali yoki zararli tushunchalarni birinchi navbatda oilada ota-onasi, aka-uka yoki opa-singillaridan oladi. Agar bog'cha, maktablarda tarbiyachi, o'qituvchi bolalarga ta'lim bersa, tarbiyalasa ota-onalar faqat tarbiyalab qolmay, balki ular bilan birga yashaydilar ham. Binobarin, ular bolalarga ta'sir ko'rsatishning ko'p imkoniyatlariga egadir. Hamma gap shundaki, oilaviy tarbiyaning samaradorligi bolalarning tarbiyasi uchungina sarflangan vaqt bilan o'lchanmay, balki oilaning ijtimoiy hayot bosqichi bilan, ota-onalarning obro'si va ularning axloqi bilan aniqlanadi. Bunda ota-onalarning, katta yoshdagi kishilarning bola tarbiyasi yuzasidan burch mas'uliyatini chuqur his qilishlari yetakchi mezondir. Aniqroq qilib aytganda, oila davrasida kattalarning, xususan, ota-onalarning ijobiy munosabatlari bolalarni to'g'ri tarbiyalashning birlamchi va zaruriy shartidir.

Bayon etilgan fikr va mulohazalar ota-onalarga tarbiyaga oid bilim berish yuzasidan quyidagi umumiy xulosalarni chiqarish imkonini beradi.

Oilaviy tarbiya samaradorligini oshirish, aholining umumiy madaniy saviyasini oshirish ma'lum darajada ota-onalar va katta yoshdagi kishilarning savodxonligiga bog'liq. Bu masalani ijobiy

hal etishda ta'lim-tarbiya yuzasidan targ'ibot ishlarini olib boruvchi va bu borada tarbiyaviy markaz rolini o'ynovchi umumiy ta'lim maktablarining roli beqiyosdir.

Ota-onalarni ta'lim-tarbiya va o'quv fanlari mazmuni bilan tanishtirish maktabning muqaddas burchidir. Bu vazifalarni faqatgina amaliy ishda, o'qituvchilarning amaliy faoliyatlari orqaligina ro'yobga chiqarish lozim. Ota-onalarni tarbiyaviy madaniyatga jalb qilishda so'z bilan ish birligi amalda ta'minlangan bo'lishi shart.

Maktabning tom ma'noda tarbiya markazi rolini o'ynashi uchun o'qituvchi va ota-onalarning maqsad va vazifalari, ularning amaliy faoliyatlari bir-birlari bilan chambarchas bog'langan bo'lishi shart. Bu borada maktabning eng muhim vazifasi ota-onalarga tarbiya ishida va bolalarning mehnati va dam olishini ko'ngildagidek uyushtirishda amaliy yordam berishdir.

Tarbiyaviy madaniyatining samaradorligini oshirishda maktablarda o'tkaziladigan ota-onalar majlisi muhim ahamiyat kasb etadi. Maqsadga muvofiq, mazmunli tashkil etilgan sinf majlisida tarbiyaga oid manzaralar bo'ladi, o'zaro yoki jamoaviy ta'sir ko'rsatishning yo'l va usullari, mehnatsevarlik, vijdonli bo'lish, mustaqillik, yaxshilikka mehr-muhabbat, do'stlik haqida fikr yuritiladi.

Maktabning ota-onalar jamoatchiligi bilan aloqa qilishida o'qituvchi va tarbiyachilarga yaqindan yordam beruvchi bo'g'in maktab ota-onalar qo'mitasidir.

Bolalarni tarbiyalash ota-onalarning muqaddas burchidir. Axloqan pok, ma'naviy dunyosi boy oila deganda, bizda katta va kichiklarning o'zaro hurmati, bir-birlariga yordami, bir-birlariga izzat va hurmati tushuniladi. Xalqimizda yomonlikka qarshi kurash bo'lmagan joyda yaxshilik tug'ilmaydi, degan ma'noli gap bor. Bu gap yoshlar tarbiyasiga ham taalluqlidir. Ayrim yoshlarda ko'rinadigan axloqiy nuqsonlarni yo'qotish ularda ma'naviy go'zallik hosil qilish uchun qunt va qat'iyat bilan kurashmoq lozim.

5.6. Oilaviy urf -odatlar, an'analar

An'analar juda murakkab, ko'p qirrali ijtimoiy hodisa bo'lib, ular ijtimoiy hayotning barcha tomonlarini qamrab oladi.

Har bir xalqning ilg'or va qoloq an'analari bor. Hap bir an'ananing ilg'orligi va qoloqligi, avvalo jamiyat hayotida uning qanday rol o'ynashiga bog'liq. Ilg'or an'analar doimo xalq manfaatlari uchun xizmat qilgan va qilib kelmoqda. Ular ma'lum tarixiy sharoitlarda vujudga kelib, sinflar, millatlar va umuman jamiyatning ma'lum ehtiyojlarini qondirgan. Eskirib qolgan unsur yaxshi sharoitlarda yuzaga kelgan, mazmuni jihatidan yangi bo'lgan unsurlarga o'z o'rnini bo'shatib bergan. Shu sababli ham tarixiy taraqqiyot davomida xalq turmushining yangi sharoiti talablariga javob beradigan ba'zi an'analar saqlanib qoladi va xalq ommasi manfaatlariga uzoq vaqt xizmat qiladi, ayrimlari esa o'z umrini o'tab, o'rnini jamiyat taraqqiyoti yuzaga keltirgan yangi an'analariga bo'shatib beradi.

Taraqqiyot davomida kishilarning, yangi avlodi o'zining ma'lum an'analariga amal qilib, ularga o'z hissasini qo'shadi, ularni o'zgartiradi, yangi tarixiy sharoitda yuzaga kelgan yangi fikr va tuyg'ular bilan boyitadi. "An'ana" tushunchasi "urf-odat" tushunchasi bilan mustahkam bog'langan. An'ana tushunchasi ijtimoiy munosabatlarning, ijtimoiy ongning barcha shakllariga taalluqli bo'lib, hajm va mazmun jihatidan urf-odat tushunchasidan kengroqdir.

Ibtidoiy jamiyatning ilk davrida urf-odatlar shakllangan bo'lib, bu davrda hali hech qanday doimiy tasavvurlar vujudga kelmagan edi. Urf-odatlar jamiyatning dinsiz davrida yuzaga kelgan ijtimoiy hodisadir. Ular kishilarning ijtimoiy mohiyati zaminida vujudga kelib, jamiyat rivojlanishiga, kishilar ongining o'sishiga faol ta'sir ko'rsatgan. Chunki kishilar an'ana va urf-odatlar orqali o'zlarining mehnat jarayoni, ijtimoiy xatti-harakatlarini tabiiy-estetik shaklda ifodalaganlar. Bunday odatlarga ko'pchilik qiziqish bilan qaragan, ular faol mehnat malakalarining o'sishiga jiddiy ta'sir etgan, kishilarda kuchli ijobiy tuyg'ular uyg'otgan.

Urf-odatlar orqali shaxs jamoa bilan chambarchas bog'langan, jamoaning ijtimoiy, axloqiy normalarini, ideallarini anglagan va qabul qilgan. Demak, an'ana, urf-odatlar insonning ham hissiyotiga, ham tafakkuriga kuchli ta'sir etuvchi hodisadir. Ular insonda turli kechinma va kayfiyatlar uyg'otadi.

Inson turmushidagi urf-odatlar ma'lum darajada odamning o'z-o'zini, ijtimoiy burchini anglashga, shaxs sifatida shakllanishiga ham ijobiy ta'sir qiladi. Ular odamlarga hayot kechirish, kurashish uchun ijtimoiy yo'l-yo'riqlar beradi. Bu xususiyat uzoq o'tmishdagi urf-odatlardan tortib, bizning davrimizdagi urf-odatlariga ham xosdir. Chunki fan, adabiyot, san'at sohasida urf-odatlar amal qilmaydi, mehnat an'analari ham urf-odat sanalmaydi. Urf-odatlar oilaviy turmush munosabatlarining, axloqiy normalarning mayda tafsilotlarida namoyon bo'ladi. Xotin-qizlar bilan munosabatda bo'lish tartiblari, ular bilan salomlashish qoidalari, keksalarga ko'rsatiladigan hurmat-ehtirom, mehmondorlik va mezbonlik qoidalari, dafn marosimlariga borish, undan qaytish tartiblari va boshqalar urf-odat hisoblanadi.

An'analardan farqli o'laroq urf-odatlar kishilarning ishlab chiqarishdan tashqari faoliyatlarini o'z ichiga oladi. Shuning uchun urf-odatlar nisbatan barqaror ijtimoiy munosabatlar yig'indisi hisoblanib, ko'pincha jamoatchilik fikriga tayanadi. Xulosa qilib aytganda, kishilarning mustahkam qaror topgan urf-odatlari didlari, hulq-atvor qoidalari hamda ijtimoiy munosabatlarning norma va prinsiplari yig'indisidir.

Maishiy hayot va oilaviy turmush urf-odat bilan chambarchas bog'langan hodisadir. Ular kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyot jarayonida shakllangan va rivojlanib boradigan obyektiv hodisa bo'lib, jamiyat tarixining ilk davrida vujudga kelgan. Har bir oilaning ichki tartibi, boshqa oilalardan ajralib turadigan o'ziga xos xususiyatlari bo'ladi, ya'ni har bir oilada dam olish, mehnatni uyushtirish, bayramlarni nishonlash, o'zaro munosabatlarga kirishda o'ziga xoslik bor.

An'analar va urf-odatlar yoshlarni yuksak ideallar ruhida

tarbiyalashda ta'sirchan vositadir. Zero, an'ana va urf-odatlarni shakllantirish, hayotga tadbiq etish murakkab jarayon bo'lib, buning uchun uzoq vaqt kurash olib borish, ijtimoiy va ma'naviy yutuqlarimizni yanada rivojlantirish, umummilliy an'analarni takomillashtirish talab etiladi.

Yangi an'analar va urf-odatlar turmushimizni ma'naviy jihatdan to'ldiradi, turmush tarzining ijtimoiy-axloqiy, estetik idcallarini, xulq-atvor namunasini, kishilarning mehnatga bo'lgan munosabatini mustahkamlaydi, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, g'oyalarni aks ettiradi.

VI bo‘lim. TARBIYAVIY TADBIRLAR

1-mavzu: “Birinci qo‘ngiroq – salom, maktab” bayrami

Insonning shakllanishi jarayonida uning maktabga ilk qadam qo‘yishi va bilim olishga kirishishi eng muhim hodisalardan biridir. Bu voqeaga ota-onalar, maktab ma‘muriyati va bolalar oldindan tayyorgarlik ko‘radilar. Bolalar maktabga ilk marta boganda hayajonli va tantanali holat, ya‘ni bayram kayfiyati vujudga keladi. Aynan shu paytda maktablarda “Salom, maktab” yoki «Birinci qo‘ngiroq» bayrami shunchaki birinchi sentabrni nishonlash bo‘lib qolmay, balki jajjigina o‘gil-qizlarning buyuk va muqaddas dargoh – maktabga qadam qo‘yishlari kunidir.

1 sentabr – Mustaqillik, Tinchlik, Bilimlar bayrami kunidir va bularning tantanasining timsolidir. Mustaqillik bayramining davomi sifatida Yangi o‘quv yili boshlanishining o‘zida ham ramziy ma‘no bor. Bu umumxalq bayrami bo‘lib, chuqur va Erkin bilimlar olamiga sayohat qilish uchun ijodiy kurash sifatida an‘anaga aylanmoqda.

O‘qituvchi va o‘quvchilar uchun muborak shodlik kuni bo‘lgan birinchi qo‘ngiroq chalinadigan bayramni munosib o‘tkazish uchun quyidagi birinchi qo‘ngiroq bayrami tartibotini e‘tiboringizga havola etamiz.

“Birinci qo‘ngiroq” bayrami tartiboti

Bugun yangi o‘quv yilining birinchi kuni, katta-yu yosh, o‘qituvchi-yu o‘quvchi, barcha- barcha shod.

Maktab hovlisi bayramona bezatilgan. Hamma yoq orasta. Devorlarda quyidagi shiorlar osilgan: “Istiqloq muborak, O‘zbekistonim!”, “Vatan mustaqillik nuriga to‘lsin», “Jahon xaritasi mukammal bo‘lsin”, “Yangi o‘quv yilingiz muborak bo‘lsin”.

“Birinchi qo‘ngiroq” tantanalariga ota-onalar, homiy tashkilot

vakillari, mahalla faollari, faxriy o'qituvchilar taklif etiladi.

1-suxandon: Aziz yurtdoshlar! Bugun elimizda yana bitta bayram – Mustaqillik bayrami. Mustaqillik va Bilimlar kuni bayramidir. Bayram muborak, aziz do'stlar.

O'zbekiston madhiyasi yangraydi.

2-suxandon:

Mustaqillik, kuylayman seni
Bor ovozim, kuylarim bilan.
Mustaqillik, asrayman seni
Kerak bo'lsa hayotim bilan.

1-suxandon: Hurmatli mehmonlar, qadrli o'qituvchilar, aziz ustozlar! Assalomu alaykum! Bugun biz uchun haqiqiy bayram, bugun Yangi o'quv yili boshlanadi. Birinchi qo'ng'iroq chalindi. Ona maktab o'z egalarini bag'riga oladi.

Maktab haqida she'r o'qiladi.

Bugun ko'pgina uka va singillarimiz birinchi marotaba maktab ostonasiga qadam qo'ydilar. Ular ilk bor maktab, o'qituvchi – ustoz bilan yuzma-yuz kelmoqdalar. Bu jajji kichkintoylar maktabimiz dargohida ta'lim-tarbiya olgani qadam qo'ydilar. Keling, bugun biz ularga mustahkam sog'lik, bilim olishlarida iroda tilab qolamiz.

2-suxandon: Bugun yurtimiz qo'sha-qo'sha bayramlarning guvohi bo'layapti. Bugun chalinayotgan karnay-surnay sadosiga jo'r bulib yangi o'quv yili boshlanayotganidan darak beruvchi qo'ng'iroq ham jarangladi.

"Salom maktabim" qo'shig'i ijro etiladi.

2-suxandon: Mustaqillik kunida maktabimizning eng yosh avlodi bugun intiqlik bilan, qalblarida hayajon, qo'llarida guldasta bilan maktab ostonasiga ilk qadamlarni qo'yyaptilar. Ularning otanalari kamoli ishonch bilan, kelajakka katta umid bilan ajoyib,

mehribon, bilimdon, jonkuyar ustozlari qo'llariga farzandlarini topshiradilar. O'z navbatida bolalar ham ustozlarga minnatdorchilik izhor etadilar.

Kichkintoylarning chiqishi.

1-o'quvchi:

Men maktabga boraman,
Bugun birinchi setyabr,
O'rtoqjon, bo'l, birga yur!
Nega shoshilmay axir,
Men maktabga boraman.

2-o'quvchi:

Chehramda sho'x tabassum,
Gulga to'la quchog'im.
Bu kun seni kutyapman,
Jarangla, qo'ngirog'im.

3-o'quvchi:

O'qituvchim onamdir,
Maktab – bilim quchog'i.
Tezroq kitob ochayin,
Jarangla, qo'ngirog'im!

4- o'quvchi:

Yangi safarga boshla,
Gullasin chaman bogim.
Jarangla, qo'ngirogim!
Yutuqlar bo'lsin mo'l-ko'l,
Ochaylik tinchlikka yo'l.
Vatan – suyangan tog'im,
Jarangla, qo'ng'irog'im!

"Olib bering alifbe" she'riy sahna ko'rinishi (qizcha va onasi ishtirok etadi)

Onasi: Qizalogim senga men
Atlas olib beraymi?

Qizcha: Yo‘q.

Onasi: Chamandagi alvonrang
Guldan terib beraymi?

Qizcha: Yo‘q.

Onasi: Nima bo‘ldi, ayt, qizim?
Olaqolgin o‘yinchoq!

Qizcha: Hey,
Meni sevsangiz, oyi,
Olib bering alifbe.

“Tinchlik” she’ri o‘qiladi.

1- o‘quvchi:

Tinchlik bo‘lsin doimo,
Osmon bo‘lsin musaffo.
Quyosh kulsin, dunyoda
Urush bo‘lmasin aslo.

O‘quvchilar va’dasi

O‘qiyman! Maqsadim- maktabimizning fahri, a’lochisi, erkasi
bo‘lmoq!

1-suxandon: Yurakka va keyin daftarga avval “Vatan” so‘zini
bitamiz.

Vatanim

Vatan bu – ozodlik degani,
Vatan bu – ona tilingda kuylamoq,
Vatan bu – ona tilingda so‘zlamoq.

Qani bolalar, birgalashib hayqiring:
“O‘zbekiston – mening vatanim!”

O‘zbekiston haqida qo‘shiq ijro etiladi.

2-ukuvchi. Tabrik uchun Suz 11 sinf ukuvchilariga (11 sinf ukuvchilari Suz oladilar)

1- o‘quvchi: Bu kun o‘zgachadir jilvali olam,
Bu kun o‘zgachadir quvonch, kuylarim.

2- o‘quvchi: Bu olamda siz borsiz, aziz ustozlar,
Shunchalar jilvali shunchalik erka,
Ana ko‘rayapsizmi olam gullarin,
Sizga uzatmoqda qalblari tilka.

3- o‘quvchi: Bu olam gullari sizning gulingiz,
Siz taratgan ziyo kelajak olar.
Bu olam – u sizning o‘quvchilaringiz,
Sizdan ta’lim olgan haqiqiy odam.

4-o‘quvchi: Aziz ustozlar misli go‘yo nur,
Harorat-la yashar har shogird qalbi.
Kuyi, mehri-ziyosi tuganmas abad,
U xuddi sizning mehringiz kabi.

*Hamma o‘quvchilar birgalikda:
Aziz ustoz, sizga hamisha ta’zim!*

*(karnay-surnay sadosi ostida havaskorlik to‘garagi
qatnashchilari raqsga tushadi)*

Jajji kichkintoylarni tabriklash uchun so‘z maktab direktoriga beriladi.

Maktab direktori: Hurmatli ustoz-mualimlar, aziz o‘quvchilar!
Mana bugun siz yangi o‘quv yilini boshlash uchun yig‘ildingiz.

Sizlarni yangi o'quv yili bilan tabriklayman. Aziz o'quvchilar, sizlar bilim olishga jiddiy e'tibor berishingiz lozim. Ilmli, bilimdon kishi har doim o'z qadrini topgan. Buyuk donishmand Mirzo Ulug'bek o'z davrida

“Ilm inson ko'zini ochar, qulog'in ochar,
Fan miyaga idrok bilan yorug'lik sochar, –

deb bejiz aytmagan.

2-suxandon: Shukurlar bo'lsinki, mustaqillik tufayli o'z tilimizga ega bo'ldik. Unga Davlat tili maqomi berildi.

Ona tili

Tilim tilim, ona tilim,
Tillar ichra sara tilim.
Shirin-shakar ma'no tilim,
Ona tilim – a'lo tilim.

O'tmishi bor tarixga boy,
Navoiydan olgan chiroy.
Orzu-havas bunda talay,
Ona tilim – a'lo tilim.

Yana qayta tugilgansan.
Baxt-iqbolga yo'grilgansan.
O'lkamizga nur bo'lgansan,
Ona tilim – a'lo tilim.

1-suxandon: Endi tabriklash uchun So'z navbati mahallamiz oqsoqoliga

(O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining xalq ta'limiga oid moddasi haqida gapirib o'tadi.)

2- o'quvchi: navbat 10- sinf o'quvchilariga
“Tanovar” raqsi ijro etiladi.

1- o'quvchi: So'z boshlang'ich sinflar bo'yicha ilmiy bulim mudiriga beriladi.

2-o'quvchi: Endi azizlar, tabriklash navbatini ukajonlarimizga beramiz.

So'z 3-sinf o'quvchilariga beriladi. Ular "Maktabni sog'inib" she'rini o'qishadi.

1- o'quvchi:

Sog'inibman maktabim,
Rosayam buni qarang.
Yurakdan chiqar gapim,
Yurgan ekanman arang.

2- o'quvchi:

Ikkinchi sog'inganim
Sinfdosh-tengqurlarim.
Ularni ko'rganimda
To'lganday bo'ldi bag'rim.

3- o'quvchi:

Qo'ng'iroq jaranglari
Musiqaday jonga huzur.
Ortiqroq aytgan bo'lsam
Soginchim, uzr-uzr.

4- o'quvchi:

Sinfimiz eshigi-chi
Ochganday bo'ldi quchoq.
Sog'inch-u sevinchimni
Ta'riflash qiyin shu choq.

2-o'quvchi: 1-sinflarni tabriklash uchun so'z 11-sinf o'quvchilariga beriladi .

1-o'quvchi: Birinchi qo'ngiroqni chalish 11-sinf a'lochi o'quvchisi... bilan 1-sinf o'quvchisi...ga topshiriladi.

Bayroqdor guruh chiqib ketadi.

11-sinf o'quvchilari 1-sinf o'quvchilariga esdalik sovg'alari

berib maktabga olib kiradilar. Shu vaqtda musiqa yangraydi. *(hamma o'q uvchilar o'z ustozlari boshchiligida sinflariga yo'l oladilar).*

2-mavzu: “Vatanni sevmiq iymondandir”

Ertangi kuning egalari bo'lgan yoshlarni vatanparvarlik, milliy g'urur va iftixor ruhida tarbiyalash eng dolzarb masaladir. Chunki vatan kelajagani yoshlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Shuning uchun kelajak avlodni har tomonlama yetuk, barkamol insonlar qilib tarbiyalash ishi Prezidentimiz va davlatimiz rahbariyatining olib borayotgan ishlarida eng muhim vazifa bo'lib turibdi.

Yosh avlodni O'zbekistonimiz tarixi, uning boy madaniy me'rosi, respublikamiz ramzlariga sadoqat ruhida tarbiyalash, shunday Vatanda yashashdan faxrlanish tuyg'usini shakllantirish bizning sharaflı burchimizdir. Buning uchun har bir darsda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishga yordam beruvchi omillardan mohirona foydalanish, shaxsni o'zligini anglashga, xalq baxt-saodati uchun kurashuvchi qilib tarbiyalash, ularni halol mehnatga o'rgatish darkor.

“Vatanni sevmiq iymondandir” mavzusidagi ertalikning maqsadi ham, ahamiyati ham Vatan tuyg'usining muqaddasligini aniqlashga yo'naltirilgan. Ertalikni o'tkazish uchun maktab sahnasi chiroyli qilib bezatiladi. O'zbekistonning davlat bayrog'i, gerbi sahna to'riga qo'yiladi. Sahnadan O'zbekistonimiz go'zal tabiati aks ettirilgan rasmlar, yetishtirilgan noz-ne'matlar o'rin oladi.

Ertalik o'qituvchining kirish so'zi bilan ochiladi.

Ona vatanimiz – hur O'zbekiston!
Istiqloq tufayli ochadi jamol.
Insonlar dili g'urur va iymon,
Mehr-oqibatda topmoqda kamol.

*Sahnaga o'zga sayyoraliklarning fazoviy kemasi chiroqlarini
o'chirib-yondirib keladi va to'xtaydi.*

Undan ovoz eshitaladi:

– Men – Mars! Men – Mars! Meni eshitayapsizmi?
Kemaning quvvat olish qismi ishlamay qoldi. Men bir notanish
sayyoraga qo'nishga majburman.

*Kemadan ikki ktshi tushib keladi. Ular sahnadagi
narsalarni, davradagi odamlarni ko'rib, hayron bo'ladilar.*

1-mehmon: Bu qaysi sayyora?
Olamning qaysi nuqtasi?
Nomi nedir?
Unda kimlar yashaydi?

O'quvchi: Bu sayyora, Ona yerdir,
Yer va inson do'stlashgan.
Jannat kabi go'zal bu yurt,
Nomin aytar, sen eshit.

*O'quvchilar jonli harflar bilan "O'ZBEKISTON" so'zini
hosil qilishga kirishadilar:*

O' – O'zligimni topdi o'zbek sunbularning kunida,
Z – Zamon silsilasi qaytaraolmas maqsaddan.
B – Baht-saodat kelar albat, ahil bo'lsak, bizlarga,
E – Ezgu tilak, insoniylik burchimiz.
K – Kamolot, ulug'lik tomon intilar xalqim,
I – Insonlar orzusi yetuklik, axir.
S – Sabr-toqat, iymon bo'lsa-da yo'ldosh,
T – Tinch o'tar inson umri, baxt unga doim yuldosh.
O – Orzu-niyatlarimiz: tinch bo'lsin butun jahon,
N – Nomi jahonda jaranglar ona yurt - O'zbekiston!!!

2-mehmon: Ofarin, ofarin! Doimo bo'lsin omon, Yurtingiz va xalqingiz doimo bo'lsin omon.

Mehmon: Bu ne shodiyona, qanday tantan,
Nega bunda barcha odam jamuljam?

O'quvchi: Yurtimizda bayramlar ko'p, to'ylar ko'p,
Bag'rikenglik, mehmondo'stlik bizga xos,
Mustaqil O'zbekiston madhini kuylash
Dilimizga nur, qalbimizga zur quvonch.

Mehmon: Vatanningiz ancha issiq,
Yuzingizda ajib nur.
Menimcha, har kuningiz,
Juda o'tadi masrur.

O'quvchi: Serquyoshdir vatanim,
Qalbimiz quyoshdan-da iliq,
Shuning uchun har kunimiz
Boshlanadi qo'shiqdan.

O'zbekiston davlat madhiyasi ijro etiladi.

Mehmon: Yurtingiz O'zbekiston,
Juda go'zal bu makon,
Davlatingiz ramzlari
Ne bildirar, qadrdon?

O'quvchi: Xalqim orzu-niyati
Dilga quvonch soladi.
Bayrog'imiz dunyo uzra,
Yurtga dovrug' soladi.
Bayroqdagi to'rt xil rang,
Hamohangdir birlikda.
Bir-birini to'ldirib,

Maqsad sari tenglikda.

O'quvchi: Havo rang – tinchlik demak,
Oq rangdir – poklik ramzi.
Yashil – yashnagay el,
Qizil rang – hayot ramzi,
Yulduzlari doimo sirli
Ma'nolarni so'zlaydi.
O'n ikki – bu o'n ikki oy,
Tarixdan so'zlaydi

Yangi chiqqan to'lin oy,
Har ko'zni o'zga chorlar.
Duoga ochamiz qo'l
Dilga nur, poklik solar.

Mehmon: Bayrog'ngiz dunyo bo'ylab,
Hilpirasin, dovrug' solsin.
Yurt maqsadi, oruzi,
O'sib kamolga yetsin.

O'quvchi: To'g'rimizda-chi, orzu
Aks etgandir, biling siz,
Humo qushi yetaklar,
Maqsad sari, biling siz.

Paxta-bug'doy chambari
To'kinlik, to'qlik ramzi.
Quyosh, yulduz, suv, tog'lar
Yashnagan yurt timsoli.

Mehmon: So'zlaringiz tilimizni,
Ko'nglimizni chog' qildi.
Yurtingizga mehringiz
Bizni hayron, lol qildi.

O'quvchi: Yurtni sevmog bizlarga
Payg'ambardan merosdir.
Temur bobom o'g'itlari
Durlar ichra olmosdir.
Nomi dunyoda mashhur
Bobolarim bor mening,
Ulug'bek, Sino, Bobur,
Navoiy – jonim mening.
Shoirlarim so'zlaydi,
Vatan madhini a'lo.
Ko'ngillarning madhida
Mustaqillik bebaho.

Shu yerda o'quvchilar shoirlarning ona-Vatanni ulug'lovchi she'rlaridan, qo'shiqlaridan o'qiydilar, maqol va hadislar aytadilar, raqsga tushadilar.

Mehmon: Samo uzra kemamiz,
Yo'l kezib qanot qoqdi.
Yurt, odamlar ichra suzib,
Chin dildan bizga yoqdi.

O'quvchi: Sizlar hali biz bilan,
Ko'p suhbat qurmadingiz,
Yurtim bo'stonlarida,
Sayr qilib yurmadingiz.

Shundan so'ng o'quvchilar sahnada davra aylanib, qo'llaridagi O'zbekistonning noz-ne'matlarini, gullarini namoyish qiladi. Ularni tavsif etadilar.

O'quvchi: Poklik, oqlikni paxta
Xalqim dilidan olgan.
Shuning-chun paxta qadri
Oltindan ortiq bo'lgan.

Hamma o'quvchilar: Qancha aytsak shuncha oz.
O'zbekiston madhini,
Ko'nglimiz to'q, zo'r ishonch,
“Vatan -barchamizniki!”

Shu yerda fazoviy kemanding chiroqlari yonib, shu'la socha boshlaydi.

Mehmon: Ey, aziz insonlar, baxtlisiz doim,
Shunday yurt, shunday el ichrasiz doim.
Sizning sururingizdan ko'nglimiz to'ldi.
Ona-yurtga mehringizdan,
Serquyosh yurtingizdan,
Quvvat olib kemamiz
Uchishga tayyor bo'ldi.

Mehmonlar: Xayrlashamiz! Qolar omad siz bilan,
Yashnasin el! Qolar iymon siz bilan.

O'quvchilar: Biz o'zbeklar mehmonlarni ulug' ko'ramiz,
Yerga tashrifingizni qutlug' bilamiz,
“Oq yo'l” deymiz ko'ksimizda qo'limiz.
Mehmonlarga doim ochiq uyimiz.

O'qituvchining xotima so'zlari bilan ertalik yakunlanadi:
Aql – boylik, bergan bilan kamaymas,
Vatan madhin aytgan bilan tugamas.
“Sog'lom avlod” o'zligini xor qilmas,
El-u yurtin ulug'lagan kam bo'lmas!

Rahmat, o'quvchilar! El-u yurtimiz baxtiga doimo sog'-salomat bo'linglar.

Boshlangich sinflarda bu kabi ertaliklarni o'tkazib borish o'quvchilarda ona-Vatanga mehr-muhabbat, undan faxrlanish tuyg'usini orttiradi.

3-mavzu: “Ustoz mehri”

Boshlang‘ich sinflarning bitiruv bayrami ssenariysi.

Maktab sahnasi bayram ruhi bilan yo‘g‘rilgan. O‘quvchilarning qo‘llarida a‘lo o‘qish, bilim olishning afzalligi, vatanning ona kabi muqaddasligi, to‘g‘rilik, halollik, mehnatsevarlik, milliy qadriyatlarimizni ulug‘lash haqidagi yozuvlar bitilgan shiorlar, sahnaga yaqin qatordan hurmatli mehmonlar ustozlar, san‘atkorlar, ota-onalar o‘rin olgan. Musiqa taralib, “Ustozlar” qo‘shig‘i yangraydi.

1-o‘quvchi: Aziz murabbiylar, hurmatli ota-onalar, maktabimizga tashrif buyurgan qadrli mehmonlar! Bugungi boshlang‘ich sinflarning bitiruv kechasiga, bilim dargohiga xush kelibsiz!

2-o‘quvchi: Bu bayram hammamiz uchun ardoqli. Chunki biz birinchi sinfdan boshlab o‘qitgan ustozimiz qo‘ldan boshqa ustozlar qo‘liga uchirma bo‘layoritmiz.

1-o‘quvchi: Maktab degan qutlug‘ dargoh,
Muqaddasdir bizga har chog‘.
Bilim sari boshlar yo‘lga
Aziz o‘lka, tanish yo‘lka.

2-o‘quvchi: Har kun erta tongdan boshlab,
Asta-asta qadam tashlab,
Biz u tomon otlanamiz,
Do‘stlar ichra shodlanamiz.

1-o‘quvchi: Alifbe va hisob ortda
Bari qoldi, qoldi yodda,
Raqam tanish, harflar tanish,
Qo‘ldan kelar o‘qish, yozish.

2-o‘quvchi: Bizlar bitiruvchimiz bugun,
Bizlar uchun quvonchli kun

1-o'quvchi: Faqat qalbda g'amlik biroz,
O'qitmaysiz endi, ustoz.

O'quvchilar bir qator bo'lib, "Birinchi muallimim" she'rini o'qishadi.

1-o'quvchi: Chug'urlashib tortgancha saf,
Angraygancha turli taraf,
Sifga kirgan kunni ilk bor,
Esaymiz biz takror-takror.

2-o'quvchi: Tanaffusga chiqqan paytda
Sizni izlab qayta-qayta,
Xo'p adashib yurganimiz
Turli xayol surganimiz.

Hamma bir ovozdan:

Hali-hali yodda, ustoz,
Sizga ta'zim – sizga e'zoz.

3-o'quvchi: Qo'lga olgach qalam, daftar,
Qiyshiq, goho to'g'ri qator
Yozuvimiz chiqar edi,
Xumorimiz bosar edi.

4-o'quvchi: Qo'limizni olib qo'lga,
Yozuvimiz solib yo'lga,
Olam-olam quvonchingiz,
Bizga bo'lgan ishonchingiz,

Hamma bir ovozdan:

Hali-hali yodda, ustoz,
Sizga ta'zim – sizga e'zoz.

1-o'quvchi: Tinmas edik berib savol,
Nima to'g'ri, nima halol?

Qalbimizga joylab odob,
Yoritdingiz go‘yo oftob.

2-o‘quvchi: Nega quyosh shuncha issiq?
Tunda qayga ketar, qiziq?
Bizni bola bilganingiz,
Tinmay javob berganingiz,

Hamma bir ovozdan:

Mudom yodda qolar, ustoz,
Sizga ta‘zim, sizga e‘zoz.

3-o‘quvchi: Maktabda eng mitti edik,
Ba‘zan nohaq dakki yerdik.
Birov bizni qilsa xafa,
Chopardik deb: ustoz opa.

4-o‘quvchi: Kelardingiz darov chopib,
Qaydan bo‘lsa, bizni topib,
Panoh bo‘lib bizga doim
Aytgandingiz so‘z muloyim.

Hamma bir ovozdan:

Hali-hali yodda, ustoz,
Sizga ta‘zim – sizga e‘zoz

5-o‘quvchi: Bizlar go‘yo nihol edik,
Qarang – ancha bo‘y ham cho‘zdik.
Bilimni do‘st qilib oldik,
Ezgulik ne – bilib oldik.

6-o‘quvchi: Ammo hali oldda o‘qish,
Necha yoz-u bahor va qish.
Necha kuzda maktab tomon
Yo‘l olamiz hali-hamon.

Ammo o'sha tanish xona,
Va siz, go'yo aziz ona.

Hamma bir ovozdand:

Intiqtirar bizni ustoz
Sizga ta'zim, sizga e'zoz.

1-o'quvchi: Endi bizlar nima o'rganganimizni sizlarga namoyish qilamiz.

Davrada o'yin va raqslar, intemediyalar ijro etiladi.

1-o'quvchi: Ko'rdingizmi, bizlar bog'dagi turfa gullar.

2-o'quvchi: Yulduzlar kabi o'z iste'dodimizga ega bo'ldik.

1-o'quvchi: Biz kasblarga ega bo'lib qolmay, balki ana shu kasblarga tayyorgarlikni ham boshlab yubordik.

2-o'quvchi: Biz orzu qilishni o'rgandik, orzular esa, bizni yuksaklarga yetaklaydi.

Osmon to'la yulduzlar,
Shunda tun ham kunduzdir.
Biz bog'dagi gullarmiz,
Ko'p orzular qilgaymiz.

1-o'quvchi: Men istardim bo'lmoq shifokor
Dard bor joyda, albat davo bor.
Shifokorlar zahmati xayhot
Bunyod etmoq shod, sog'lom avlod.

2-o'quvchi: Mening orzuim bo'lmoqlik olim
Va ilmdan bermoqlik ta'lim.

3-o'quvchi: Men bo'laman murabbiy ustoz,
Shu kasbim-la topaman e'zoz.

4-o 'quvchi: Istagim bo'Imoqdir mohir muhandis,
Uylar qad roslaydi, viqorli, nafis.

5-o 'quvchi: Mening orzuim bo'Imoqlik nozir,
Tartiblashga har ishni qodir.

6-o 'quvchi: Men kosmonavt bo'lib uchgayman,
Fazolarni bir-biridan quchgayman.

7-o 'quvchi: Men-chi kompyuterni egallab mutloq,
Informatikadan beraman saboq.

1-o 'quvchi: Ana orzularimiz bilan ham o'rtoqlashdik, endi
esa yana quvnoq kuy va ashula eshitdik.

Qo'shiq yangraydi.

2-o 'quvchi: To'rtinchi sinfni bitirar ekanmiz, biz o'qigan
fanlar ko'z oldimizdan o'tmoqda. Go'yo ular o'zi bizga
eslatayotganday.

3-o 'quvchi: Qilib ko'p-ko'p xafsala,
Ishlar edik masala.
Shodlanib goh, qolib lol,
Bosh qashlab, yechib misol.

4-o 'quvchi: Varaq uzra ko'z tikdik,
Ishlab qancha ter to'kdik.
Mehnat ketmaydi bekor,
Sening katta nafing bor.

5-o 'quvchi: Biz deb qancha ter to'kkan
Rahmat matematika
Ona tili va o'qish
Osonmas go'yo.

Qoidasi uning ko'p
Va foydasi uning xo'p.
Ma'rifat bilan saboq
Ular berar umrbod.

6-o'quvchi: Rahmat senga, tabiat,
Bilim berding nafaqat.
Bildik ko'plab sirlarni
Tog', adir va qirlarni.

7-o'quvchi: Bo'lma, deya nimjon, nortuya,
Saboq berding, badantarbiya.
San'at bobida qilurmiz ta'zim,
Qalbga nur sochding, ashula, rasm.

1-o'quvchi: Rahmat dermiz har qachon,
Juda qiziq, jonajon
Bilim tili, do'st tili,
Ingliz tili, rus tili.

2-o'quvchi: Minnatdormiz sendan behad,
Aziz mehnat, senga rahmat.

Shundan so'ng o'g'il bolalar ijrosida raqs, qizlar ishtirokida xorazmcha kuyga raqs.

1-o'quvchi: Aziz murabbiylar, hammamiz uchun ardoqli bo'lgan, bizni birinchi sinfdan boshlab, qo'limizga qalam tutqazib, yozishni, o'qishni, sanashni o'rgatgan birinchi ustozimizga chin dildan minnatdorchilik bildiramiz. Bundan keyin ham yuqori sinflarda "a'lo" va "yaxshi" baholarga o'qib, ustozimiz bergan bilimni oqlaymiz.

4-mavzu: “Ustoz otangdan ulug‘”

Zal bayramona bezatilgan "Ustoz otangdan ulug‘", "Bayramingiz qutlug‘ bo‘lsin" kabi shiorlar osilgan.

1- boshlovchi: Assalomu alaykum, aziz va muhtarama ustozlar!

2-boshlovchi: Assalomu alaykum, zahmatkash yosh avlodga ta’lim-tarbiya berishda tinmay faoliyat ko‘rsatayotgan aziz murabbiylar!

1 - boshlovchi: Haq yo‘lida kim senga bir harf o‘qitmish ranj ila, Aylamak bo‘lmas ado aning haqqin yuz ganj ila.

2 - boshlovchi:

Olamda ko‘r erur muborak onlar,
Tabarruk zotlar garchand ko‘r erur,
Sizdan boshlanadi asli tafakkur,
Munis muallimlar, sizga tashakkur.

1 - boshlovchi:

Aziz va muhtarama ustozlar. Bugun ulug‘ kun, “Ustoz va murabbiylar kuni”. Ushbu kunda barchangizga sihat-salomatlik, uzoq umr, sermashaqqat, lekin sharafli ishlaringizda omadlar tilaymiz.

2 - boshlovchi: Bugungi bayram kunida kasbi faxri, g‘ururiga aylangan fidoyi ustozlarimizning nomlarini iftixor bilan tilga olsak, ularni har qancha e‘zozlasak arziydi. Ular nafaqada bo‘lishlariga qaramay hamon biz yosh avlod tarbiyasi yo‘lida tinmaydilar, shogirdlar kamoliga qarab quvonadilar.

Qo‘shiq: “Ustozlar”

1-boshlovchi: Ta’limda yana bir dastur yaraldi,

Bu Milliy dastur – hali bo‘lmagan,
Maorifda bu yangi inqilob,
Ma’rifat uyini yoritgan oftob.

2-boshlovchi:

Dasturga asosdir yangi ilmlar,
Yangi fanlar hamda yangi bilimlar.
Dunyo ilmidagi barcha yangilik
Bizlarga berilar bekam-u beko‘st.

1-o‘quvchi:

Davralarning to‘ri siz uchun, ustoz,
Maqtovlarning zori siz uchun, ustoz,
Siz bor maktablarning fayzi bo‘lakcha,
Siz kuylagan kuyning avji bo‘lakcha,
Siz ekan gullarning mavji bo‘lakcha,
Qalbimizning qo‘ri siz uchun, ustoz,
Maktablarning to‘ri siz uchun, ustoz.

2-o‘quvchi:

Oy quyosh bo‘lsa siz uchun kular,
Bosgan qadamingizda chechaklar unar,
Siz uchun go‘zallik, siz uchun gullar,
Davralarning to‘p siz uchun, ustoz.

Raqs: "Lazgi"

1 - boshlovchi:

Ta’rifga so‘z yetarmi,
Mehribon muallimim,
Fikri dono, aqli teran,
Jonajon muallimim.

Yo‘lchi yulduz bo‘ldingiz
Mehribon muallimim
So‘zingiz hikmat erur,

Dilimizni yoritgay,
Yo'limizni yoritgay
Jonajon muallimim

1-boshlovchi: Endi ustoz-murabbiylarni tabriklash
maktabimizning eng a'lochi o'quvchilariga, marhamat.

1 - o'quvchi:

Bayramingiz muborak,
Muallim-u ustozlar,
Ziyo nurlarin sochgay
So'zi dur, muallimlar.
Bugun ustozlar kuni,
Qalblarimiz beg'ubor,
Hayotimiz xushchaqchaq,
Yo'limiz doim bahor.

2- o'quvchi:

Bugun sizni tabriklar
Shogirdingiz basma-bas,
Bayramingizga atab
Kiyib keldik biz atlas.
Bu ham hurmat belgisi,
Shodliklardan nishona.
She'r o'qiy ustozlarga,
Bo'lay doim parvona.

3- o'quvchi:

Ustoz nomin tilga olsam,
Yer-u osmon kuyga solsam,
Ustoz nomin kuyga solsam,
Qalbim undan ilhom olar.
Chunki ular onamdayin,
Mehribon ustoz – rahbar.
Har bir so'zi kuch bag'ishlar,
Bizga aziz ham mo'tabar.

4- o'quvchi:

Muallim sizga atab
Yozay madhiya, doston,
Dil mehrin sizga tilab,
Ko'nglingiz aylay bo'ston.
Bo'larmikan deb ma'qul,
O'ylab yurdim yozishim.
O'tdi she'r bilan mashg'ul
Bahor, yoz, kuz-u qishim.
Qog'ozlarga to'kib bayt,
Yurakdan aytib so'zim,
Xayolimda kutardim
Suhbat qilardim o'zim.

1-boshlovchi: Murabbiylarni tabriklash uchun so'z maktabimizning boshlang'ich sinf o'quvchilariga.

2-boshlovchi: Ular ijrosida "Hikmatlar guldastasi" ni tinglaymiz.

(O'quvchilar oldindan ko'rsatilgan joylariga turib olishadi).

1-o'quvchi:

Muallim – jamiyat ko'zgusi.
Muallim – hayot yo'lining sarboni.
Muallim – muhit bog'ining bog'boni,
Ustozning so'zi – mangu masha'la.
Ustozning marhamati – quyoshdek barchaga barobar.
O'qituvchining muomalasi – ipak, talabi toshdir.
O'qituvchining ta'limi – imkoniyatga yorug'lik.
O'qituvchi ma'no dengizining duridir.
Muallim ma'naviy nuqsonsiz odamdir.

Raqs. (Boshlang'iya sinf o'quvchilari ijrosida)

2-boshlovchi:

Insonga bag‘rin ochgan,
Ilm nurlarin sochgan,
Olamda bo‘lib mashhur,
So‘zingiz jonga huzur.
Mehri daryo dur-marjon,
Ko‘rib yayrar bu jahon.
Muallimim ustozimsiz.
Qalbimning mumtozisiz!

2 - boshlovchi:

Deymiz: “Ustozim – quyosh”
Nomingiz qalbda saqlay,
Ishonchingiz oqlay,
Muallimim ustozimsiz,
Qalbimning mumtozisiz!

1-o‘quvchi:

Otani boshingga ko‘tarib yasha,
Onani ko‘zingning qarog‘iga bos,
Farzandlar baxti deb yonib yashamoq,
Aslida bizlarning o‘zimizga xos.
Ularning oldida uzolmay qarzin,
Dilingdan bir armon o‘lguncha ketmas.
Ustozlar qarzining yuki og‘irroq,
Bu qarzni uzmoqqa umring ham yetmas.

O‘qituvchi:

Dildan aytay shogirdlarim, salomim,
Navo bo‘lib qalbga kirsin kalomim,
Sizni ko‘rsam deyman, hayot davomim,
Men muallim, muallimman, muallim.
Shogirdlarim kamoliga jon fido,
El-yurtiga muhabbati zo‘r, a‘lo,
Va‘dasiga doim qilishar vafo.

Hurmatli va aziz ustozlar, murabbiylar, mehmonlar, shuning

bilan bugungi “Ustoz va murabbiylar” kuniga bag‘ishlab tayyorlangan badiiy kechamiz nihoyasiga etdi. Sizlarga uzoq-umr, sihat-salomatlik, hamisha sharaflı ishlaringizda ulkan zafarlar tilaymiz. Mustaqil, O‘zbekistonimizga barkamol, har tomonlama yetuk yosh avlodni tarbiyalashingizda sabr-toqat, kuch-quvvat tilab qolamiz, doimo sog‘ bo‘ling.

5-mavzu: “Amir Temur – faxrimiz, g‘ururimiz”

Maqsad:

- a) O‘quvchilarni buyuk bobokolonimiz, sohibqiron Amir Temur bilan tanishtirish, u ko‘rsatgan shijoatlarini o‘rgatish;
- b) o‘quvchilarni Amir Temur yo‘lidan borishga jalb eta olish.

Bayram kechasi metodi: amaliy, nazariy, ko‘rgazmali

Bayram kechasi jihozi: magnitofon, bayramga mos kiyimlar, sharlar, rasmlar.

1- boshlovchi: Assalomu alaykum, aziz tengdoshlar, hurmatli ustozlar, qadrlı o‘quvchilar!

2-boshlovchi: Assalomu alaykum, aziz tengdoshlar, mana bugun maktabimizda katta tantana. Bugun sinf, o‘quvchilarining “Amir Temur faxrimiz, g‘ururimiz” mavzusiga bag‘ishlab o‘tkazishayotgan tadbirga hush kelibsiz.

1 - boshlovchi:

Dil mehriyosi – salomim mening,
Yuragim kimyosi – salomim mening.

2 - boshlovchi:

Assalom dermiz yurakdan,
Avvalo xush keldingiz.
Izlaringiz gardi_ko‘zga to‘tiyo,
Xush keldingiz.

1-boshlovchi: Bugungi bayram kechamiz sohibqiron Amir Temur bobokolonimiz haqida ekan, ular haqida qancha gapirsak, munozara yuritsak ham ozlik qiladi.

2-boshlovchi: Keling, aziz tomoshabinlar, hozir o'z vazifalari haqida sohibqiron aytganlarini o'quvchilar ijrosida tinglab tomosha qilsak, marhamat!

Men sifatlarimning eng avvali deb beg'arazlikni tushundim. Hammaga ham bir xil ijodiy va odil qaradim, hech bir kimsani boshqasidan farq qilmasdan boyni kambag'alidan ustun qo'ymadim.

Men har doim Islomga qat'iy rioya qildim va Alloh Taoloning amri bilan ulug'langan shohlarga hurmat bilan qaradim.

Men kambag'allarga hayr-ehson qildim. Har bir mojaro va muammorni diqqat bilan tekshirdim va uni mumkin qadar to'g'ri hal qilishga butun shahdimni sarf qildim. Barcha so'zlarimda doimo haqiqatgo'ylikka amal qildim. Bu dunyo va u dunyo haqidagi eshitganlrimdagi haqiqatni ajrata bildim.

Men har kimgaki va'da bersam, unga vafo qildim, hargiz va'daga xilof ish qilmadim. Men doimo va'dalarimni aniq bajarsam shundagina odil bo'lishimni va kimsaga jabr yetkazmasligimni angladim.

1-boshlovchi: Demak Amir Temur sohibqiron hayoti kabi ibratli hayot tarzi va tutgan yo'l-yo'rug'i bugungi kun uchun ham o'rnak qilsa arziydigan ulkan maktabdir.

2 - boshlovchi: Bugun Sharqda tengi yo'q sarkarda buyuk sohibqiron Amir Temur mustaqillik, istiqloq sharofati bilan o'z Vataniga qaytdi. Uzoq yillar mobaynida o'z vatandoshlari uni qadrlash, uning tarixiy mavqeini munosib o'ringa qo'yish imkoniyatlaridan mahrum edi.

1-boshlovchi: Insof-iymon tuyg'usi, diyonat mezoni Amir Temur hayotining mazmunini tashkil etadi.

Olamning qariyb yarmiga jahongir ersa-da, u kuch-qudrat

zoʻrlik, zoʻravonlikda emas, aksincha, teran adolatda ekanligini angladi.

Shunday ekan, keling, aziz tomoshabinlar, bugun bobokalonimiz Amir Temur ruhlarini shod etib 671 yilligini bayram kechasi tarzida nishonlaymiz.

2-boshlovchi: Hozir sahnaga qizlarni taklif etamiz.

Mustahzod kuyiga raqs.

1 - boshlovchi: Marhamat, tomosha qiling.

2 - boshlovchi:

Ey oʻzgan naslidan yaralgan oʻzbek,

Shavkati olamga taralgan oʻzbek.

Asli-nasli toza buyuk millatsan,

Uluslar ichida qutlugʻ, izzatsan.

2 - boshlovchi: Sahna koʻrinishi

1-boshlovchi: Hozir sizlarga sinf oʻquvchilarining Amir Temur faoliyatining oʻziga xos xususiyatlari toʻgʻrisida tayyorlab kelgan chiqishlarini namoyish etamiz, marhamat tomosha qiling.

Birinchidan, u mamlakatda kuchayib ketgan feodal tarqoqlikka barham berib el-yurtini oʻz qoʻli ostida birlashtira oldi.

Markazlashgan yirik feodal davlatga asos soldi. Bu bilan, tijoratchilik, savdo-sotiq va madaniyat rivojiga mustahkam zamin yaratdi.

Ikkinchidan, Amir Temur bir qator xalqlar va yurtlarni mustamlakachilar zulmidan ozod boʻlishida yordam berdi.

Masalan, oʻsha davrning eng qudratli podshosi Boyazid Yeldirimni tor-mor keltirib (1402), Usmonli turklaming istibdodiga tushib qolgan “Bolqon” yarim orolidagi xalqlar va mamlakatlarga ozodlik bagʻishladi.

Oltin Oʻrda xoni Toʻxtamishni (1370-75) ikki hukmdorligidan

qutulishni qariyb 300 yilga tezlashtirdi.

2-boshlovchi: Uchinchidan, Turkiston zaminini hunarmandchilik, ilm-fan va madaniyati rivojlangan ilg'or mamlakatga aylantirdi. Amir Temurning sa'y-harakatlari bilan obod etilgan shaharlar, kasabalar, qishloqlar, Shahrisabz, Buxoro, Yassi (Turkiston) shaharlarida qad ko'targan imoratlar, Temur va Temuriylar madaniyati, "Ulug'bek va Samarqand" kabi ulug' tushunchalarning dunyoga kelishi va dunyo xalqlari tarixiga oltin harflar yozilishi ham Amir Temur bilan bog'liqdir.

1-boshlovchi: Endi maktabimiz, qoshida tashkil etilgan "Iste'dod" nomli guruhimiz ijrosida qo'shiq tinglaymiz. Marhamat. (*qo'shiq ijgo etiladi*)

2-boshlovchi: Bugun bunyod etilgan ulug' bobokalonimiz haykalida teran ramz bor, go'yoki, jahongir tulporining jilovini tortib turibdi, qilichsiz, qo'lini oldinda cho'zib jahon xalqlariga omonlik sog'inmoqda, "Kuch adolatdadir demoqda".

1-boshlovchi: Prezidentimiz Islom Karimovning ta'biri bilan aytganda, Amir Temur avvalo qudratli davlat qurgan. Davlat qudratli bo'lmasa betakror ma'naviyat ham, obidalar ham, tarixiy yodgorliklar ham bo'lmasdi.

1-boshlovchi: Sohibqiron Amir Temuming bergan nasihati va saboqlari uning o'z davri uchun qanchalik muhim bo'lgan bo'lsa, bugun mustaqil O'zbekiston rivojlanishida ham uning ilgari surgan g'oyalari o'z ahamiyatini yo'qotgan emas. Bugun Turkiston xalqlarining rivojlanishida, o'zaro munosabatlarini yo'lga qo'yishida Temur tuzuklaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.

2-boshlovchi: Davlat ishlarining to'qqiz ulushi kengash tadbir va mashvarat, bir ulushi esa qilich bilan bajo keltirilur.

I-boshlovchi: Ishbilarmon, mardlik va shijoat sohibi, azmi qat'iy tadbirkor va hushyor bir kishi ming-minglab tadbirsiz loqayd kishihrdan yaxshidir.

Garchi ishning qanday yakunlanishi taqdir pardasi ortida yashirin bo'lsa ham, aqli raso va hushyor kishilardan kengash-u tadbir istab fikrlarini bilmoq lozimdir.

“Bir ishga kirishmay turib undan qutulib chiqish yo'llarini mo'ljallab qoy”, degan ekan Temur, tuzuklarida.

Amir Temurning ibratli va nurma'no o'gitlarining har biri mazmuni va ma'no kerakligi, mantiqning kuchliligi, teranligi ta'siri, umuminsoniy qadriyatlar asosida qurilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi, ular, hadsiz xazina, odob-axloqqa oid dasturilamaldir.

Raqs ijro etiladi.

O'qituvchi: Qadrli mehmonlar, muhtaram ustozlar, aziz tengdoshlar. Shu bilan bobokalonimiz sahibqiron Amir Temur ruhlarini shod etib “Amir Temur – faxrimiz g'ururimiz” mavzusiga bag'ishlab o'tkazilgan tantanali kechamizni yakunlaymiz, e'tiboringiz uchun katta rahmat. Kimki o'zbek nomini, o'zbek millatining kuch-qudratini, uning umumbashariy rivojiga qo'shgan hissasini, shu asnoda kelajakka ishonchini anglamoqchi bo'lsa, Amir Temur siymosini eslash kerak.

6-MAVZU: “MEHRJON” BAYRAMI

Sinf bayramga moslab bezatilgan, o'quvchilar chizgan rasmlari, kuz ne'matlari qo'yilgan stol, turli gasmlar, sharlar, gullar osilgan.

Boshlovchi: Assalomu alaykum aziz ustozlar va hurmatli mehmonlar, bugun shu xonaga yig'ilgan barchanglarni hosil

bayrami bilan farzandlaringiz o‘zining tayyorlagan tadbiri bilan tabriklashmoqchi.

O‘quvchi: Hush kelibsiz mehmonlar,
Sinfimizga marhabo.
Keldi hosil bayrami,
Shodlik bo‘lsin doimo

O‘quvchi: Yig‘ildik biz bugun hosil to‘yiga,
Dehqonlar mehnatin qadrlash uchun.
Marhamat, sizlar ham keling bu to‘yga,
Ulkan xirmonlarni olqishlash uchun.

Boshlovchi: Aziz o‘quvchilar! Bugun sinfimizga hamma yoqqa nur sochib, oltinday tovlanib saxiy kuz mehmon bo‘lib keldi. Qani hammamiz birgalikda “Oltin kuz” ni kutib olaylik (*Qarsaklar. Kuz kiradi*). Qarang o‘quvchilar, Kuz bilan birga Hosiljon, Dehqonbobo o‘zlarining hosillari bilan kelishibdi. Assalom,Oltin kuz, qadamingga hasanot.

Hamma: Assalom aziz bolajonlar!

Kuz: Aziz mehmonlar!
Meni derlar “Oltin kuz”,
Tayyorlanar barcha xalq
Ulug‘ bayramga shu choq.

Hosiljon: Sizga do‘stlik salomim,
Keldirdim men xirmondan.
Dasturxonimiz to‘ysin,
O‘lkamiz tinch bo‘lsin,
Yurtimiz omon bo‘lsin

Dehqonbobo: Mana bu daraxt – behi,
Tars-tars yorilib zehi,
Ta‘mi-chi xushxo‘r beshak,

Asl paydandi o'zak,
Manavi yoq shaftolizor,
Bir kam o'ttiz xili bor.

Sinf jo'rligida "Anjir" ashulasi aytiladi, so'ngra "Hosillar" she'ri tinglanadi.

Shaftoli: Sariq-oq shaftoliman,
Zarg'aldoq shaftoliman,
Maqtanib o'tirmayman,
Manandoq shaftoliman.

Uzum: Menga yaxshi qaranglar,
Kokilimni taranglar,
Beray asalday uzum,
Sizdan o'rgilay o'zim.

Olxo'ri: Olxo'ri man, olxo'ri,
Men ham mevalar zo'ri.
Yegan borki darmonda,
Yemaganlar armonda.

Yongoq: Men shirin yong'oqman,
Ichim to'la yog'.
Do'stlar har yoqni
Qiling yong'oq, bog'.

Olma: Men sizlarning olmangiz,
Xomligimda olmangiz,
Bilmasvoyga o'xshab so'ng
Voy qornim, deb qolmangiz!

Sinf jo'rligida "Olma" ashulasi aytiladi. So'ngra bir guruh o'quvchilar ijrosida "So'nggi axborot" she'riga ishlangan sahna ko'rinishi qo'yiladi.

So'nggi axborot

Bo'lib o'tdi qishloqda
Kecha zo'r shamol.
Natijada ro'y berdi
Anchayin kor-hol.

Uzum, boshi aylanib
Bo'p qoldi kasal.
Shoxdan yiqilib olma,
Yotibdi o'sal.

Hatto gilos lat yedi
Bo'lsa ham abjir.
To'qnashuvda anorga
Chaplandi anjir.

Shamollatdi qornini
Oshqovoq polvon,
Pachiq qildi burnini
Mulla baqlajon.

Uyqichiroq bir tarvuz
Yumalab borib
Uyg'otibdi qovunning
Boshini yorib.

Noklar yerga to'kildi,
Bo'lishib bir tom.
Ammo zarar ko'rmadi
Sabzi va sholg'om.

Boshlovchi: Endi Nodira ijrosida raqs tomosha qilamiz.
(Nodira "Voy-bo'y" qo'shig'iga raqsga tushadi)

Boshlovchi: Endi bir guruh o'quvchilarimiz sizlarni tabriklash uchun "Oltin kuz" she'rini tayyorlab kelishibdi. Marhamat, ularni tinglang.

O'quvchi:

Kuz keldi, bizlarga oltin kosada
Sharbat ola keldi, bol ola keldi.
Savat-savat qilib shirin mevalar,
Omborlar liq to‘la don ola keldi.

O‘quvchi:

Kuzimizning go‘zalligin
Og‘aynilar, ko‘rganmisiz?
Gala-gala do‘stlar bilan
Duv-duv yong‘oq qoqqanmisiz?

O‘quvchi:

Har barg tilla tusin olib
Shitirlatib to‘kiladi.
Olma shoxida olmasin
Ko‘tarolmay bukiladi.

O‘quvchi:

Har muyushda to‘p-to‘p xirmon,
Tog‘-tog‘ bo‘lib uyuladi.
Kuz hosili omborlarga
Mashinalar quyiladi.

Sinfjo‘rligida “Handalak” ashulasi tinglanadi.

Boshlovchi: Shuning bilan bayramga atalgan tadbirimiz
nihoyasiga yetdi. E‘tiboringiz uchun rahmat!

7-MAVZU: KONSTITUTSIYA KUNI

*Zal bayroq, gerb, gullar bilan bezatilgan. Konstitutsiya,
qonun haqidagi shiorlar ilingan.*

1-boshlovchi:

Mag‘rur boshimni egib
Sizga ta‘zim qilaman.

Ozod Vatan, bag‘ringda
Yoshlik zavqin suraman.

2-boshlovchi: Boshimizda keng osmon
Bo‘lsin doim musaffo.
Ona Vatan hurlikda
Yagonasan, sen tanho.

1-boshlovchi: Assalomu alaykum, hurmatli ustozlar!

2-boshlovchi: Assalomu alaykum, maktabdosh do‘stlar.

1-boshlovchi: Sizlarni davramizning aziz mehmoni sifatida
ko‘rib turganimizdan g‘oyatda xursandmiz.

2-boshlovchi: Xush kelibsiz, aziz mehmonlar!

1-boshlovchi: Ustozlar, murabbiylar
Assalomu alaykum.
Bo‘ling umri boqiylar,
Assalomu alaykum.

2-boshlovchi: Bugun sizni chorladik
Ushbu zal-koshonaga.
Qomusimiz baxt bergan
Har inson, har xonaga.

1-boshlovchi: Darhaqiqat, bugungi tantanali tadbirimiz
“Baxtimiz qomusi” ga bag‘ishlanadi.

2-boshlovchi: Boisi 8-dekabr kuni hammamiz uchun sevimli
bo‘lgan “Konstitutsiya kuni”ni nishonlaymiz. Shu munosabat
bilan biz bugun sizlarga O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
haqida hikoya qilib bermoqchimiz.

1-boshlovchi: Demak, suhbatimizni boshladik (*O'quvchilar ijrosida Madluya ijro etiladi*).

1-o'quvchi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 1992-yil 8-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 12-chaqiriq 11-sessiyasida qabul qilingan. Konstitutsiyamiz 6 ta bo'lim, 26 bob, 128 ta moddadan iborat bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolarining huquq va burchlarini aniq belgilab beradi.

1-o'quvchi: O'zbekiston, ona yurtim,
Mustaqillik muborak.
Keng olamda qutlug' noming
Taralgusidir beshak.

Amu bilan Sirdaryodan,
Kamol topgan o'zbekimiz
O'z erkiga, huquqiga
Ega bo'lgan o'zbekimiz.

1-o'quvchi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qonunlar majmuasi bo'lib, unda muqaddas yurt ona tilimiz, muborak islom dinimiz, Vatanimiz hududi-yu sarhadlari, mustaqil yurtimiz olib borayotgan odilona davlat siyosati aniq belgilab berilgan. Shu bilan bir qatorda har bir O'zbekiston fuqarosining huquq va burchlari o'z aksini topgan.

O'quvchi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 5-moddasida: "O'zbekiston Respublikasi qonun bilan belgilanadigan o'z davlat ramzlari, bayrog'i, gerbi va madhiyasiga ega».

Dekabrning sakkizinchi kuni – erk kunini xalqim bayram qiladi. Dunyo uzra ko'z-ko'z qilib baxtini, shodligini, jumlai olamga yoyadi.

Sakkizinchi dekabrdir – kun buyuk,
Ushbu kundir xalqimizda eng suyuq.

Boshlovchi: Boshim uzra xilpiraydi bayrog‘im
(*Qizil chiziq*)
Senga boqsam chaqnar ko‘zim, qarog‘im,
Moviy, yashil, oppoq erur ranglari,
Qizil chiziq tomirdagi qonlari.
Osmonimiz bo‘lsin moviy, musaffo,
Poyi uzra yashil vodiylar paydo.

Oppoq qorlar ranglarini yashnatib,
Oy-yulduzlar shulasini porlatib,
Hilpirayver, ona yurtim bayrog‘I,
Sen erursan yuraklarning ardog‘i.

O‘quvchi: Oppoq paxta hamda bug‘doy boshog‘i
Gerbimizga ko‘rk-u husn bag‘ishlar.
Yuqorida oy-u yulduz, quyoshdan,
Yuksak tog‘lar, vodiylar xo‘b yashnar.
Zilol suvlar xalqimizga jon berar,
Xumo qushi baxt-u iqbol keltirar,
Gerbimizdir fahr-u g‘urur, iftixor,
O‘zbekimda Olloh erur madadkor.

1-boshlovchi: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining
6-moddasi: «O‘zbekiston Respublikasining Poytaxti – Toshkent
shahri».

O‘quvchi: Qomusimda Poytaxti – Toshkent deydi,
O‘zbekimda Toshkent – bosh kent tuyuldi,
Ko‘rki husnning, tarovatining behisob,
Mangulikka poydevorlar qo‘yildi.

2-boshlovchi: 31-modda: “Hamma uchun vijdon erkinligi
kafolanadi. Har bir inson xohlagan diniga e‘tiqod qilish yoki hech
qanday dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni

majburan singdirilishiga yo‘l qo‘yilmaydi”.

O‘quvchi: O‘zbekiston fuqarosi bo‘lsangiz,
Ixlos bilan qaysi dinni sevsangiz,
Pok dil bilan diningizni avaylang,
Olloh mehri qalbimizda, bilsangiz.

Boshlovchi: Qomusimni bugun bilmoq istadim,
Har moddasin dilga solmoq istadim,
Qomus erur qonunlaring to‘plami,
Qonunlarni dildan tuymoq istadim.

Boshlovchi: Qomus berdi huquqimni, burchimni,
Shon-shuxrati oshsin doim yurtimni,
Qonunlarni agar yaxshi o‘rgansam,
Albat yetar, qayga cho‘ssaz qo‘limni.

2-boshlovchi: Hurmatli mehmonlar! Biz bugun
Konstitutsiyamizni o‘rganishga bel bog‘laganimizning guvohi
bo‘ldingiz.

1-boshlovchi: Albatta, birgina tadbir bilan Qomusimizni
to‘la-to‘kis bilib bo‘lmaydi. Qomusimizni chuqur bilish, unga
rioya qilish har birimizning burchimizdir.

2-boshlovchi: Bugun esa barcha-barchagizga Konstitutsiya
kuningiz muborak bo‘lsin.

1-boshlovchi: Qomusimiz yillar osha xalqimiz uchun
ishonch, najot, faxr, iftixor namunasi bo‘lib qolsin.

2-boshlovchi: Ming shukurki boshda moviy
Osmon bor,
Hayotimiz qo‘riqllovchi
Posbon bor.

1-boshlovchi: Yillar o'tib
Qomusimiz bo'lsin omon,
Keng jahonda, o'zbek elim
Sursin davron

2-boshlovchi: Doim bo'lsin o'zbek elim
Qomusli el,
Omon bo'lsin
Qomusli el – Nomusli el.

Tabrik so'ngida Vatan haqida qo'shiq kuylanadi.

Davlatimiz ramzlari – bizning faxrimiz.
Davlat madhiyasi ijro etiladi.

1-boshlovchi: Yashna, yuksak diyorim,
Sensan baxtim, bahorim,
Madhing jo'shib kuylamoq
Ko'nglimdagi shiorim.

2-boshlovchi: Go'zal gulshan bog'laring,
Go'zal ulkan tog'laring,
Dilga orom beruvchi,
Nurafshon har yoqlaring.

1-boshlovchi: Sen tandagi jonimsan,
Tomirdagi qonimsan.
Mehring yashar qalbimda,
G'ururim ham shonimsan.

2-boshlovchi: Yashna, yuksak diyorim,
Sensan baxtim, bahorim.
Madhning jo'shib kuylamoq
Bo'lgay mangu qarorim.

Davruga Dono hobo kirib keladi.

1-boshlovchi: Assalomu alaykum, Dono bobo.

2-boshlovchi: Yaxshi keldingizmi? Bobojon, bizga bu gal qanday hikoya-rivoyatlar aytib berasiz?

Dono bobo: Vaallaykum assalom, bolajonlarim. Men kelayotib sizlarning Vatan haqida chiroyli she'r o'qiganingizni eshitib qoldim. Kelinglar, bugun sizlarga Davlatimiz ramzlari, ularning tarixi haqida so'zlab beraman.

1-boshlovchi: Juda yaxshi bobojon, biz esa sizga Vatan, bayroq, gerbimizni ulug'lovchi she'r-qo'shiqlar ijro etamiz.

Dono bobo: Qani menga aytingchi, O'zbekiston davlatimizning ramzlarini bilasiz?

Bolalar: Bayroq, gerb, madhiya.

Dono bobo bayroq haqida so'zlab beradi.

Sahnaga 6 nafar qiz chiqadi.

1-boshlovchi: Bolalar, qizlar bayrog'imiz haqida so'zlab beradi, marhamat.

Moviy libos kiygan qiz: Men moviy rang bo'laman – yurt osmonim bir parchasi. Bu – olamda tinchlik bo'lsin deganimdir.

Qizil libos kiygan qiz: Men qili rangdirman bamisoli tomirdagi oqqan toza qondirman. Hamma-hammani Vatan bayrog'i ostida yashashga, mehnat qilishga, kurshishga chaqiraman.

Oq libos kiygan qiz: Men oq rangman. O'zim ham oq,

ko'nglim ham oq, qilar ishlarim esa pok, shuning uchun ham maqtovim ko'proq, uzoq-uzoqlarni ko'rayin deb, elga "Oq yo'l" tilayin deb bayroqdan o'rin oldim.

Yashil libos kiygan qiz: Men yashil rangdirman. Yashillik yasharish-yashnatish, ertangi kunga ishonish degani. Orzularim buyuk, yuragim doim yashnab tursin.

Boshiga oymomo kiygan qiz:

Oymomoman, oymomo!
Ko'rinishim uch yoki to'rt kunlikdir,
Niyatlarim odamlarga to'kinlikdir,
O'y sursalar o'ylariga sirdoshdirman,
Yo'l yursalar yo'llariga yo'ldoshdirman.

Boshiga 12 yulduz taqqan qiz: O'n ikki yulduz – o'n ikki oymiz, jamlasangiz, bir yilga joymiz. Kimki qandoq yashaydi, yaxshimi, yomon? Hech ikkilanmay baholaymiz. Yana biz o'n ikki burjmiz. Oy-yu quyosh bilan harakatdamiz. Biz aks etgan yurt bayrog'i ham, o'zi ham dunyo turguncha tursin deymiz.

2-boshlovchi: Rahmat sizlarga. Hozir do'stlarimiz o'zlari yod olgan she'rlarini aytib beradilar.

O'g'il bola: Ozod mamlakatimning
Muhtasham qo'rg'onida,
Kamalakdek tovlanar istiqlolim mayog'i,
O'zbekiston bayrog'i! O'zbekiston bayrog'i!

Qiz bola: U adolat, koinot, obi-hayot timsoli,
U ezigulik, shon-shuhrat, baxt-saodat jamoli,
Buyuk Amir Temurning g'olib tug'i misoli,
Kamalakdek tovlanar istiqlolim mayog'i –
O'zbekiston bayrog'i! O'zbekiston bayrog'i!

O'g'il bola: Tinchlik, tiriklik erur moviy, yashil, oq ranglar,
Chaqnoq o'n ikki yulduz shamollarda jaranglar,
Erk qo'shig'i navqiron yarim oyda jilvagar,
Kamalakdek tovlanar istiqlohim mayog'i –
O'zbekiston bayrog'i! O'zbekiston bayrog'i!

Qiz bola: Bunday yaylov qayda bor,
Bunday bayroq bizga yor.
Uni sarbaland tutsak, biznikidir hur iqbol.
Ona xalqim baxtini dunyoga qilib oshkor,
Kamalakdek tovlanar istiqlohim mayog'I –
O'zbekiston bayrog'i! O'zbekiston bayrog'i!

“Ishonch qo'llarida” qo'shig'i ijro etiladi.

Qiz bola: Havo rang, oq va yashil,
Bordir qizil-qizil belbog'i.
Shuning uchun chiroyli
O'zbekiston bayrog'i.
O'n ikki baxt yulduzi
O'ziga xo'p yarashar,
Unga dunyo xalqlari
Havas bilan qarashar.

Mustaqil yurt, deb atar
Yer yuzining har yog'i,
Bizga juda mo'tabar
O'zbekiston bayrog'i.

O'g'il bola:

Tinchlik– mustaqillik bu, hammaslak, yaqinlik bu,
Bunda orzular kular, kelajak yorqinlik bu,
Bu shonli O'zbekiston, baxtimiz, bahorimiz,
Nomi tillarda doston, sharaf-iftixorimiz,
Respublikam bayrog'i, Respublikam bayrog'i.

Qiz bola: O'zbekiston kelajagin porlamoqda chirog'i,

Hilpiraydi ko'kda uning jilvalanib bayrog'I,
O'n ikki chaqmoq yulduz viloyatning sonidir,
Oymoma-chi nur sochdi, yurtim nurlar konidir.
Moviy bo'yoq – keng osmonning musaffolik daragi,
Oq rang esa, pok iymonli o'zbeklarning yuragi,
Yashil bo'yoq – yasharish-u yangilanish belgisi,
Qizil bo'yoq– xalq erki-chun ketgan qonning so'ngisi.

“Tinchlik bo'lar barqaror” qo'shig'i kuylanadi.

Dono bobo: Barakalla, bolalarim. Qaranglar, kim kelayapti?

Bolalar: Ey, bu Xumo qushi-ku!

Xumo qushi: Salom, bobojon, salom bolalar!

Bolalar: Salom, Xumo qushi! Xush kelibsan.

Xumo qushi: Men necha asrlardan buyon xalqning ezgu orzu-umidlari timsoliman. Mening niyatim o'zbek xalqini mustaqil, erkin ko'rish edi. Niyatimga erishdim. O'zbekiston buyuk davlat. Sizlar uning kelajagisiz. Amir Temur, Farg'oniy, Navoiy, Bobur va ko'plab ajdodlarimiz yurtimizni dovrug'ini olamga taratganlar, Sizlar ularning munosib vorisi bo'lishingiz, mustaqil yurtimizning shuhratini yanada oshirishingini so'rayman. Bu yo'lda sizlarga omad tilayman.

Bolalar: Rahmat, Xumo qushi! Biz seni tilagingni bajarish uchun bor kuch-bilimimizni sarflaymiz. O'zbekiston – bizning Vatanimiz.

Qo'shiq: “Xumo qushim”. Po'lat Mo'min she'ri.

Dono bobo: Qani yana sizlarni sinab ko'ray-chi. Har kuni darsni boshlashdan avval faxr bilan kuylaydigan davlatimiz

madhiyasini kim yozgan?

Bolalar: O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasining matnini Abdulla Oripov, musiqasini Mutal Burxonov yaratganlar. 10- dekabr – madhiyamiz tasdiqlangan kun.

Dono bobo: Davlatimiz bayrog‘i qayerlarda uchraydi?

Bolalar: Davlatimiz ma‘muriy binolarida, turli mamlakatdagi elchixonalarimizda, bayram kunlari bizning qo‘limizda, turli yurtlarda o‘tkaziladigan sport musobaqalarida.

Dono bobo: Tasanno! Jujayam yaxshi javob berdinglar.

Boshlovchi bola:

Tong bilan yangraydi madhiyam,
Porlaydi yuksakda quyoshim,
Yo‘l ko‘rkam, el ko‘rkam, dil ko‘rkam,
Karvoning boshlayver, yurtboshim.

Shu qo‘shiq bilan tadbir yakunlanadi.

8-MAVZU: “YANGI YIL ARCHASI” BAYRAMI

1-boshlovchi: Assalomu alaykum, aziz mehmonlar, mehribon ustozlar!

2- boshlovchi: Qadrli akalar, opalar, ukalar, singillar! *Birga:* Kirib kelayotgan yangi yilingiz muborak bo‘lsin!

1- boshlovchi: Tabiatda qish fasli o‘z hukumini o‘tkazar,
Ayoz bobo shimoldan sovuq shamol yetkazar.

2- boshlovchi: Kirib keldi qish fasli bo‘ron, sovuq, qor bilan.

1-boshl: Tabriklaymiz sizlarni do‘stlar yangi yil bilan!

2- *boshlovchi*: O‘tib ketdi eski yil, kunlar guyo lippillab,
Qari boboga o‘xshab qoldi oxir munkillab.

1- *boshlovchi*: Minnatdormiz eski yil,
Rizq-u nasiba berding,
Uch yuz-u oltmish besh kun
Bizlarga hamroh bo‘lding.

2- *boshlovchi*: Mana bugun xayr-xo‘sh
Qilajakmiz sen bilan.
Yangi yilda o‘qiylik
Faqat “to‘rt”-u “besh” bilan.

Qo‘shiq: Kuzatamiz, eski yil,
Xayr, xayr, yaxshi qol,
Bir yil ishlab charchading,
Endi esa xordiq ol.
Xayr, xayr eski yil,
Xursand qilding bizlarni,
“To‘rt” va “besh”ga siylading,
Yaxshi o‘g‘il, qizlarni.
Senda maza qildik biz,
Rosa o‘ynab kuldik biz,
Yoshimiz bir yosh oshib,
Bo‘ldik katta o‘g‘il-qiz.

1- *boshlovchi*: Darhaqiqat – yilimizni tarix qa‘riga kuzatib,
yangi yilni qarshi oladigan paytimiz kirib keldi.

2- *boshlovchi*: -yil muchal hisobida yil edi,
-yilimiz esa yil ekan.
Balki shu boisdan ham -yil tulpor singari chopqir

bo'lgandir. ("Tulpor" qo'shig'i va unga mos raqs ijro etiladi).

1- *boshlovchi*: Dugonajon, yangi yil juda ajoyib bayram-da!
Men bu bayramni juda yaxshi ko'raman. Siz-chi?

2- *boshlovchi*: Men ham bu bayramni sog'inib kutaman.
Go'yo yangi yil bayrami arafasida sirli ajoyib voqealar
bo'ladigandek tuyiladi manga.

1- *boshlovchi*: Rostdan ham yangi yil arafasida kutilmagan
voqealar bo'lishi tabiiy.

2- *boshlovchi*: Ba'zan esa ertaklar ham jonlanib ketadi. Hatto
jonivorlar ham bizning tilda so'zlay boshlaydi.

1- *boshlovchi*: Rostdan ham biz sizlarga bir ertak aytib
bermoqchimiz. Bu ertak mana shu yangi yil arafasida bo'lib o'tadi.

2- *boshlovchi*: Keling ertagimizni maza qilib tamosha qiling.
(*Sahnaga ertakchi chiqadi*).

Ertakchi: Bor ekan-da yo'q ekan, och ekan-da to'q ekan, bo'ri
bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qarg'a qaqimchi ekan,
chumchuq chaqimchi ekan, qirg'ovul qizil ekan, dumlari uzun
ekan, toshbaqa torozibon ekan, qurbaqa undan qarzdor ekan. Biz
yashab turgan shu zamonda bir Ayozi bobo bor ekan. Ayozi bobo
har yili butun olamga qor yog'dirar, bo'ron yuborar, qish faslini
bezatar ekan. Olam oppoq libosga kirganda odamlar yangi yil
bayramini nishonlayotganda sovg'alar olib butun yer yuzini sayr
qilar ekan. Eng yaxshi, eng odobli bolalarga sovg'alar ulashar
ekan.

Bolalar esa archa bezatib qo'shiqlar, she'rlar o'rganib ayozi
boboni kutib olishar ekan. Ayozi bobo bir kuni nabirasi Qor qiz
bilan chaqqon quyunchalarni chiqarib, ularga bolalarga sovg'a
ulashishni topshiribdi.

Ayoz bobo: Hoy quyunchalar! Oppoqqina, bezor quyunchalar, jonivorlar! Menga sovg'a tayyorlashga yordam beringlar. O'rmondan yong'oqlar terib kelinglar.

Quyunchalar: Xo'p bo'ladi, bobojon. Aytganingizni tezda bajaramiz.

Quyunchalar qo'shigi: Oppoq momiq jonivor,
Quyunchalar bizlarmiz.
Ayoz bobo aytganin,
Tez-tez chaqqon qilarmiz.
Saxiy o'rmon bag'rida,
Dikkilashib chopamiz.
Bolalarga o'rmondan
Sovg'a-salom yig'amiz.

(Quyunchalar xursand bo'lib u yoqdan bu yoqqa yugurishadi. Panada turgan bo'ri va tulkini sezishmaydi).

Och bo'ri ayyor tulkiga: Mana bu g'ilay, maymoq, kaltafahm jonivorlar nega buncha xursand bo'lib qolishdi? Kel, bir ta'zirini berib qo'yamiz.

Qo'shiq: Sovuq qishning kunida,
Yuguramiz, yelamiz.
Oppoq quyunchalarni
Tutsak, yamlab qo'yamiz.
Hoy o'rtoqlar, men aytay,
Quyon eyish mazza-da.
Go'shtlari momiqqina,
Yunglari ham toza-da.

*Quyunchalar qo'rqib bekinadilar,
Shu yugur-yugurda ayiqni uyg'otib yuboradilar.*

Ayiq: Nima shovqin, nima to‘polon. Endigina uxlagan edim. kim u mening oromimni buzgan? Hozir u bezoriring ta‘zirini berib qo‘yaman.

Qo‘shiq:

Menman, ayiq polvonman.
Asalga ko‘p to‘yganman,
Oromim buzilmasa,
Bahorgacha uxlarman.
Po‘stinim bor xo‘p qalin,
Sovuq menga pisandmas,
Kimki oromim buzsa,
Sira jazosiz qolmas.

Bo‘ri va tulki: Sizni uyg‘otgan anavi dovdur quyonlar. Ularning jozosini berib qo‘ying. Biz ularni tutishda sizga yordam beramiz.

Olmaxon: Yolg‘on, ayiq polvon aka. Ularning o‘zlari sizni uyg‘otib yuborishdi. Ayoz bobo quyonlarga sovga yig‘ishni topshirgan edilar. Bo‘rilar esa quyonlarni quvlab, qo‘rqitib yuborishdi.

Ayiq polvon: Hoy ochko‘z bo‘ri, ayyor tulki. Hali meni aldamoqchi bo‘ldilaringmi? Hozir senlarni tutib jazolaringni beraman.

Bo‘ri va tulki qochishadi va Yalmog‘iz kampirning huzuriga borishadi.

Yalmog‘iz kampirning kulbasi.

Tulki: Buvijon, buvijon, eshigingizni oching, bizlar keldik. Yuzlari oyday, sochlari sunbul buvijon, eshigingizni oching.

Bo‘ri: Buvijon, bizni ayiq polvondan qutqaring.

Yalmog'iz kampir: Dunyodagi eng yaxshi kampirdirman men o'zim. Chapga qarar birisi, o'ngni ko'rar bir ko'zim. To'polonchi, quloqsiz bolalarni sevaman. A'lochi bolalarni juda yomon ko'raman. Sehr-jodu qilib goho kuchimni ko'rsataman. Yomonlarga do'st bo'lib, yaxshini yig'lataman. Qo'lga tushar paytimda lalayib o'tirmayman. Kelinglar shumtakalar! Sizlarga nima kerak? Nega it talaganday qochib yuribsizlar?

Bo'ri, tulki: Quyunchalar bolalarga sovg'a tayyorlasharmish. Aiyq polvon bizlarni eb qo'yarmish. Ularni jazosini berib qo'ying.

Yalmog'iz kampir: Yuringlar mening kulbamga. Kirib maslahat qilamiz. Agar uchalamiz bir bo'lsak, rosa katta ishlar qilamiz. (*Kulbaga kiradilar*). Olmaxon Ayozboboga xabar beradi.

Olmaxon: Ayoz bobo, tulki, bo'ri, yalmog'iz kampir bir yomonlik o'ylashdi. Ular quyunchalarni yeb, sovg'alarni yo'q qilishmoqchi.

Qorqiz: Voy yaramaslar-ey! Endi nima qilamiz, bobojon?

Ayoz bobo: Yur qizim u ochko'zlarning jazosini beramiz, toki ikkinchi marta bunday ishlar qilisha olishmasin.

Ayoz bobo, Qorqiz, olmaxon, quyunchalar, aiyq polvon Yalmog'iz kampirning kulhasiga borishadi.

Ayoz bobo: Shum niyatli kampir,
Eshigingni ochgin bir,
Basharangni bir ko'ray,
Jazoingni men beray.
Yoningdagi och bo'ri,
Mug'ambir tulkini ham
Jazolayman barovar,
Aybi emas sendan kam.

Yalmog'iz kampir:

Keling Ayoz bobojon,
Nima shovqin to'polon,
Meni chaqirtirgan kim?
Hech gapdan yo'q xabarim.
Bo'ri, tulki bechora
Nima qilarin bilmay
Qochib yurar ayiqdan.
Ayiqa bevaqt uyg'onib,
Ularni quvib qopti,
Bechoralarni ko'rib
To'polon, shovqin sopti.

Quyunchalar, ayiq polvon: Yolg'on, u yolg'on aytyapti.

Ayoz bobo: Ey yaramas bezori, qoraniyatli Yalmog'iz kampir. Nahotki men sen, bo'ri va tulkingning so'zlariga ishonaman. Har yili, bolalarning bayramini buzib, yomon ishlar qilmoqchi bo'lasizlar. Yaxshi hamki vaqtida bundan xabar topdim. Hozir sizlarni umrbod muzlatib qo'yaman.

Yalmog'iz, bo'ri va tulki: Kechiring bobojon, boshqa bunday qilmaymiz.

Qorqiz: Bobojon keling Yangi yil arafasida ularni kechira qoling.

Ayoz bobo: Bo'pti, bu gal kechirdim. Yana shunday qilsangizlar, unda mendan xafa bo'lmanglar.

Yalmog'iz, bo'ri va tulki: Rahmat bobojon, rahmat.

Ayoz bobo: Qorqiz, quyunchalar, tez bo'linglar, bolalar bizni kutib qolishdi.

Ertakchi: Mana, bolalar davramizga Qor bobo bilan Qorqiz kelyapti. Tezda davrani qizdiring, mening ertagim esa davom etaveradi.

1-boshlovchi: Archa atrofida kuy va qo‘shiq avjiga chiqsin. Yangi yil bazmimiz davom etsin.

2-boshlovchi: Davramizga keladigan mehmonlar bizni ko‘rib xursand bo‘lishsin.

1-boshlovchi: Darvoqe Yangi yil ham bugun davramiz mehmoni.

2-boshlovchi: Yangi yil bizlarni tabriklamoqchiga o‘xshaydi.

Yangi yil

Salom, salom mehmonlar,
O‘g‘il, qizlar, chaqqonlar,
Rosa g‘ayrat qilibsiz.
Ziyofat tuzatibsiz.

Yangi yil bo‘lib men ham
Kelish navbatim yetdi,
Ko‘rayapsiz jujuqman,
Yillar ichra kichikman.

Keldim sizga o‘sgani,
Ko‘p zafarlar quchgani.
Siz o‘sasiz bir yoshga.
Yurt kon bo‘lsin non-oshga.

Uch yuz oltmish olti kun
Va shunga teppa-teng tun
Sizga mehmon bo‘laman,
O‘saman, semiraman.

Vaqtı soat yetganda,
Muddatim tugaganda,
Tarixga qo‘shilaman,

Lekin hozir shundaman.

Bayram zavqin suraylik.

Sho'x o'yin ijro etiladi.

(Yangi yil ertak qahramonlari raqsga tushishadi.)

1-boshlovchi: Bolalar orangizda she'r, qo'shiq, raqs ijro etadigan o'quvchilar bo'lsa, marhamat.

2-boshlovchi: Barcha qatnashchilarni qorbobomizning sovg'alari kutmoqda. Keling, bayramimizdan chetda qolmang.

1-boshlovchi: Yangi yil bayramimiz o'z nihoyasiga yetay deb qoldi.

2-boshlovchi: To'g'ri, bugungi bayram tugayapti.

1-boshlovchi: Yangi yil keltirsin
Sizlarga zafar.
Yangi yilda yana
Gullasin diyor.

2-boshlovchi: Har bir xonadonga
Rizq-u ro'z to'lsin,
Barcha insonlarning
Iqboli kulsin.

1-boshlovchi: Istiqlol kulsin, qolsin abadiy,
Degaymiz: yangi yil bo'lsin omadli.

2-boshlovchi: Bugungi shodliklar tark etmay bizni,
Allohim mo'l qilsin nasibamizni.

9-MAVZU: “SAVODXONLIK” BAYRAMI

Maqsad:

a) o‘quvchilarning Alifbe davrida olgan bilimlarini mustahkamlash, ifodali o‘qishga o‘rgatish, nutqiy madaniyatini oshirish;

b) bolalarning ona-vatanga mehr muhabbatini oshirish; ota-ona, ustoz, opa-aka, atrofdaqilarni hurmat qilishga o‘rgatish; kitobni sevishga, toza-ozodalikka, odobli-axloqli bo‘lishga undash;

c) o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, estetik didini oshirish, so‘z boyligini oshirish, bilim doirasini kengaytirish.

Jihoz: sahna gullar va turli xil sharlar bilan bezatiladi, sharlar osib qo‘yiladi, o‘quvchilar bayramona kiyinadilar, kesma harflar, O‘qish va Alifbe kitobi, O‘zbekiston davlat bayrog‘i va gerbi.

O‘qituvchi: Assalomu alaykum aziz ota-onalar, hurmatli mehmonlar, ustozlar, shirindan-shakar bolajonlar. Bugun 1-“__” sinf o‘quvchilari “Savodxonlik” bayram kechalarini sizlarga namoyish etadilar.

Bolalarim, bilinglar shuni,
Siz dunyoning ertangi kuni!
Ko‘zimizning qorachig‘i siz.
Qizil gulning yosh urug‘i siz.

Biling, sizni asraymiz har dam,
Avaylaymiz, sevamiz mahkam.
Quyosh chiqar erta-ertalab,
Undan nima qilamiz talab?
Sizga ko‘p- ko‘p
Nur sochsini deymiz

Kecha sahna ko‘rinishdan boshlanadi.

Yalqov bola uxlab yotadi, onasi uni maktabga borish uchun

turg'izadi.

«Baxtiy erkatoy»

Ona: Tur o'g'ilim, maktabga kechga qolasan.

Yalqov: Yana birpas uxlay.

Ona: Men senga ko'p shirinliklar beraman.

Yalqov: Yuzimni yuvmayman, dars tayyorlamaganman.

Ona: Yuzini yuvib, kitob-daftarlarni kichkina sumkaga solib, katta sumkaga oziq-ovqatlar solib beradi. *Yalqov* yo'lda ketayotganida o'quvchilar "Baxtiy erkatoy" qo'shig'ini ijro etadilar.

1. Voy, voy, voy,
Baxtiy erkatoy,
Ertalab turib
Ichmasakan choy.

2. Voy, voy, voy,
To'g'ri yo'l qolib
Kechar ekan loy.

3. Voy, voy, voy,
Baxtiy erkatoy,
Darsni qoldirib
Keyin ishi voy.

“Ko'chaga chiqdim” she'ri

Yalqov bola sinfga kirib bolalarga:

Bolalar, men sizlarni zo'r joyga olib boraman.

Bolalar: Qayoqqa?

Yalqov bola: Yuring men bilan.

Bolalar uning ketidan ergashadilar. Yalqov bola ularni "Ikkichilar makoniga" boshlab boradi. U yerda eshik bo'ladi, shu eshikdan kiradilar. Bu yerda kitoblar yirtilgan, o'yinchoqlar singan, hammayoq besaramjon bo'ladi. Bir qizcha singan qo'g'irchoqni kalit bilan burab turg'izib qo'yadi.

“Qo'g'irchoq” ashulasiga Qo'g'irchoq raqsini bir qiz ijro etadi.

Qo'g'irchoq: Bu yerga qanday qilib kelib qoldingiz?

Bolalar: Bizni Yalqov olib keldi.

Qo'g'irchoq: Axir bu yer ikkichilar, dangasalar makoni-ku. Bu yerda hamma o'yinchoqlar sinib yotibdi. Bu yerdan darhol ketishingiz kerak. Ana eshik – bu “Bilimlar koni”ga boradigan eshik.

Qo'g'irchoq eshikni ochib ko'rmoqchi bo'ladi. Lekin eshikda katta qulf osilgan bo'ladi.

Qo'g'ichoq: Kalitchini chaqirish kerak.

Bolalar: Kalitchi, – deb chaqiradilar.

Kalitchi: Iye-e, ochilmayapti-ku, nima bo'ldi, qani eshiklar javob bering (*Qulfni ochib ko'radi*).

Eshik: Qulflar juda mustahkam “Bilimlar koni”ga kirish uchun savollarimizga javob berishingiz kerak.

Kalitchi: Xo'sh, unday bo'lsa, keling aziz o'quvchilar, shartlarni bajaramiz. Marhamat, qancha savollar bo'lsa beravering.

Eshiklar: Soddaroq shartdan boshlaymiz. Avvalo ona tilimizga oid she'rlar va hikmatlardan aytib bering.

Kalitchi: O'quvchilar ona tilimizni sevishimizni bir isbotlaylik.

«Ona tilim»

1-o'quvchi: Bugun elga tanilding
So'zga boy ona tilim
Sen bilan faxrlanar
Avlod-u ajdodlarim.

2-o'quvchi: Dong'i ketgan ona tilimsan,
Mehri daryo ona tilimsan,
Rishtalarni uzun bog'lagan
Bag'ri keng ona tilimsan.

1-o'quvchi: Opajonim birgina
Ko'zlarimga nurgina,
Opajonim o'rgatgan
O'zbek tili, o'z tilim

2-o'quvchi: Burro-burro so'zlayman
Kelajakni o'ylayman,
Istiqbolim, iqbolim
O'zbek tilim, o'z tilim.

«Ona tilim» qo'shig'i ijro etiladi.

Ona tilim	Ona tilim
Joni dilim,	Bobo tilim,
Sening bilan	Sevar seni
Biyron tilim.	Yurtu elim.
Ona tilim	Senla olay
Koni ilim,	Chuqur bilim.

Eshiklar: Endi biz sizlarga topishmoq aytamiz, diqqat bilan tinglang.

Bolajonlar, sirdoshlar

Jarangli va jarangsiz

Tovushlardir tovushlar.

Bolalar: Undoshlar.

Eshiklar: Barakalla, bu topishmoqni juda tez va to'g'ri topdingiz. Endi matematika, ya'ni riyozatdan ham bizga she'r va

topishmoqlar aytib bering-chi.

1-o'quvchi:

O'ynar uchta qiz bola,
Go'yo ochilgan lola.
Do'stlari keldi beshta,
Ayt, ular bo'ldi nechta?

Bolalar: 8 ta

2-o'quvchi: Bog'dan terdik nok, olma,
Tingla, eshitmay qolma.
Besh savat edi jami,
Qancha bo'ladi yarmi?

Eshik: She'r-u topishmoqlarni maromiga yetkazib aytib berdingiz. Matematik maqollar ham bilasizmi?

1-o'quvchi: Bir yil tut ekan kishi
Qirq yil oltin teradi.

2-o'quvchi: Yigit kishiga qirq hunar ham oz.

3-o'quvchi: Sanamay sakkiz dema.

4-o'quvchi: Yetti o'lchab bir kes.

5-o'quvchi: Qing'ir ishning qiyig'i
Qirq yilda ham chiqadi.

Eshiklar: Bolalar, gerb haqida nimalar bilasiz?
"Mustaqil o'zbekim" qo'shig'i ostida sahnaga Humo qushi chiqadi.

Bola: Assalom, ey, chiroyli qush, qanotlari kumush.

Humo: Vaalaykum assalom, ey mustaqil yurt bolasi.

Bola: Isming nima, ey qush, qanotlari kumush?

Humo: Men baxt qushi – humoman.

Bola: E-ha, tanidim, sen haqingda ertaklarda o‘qiganman. O‘qib o‘yga tolganman.

Humo: Nima uchun o‘yga tolgansan?

Bola: Qadimda bir yurt bo‘lib, uning podshosi zo‘ravon bo‘lgan ekan. U olamdan o‘tibdi. Yurt podshosiz qolibdi. O‘shanda odamlar kimni podsho qilamiz deb turishganida, yurt osmonida humo qushi paydo bo‘libdi. Donolar kengashib, “shu qush kimning boshiga qo‘nsa, o‘sha kishi podsho bo‘ladi” deyishibdi. Osmonda baxt qushi charx uradi. Shu qush kimning boshiga qo‘nsa, o‘sha podsho bo‘ladi. Buni eshitganlar shoshib qolishibdi. Qush eng kambag‘al, eng saxiy va adolatli, to‘g‘riso‘z va dono kishining boshiga qo‘nibdi. Mamlakatda adolat hukmron bo‘libdi. Sen o‘sha qushsan, Humojon!

Humo: Yanglishmading ey, mustaqil yurt bolasi. Ko‘p yurtlar kezdim, Sening Vatanning xuddi ertaklardagi mamlakatga o‘xsharkan. Shu bois yurtning sari talpinib uchdim.

Boshoqlar: Humo kushining aytganlari to‘g‘ri, bu yurtning odamlari qadoq qo‘lli, bag‘ri cho‘g‘li. Biz gerbda non-nasiba, qut-baraka ramzi bo‘lib o‘rin olganmiz.

Paxtaoy: Bizlar Vatanning milliy boyligi, go‘yoki ishonch yorlig‘imiz.

Quyosh: Bu yurt mening yurtim. Nurlarimni mo‘l-ko‘l

sochgumdir. Har tong baxt eshiklarini ochgumdir.

Amu va Sir daryo: Yurt – bir tan, bizlar esa, jonmiz , tomirida oqqan toza qonmiz.

Oymoma: Gerb uzra turibman, men ila osoyishdir osmonimiz.

Zuhro yulduzi: Mening ishim yo‘l ko‘rsatmoq, adashmas hech karvonimiz.

“Humo qushi” qo‘shig‘ini ijro etadilar.

“O‘zbekiston” she‘ri. Vatan haqida maqol.

“Vatanim” she‘ri

1-o‘quvchi: Vatan, mening onamsan,
Issiq quchog‘ing,
Olamda yagonasan,
Aziz tuproging.

2-o‘quvchi: Tarixing juda uzoq,
Mashhur jahonsan,
Amir Temur Vatani
Buyuk Turonsan.

3-o‘quvchi: Erking o‘z qo‘lingdadir,
Bo‘lding, ozod hur,
Baxt quyoshi – istiqlol
Sochgay shu‘la, nur.

4-o‘quvchi: Humo qushi boshingda
Aylaydi parvoz
Madhiya yangrar har tong
Elim jo‘rovoz.

5-o 'quvchi: Kelajaging buyukdir,
Yashna doimo.
Vatanim, seni bugun
Taniydi dunyo.

"As bo'lamiz, lolacha" qo'shig'i raqsi bilan.

SAVOL- JAVOB

- Tingla so'zim, dugona,
Ayt kim ikkinchi ona?
- Vatan jonajon!
- Oqmasin deb ko'z yoshing,
Kimlar silaydi boshing?
- Xalqim mehribon!
- Kim berib bilim, hunar,
Aqlingga aql qo'shar.
- Maktab jonajon!
- Seng haqingda kim so'ylar,
Doimo baxting o'ylar?
- Onam mehribon!
- Quchib mehnatdan zafar,
- Qayga qilamiz safar?
- Mustaqillik tomon!

Eshiklar: Kitoblarni sevasizmi?

Bolalar: Ha.

"Kitob" she'ri.

Sen bilan butun umrim
Chambarchasdir kitobim,
Ardoqlayman doimo,
Eshit shundoq xitobim.

Sen oftobsan, nuringdan
Charog'ondir bu ongim,

Seni o'qib-o'rganib,
Nurafshon bo'lar tongim.

"Qo'zichoq – o'yinchoq" qo'shig'i ijro etiladi.

Eshiklar: Ustozlaringizni hurmat qilasizmi?

Bolalar: Ha.

1-o'quvchi: Ustozim, eng avvalo sizga ta'zim,
Bergan bilimlaringiz uchun ta'zim.
Toki tirikdurman unutmam sizni,
Yoshingiz cho'lg'ansin, yuzlarga kiring.

"Muallimim" she'ri

Ko'z o'ngimda	Ulg'aytirdi
Ochdi dunyo,	Meni dono
Muallimim	Muallimim.
Yo'llarimda	Shogirdmanki,
Sochdi ziyo.	Text turaman
Muallimim,	Xizmatiga,
Go'dak edim,	Qilsa agar,
Ona kabi	Bitta imo
Parvarishlab	Muallimim.

"O'rganamiz maktabda" qo'shig'i

Partada o'tirishni,	Qo'shishni ayirishni
Ruchka to'g'ri tutishni,	Ko'paytirish, bo'lishni
O'rganamiz maktabda,	O'rganamiz maktabda,
O'rgatadi maktabda.	O'rgatadi maktabda.
Rasmlarni solishni,	Kitoblarni sevishni,
Xarflarni yozishni,	Ham odobli bo'lishni,
O'rganamiz maktabda,	O'rganamiz maktabda,

O'rgatadi maktabda.
Do'st-do'st bo'lib safda
Qo'shiq aytib o'tamiz,

O'rgatadi maktabda.
Jonajon maktabda
O'ynamasdan qolmang.

Zalda o'tirganlar bolalarga topishmoqlar aytishadi.

O'zi bir kichkina narsa,
Kerak bo'lar har darsda,
Chizib qo'ysang noto'g'ri
Yo'q qiladi bir pasda (o'chirg'ich)

Biz edigu, biz edik
Yigirma to'qqiz qiz edik
Birin-ketin tizildik,
Ma'no bo'lib tuzildik. (harflar)

Sirti tayoq
Ichi bo'yoq (qalam)

Devorda bor so'zanim
Unda yashar keng olam (xarita)

Topishmoq javobini topgan o'quvchilarga sovgalar beriladi.

Eshik: Siz bolalar juda zukko, topqir va hozirjavob ekansiz.
Sizlar uchun eshiklarimiz ochiq. "Bilimlar koniga marhabo.

*Kalitchi kelib kaliti bilan quluf'larni ochadi.
O'quvchilar "Bilimlar koni»"ga kiradilar.*

"Salom maktab" she'ri

Salom maktab, salom maktab,
Bog'cha bilan hayrlashdik,
O'sib qoldik chayiroashdik.
Bog'chadagi o'g'il-qizlar,
O'quvchimiz endi bizlar.

Yetti yoshga to‘lib qoldik,
Maktabjonga kulib keldik,
Maktab bag‘ri issiq ekan,
Kitoblari qiziq ekan,
Keng sinfga to‘lib-toshib,
Dars tinglaymiz xushyor bo‘lib.

Bo‘lay desang bog‘bon,
Yo vatanga posbon,
Yo dengizda suzuvchi,
Yo osmonda uchuvchi,
Nimaiki qilsang tilak,
Bariga o‘qish kerak.
O‘quvchi sendan talab,
Maktabga bor ertalab.

“O‘ynagani qo‘ymaslar” qo‘shig‘iga qizlar raqs ijro etadilar.

“Tinchilik bo‘lsin” she‘ri

Yer yuzida	Biz bolalar
Tinchlik bo‘lsin,	O‘ynashaylik,
Olam doim	Qo‘l ushlab
Baxtga to‘lsin.	Kuylashaylik.
Nurli quyosh	Biz vatanning
Porlab tursin,	Erkasimiz,
Osmon doim	Shu diyorning
Ko‘m-ko‘k bo‘lsin.	Ertasimiz.

“Osmondagi yulduz” qo‘shig‘iga raqs ijro etiladi.

YAKUNLASH

O‘quvchilarga ota-onalar tabrigi.

*Ota-onalar qo‘mitasining raisiga so‘z beriladi.
O‘quvchilarga sovg‘alar beriladi. Maktab direktoriga so‘z beriladi.*

O'qituvchi: Aziz bolajonlar, kechamizni yakunlar ekanmiz, sizlarga o'qishlaringizda katta omadlar tilaymiz. Sog'-salomat bo'ling.

Qutlug' bo'lsin, bolalar

Bayramingiz

Baxt nuriga, bolalar

To'lsin dilingiz.

Ota-onalarimiz

Ilg'ordir ishda.

Siz ham lochin bo'ling

Doim o'qishda.

Istiqloq nuridan

Yorug' yo'lingiz.

Xalqimiz baxtiga

Omon bo'lingiz.

10-MAVZU: “VATAN – SAJDAGOH KABI MUQADDAS”

Sinf xonasi bayramona bezatilgan bo'ladi. Sahnaga bir o'quvchi chiqib keladi.

O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi yangraydi.

Boshlovchi: 1991-yil 1-sentabr O'zbekiston Mustaqilligi kuni. 1991-yil 23-dekabrda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti etib Islom Karimov saylandi. I Karimov davlatimizning bozor munosabatlariga o'tish modelini ishlab chiqdi. Besh tamoyili ushbu tanlangan yo'lining mohiyatidir. Bu yer yuzida boshqa davlatlar tomonidan tan olingan.

Birinchi tamoyil: Iqtisodiyot siyosatdan ustun turishi va barcha siyosiy mafkuralardan xoli qilinishi.

Ikkinchi tamoyil: Davlat asosiy islohotchi va islohotlarni amalga oshirish yo'llarini belgilovchi.

Uchinchi tamoyil: Qonun hamisha ustivor bo'lishi.

To'rtinchi tamoyil: Aholi demokratik tarkibini hisobga olgan

holda kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazish va aholining har tomonlama ijtimoiy himoyasini ta'minlash.

Beshinchi tamoyil: Bozor iqtisodiyotiga bosqichma-bosqich o'tish.

Boshlovchi so'zini tugatgandan so'ng sahnaga bir o'quvchi chiqadi.

1-o'quvchi: Oliy Majlis Qonun chiqaruvchi oliy organdir. O'zbekiston Respublikasining Oliy Majlisi 1994-yil 25-dekabrda tashkil bo'ldi. Oliy Majlis 250 deputatdan tashkil topgan, uning tarkibida 12 qo'mita mavjud. Vatanimiz o'z Gerbi va Bayrog'iga ega.

Shu payt, bir o'quvchi ijrosida "Ozod elning o'g'liman" qo'shig'i yangraydi.

2-o'quvchi(Gerb): O'zbekiston Respublikasi davlat gerbini Oliy kengash 1992-yil 2-iyul kuni tasdiqlangan. Gerbning yuqori qismida xalq jipsligining ramzi sifatida sakkiz qirrali yulduz musulmonlarning qutlug' ramzidir. Gerb markazida ximmat, olijanoblik va go'zallik ramzi Humo qushi tasvirlangan. Ushbu ramz va timsollar xalqimizning tinchlik, baxt-saodat, farovonlik yo'lidagi orzu-umidlarini ifodalaydi. Gerbda tasvirlangan gullagan vodiy, quyosh, o'ng tomonda bug'doy boshlari, so'l tomonda paxta chanoqlari boyliklarimiz ramzidir.

Boshlovchi: Qo'lingizga vatanimiz gerbini olishda, xayolingizni jamlab, unga mehr ko'zi bilan tikiling, nazaringizda undagi chiroyli qush go'yo jonlanib ketadi.

O'quvchi ishtirokida "Humo qushim" qo'shigi yangraydi.

5-o'quvchi: Bayroq. O'zbekiston Respublikasi Davlat Bayrog'ini O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1991-yil 18-noyabr kuni tasdiqlagan. Bayroqimizning movoy rangi tiriklik mazmuni, beg'ubor osmon va obihayot; oq rang muqaddas

tinchlik, yashil rang tabiatning yangilanishi ramzidir, qizil chiziqlar vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudratni ifodalaydi. Navqiron yarim oy qo'lga kiritilgan mustaqilligimiz, 12 yulduz madaniyatimizning qadimiyligi, xalqimizning komillikka, saodatga intilishi ramzlaridir.

O'zbekiston Respublikasiga bag'ishlangan she'rlarga navbat beriladi va ular o'z she'rlarini aytadilar.

2-o'quvchi: Nega Ona Vatan deymiz?

Yurt Onadek bittadir
Jonimizning o'q ildizi,
Mehri, baxti shu yurtdadir.
Mustaqillik esa elning
G'ururi, or, nomusi,
Yurtimizning o'z bayrog'i,
O'z tuprog'i, qonuni.

3-o'quvchi: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1992-yil 8 dekabr kuni qabul qilgan. Konstitutsiyada 128 modda 26 bob, 6 bo'lim bor. Bu yil Konstitutsiyamizning qabul qilinganiga 11 yil to'ldi.

*«Mustaqillik bolalarimiz» qo'shig'i o'quvchi tomonidan
kuylanadi.*

4-o'quvchi:

Amir Temur bobomiz,
Mardu jasur bobomiz,
Jangu jadallar kezgan,
Ulug' davlat, yurt tuzgan.
Abadiy o'chmas nomi,
Dilimizda kalomi,
Unitmaymiz hech qachon,
Sizni, aziz bobojon.

5-o 'quvchi:

Amir Temur: Bizkim mulki Turon
Amiri Turkistonmiz,
Bizkim millatlarning eng ulug'i
Turkning bosh bo'g'inimiz.

Amir Temur nabiralari:

1-o 'quvchi:

Chor atrofga nigoh tashlab,
Kulib tursa ko'zlar yashnab,
Qulundayn tursa kishnab,
Bular kimlar?
Bu o'g'lonlar mardi maydon,
Sohibi davron –
Amir Temur nabiralari.

2-o 'quvchi:

Ochiq yuzli, shirin so'zli,
Yaxshilikdan yorug' yuzli,
Bilim istar o'tkir ko'zli,
Bular kimlar?
Bizlar – bizlar o'g'il-qizlar,
Mardi maydon, sohibi davron
Amir Temur nabiralari.

Qizlar ijrosida o'yin bo'ladi.

“O'zbekim”. E.Vohidov she'ri.

1-o 'quvchi:

Tarixingdir ming asrlar
Ichra pinhon, O'zbekim,
Sengda tengdosh Pomir-u
Oqsoch Tiyonshon, O'zbekim.
Ko'hna tarix shodasida
Bitta marjon, O'zbekim.

2-o'quvchi:

Al Beruniy, al Xorazimiy,
Al Forob avlodidan,
Asli nasling balki uzluk,
Balki tarxon, O'zbeгим.

Vatan haqida maqollar:

1-o'quvchi: Vatani boring baxti bor, mehnati boring – taxti.

2-o'quvchi: Vatanning tinch – sen tinch.

3-o'quvchi: Ona yering tuprog'i – ona sutidek oppoq.

4-o'quvchi: Vatan ostonadan boshlanadi.

5-o'quvchi: Vatanning ostonasi – oltin.

"Vatanjonim, vatanim" qo'shig'i kuylanadi.

Boshlovchi: Hurmatli aziz o'quvchilar, mehmonlar, ustozlar! O'quvchilar tomonidan tayyorlangan "Vatan – sajdagoh kabi muqaddas" mavzuidagi kechamiz nihoyasiga yetdi. Mustaqil Vatanimiz O'zbekiston haqida qancha gapirsak, kuylasak ham kam. Vatanni seving, asrang, ardoqlang. E'tiboringz uchun rahmat.

11-MAVZU: "MARDLAR QO'RIQLAYDI VATANNI"

1- boshlovchi: Assalomu alaykum, hurmatli mehmonlar, qadrli ustozlar.

2- boshlovchi: Assalomu alaykum aziz tengdoshlar! Mana bugun maktabimizda katta tantana. Bugun mustaqil O'zbekistonimiz Qurolli Kuchlarining jasur va mag'rur askarlarining

bayramlari.

1- *boshlovchi*: Qurolli kuchlarimiz davlatimiz xavfsizligi va tinch hayotini ta'minlaydi.

2- *boshlovchi*: Yurt tinchligi vatan ozodligi va mustaqilligi bilan chambarchas bog'liqdir. Sizlarga ma'lumki, O'zbekiston o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng birinchi navbatda mamlakat tinchligini saqlovchi Qurolli Kuchlarini takomillashtirishni maqsad qilib qo'ydi.

1- *boshlovchi*: Shu sababli 1992-yil 14-yanvar kuni Qurolli Kuchlarni birlashtirish hamda O'zbekiston Qurolli Kuchlarini tashkil etish haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.Karimov farmon chiqardi.

2- *boshlovchi*: O'tgan 18 yil davomida ushbu kun keng miqyosida bayram qilinmoqda. Sizlarni ham ushbu bayram bilan muborakbod etamiz.

Boshlovchilar she'r aytishadi.

1 - *boshlovchi*:

Ta'rifing tillarda doston,
Lol bo'libdi senga keng jahon.
Mehnating-la kun ko'rding har on,
Omon bo'lg'in, o'zbekim, omon.
Qadamingdan chechaklar unsin,
Osmoningda Quyosh, Oy kulsin.
Falak senga bosh egib tursin,
Omon bo'lg'in, o'zbekim, omon.

2 - *boshlovchi*:

Ezguliklar jon-taningdadir,
Ajdad yodi qon-qoningdadir,
Vatan mehri jon-joningdadir,
Omon bo'lg'in, o'zbekim, omon.
Istiqloling muborak bo'lsin,
Omborlaring g'allaga to'lsin.
Farzandlaring qalqoning bo'lsin,
Omon bo'lg'in, o'zbekim, omon.

1 - o'quvchi:

Men seni sevaman, onajon Vatan,
Xushsurat, xushsuhbat momolarimni,
Men seni sevaman, jonajon Vatan,
Har so'zi purhikmat bobolarimni.
Sevaman men seni bir parcha bo'lsang,
Do'ppidek qishlog'ing-dalalaringni.
Tunlari beshikka suyanib aytgan
Onamning sho'x-shodon allalarini.

2 - o'quvchi:

Bilaman, tuprog'ing tillolarga teng,
Tenglar ichra tengsan, Vatan Onajon.
Sen uchun mehnatga shimaraman yeng,
Kerak bo'lsa nisor bo'lsin senga jon.
Men seni sevaman Onajon Vatan,
Sen borim-borlig'im, keng jahonimsan.
Toabad omon bo'l, bo'lg'in salomat,
Baxtimning taxtisan, pok imonimsan.

Raqs ijro etiladi.

1-boshlovchi: Vatan -- bu bizning ota-bobolarimiz, buyuk
ajdodlarimiz yashagan yurt.

2 - boshlovchi: Vatan -- bu biz tug'ilib o'sgan, kindik
qonimiz to'kilgan yurt.

2 - o'quvchi:

Tinchlik uchun jonimni berib,
O'z postimda mardona turib,
Vatanimga xizmat qilaman!
Sohibqiron Amir Temurday,
Jahongashta Mirzo Boburday,
Haq yo'lida og'ishmay birday,
Vatanimga xizmat qilaman.

3-o 'quvchi:

Askarlarga

Ko'kka yetar bo'yingiz bor,
Vatan degan uyingiz bor,
Hali qancha to'yingiz bor,
Vatanimning shunqorlari,
Ham nomusi, ham orlari.

Askarlikni burchim degan,
Adolatda kuchim degan,
Dushmanda bor o'chim degan,
Vatanimning shunqorlari,
Ham nomusi, ham orlari.

4 - o 'quvchi:

Siz tinchlikning posbonisiz,
Yurtimning sof osmonisiz,
Shoirlarning dostonisiz
Vatanimning shunqorlari,
Ham nomusu, ham orlari.

Yov ko'ngliga qo'rquv solgan,
Alpomishni yodga olgan,
Tinchlik kuyin baland chalgan,
Vatanimning shunqorlari,
Ham nomusi, ham orlari.

Raqs ijro etiladi.

1-o 'quvchi: **“Bir parcha yer uchun”**

Bir kuni urishib qoldi qo'shnilar,
Bir-birin dilini etdilar xufton,
Biri qo'l ko'tarsa, biri o'shqirar,
Nahot shunchalikka yetibdi inson

1-boshlovchi: Vatan – bu bizning quvonchimiz va qayg'umizning guvohi bo'lgan diydor.

2-boshlovchi: Vatan – bu bizning keyingi avlodlarimiz yashaydigan yurt.

1-o'quvchi: Vatanga muhabbat, vatanparvarlikning asl ko'rinishidir. Vatanga munosib farzand bo'lish, qadrdon tuproq bilan chambarchas bog'liq ekanligimizni teran idrok etish, unga chin farzandlarcha munosabatda bo'lish, undan bir hissa olinsa - yuz hissa qilib qaytarish, Vatanni anglash va ardoqlashning bir ko'rinishidir.

Sahna ko'rinishi

O'g'lini harbiy xizmatga kuzatgan onaning ko'ngli g'alati bo'ladi. Yurtga tinchlik, o'g'lining esa sog'-salomat kelishini xudodan iltijo qilib so'raydi. Shu payt o'g'lining dushman bilan bo'lgan jangda mardlarcha halok bo'lganligi haqidagi xabarni yetkazishadi.

Onaizor nima qilishini bilmay zor-zor yig'laydi. Dushmanlarga o'lim tilaydi.

1-boshlovchi: Hozir sahnada ko'rganingiz hech qanday mubolag'asiz hayotiy voqeadir. Chunki, yurtimiz mustaqilligidan so'ng, uning tinch, osoyishta hayot kechirishini ko'rolmaydigan g'alamislar bir necha bor suqulib kirishga harakat qilishmoqda.

2-boshlovchi: XXI asr vabosi hisoblangan terrorizmga qarshi vataniniz Qurolli Kuchlarida xizmat qilayotgan o'g'lonlar o'zlarining mahorati, mardligi hamda sodiq yurt farzandi ekanligini ko'rsatishmoqda.

1-boshlovchi: Yurtimiz mustaqilligini ko'rolmaydigan ayrim vatanfurushlar 1999-yilning 16-fevralida Vatanimiz poytaxti Toshkentda o'z terrorchilik harakatlarini amalga oshirib, qanchadan-qancha begunoh insonlarning umriga zavol bo'ldilar.

2-boshlovchi: Yaxshiyamki, baxtimizga Vatan himoyachilari, posbonlari, mard va jasur o'g'lonlari, huquqni muhofaza qiluvchi Ichki ishlar xodimlari bor ekan.

1-boshlovchi: Vatan himoyachilarining sa'y-harakatlari, vatanga bo'lgan muhabbatlari, sadoqatlari evaziga yurt tinchligi saqlab qolindi.

2-boshlovchi: Vatandoshlarimiz – leytenant Sayyor Sa'dinov, katta leytenant Alisher Salimov, leytenant Boburjon G'aniev, katta serjant Ma'rufjon Rajapov, serjant Ulug'bek Barnoevlar Surxon vohasiga suqilib kirgan bir to'da g'alamislar bilan olishuv chog'ida Vatan va xalq osoyisntaligi uchun qahramonlarcha halok bo'lishdi.

1-boshlovchi: Hurmatli mehmonlar, aziz ustozlar va tengdoshlar! Shu aziz Vatan deb shahid ketgan marhum otabobolarimiz, akalarimiz, vatandoshlarimiz xotirasi uchun bir daqiqa sukut saqlashingizni so'raymiz.

1-o'quvchi: Adolat qurol-u, xushyorlik shior,
Po'latday mustahkam iymonlarimiz.
Yurt uchun, xalq uchun ichganmiz qasam,
Bag'ri keng elimning vijdonlarimiz.

2-o'quvchi: Bizda bor - halollik, mardlik - matonat,
Qalblarda mujassam iroda, bardosh.
Sezgirmiz, chaqqonmiz sen uchun, Vatan,
G'animga shavqatsiz, do'stlarga yuldosh.

"Ajdodlar ruhi" qo'shig'i yangraydi.

1 - boshlovchi: Endi navbat "Askar hazillari"ga.

1 - o'quvchi:

Bir parcha yer uchun xo'p tortishdilar,
Insof-u vijdonni otdilar har on
Bir paytlar qiyomat qo'shni edilar,
Boylik yo'llaridan ozdirdi oson.

Talashib tortishib yurdilar ko‘p on,
Yana janjal chiqdi, dardlari eski.
Shu on sado keldi, yerdan nogohon:
“Nodonlar, men emas, sizlar meniki”.

1-boshlovchi: Mana azizlar, ushbu she‘rning ma‘nosini tushundinsizmi, hissa shuki, bir-birimiz bilan tinch, osoyishta yashaylik.

Raq s ijro etiladi.

2-boshlovchi: Aziz mehmonlar, qadrli ustozlar va tengdoshlar, shuning bilan Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlab o‘tkazilgan tantanali kechani yakunlaymiz.

12-mavzu: “Kitob – bizning do‘stimiz”

Kitob – insonning yaqin do‘sti, aqlli suhbatdoshi, beqiyos sirdoshi hisoblanadi. Kitob inson uchun hayotdagi eng muhim narsadir.

Kitob insonning dunyoqarashini kengaytiradi. Har bir kitob asari sizda o‘zgacha taassurot qoldiradi. O‘qigan har bir kitobingizdan keyin dunyoga boshqacha qaraysiz. Sizning ongingiz kengayadi, aqi-idrokingiz oshadi.

Kitobning juda ko‘r turlari mavjud. Masalan: ertak kitoblar, qahramon kitoblar, romantik kitoblar, fantastik kitoblar va boshqalardir. Har bir yoshga alohida kitoblar yaratilgan. Adabiyot darslarida ham har bir sinfda o‘zicha murakkablashib boradigan asarlar beriladi.

Kitob – bu sening eng yaqin do‘stingdir. SHuning uchun kitobni sev va uni ardoqla.

1-boshlovchi: Assalomu alaykum, aziz mehmonlar, hurmatli ustozlar, qadrli o‘quvchilar!

2-boshlovchi: Assalomu alaykum, aziz tengdoshlar, mana bugun maktabimizda katta tantana. Bugun maktabimizda sinf o'quvchilarining "Kitob -- bizning do'stimiz" mavzusiga bag'ishlab o'tkazishayotgan tadbiriga xush kelibsiz!

Dil mehriyosi – salomim mening,
Yuragim kimyosi – salomim mening.
Haq yoki nohaqdan ko'ngli singanning
Yamar mo'miyosi – salomim mening.

1-boshlovchi: "Tarbiua kitobdan boshlanadi" degan gap bejiz aytilmagan, zero bolaning kelajagi – kitobga bo'lgan hurmati va kitobni ardoqlashidan iboratdir.

Besh asrkim, nazmiy saroyini
Titratadi zanjirband bir sher.
Temur tig' yetmagan joyini
Qalam bilan oldi Alisher.

2-boshlovchi: Biz farzandlarimizni kitobni hurmatlashga o'rgata olmas ekanmiz, ularni bir umrga yolg'izlikka mahkum etamiz. Donishmandlar "Yaxshi kitob ko'tarib o'tgan odam hech qachon yolg'iz emas", deya ta'kitlashgangani bejiz emas.

Yosh o'ynoqi ko'zlarim
Shuur olar kitobdan.
Tashkil topib so'zlarim,
Baxtim kular kitobdan.
Shuning uchun deymanki
Kitob, mening do'stimсан.

1-boshlovchi: Biz hozir siziarga armug'on etayotgan tabrik so'zlarimiz qalbizning durdona fikrlarini o'zida mujassamlashtirgan hikmatlardan tashkii topgan.

2-boshlovchi: Marhamat, tinglang

1-o'quvchi:

Ota oldidan o'tma,
Odob oldidan ketma.

2-o'quvchi:

Bo'lar odam o'n beshida bosh bo'lar,
Bo'lmas odam qirqida ham yosh bo'lar.

3-o'quvchi:

Tilingni tiysang omondir boshing,
So'zingni qisqa qil, uzayar yoshing.

4-o'quvchi:

Odob bilan baxt topilar,
Sabr bilan taxt.

5-o'quvchi:

Inson odobi bilan,
Osmon oftobi bilan.

1-boshlovchi: Navbat raqsga.

2-boshlovchi: Barcha mavjudotlar ichida eng oliysi inson. U o'zining odobi bilan, ilmi bilan yoqimli bo'lib, mehnati bilan sharaf topadi.

Ey, O'zg'on naslidan yaralgan o'zbek,
Shavkati olamga taralgan o'zbek.
Asli nasli toza buyuk millatsan,
Uluslar ichida qutbi izzatsan.

1-boshlovchi: **“Kitob” she’ri**

Har ko'ngilning orzusi, shul erur obihayot,
Qadrini bilgan kishiga, shubhasiz jondur kitob.
Har murodning boshidur, har muddao gavhari,
Har narsalarning shifosi, ya'ni luqmondur kitob.
Ko'zning nuri, dil huzuri, dillarning darmonidur,
Har qorong'u dilga go'yo mohitobondur kitob.

Har balodan asrag'uvchi, eng muhim qiymat yarog',
Tiyri vahshat, xanjari zillatga qalqondur kitob.

Odam ham gulzorga o'xshab oftobga intiladi, uning oftobi esa
ozgalardan ko'radigan mehr-oqibatidir. Shunday ekan, kelinglar,
bir-birimizga oqibatli bo'laylik, azizlar, oramizdan oqibat hech
ko'tarilmasin.

1-o'quvchi:

Tanishaylik, men kitob, asl ilmlarga kon,
Boylik beray behisob, bo'lsak agar qadrdon.

2-o'quvchi:

Lekin yirtib, burdalab,
Kamaytirma varag'im.
Sendan yana bir talab,
Iflos qilma hech yog'im.

3 - o'quvchi:

Kitob o'zi bir olam.
Vatan ichida vatan.
Kitobni ko'p o'qigan
Dono bo'lar hammadan.

4-o'quvchi:

Kitobimda qo'zichoq
Dikir-dikir chopadi,
Quvsam qochib o'sha choq
Onasini topadi.

5-o'quvchi:

Kitobimda bo'ri ham
Odam bo'lib gapirar.
Yollarini silasam,
Indamay boqib turar.

6-o'quvchi:

Har so‘zni kitobimdan
Lola kabi teraman.
Ustoz muallimlarga
Sovg‘a qilib beraman.

Raqs ijro etiladi.

1-boshlovchi:

Biz sizlarga kelgusida yaxshi va a‘lo o‘qishingizni, a‘lo xulqqa ega bo‘lishingizni tilaymiz.

Go‘zal O‘zbekiston, sensan Vatanim,
Seni ololmaydi hech qanday g‘anim.
Yurtboshing, elboshing senga rahnamo,
Jasur o‘g‘lonlaring kuchli mardona.

2-boshlovchi:

Erkin yuraklarga iymon vatandir,
Toza ko‘ngillarga darmon vatandir.
Halollik qasriga posbon vatandir.

1-boshlovchi:

Qadrli mehmonlar, muhtaram ustozlar, aziz tengdoshlar! Shu bilan “Kitob – bizning do‘stimiz mavzusiga bag‘ishlab o‘tkazilgan tantanali kechamizni yakunlaymiz. Tafakkur durdonasi – kitob barchangizga bir umr hamroh bo‘lsin!

13-MAVZU: “BAHOR VA GUL BAYRAMI”

Bu bayram maktab hovlisida yoki maktab zalida o‘tkaziladi. Bayramga ota-onalar, o‘qituvchilar va boshang‘ich sinf o‘quvchilari taklif etiladi.

Zal yoki maktab hovlisi “Bahor” mavzusiga oid devoriy gazetalar, tuvakda bahorda ochiladigan gullar, vazalarda daraxt novdalari, o‘quvchilarning bahor fasliga oid rasmlari bilan bezatiladi. Bayram masxarabozlarning va jarchilarning chiqishi bilan

boshlanadi.

1-jarchi: Bolalar-u bolalar,

2-jarchi: Tog‘da ochilgan lolalar!

1-jarchi: Eshitmadim demanglar,

2-jarchi: Eshitganlar, jilmanglar!

1-masxaraboz: Bugun maktabimizda

2-masxaraboz: Zo‘r tomosha bo‘ladi, ho-ho-hoy!

1-2-jarchilar: Navro‘z va gul bayramiga xush kelibsizlar!!!

Shundan so‘ng zalga ot o‘yinda, yog‘och oyoqda masxaraboz, polvonlar kirib kelishadi va musiqa sadolari ostida turli tomoshalar ko‘rsatiladi.

Qizlar gulchambarlar va sochlariga sochpopuk taqishib, atlas ko‘ylaklar kiyishib, o‘g‘il bolalar esa, yaxtak va do‘ppi kiyishib zalga kirib kelishadi. So‘ngra salomlashishadi.

Assalom bayramimizning quvnoq o‘g‘il-qizlari,

She‘riyat osmonining chaqnoq yulduzlari.

Qabul aylang do‘stlarim, deymiz assalom,

Qo‘limiz ko‘ksimizda, salom-assalom!

O‘quvchilar she‘rni aytib bo‘lishgach, “Bahor” valsi chalinadi, qizlar raqsga tushadilar.

O‘qituvchi: Inson o‘z yerini sevadi. Chunki u yaproqlar hidsiz, jarangli qo‘shiqsiz, ariq-anhorsiz, qip-qizil lolasiz yashay olmaydi. O‘zlaringizga ma‘lumki, qadim-qadimdan ota-bobolarimiz “Navro‘z” va “Gul bayrami”ni keng nishonlab kelishgan. Keksa-yu yosh bu bayramda bir-biriga juda yaxshi tilaklar bildirishgan. Ariqlarni tozalab gullar, mevali daraxtlar ekishgan. Ayniqsa, bahorda ochilgan chuchmoma, boychechak, lolalarni terishib momolarimizga, onalarimizga sovg‘a qilishgan. Ular bu gul va

ko'katlarni ko'zlariga surtishib, "omonlik, omonlik, hech ko'rmaylik yomonlik" deb fotiha o'qishgan.

Ushbu so'zlardan so'ng sahnalashgan ko'rinish qo'yiladi. Qizcha buvisiga boychechak sovg'a qiladi. Buvi esa qizini duo qiladi, so'ngra "Boychechak" ashulasi aytiladi.

1-o'quvchi: Ochildimi boychechak,
Endi har joy gul demak,
Chunki Bahor elchisi –
Shu mitti gul boychechak.

2-o'quvchi: Ariq labiga boring,
Yo ko'pchilik, yo yolg'iz
Hammangizga birday teng
Atir purkar ko'k yalpiz.

3-o'quvchi: Ariq labida yalpiz,
Atir sochgani, sochgani
Barg yozib yashnab gul qiz
Quchoq ochgani-ochgan.

Shundan so'ng kuy ostida bayramga Dehqonbobo va Bahoroy tashrif buyurishadi.

Bahoroy: Assalomu alaykum, aziz bolajonlar, mana yana o'lkamizga men o'z ko'rkimni yoydim.

4-o'quvchi: Aylabon lutfi karam Navro'zi olam keladur,
O'smalik qoshi qalam Navro'zi olam keladur,
Nish urib ser barglar armug'on aylab yana
Maysaga serob dalam, Navro'zi olam keladur.

Bahoroy: Mendan xursandmisizlar?

O'quvchilar: Ha, juda xursandmiz, sen fasllarning eng go'zalisan.

Bahoroy bolalarga turli-tuman gullar, kurtak ochgan novdalarni sovg'a qiladi.

Dehqonbobo: Bugun ayyomingiz muborak qilib,
Zumrad sepin yoyibdi bahor.
Bahoriy gullarining husniday to'lib
Olam go'z alligi bo'lsin barqaror.

Shundan so'ng o'qituvchi o'quvchilarni ikki guruhga bo'lib, ular bilan "Gul bazmi" o'tkazadi. Bir gulni qo'lga olib, unga qarab she'r aytadi va birinchi guruhdagi o'quvchiga beradi.

Gul bu yaxshilikning erur nishonasi,

Soflik, muhabbatning chin koshonasi.

Bunda har bir o'quvchi gulni olgandan so'ng, shu gulga bag'ishlab bir misra she'r aytadi. Agar she'r topib ayta olmasa o'sha qatnashchining guruhi yutqazgan bo'ladi.

1-o'quvchi: Hali erimasdan qor,
Dala-qirda gul bahor,
Chiqdi mitti gul chechak,
May elchisi boychechak.

2-o'quvchi: Mana senga pushti gul,
Hohlasang oq gulga qo'n,
Gulsafsaroy ham go'z al gul,
Anor kiygan qizil to'n.

*O'yin shunday davom etadi. "Chitti gul"
ashulasi ijro etiladi.*

Chitti gul-e, chitti gul,
Etaginga gul bosdim,
Hayu, chitti gul,
Hayu, chitti gul.

Bahoroy: Bolalar, qaranglar, menda qanday chiroyli gullar bor. Qani kim buladi, bu gullarning nomi nima? Ularning rangi va shakli qanaqa?

Bir o'quvchi: Bu gulning nomi lolaqizg'aldoq, rangi qizil, u bahorda qiradirlarda chaman bo'lib ochiladi.

Boshqa gullar ham shunday ta'riflanadi. So'ngra tabiatga oid topishmoqlar aytiladi. Javobini o'quvchilar topadilar.

Keyin bahor gullar viktorinasi 2 ta guruh bo'yicha o'tkaziladi. Patnisdagi turli savollar yozib solingan konvertlar ochib o'qiladi. Shu savollarga to'g'ri javob bergan guruh g'olib deb topiladi.

Shu bilan bayram yakunlanadi va o'quvchilar maktab ma'muriyati tomonidan rag'batlantiriladi.

14-mavzu: “Onajonim, sizga ta'zim”

Sahna har xil bahor gullari, maysalar bilan bezatilgan, Onajonlar bayrami – 8-mart kuniga bag'ishlangan devoriy gazetalar osilgan.

O'quvchilarning qo'llarida gullar, qizlar atlas ko'ylakda, og'il bolalar oq ko'ylak, qora shimda.

Xush kelibsiz ey aziz
O'qituvchi, mehmonlar,
Onajon, opajonlar.
Avvalo hammangizga

Hamma:
Assalom.

1-o'quvchi:

Assalom deganda ochilgay gullar,
Assalom deganda sayrar bulbullar.
Assalom deganda alik olursiz,
Ushbu bayram sovg'amizni qabul qilursiz.

2-o 'quvchi:

Bahor keldi gul ochildi,
Nur sochildi borliqqa,
Yurak to'ldi shodlikka.

3-o 'quvchi:

Salomim so'lim, so'lim,
Ko'ksimdadir o'ng qo'lim,
Eng avvalo ustozlar,

Hamma: Salom, assalom.

4-o 'quvchi:

Farzandini ardoqlab ona
O'stiradi yetkazmay zavol,
Atrofida bo'lar parvona
Bo'lsa hamki o'zin qaddi dol.
Bir maqsadni ko'zlaydi ona,
Shu maqsadda yashaydi yona.
Eshitilar qalbidan bir sas –
Bolam avval odam bo'lsa bas.

Ona – bu so'zda olam-olam ma'no bor.

Ona – tarbiyachi, ona – tadbirkor uy bekasi.

Onaning mehri quyoshdek beminnat va musaffodir. Onaning farzandlari uchun qilgan xizmatini hech narsa bilan o'lchab ham, baholab ham bo'lmaydi.

5-o 'quvchi:

A'lo baho sovg'amiz,
Onajonlar, assalom.
Doimo sog' bo'lib yuring,
Mehribonlar, assalom.

6-o 'quvchi:

Olcha.

Qo'shiq

Quyosh kulib boqqan kun,
Bahor tanga yoqqan kun,
8-Mart bu kun,
Onajonlar bayrami.

7-o 'quvchi:

Siz tengi yo'q
Mehribonsiz onajon.
Dasta-dasta gul tutay
Sog' bo'ling – bo'ling omon.

9- 'quvchi:

Ona aziz, ona mo'tabar
Ona bog'u rog'imiz
Ona nomi nurafshon
O'chmas hech chirog'imiz.

10- 'quvchi:

Buvijonim kelyapti,
Hassa duk-duk qilyapti.
Men ochaman eshikni,
Tez ochaman eshikni.
Buvim yuzi marjon ter
Yelpig'ichni menga ber.
Men yelpiyman buvimga,
Tez yelpiyman buvimga.
Uyga kirdi buvimiz,
Nurga to'ldi uyimiz.
Men qo'yaman par yostiq,
Tez qo'yaman par yostiq.

1-o'quvchi:

Tunlari uxlamay chiqqan
Mehr chirog'in yoqqan,
Quyoshday ko'kda balqqan
Bag'ri osmon onajon
Mehri jahon onajon,
Og'ushida ulg'aytgan,
Odam bo'l deya aytgan,
Tongda silab uyg'otgan.

2-o'quvchi:

Ota-ona ikki so'z
Biri qosh-u biri ko'z ,
Bir-biridan qimmatli,
Mehri daryo, himmatli.

3-o'quvchi:

8-mart bugun,
Quvonchlarim bir jahon,
Bayramingiz muborak,
Aziz Ona, onajon.

4-o'quvchi: "Non yopganda"

5-o'quvchi:

So'zlari bol durdona,
Mehnatda eng mardona,
Olam ichra yagona
Sizsiz, ey aziz ona!

6-o'quvchi:

Ham oyim, ham quyoshim,
Har bir ishda yo'ldoshim,
Ham yaratgan ham kuldigan,
Uyni nurga to'ldirgan,

Onajon, sizga ta'zim.

7-o'quvchi:

Kakku

Kuz kuni bizlar
Dalaga chiqdik.
Baland daraxtda
Bir qushni ko'rdik.
U yayrab sayrar
"Kakku-kakku",
Bu qushning nomi
Shuning uchun kakku.
Kakku beto'xtov
Sayraydi har goh
Zerikmaydi u
Chunki vaqti chog'.

8-o'quvchi:

Buvijonim, buvijonim,
So'zlaringiz muloyim,
Shuning uchun biz sizni
Hurmat qilamiz doim.
Buvijonim, buvijonim,
Mehribonsiz buncha ham.
Mehringizning taftidan
Ochiladi g'uncha ham.

9-o'quvchi:

Yoqimli shirin biram
Oyijonim allasi,
Dilga baxsh etar orom
Oyijonim allasi.
Uxla qo'zichog'im der,
Sen suyangan tog'im der,
O'lja to'la bog'im der
Oyijonim allasi.

10-o'quvchi:

Oyijonim, oyijonim,
Sizni yaxshi ko'raman.
Bitta ayting, oyijonim,
Men sizga kim bo'laman?
 Sensan mening asal qizim,
 Shirmon qizim, tilla qizim,
 Qo'llari gul epchilginam,
 Aqli raso, dono qizim.
Unday bo'lsa xafa qilib
Tilla qizga solmang qovoq,
Sinib qoldi chinni tovoq.

1-o'quvchi:

Uyimizda o'qisam she'r
Ayajonim erkalab der:
Qizim buncha tiling shirin.
Qand yedim-ku axir boya,
Tilim shirin shundan, aya.

2-o'quvchi:

Dasturxonda shokolad
Kuydirar Nor ko'zini,
Qancha olma desak ham,
Tiyolmaydi o'zini.
 Oyisi der tomog'ing og'rigan
 Yema Norjon.
 Tomog'imga tekkizmay
 Yutvoraman, oyijon.

3-o 'quvchi:

Buvijonim-buvijon

Oq paxtadek sochingiz,

Omon bo'lsin boshingiz.

Ayta qoling buvijon

Hozir qancha yoshingiz

So'zlaringiz xo'r qiziq,

Yuzingiz nega chiziq?

Achomlasam, buvijon,

Bag'ringiz buncha issiq?

Dadamlarni boqqansiz,

Oyimlarga yoqqansiz.

Topishmog'-u ertakka

Buvijonim, chaqonsiz.

4-o 'quvchi:

Jaji nihol, gulg'unchaman,

Mehringizdan bol ichaman,

So'zlaringiz joylab dilga,

Otlanaman porloq yo'lga,

Siz quvonchim, hayajonim,

Mehribonim – ayajonim.

5-o 'quvchi: *“Bog'imda gullar chaman” qo'shig'i.*

6-o 'quvchi:

Buvijonim

Buvijonim keladi,

Dil-u jonim keladi,

Uzoq yo'ldan keladi,

Issiqko'ldan keladi

Buvim kelsa biz xursand,

Cho'ntaklari to'la qand,

Mayiz olib keladi,

Mag'iz olib keladi.

Shirin-shakar ko‘zlari,
Nuroniyydir yuzlari,
Aytmoqqa she‘r-afsona
Buvijonim yagona.

O‘yin.

Xanda:

- Dada, sizni telefonga chaqirishyapti.
- Kim qayerdan?
- Bilmadim.
- Men kasalman.
- Doktorga ketganlar. O‘zlari aytgandilar.

– Oyi, men sizning asalingiz, novvotingiz,
shokolatingizman-a?

– Ha, sen mening shirinimsan.

– Qanday yaxshi, endi o‘zimni o‘zim yalab yuraman-
da.

7-o‘quvchi:

Mehri misoli daryo,
Qalbi to‘la nur, ziyo
Ko‘zlarimga to‘tiyo,
O‘zimning onaginam.

Yuzin nuridan chunon
Atrof bo‘lar charag‘on,
Doim mendan girgitton
O‘zimning onaginam.

Hamma: Onaginam.

O‘qituvchi: Hurmatli va aziz onaxonlar, muhtaram opa-

singillar. Barchangizni bahor ayyomi, 8-Mart bayrami bilan chin dildan muborakbod etaman. Bolajonlarimiz baxtiga sog‘-omon bo‘ling, Chehrangizdan kulgu, tabassum arimasin, yurtimizdan tinchlik ketmasin. Uyimizda g‘am, kiprigingizda nam bo‘lmasin!

15-mavzu: “Navro‘zi olam” bayrami

Xona bayramona bezatilgan, Navro‘z bayramiga atalgan suratlar. Shuningdek devoriy gazetalar osilgan. Navro‘z taomlari bilan to‘ldirilgan dasturxon. Bayram ertaligiga ustozlar, o‘qituvchilar, ota-onalar taklif etilgan bo‘lib, Ularning oldida anvoyi guldastalar terib qo‘yilgan. Ishtirok etuvchi bolalar milliy kiyimlarda yasanib olishgan.

Magnitafondan «Bahor vals» musiqasi yangrab biroz davom etgach, ohista pasayib, davraga boshlovchi qiz kirib keladi.

Boshlovchi: Assalomu alaykum, muhtaram ustozlar. Assalomu alaykum mehribon va qalbi qaynoq ota-onalar. Quvnoq davramizga xush kelibsizlar.

Hurmatli mehmonlar. Bugungi Navro‘zi olam, yashillik va yaxshilik, mo‘l-ko‘lchilik, to‘kinlik, baraka yilimizning boshlanishi bilan sizlarni qutlaymiz. Hammalaringizga ulkan sog‘lik, omad, oilaviy baxt tilaymiz. Fasllar kelinchagi – bahor fasliga butun olam, koinot o‘zining go‘zalligini taqdim etib, marhabo, gul bahor, deb davramizga taklif etamiz.

Boshlovchi: Mana bepayon o‘lkamizga zarg‘aldoqlar, gulchambarlar taqib, xushro‘y Navro‘zi olam kirib kelmoqda.

– Marhabo, Navro‘zi olam!

Navro‘zoy: Assalom, ey o‘rtoqlar. Xush keldingiz!

Yashnadi tog‘lar, bezaldi bog‘lar. Xush keldingiz!

Keldi nasimi navbahor, o‘lkamga parvoz ayladi,

Ko‘k maysalar bog‘aro baxmal payondozi ayladi.

– Ona zamin borliqni, barcha jonzotlarni muborakbod

qilmoqda.

Uning farzandi bo'lmish mo'tabar inson ham ko'hna ona yerni hamisha sevib ardoqlaydi. Unga ta'zim qiladi.

Bolalar: Salom Navro'z, Salom Navro'z.

Navro'zoy: Salom, ko'm-ko'k bahorim,
Soylari sho'x oqarim,
Xay-xay go'zal shamoling
Gurkiraydi kamoling.

Ochildimi boychechak, endi har yon gul demak,
Chunki bahor elchisi shu mitti gul Boychechak,
Yangi yilingiz muborak bo'lsin, hoy bobo,
Navro'zingiz muborak bo'lsin, hoy Momo,
Ayyomingiz muborak bo'lsin, hoy Ona,
Boychechak chiqibdi, bugun Navro'z ekan.
Hoy bog'bon bobo, niholga bersin baraka,
Hoy dehqon bobo, hosilga bersin baraka,
Hoy cho'pon bobo, naslga bersin baraka,
Boychechak chiqibdi, bugun Navro'z ekan.

Boshlovchi: Bolalar, davramizda Dehqon bobo ko'rinmayaptilarmi? Kelinglar, birga chaqiramiz.

Hamma: Dehqon bobo,
Dehqon bobo,
Dehqon bobo.

O'gil bola dehqoncha kiyinib davraga kirib keladi.

Dehqon bobo: Labbay, aziz bolalarim,
Gulgun chehra, donolarim.
Navro'zingiz muborak,
Shonli bayram muborak.

Boshlovchi: Rahmat Dehqon bobo, sizning ham bayramingiz muborak bo'lsin.

Dehqon bobo: Rahmat, rahmat.

Keltirdim sizga ko‘chat va gullar,
Eksangiz uni, yashnagay bog ‘lar.

Vatanimiz sarhadi keng. Uning tog ‘larida hali qish davom etmoqda. Ayozboboning ketgisi yo‘q. Bizda esa mana Navro‘zi olam. Tuproq ilib qoldi, dalalar meni chorlamoqda. Bahor esa meni kutib turmaydi. Sizlarining rizqi ro‘zingiz – baraka urug ‘ini ayni yerga sepish payti. Men boray, xayr, bo‘taloqlarim.

Asta-sekin chiqib ketadi.

1-o ‘quvchi:

Buvin soldilar sumalak,
Pishirolmay biz halak.
Suyilib ketgan ekan,
Un tashladik bir chelak.

Mehnat zoye ketmadi,
Shirin bo‘pti sumalak.
Endi biz qo‘shnilarga
Sumalak tashib halak.

Boshlovchi:

Bolajonlar, boshlaylik
Yalla, navo nazmini,
Savol-javob qismi-yu,
Topag‘onlar bazmini.

2-o ‘quvchi: Ko‘klam kelsa unadi,
Oftob chiqsa, kuladi.
U bahorning elchisi
Buni hamma biladi.

– Uning nomi boychechak

3-o *quvchi*:

Qozonsiz qaynar erta-kech,
Suvda qo‘ling kuymaydi hech.
– Bu buloq.

4-o *quvchi*:

O‘zi qizil, go‘zal biram,
Qirga yozar bir dam gilam.
– Bu lolaqizg‘aldoq.

5-o *quvchi*:

Navro‘zi olamda to‘kin dasturxon,
Qadimiy taomlar oldimda bugun.
Ota-bobolar ruhin etib shod,
Chin avlod bo‘lmoqni dilimga tugdim.

Boshlovchi: Navro‘z o‘zbek xalqining azaliy va uzoq tarixiga ega bo‘lgan bahor bayrami bo‘lib, unda ajoyib xalq sayillari, dor o‘yinlari, polvonlar bellashuvi, aytishuv-alyorlari kabi xalq san’atlari namoyish etiladi.

Mahallalarda ariq va hovuzlar tozalanadi. Sumalak va ko‘k somsa, ko‘k chuchvara hamda halim Navro‘zning asosiy taomlari hisoblangan. Arazlagan kishilar bir-birlarini kechirib, yarashib olishgan. Kattalarga hurmat, kichikka mehr-shavqatli bo‘lish haqida suhbatlar bo‘lgan. “Odobnoma” aytilganidek:

Bolalikda xushyor bo‘ling, chalishmang,
Ming qilsa ham “Sizni” “Sen” ga alishmang.
“Siz” – bu hurmat, eldan rahmat oladi,
“Sen” – sonda yo‘q, aro yo‘lda qoladi.

1-o *quvchi*:

Bugun kurtak o‘qir ertak,
Bahor keldi, bahor keldi.
Sochi tol-tol silkinar tol,
Bahor keldi, bahor keldi.

2-o *'quvchi*:

Sho'x qaldirgoch yarar goch-goch,
Bahor keldi, bahor keldi.
Tojdor turna chalar surnay,
Bahor keldi, bahor keldi.

Navro'zoy: Azizlar, men go'zal Bahorman. Dalada bog'larni uyqudan uyg'otaman. Daraxtlar kurtagini sharbatlarga to'ldiraman. Qushlar, barcha hayvonlar behalovat bo'lib qoldilar. Hu-u ana, chumolilar ham uylaridan chiqib "Bahor keldimikan?" deb mo'ralab-mo'ralab qo'ymoqdalar. Kim mening do'stim bo'lsa, topamanga topilsin. Faqat shartim shuki, Navro'z chechaklari haqida she'r aytib bersin.

3-o *'quvchi*: Men aytaman.

Gullar ichra birinchi
Ochilasan, boychechak,
Dala -qirlar bag'riga
Sochilasan, boychechak.
Jajji, nimjon bo'lsang ham
Yo'l ochasan ko'klamga,
Yasantirib olamni
Hiding tarab o'lkamga.

4-o *'quvchi*:

Shunchalar dilcash
Ko'klam choglari,
Bezanar yana
O'lkam bog'lari.

Novdalar taqar
Guldani sirgalar,
Argimcha solib
Uchar turnalar

Olis olislardan yoqimli nay ovozi eshitiladi.

Ikki bola o'rtaga chiqib o'z jo'ralarini davraga chorlaydi.

Bor-xo bor,
Kel-xo kel,
Hammang ham kel.
Yo ‘ l qayda?
Tez chopib kel,
Quvnagani kel,
Sayilga kel.
Kelaver x-o-o-o-u.

Davruga bir guruh bolalar chiqib tugib tashlangan belbog‘ atrofida “Kim oladi-yo shuginani-yo” qo‘shig‘ini aytib qarsak bilan o‘yinni davom ettiradilar.

Boshlovchi: Uchib keldi har yoqdan qadrdon qushlar,
Ko‘chib kelar yiroqdan mehribon qushlar,
Soginganmiz, kelinglar, ko‘zlari munchoq,
Uchqur, botir zargaldoq, kuychi qadrdonlar.

Magnitafondan qushlarning chug‘ur-chug‘ur ovozi kela boshlaydi.

1-o ‘quvchi:

Siz-la keldi Navbahor,
Ko‘klam bo‘ldi hamma yoq.
Erta tongdan kuylab siz
Ko‘nglimizni eting chog.

16-mavzu: “Sog‘lom avlod orzulari”

Tantana maktab zalida o‘tkaziladi. Sahna o‘zbek milliy ana’nalariga xos bezatilgan. O‘quvchilar musiqa sadolari ostida sahnaga chiqadilar.

1-boshlovchi: Assalomu alaykum aziz, mehribon ustozlar va hurmatli ota-onalar!

2-boshlovchi: Aziz mehmonlar! Bugungi kechamizning nomi «Sogʻlom avlodning orzulari». Kechamiz orqali olgan bilimlarimizni namoyish etamiz. Marhamat, tomosha qiling.

O'quvchi: Biz sinfda anchamiz,
Lekin zoʻr sinfchamiz.
Boʻsh kelmaymiz darslarda,
Biz beshchimiz, toʻrtchimiz

Hamma: Aʻlochi oʻquvchimiz

«Sinfimiz» qoʻshigʻi ijro etiladi.

1-boshlovchi: Oʻtgan yillarimizni birma-bir eslab koʻraylikchi. Shu yillarda nimalarni oʻrgandik? Aytishadi-ku: “Yoshlikda oʻrgangan bilim toshga oʻyilgan naqsh” deb.

2-boshlovchi: Avvalambor Vatanni sevishni oʻrgandik. Vatan – bu insonning qoni toʻkilgan joyidir. Vatan avlod-ajdodlarimiz, ota-bobolarimiz yashab oʻtgan, biz tavallud topib ulgʻaygan, hayot kechirayotgan diyorimizdir.

Barcha nelarga javob izlaymiz,
Olam sirlarini yechamiz albat,
Ilm-u maʼrifatga toʻlmoq istaymiz,
Bizni Vatan kutar, buyuk kelajak

“Vatanjonim” qoʻshigʻi ijro etiladi.

O'quvchi: Yurtim senga sheʼr bitdim bu kun,
Qiyosingni topmadim aslo.
Shoirilar bor oʻz yurtin butun
Olam aro atagan tanho.
Ular sheʼri uchdi koʻp yiroq,
Tushlarida kumush diyori.
Bir oʻlka bor dunyoda biroq

Bitilmagan dostondir bori
Faqat ojiz qalamim manim,
O‘zbekiston, Vatanim manim
*Gerb, bayroq ko‘targan o‘quvchilar sahnag
chiqadi.*

1-o ‘quvchi:

Bayrog‘imda yulduzlar bor, oylar bor,
Yashil rangda yashnab turgan joylar bor
Oqligida oppoq tilak, o‘ylar bor,
Hilpiragan sayin ko‘zim quvnaydi,
Yurtimizni dadil og‘a boshlaydi.

2-o ‘quvchi:

Tamg‘amiz bor juda ko‘rkam,
Yashnab turar xuddi ko‘klam,
Bir yon paxta, bir yon bug‘doy
Vatan bizga aziz makon.

3-o ‘quvchi:

Ko‘rganingiz ikki daryo,
Ana Amu va Sirdaryo.
O‘rtadagi Humo go‘zal,
Baxt timsoli erur azal.
Oy-yu yulduz parvonadir,

Hamma: O‘zbekiston yagonadir.

Boshlovchi: Yo‘lboshchimiz orzu qilgan
Yurtda o‘ynab kulaylik,
Vatanimiz koriga
Sog‘lom avlod bo‘laylik!

“Chak-chak” raqsi ijro etiladi.

Tanbur nolasi eshitiladi. Sahnaga buyuk ajdodlarimiz Amir
Temur, Alisher Navoiy, Mirzo Bobur, Ulug‘bek, Al-Buxoriy, Al-

Xorazmiy, Cho'lpon siymosida o'quvchilar chiqishadi.

Boshlovchi: Ajdodlarimiz – faxrimiz. Bizning Vatan buyuk siymolar vatani, Shiroq, Jaloliddin Manguberdi kabi botirlar vatanidir.

Amir Temur:

O'tsa hamki asrlar,
Qadrimga etdi avlod.
Tanitib jahon ichra,
Pok ruhimni etdi shod.

1-o'quvchi: Siz Amirsiz, Siz Temursiz, jahongir sulton,
Imondirsiz, vijdondirsiz, siz aziz inson,
Qalblar aro ko'tarmoqda ruhingiz isyon,
Sizday mard zot tug'ilsa deb, umidvor jahon,
Temur bobo, nomingizni yod etajakmiz,
Olamaro ruhingizni shod etajakmiz.

2-o'quvchi: Al-Buxoriy, At-Termiziy hazrat bizga,
Ulug'bek-u Al-Farg'oniy savlat bizga,
Temur bobo, Manguberdi davlat bizga,
Ona xalqim, dono xalqim, bizga inon!

3-o'quvchi: Yurtning do'stiga ochiq bag'ri bag'rimizdir,
Alpomishning yovga qahri qahrimizdir,
Navoiyning turkiy tili faxrimizdir.
Ona xalqim, dono xalqim, bizga inon!

Ajdodlarimiz ta'zim bajo aylab, sahnadan chiqib ketishadi.

Sho'x kuy taraladi.

1-boshlovchi: Ibn Sino bobo ulashar davo:

– Xom suv ichma, sog'liqdan kechma,
Yeb bo'lgach ovqat, yugurma faqat,

Ko'p dardga asos, shamolash xalos,
Badantarbiya, kuch etar hadya,
Kim harakatda, sog'lom albatta.

*Sahnaga sport musohaqalariga qatnashadigan o'quvchilar
chiqadilar.*

– Biz karate bo'yicha jahon chempioni bo'lib, O'zbekiston
bayrog'ini yanada yuqori ko'tarmoqchimiz.

Mashqlar bajarib ko'rsatadilar.

2-boshlovchi: Biz bir qator fanlarni o'rganib savodxon
bo'ldik.

1-o'quvchi: Matematika har yerda kerak,
Uni bilish uchun o'qish ham kerak.
Ko'paytira olmasang ikkini uchga
O'rganganlaring chiqadi puchga

2-o'quvchi: O'zbek tilim jon-u dilim,
Chunki bu til – ona tilim
Ega, kesim, ot, sifat, fe'l,
Gap tahlilin o'rgandim men.

3-o'quvchi: Musiqa darsi biz uchun
Eng quvonchli dars edi.
Chunki bizni san'atga
Ustozim olib kirdi.

Bir qancha o'quvchilar “Ulug' zot, Ustoz” degan mazmunda
she'rlar o'qishadi. Yana bir qanchalari “Jannat onalar oyog'i
ostidadir” mazmunida o'z onalarini she'riy tarannum etishadi.
Sho'x kuylar yangraydi. Ustozlar bilan o'quvchilar raqsga
tushishadi.

Tadbir soʻngida 4-sinf oʻquvchilarining orzulari magnitafon orqali yangraydi.

Biz yangi asrda yashab, kompyuterlar bilan tillashadigan, manaman degan xorijiy tadbirkorlar bilan bellashadigan bilimdonlar boʻlib yetishamiz.

17-mavzu: “Alisher Navoiy – betakror siymo”

Assalomu alaykum aziz ustozlar va hurmatli oʻquvchilar. Bugungi kechamizni soʻz mulking sulтони boʻlmish A.Navoiy bobomiz tavalludlarining ... yilligiga bagʻishlaymiz va ularni xotirlab ruhlarini shod aylaymiz.

Oʻzbek xalqining milliy ifixori A.Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirot shaxrida dunyoga keladi. Otasi Gʻiyosiddin temuriylar saltanatining amaldorlaridan, shoh saroyining ishonchli kishilaridan edi, shuning uchun u yoshligidan Xurosonning boʻljak sulтони Husayn Boyqaro bilan juda yaqin doʻst boʻlib, bir madrasada taʼlim olishgan. Yosh Alisher kichginaligidan kitob oʻqishni, sheʼr yod olishni sevgan.

Alisher bir kuni sheʼr yozib, uni bogʻda baland ovoz bilan oʻqiy boshladi:

Har yerda bahor boʻlsa, chaman boʻlsa kerak,
Har yerda chaman, gulu-suman boʻlsa kerak,
Har qayda xazon boʻlsa, tikan boʻlsa kerak,
Har yerda tikan mihan boʻlsa kerak.

Navoiyning yoqimli ovozda sheʼr oʻqishini eshitgan bulbul undan soʻrabdi:

– Ey xushovoz shoir, sen oʻqigan sheʼrlar bubullarning erta tongdagi navosidan ham yoqimli ekan. Nomingni bilsam boʻladi-mi?

– Alisher! – deb javob beradi bola.

– Bildim, bildim, yangi chiqqan shoir ekansan-da. Endi oʻzingga chiroyli taxallus tanlab sheʼrlaringning oxiriga oʻshani qoʻygin.

– Navo qanday chiroyli soʻz-a! Rahmat, bubuljon, sen menga

taxallus tanlashda yordam berding, bu kundan boshlab men she'rlarimning tagiga Navoiy deb qo'shib qo'yaman.

1465-yili Navoiy Samarqand tomon yo'l oladi va shoir sifatida juda katta shuhrat topa boradi. Shoirning dastlabki yozgan she'riy kitobi "Ilk devon" nomi bilan mashhurdir. Shu bilan bir qatorda shoir (1469–1472) yillari saroyda muhrdor, (1472–1476) yillarda vazir, (1487–1488) yillarda Astrobodda hokimlik qilgan.

Hokimlik davrida Navoiy shaharni obod xalqni to'q va farovon yashashi uchun bir qancha ishlarni amalga oshirdi, lekin Vatan va yurtiga bo'lgan muhabbati bir soniya ham unga tinchlik bermadi va yurtini qo'rsab bir qancha asarlar yaratdi.

Yorabki, inoyatingni yor ayla manga,
Yo'qlukka xidoyatingni bor ayla manga,
Har qaxri kifoyatingni dor ayla manga,
Har duri inoyating nisor ayla manga.

Navoiyning eng katta orzusi yirik dostonlar hamda turkiy tilda asar yaratish edi. 1485-yili shoir turkiy tilda birinchi marotaba "Xamsa" asarini yaratib Husayn Boyqaroga taqdim etdi.

XV asrgacha turkiy tili mavjud bo'lgan. Lekin o'sha paytda shoirlar bu tilni kambag'al deb fors tilida asarlar yaratganlar. Lekin mana shu da'volarga bir mukarram zot Mir Alisher Navoiy hazratlari nuqta qo'ydilar.

Bog'da shoir she'r mashq qilyapti.

Turk nazmida chun men tortib alam,

Ayladim ul mamlakatni yakqalam.

Shoirning ustози Lutfiy kirib keladi. Salomlashgach, shoir Lutfiyga turkiyda bitgan ikki qator g'azalini o'qib beradi.

Orazin yopqach ko'zimdan to'kilur har lahza yosh,

Bo'ylakim paydo bo'lur yulduz nihon bo'gach quyosh.

G'azaldan zavqlangan Lutfiy shoirning ushbu misralari uchun 32000 baytli butun asarini almashishga tayyor ekanligini aytadi.

Navoiy g'azallaridan namunalar.

Boshlovchi: Bizlar ana shunday iqtidorli, iste'dodli, haqiqiy hunarmandlarning avlodlari ekanligimizdan g'ururga to'lib, ularning ijodlari, hayot va faoliyatlari bilan yaqindan tanishishimiz, o'qib o'rganishimiz kerak.

Boshlovchi: Ruboiylar.

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish,

El anga shafiq-u mehribon bo'lmas emish.

Oltin qafas ichra gar qizil gul butsa,

Bubulga tikondek oshyon bo'lmas emish.

Jondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz,

Sondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.

Har neki sevmak ondin ortiq bo'lmas,

Ondin seni ko'p sevarmen, ey umri aziz.

“Jonim” dagi “Jim” ikki domingga fido,

Andin so'ng “alif” toza niholingga fido.

“Nur”i dog'i anbari hilolingga fido,

Qolgan ikki nuqta ikki xolingga fido.

O'lsam yasamang bundan mozorimni mening,

Yuklab eliting, jismu-jonimni mening.

O'tru chiqarib, ahlu diyorimni mening,

Ko'yida qo'ying, tanu-zorimni mening.

Husayn Boyqaro Xurosonning shohi bo'lganida Navoiy uning vaziri bo'lib xizmat qiladi. Saroy ahli, boshqa vazirlar uni chiqishtirishmaganligi sababli u bu lavozimida to'rt yil ishlaydi, lekin, donoligi, hozirjavobligi, aqli bilan saroy ahlini rom etadi.

Sahna ko'rinishi:

Saroyda bazm bo'lmoqda. Shoh Husayn Boyqaro taxtda

o'tiribdi. Raqqosalar raqs tushyaptilar. Alisherning tashrifi haqida xabar berildi. Alisher yangigina bitgan baytini shohga o'qib eshittiradi.

Bilmaganni so'rab o'rgangan olim,

Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.

Hikmatdan ta'sirlangan shoh Alisherni 2000 tillo bilan taqdirlaydi. Bundan norozi bo'lgan vazirlar janjal ko'taradilar.

– Taqdir har safar Alisherning hikmati uchun 1000 tanga in'om qilardingiz, endi esa 2000 tanga beribsiz. Nima uchun bizlarga ham bunday iltifotlar bildirmaysiz. Yo bizlar iltifotga noloyiqmizmi?

Podsho ularga qarab:

– Agar mening savolimga yaxshi javob topsangiz 2000 tanga sizdan aylansin, topa olsalaring, mening sirayam qarshiligim yo'q.

– Mayli, olampanoh. Qancha savolingiz bo'lsa beravering, bizlar javobini topamiz.

Husayn Boyqaro vazirlarga qarab chiqib, barmog'i bilan boshini ko'rsatadi.

Alisher esa barmog'i bilan tiliga ishora qiladi. Hech narsani tushunmagan vazirlar bir-birlariga qarab angrayib turaveradilar.

Husayn Boyqaro buyuradi:

– Tinglang, men ko'rsatkich barmog'im bilan boshimni ko'rsatdim. Mir Alisher esa barmog'i bilan tilini ko'rsatdi. Sizlar shu jumboqning ma'nosini topib kelinglar.

– Shohim, bizga uch kun muhlat bersangiz, bu jumboqning javobini topurmiz.

– Sizlarga ruxsat.

Vazirlar o'ylay-o'ylay jumboqning javobini topa olmay Alisherning huzuriga bordilar va undan javobini so'radilar.

Alisher:

– Agar har qaysingiz 1000 tangadan bersangiz, 4000 tanga evaziga mayli jumboqning javobini aytib berurman.

40 ta vazir rozi bo'libdilar.

Alisher Navoiy – Sulton: Boshga balo nimadan keladi, - deb so‘radi.

Men: “Harkimning-ki boshiga balo kelsa, o‘zining tilidan keladi” - deb javob berdim.

Buni eshitib vazirlar saroyga yugurdilar.

Yazirlar: – Men topdim, men topdim.

S.Husayn: – Tinchlaning, tinchlaning, xo‘sh jumboqning javobini topdinglarmi?

Vazirlar: –Ha, shohim, har boshgaki, balo tildan keladur.

S.Husayn – To‘g‘risini ayting, bu gapnilarni sizga kim o‘rgatdi? To‘g‘risini aytmasangiz hammangizni o‘limga buyuraman.

Jallod! (*chapak chalib*)

Vazir: Bir qoshiq qonimizdan keching olampanoh, so‘rovingizni do‘stingiz Alisherdan so‘rab bildik.

H.B: –Shu gap rostmi, do‘stim Alisher?

Alisher: Ha, olampanoh, javobimni ular 40000 tanga bilan siyladilar.

H.B. – Ofarin, sizlarga. Men Alisherga 2000 tanga bersam, sizlar bir og‘iz so‘zi uchun 40000 tanga beribsizlar-da. Dos‘tim bu kun sizlarga bir saboq bermish. Umid qiladurmanki, bu saboq sizlarga to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatur.

Alisher Navoiy 1501-yili 3-yanvarda xastalikdan so‘ng vafot etadi. Butun xalq shohdan gadogacha, olimdan cho‘pongacha, shoirdan dehqongacha ulug‘ farzandining o‘limiga qayg‘u va iztirob bilan motam tutadi.

G‘azal mulkining sultoni shoir va buyuk mutafakkir, olim, adolatli davlat arbobi Navoiyning ruhi mangu barhayotdir.

Aziz ustozlar! Hurmatli mehmonlar va tengdoshlar. Bugun biz Navoiy ijodi va hayotidan ba‘zi bir lavhalarnigina tilga oldik. Ularning hayot va ijodlari haqida sizlarga ozgina bo‘lsada saboq bera olgan bo‘lsak, juda baxtiyor bo‘lar edik.

18-mavzu: “Beshikdan to qabrgacha ilm izla!”

Boshlovchi: Assalom dermiz yurakdan
Avvalo, xush keldingiz,
Izlaringiz gardi ko‘zga
To‘tiyo, xush keldingiz.
Bu ko‘ngil ko‘zqusini
Qo‘ymay g‘ubori zarraga
Qalbingiz olgay yana
Nur ziyo, xush keldingiz.

Aziz ustozlar, do‘stlar, o‘quvchilar tomonidan “Beshikdan to qabirgacha ilim izla” deb nomlangan tadbir kechasini ochiq deb e‘lon qilamiz.

She‘r

Ilm aql chirog‘i,
O‘qi! O‘qi! O‘qigil, – deb
Jarangladi bir sado.
Bu sadodan saboq oldi
Butun olam – yer, fazo.
Beshikdan to qabrgacha
O‘qimoqlik ekan farz,
Bu kalomga amal qilmoq
Har kishiga ekan farz.

1-boshlovchi:

O‘zbek xalqi o‘zining yaratgan ko‘pdan-ko‘p rivoyat, hikmat, hikoyalarda ilmni va ilm egalarini, aqlini va aql egalarini yuksak darajada madh etadi. Ularning hayotidagi yutuqlarini ko‘rsatadi, ilmsizlik, johillik, aqlsizlik, farosatsizlik, nodonlikni qoralaydi, bularning xunuk oqibatlarini tasvirlaydi va kishini ilm olishga, bu yo‘lda uchraydigan har qanday qiyinchiliklarga bardosh berishga da‘vat etadi. “Ilm – aql

chirog‘i”, “Ilm baxt keltirar, bilim taxt keltirar”, “O‘qigan o‘g‘il otadan ulug‘”, “Olim bo‘lsang, olam seniki” kabi yillar sinovidan o‘tgan xalq hikmatlari bejizga yaratilmagan.

2-boshlovchi:

Hikoya

Ey, o‘g‘il-qizlar! Odam bolasi uchun ilm o‘rganish vaqti beshikdan qabrga kirgunchadir. Ilm shunday zarur bir narsadirki, yer yuzida ilmsiz yashamoq mashaqqatdir. Ba‘zi bir bolalarga o‘xshab endi harf tanigan vaqtingizda aziz umringizni bekor narsalarga insof qilib, so‘ng pushaymon bo‘lishingizdan foyda yo‘q.

O‘zingizga ham ma‘lumki, ba‘zi odamlar ulg‘ayganlarida ilm qadrini bilishib, har qancha afsus qilsalar ham foydasi bo‘lmas. Ilm olmoq uchun yoshlik vaqti eng munosib vaqtdir. Yoshlikda olingan bilim, toshga o‘yilgan naqishdirki, aslo yo‘q bo‘lmas. Sizlar bu aziz kunlarni g‘animat bilib, qo‘ldan boy bermasligimiz lozim. Yoshlik payti umrda bir marotaba keladi va bu vaqt uzoq turmasdan qushdek uchib o‘tar. Ey, bolajonlar! Bu hikmat va g‘ayrat foydasini ko‘rmog‘ingiz aniq.

Raqs: “O‘zbekim”.

1-boshlovchi: “Odamzot naslining ulug‘ligi bilimdan”. U aql-idrok tufayli ne tugunlarni echishga qodir. Aql-idrok, bilim egasi bo‘lgan har qanday odam sharaflidir.

Bilim haqida aytilgan fikrlarga quloq tutilsa, ularda shunday hikmat mavjud: “Bilimdonga balo yo‘q”, “Bilimga intilmagan kishi xor-u zor bo‘lib o‘tadi”.

2-boshlovchi: Qizlar mushoira tariqasida she‘r o‘qiydilar.

Qizlar: she‘r mushoirasi.

1-boshlovchi: Bilim – misoli bir jilov, u barcha yomon, yaramas ishlardan tiyib turadi. Bilim egasi o‘z tilaklarini topadi, orzu-

niyatlariga erishadi.

Barcha murakkab ishlar bilim bilan hal etiladi. Bilimli kishi o‘z bilimi tufayli balo-qazolardan omon qoladi.

Sahna ko‘rinishi: “Ilm sehri”

1-boshlovchi:

Ilmga chanqoqlik kutobxonlik samarasi bo‘lib, buning namunasi bo‘lmish, o‘z ilm-u amallari bilan yer yuzida dong taratgan va o‘zbek xalqining nomini shon-sharafga burkagan mashhur daholar Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Beruniy, Ahmad Yassaviy, Al-Buxoriy, Bobur, Mashrab kabi allomai davronlarini sanab, sanog‘iga yetolmaymiz.

Raqs.

2-boshlovchi: Hozir o‘quvchilarimiz ilm haqida maqollar aytib berishadi.

Maqollar musobaqasi

1. Bilim va hunar – insonning doimiy hamrohlaridir.
2. Yoshlikda o‘rgansang hunar, hayot aytganga ko‘nar.
3. Hayot qorong‘uligini ilm yoritadi.
4. Ilm bilan bilim topishganda, insonni bezaydi.
5. Ilmdan jaholat qo‘rqadi.
6. Insonni bilimi bilan odob bezaydi.
7. Hayot mangu maktabdir.
8. Ilm – aql chirog‘i, bilim – aql qaymog‘i.
9. Ilmni kitobdan, bilimni hayotdan o‘rgan.
10. Avval bil, keyin qil.
11. Baxt begisi – bilim.

12. Bilim baxt keltiradi.
13. Avval o‘rgan keyin o‘rgat.
14. Go‘zallik – ilm-u ma‘rifatda.
15. Bilimli – olim, bilimsiz zolim.
16. Ilmlining so‘zi o‘q, ilmsizning so‘zi yo‘q.

1-boshlovchi: Navbat she‘rga.

Kitob

Har ko‘ngilning orzusi shul erur obihayot,
 Qadrini bilgan kishiga, shubhasiz jondir kitob.
 Har murodning boshidur, har muddaoning gavhari,
 Har narsalarning shifosi, ya‘ni luqmondir kitob.
 Ko‘zning nuri, dil huzuri, dillarning darmonidir.
 Har qorong‘u dilga go‘yo moxitobondir kitob.
 Har balodan asraguvchi muhim qiymat yarog‘,
 Tiyri vaxshar, xanjari zillatga qalqondir kitob.

2-boshlovchi:

Bilim, – deydi Yusuf Xos Xojib, – misoli bir jilov. U barcha yomon, yaramas ishlardan tiyib turadi. Bilim egasi o‘z tilaklarini topadi, orzu- maqsadlariga erishadi.

Aql-idrok egalarining nafi har doim ko‘pchilikka tegib turadi. Bilim egalari elda aziz bo‘ladi, hurmat qozonadi.

O‘quv qut beradi, bilim sharaf-shon,
 Shu ikkov tufayli ulug‘dir inson.

Raqs: “Ajdodlar ruhi”.

1-boshlovchi: Bilim – boylik axir, zavoldan yiroq,
 Uni ola bilmas qaroqchi biroq.

Ilm o‘z amali bilan qadr topadi. Bilimga amal qilmagan kishi yo‘ldan ozishi, noma’qul ishlarga qo‘l urishi muqarrar. Ilm-u amal egizdir, deydi xalqimiz, ilm oldingmi, unga amal qil. Bilimdon degan sharaflı nomga sazovor bo‘ldingmi, shunga muvofiq-u munosib ish tutishni ham o‘rgan. O‘z aql-u idroking ojizlik qilsa, o‘zingdan ilmlıroq, aqlıroq kishilarning nasixat-u maslahatlariga quloq solki, bularning ba’ri kelgusida mash’al bo‘lib, hayot yo‘lingi yoritgay.

Ashula: “Bu dunyoda hamma mehmon”.

2-boshlovchi: Shu bilan “Beshikdan to qabrgacha ilm izla” badiiy kechamiz nihoyasiga yetdi. E’tiboringlar uchun rahmat.

X O T I M A

Tarbiya davomida tarbiyalanuvchining qarashlari, hayotiy nuqtai-nazari asta-sekin tarkib topib boradi. U tarbiyalanuvchining hulq-atvori hamda tevarak-atrofdagi muhitning xilma-xil ta'sirlariga uning munosabatlarini belgilaydi. Shaxsning bu tutgan yo'li qancha aniq va izchil bo'lsa, tevarak-atrofdagi hayot sharoitlarining turlicha salbiy ta'siri shuncha kuchsiz bo'ladi.

Maktab sharoitida tarbiyaviy ishlar o'qituvchi-tarbiyachilar, sinf rahbarlari tomonidan amalga oshiriladi. Ular tarbiyani jamiyatning maqsadi hamda vazifalariga muvofiq ravishda tashkil etadilar. Boshlang'ich sinf o'quvchisining xatti-harakatidagi ayrim kamchiliklarni tuzatishga to'g'ri keladi. Bu kamchiliklar avvalgi tarbiya jarayonida, ko'pincha oilada tarkib topgan bo'ladi. O'qituvchi o'z harakatlarini va ota-onalarning harakatlarini bu kamchiliklarni bartaraf etishga qaratishi lozim. Odatda, buning uchun bolalarning oiladagi hayot sharoitlarini o'zgartirish, tarbiyalanuvchilarda noto'g'ri xatti-harakatni keltirib chiqaruvchi sabablarni mumkin qadar yo'qotish talab etiladi.

Shunday qilib, tarbiyalash, o'z-o'zini tarbiyalash va qayta tarbiyalash jarayonlari o'zaro mustahkam bog'langan bo'lib, inson shaxsini tarkib toptirishning bir butun jarayonida doimo bir-biriga ta'sir o'tkazadi.

Har bir ishning o'ziga xos, ma'lum qonun-qoidalari bo'lganidek, bola tarbiyasining ham o'ziga xos bir qator muhim qoidalari borki, ularga amal qilish tarbiya ishining samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Bu qoidalar tarbiyaviy ishlarning mazmuni va tashkil etilishini doimo yangilab turishni talab etadi. O'qituvchilar o'quvchilar tarbiyasini hayot bilan bog'lar ekanlar, ularga o'zlarida imon-e'tiqodni tarbiyalash imkonini beradilar.

Tarbiyaviy ishlar shunday tashkil qilinganda yoshlar jamiyat hayotiga faolroq jalb qilinadi, bu esa o'quvchi shaxsining, barkamol avlodning tarkib topishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. I.A.Karimov. O'zbekiston: o'z istiqloq va taraqqiyot yo'li. – T., “O'zbekiston”, 1992.
2. I.A.Karimov. O'zbekiston – kelajagi buyuk davlat. – T., “O'zbekiston”, 1992.
3. I.A.Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. – T., “O'zbekiston”, 1995.
4. Odob-axloqqa oid hadis namunalari. –T., “Fan”, 1970.
5. N.I.Boldirev. Sinf rahbari. – T., “O'qituvchi”, 1975.
6. Kaykovus. “Qobusnoma”. – T., “O'qituvchi”. 1986.
7. O.Bo'riyev. Oila va yangi an'analar. – T., “O'qituvchi”, 1988.
8. Oila etikasi va psixologiyasi (T.Maqsudov tahriri ostida). – T., “O'qituvchi”, 1991.
9. T.Javliyev. An'analar – hayot sabog'i. – T., “O'zbekiston”, 1992.
10. A.Avloniy. Turkiy Guliston yohud axloq. – T., “O'qituvchi”, 1992.
11. X.Uzoqov, E.G'oziev, A.Tojiev. Oila etikasi va psixologiyasi. – T., “O'qituvchi”, 1992.
12. J.Yo'ldoshev, S.Xasanov. “Avesto”da axloqiy-ta'limiy qarashlar. – T., “O'qituvchi ”, 1992.
13. M.Imomova. Farzand nihol, ota-ona –bog'bon. – T., “O'qituvchi”,1993.
14. I.Jo'rabekov. Yangi O'zbekiston – yangi qadamlar. – T., “O'zbekiston”, 1994.
15. A.J.Jo'raev. Tarbiyaviy darslarni o'tish. –T., “O'qituvchi”, 1994.
16. A.K.Munavvarov. Oila pedagogikasi. – T., “O'qituvchi”, 1994.
17. U.Mahkamov. Axloq-odob saboqlari. – T., “Fan”, 1994.

18. M.Xaydarov. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning mehnat tarbiyasida xalq an'analaridan foydalanish. – T., “Yozuvchi”, 1995.
19. O.To'raeva. Odobnoma. – T., “O'qituvchi”, 1995.
20. J.Yo'ldoshev. Ta'limimiz istiqloli yo'lida. – T., “Sharq”, 1996.
21. Z.Qo'ziev. Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish. – T., 1997.
22. M.Imomova. Oilada bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasi. – T., 1999.
23. J.Yo'ldoshev. O'quvchi ma'naviyatini shakllantirish. – T., «Sharq», 2000.
24. R.Mavlonova, O.To'raeva, K.Xoliqberdiev. Pedagogika. – T., “O'qituvchi”, 2002.

MUNDARIJA

Kirish	3
--------------	---

I bo'lim. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar

1.1. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar ning maqsad va vazifalari	4
1.2. Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar konsepsiyasi	7
1.3. Tarbiya maqsadini ishlab chiqish	8
1.4. Tarbiya tizimini ijtimoiylashtirish	13
1.5. Tarbiya tizimida pedagogik tizim	17
1.6. Tarbiya tizimida innovatsiya	25
1.7. Tarbiyaviy ishlar ning yo'nalishlari	43
1.8. Sinf dan va maktabdan tashqari ishlar ni tashkil qilishda ma'naviyat ishlar i bo'yicha direktor o'rinbosarining ish metodikasi	49
1.9. Sinf dan va maktabdan tashqari ishlar ni tashkil qilishda ma'naviyat ishlar i bo'yicha direktor o'rinbosarining shaxsiga bo'lgan talablar	58
1.10. Ma'naviyat ishlar i bo'yicha direktor o'rinbosari va o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish ish metodikasi	62
1.11. Iste'dodli bolalarni aniqlash va ular ni tarbiyalash ...	64

II bo'lim. Sinf rahbari ishini tashkil etish metodikasi

2.1. Sinf rahbari ishining maqsadi va vazifalari	81
2.2. Maktabdagi tarbiyaviy ishlar tizimida sinf rahbarining faoliyatini tashkil etish metodikasi	93
2.3. Sinf rahbari tarbiyaviy faoliyatining samaradorligini oshirish shart-sharoitlari	97
2.4. Sinf rahbarining o'quvchilarni o'rganish metodikasi ...	101

2.5. O'quvchilarni pedagogik kuzatish.	110
2.6. O'quvchilar bilim sifatini oshirish va sinfda intizomni mustahkamlash.	114
2.7. O'quvchilarda intizomlilikni tarbiyalashning usul va metodlari.	120
2.8. O'quvchilarning o'quv faoliyati samaradorligini oshirish borasida sinf rahbari olib boradigan ishlar	125
2.9. Maktab o'quvchilari shaxsini har tomonlama kamol topshirish.	127
2.10. Sinf rahbari ishini rejalashtirish va hisobga olish . . .	132

III bo'lim. Jamoada shaxsni tarbiyalash

3.1. Sinf jamoasini tashkil etish va uni tarbiyalash metodikasi.	140
3.2. Shaxsga jamoaviy-tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish	147
3.3. O'quvchilarni tarbiyalashda jamoaning roli.	151
3.4. Jamoada o'quvchilarni o'rtoqlik va do'stilik hissida tarbiyalash.	156
3.5. O'qituvchining o'quvchilar jamoasi bilan ishlash usullari.	170

IV bo'lim. Maktab, oila va jamoatchilik hamkorligi

4.1. Hamkorlik ishlarining mazmuni.	180
4.2. Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarda oila va mahalla hamkorligi.	187

V bo'lim. Oilada bola tarbiyasi

5.1. Shaxsning oila muhitda va jamiyatda shakllanishi . . .	191
5.2. Oilaning bola tarbiyasida xalq milliy an'analaridan foydalanish.	197

5.3. Oilada bola tarbiyasining o‘mi.	200
5.4. Tarbiya jarayonida o‘quvchilarga tejamkorlik tushunchalarini singdirish.	204
5.5. Ota-onalarga tarbiyaga oid bilim berish.	213
5.6. Oilaviy urf - odatlar, an’analar.	219

VI bo‘lim. Tarbiyaviy tadbirlar

1-mavzu: “Birinchi qo‘ng‘iroq – salom maktab” bayrami.	222
2-mavzu: “Vatanni sevmoq iymondandir”	229
3-mavzu: “Ustoz mehri”.	235
4-mavzu: “Ustoz otangdan ulug‘.	241
5-mavzu: “Amir Temur – fahrimiz, g‘ururimiz”.	246
6-mavzu: “Mehrjon” bayrami.	250
7-mavzu: “Konstitutsiya kuni”	254
8-mavzu: “Yangi yil archasi” bayrami.	264
9-mavzu: “Savodxonlik bayrami”	273
10-mavzu: “Vatan – sajdagoh kabi muqaddas”.	284
11-mavzu: “Mardlar qo‘riqlaydi Vatanni”	288
12-mavzu: “Kitob – bizning do‘stimiz “.	294
13-mavzu: “Bahor va gul bayrami”	298
14-mavzu: “Onajonim, sizga ta’zim”	302
15-mavzu: “Navro‘zi olam”	310
16-mavzu: “Sog‘lom avlod orzulari”	315
17-mavzu: “Alisher Navoiy – betakror siymo”	320
18-mavzu: “Beshikdan to qabrgacha ilm izla”	325
Xotima.	330
Adabiyotlar ro‘yxati.	331

R. Mavlonova, B. Normurodova, N. Rahmonqulova

TARBIYAVAY ISHLAR

METODIKASI

O'quv qo'llanma

Bosh muharrir:	M.Saparov
Muharrir:	Z.Mirzahakimova
Musahhah:	F. Hamroev
Rassom:	A.Jumaniyozov

«Tib-kitob» nashriyoti

Toshkent sh. Shiroq ko'chasi 100 uy.

Bosishga ruxsat etildi: 04.10.2010 y. Bichimi 60x84¹/₁₆.
Shartli bosma tabog'i 21,0. Adadi 500 dona Buyurtma №09/06.

«BBSH-PRESS» MChJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent sh. Yunusobod 9-13-54



**Mavlonova Raxima
Abdurazzoqovna.**

1930 yil 6 noyabrda Toshkent shahrida tavallud topgan.

1958 yil Toshkent davlat pedagogika instituti Pedagogika-psixologiya fakultetini imtiyozli diplom bilan tugatgan. Pedagogika fanlari doktori, professor. 350 bosma taboqdan ortiq maqola va kitoblari chop etilgan. Maktab va oliy ta'lim muassasalari uchun darsliklar yaratishda ulkan xizmatlar qilgan.

1974 yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatan o'qituvchi" unvoni va 2002 yilda "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangan.

